


*O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI*  
**OLY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

Namangan davlat universiteti

*X.M.Akramov*

# **Kasbiy pedagogika**

(ma`ruzalar matni)



Namangan – 2014 y.

**Kasbiy pedagogika** (ma`ruzalar matni)  
Nam DU Namangan 2014 y

Ma`ruzalar matni 5111000-Kasb ta'limi yo`nalishi bo`yicha talabalar uchun

Ma`ruza matni sarlavha, reja, asosiy matn, nazorat uchun savollar, tayanch iboralar va foydalanilgan adabiyotlardan tashkil topgan. Asosiy ma`nda talabalar o`zlashtirishi lozim bo`lgan zaruriy ma'lumotlar berilgan bo`lib, ularni mehnat ta'limi o`qitish uslubiyoti fani asosilarini o`rganishlarida nazariy jihatdan yordam ko`rsatadi.

Mualliflar: dots. X.M.Akramov

Taqrizchi: NamMPI p.f.n. dos. I.Raximov.  
NamDU f-m.f.n. dos I.Uluxanov

«*Kasbiy tahlim pedagogikasi*» fanidan ma`ruzalar matni NamDU umumtexnika fanlari va kasb tahlimi kafedrasining 2014 yil 26 avgust majlisida muhokama qilingan. Bayonnoma № 1

Kafedra mudiri, dots. X.M.Akramov

## **MUNDARIJA**

<b>№</b>	<b>Mavzular nomi</b>	<b>betlar</b>
1	Kasbiy pedagogika fanining pedagogik fanlar tizimidagi o`rni	6
2	4-Kasb ta`limi pedagogikasida asosiy tushunchalar.	12
3	4-Kasbiy ta`lim qonuniyatlari	22
4	2-Kasb ta`limi jarayoni.	30
5	Kasbiy ta`limda o`qituvchi va o`quvchi shaxsi faoliyatini uyg`unlashtirish texnologiyalari	37
6	3-Mustaqil O`zbekiston Respublikasi milliy istiqloq mafkurasi va umuminsoniy xislatlar	43
7	Pedagogik tadqiqot funktsiyalari va metodlari	52
8	13-Kasb ta`limi mazmuni Ta`lim mazmunini tanlash printsiplari	59
9	Kasbiy ta`lim metodlari	66
10	Kasbiy ta`limning tashkiliy shakllari	74
11	Kasb ta`limida o`qitish vositalari va ularning qo`llanishi.	65
12	Kasb ta`limini tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish	71
13	Bilimlarning ko`nikma va malakaga aylanish jarayoni	75
14	5-Kasbiy ta`lim o`qituvchilarini tayyorlashning yangi pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni o`quv-tarbiyaviy jarayonga tadbiq etish muammolari	84
15	Kasbiy ko`nikma hamda malakalarni rivojlantirish texnologiyasining ilmiy-pedagogik asoslari	90
16	Umumehnat va kasbiy ko`nikma hamda malakalarni rivojlantirish pedagogik texnologiyalari samaradorligini aniqlashning tajriba-sinov ishlari	96
17	6-Kasb ta`limi pedagog kadrlarini tayyorlash va ular malakasini oshirish.	107
18	Universitet ma`lumotlariga ega bo`lgan mutaxassis xodimlarni tayyorlashning pedagogik kontseptsiyasi.	110
	Jami 36 soat	113

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlashi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni dolzarb vazifa qilib qo'ydi. Bu muhim vazifani hal etishda kadrlar tayyorlash milliy modelining muhim tarkibiy qismi – yangi tipdagi o'quv muassasasi bo'lgan kasb-hunar kollejlari alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini yangi tipdagi ta'lim muassasi sifatidagi rivoji, pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Bu masalalarni hal etishda kasb-hunar kollejlari ishlab chiqarish ta'limini tashkil etish, ta'lim metodlarini tanlash va yangilarini ishlab chiqish davr talabi bo'lib qolmoqda.

Kasb-hunar kollejlari tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beruvchi o'quv muassasasi bo'lib, u o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni beradi.

Kasb-hunar kollejlarning o'quv jarayoni ishlab chiqarish ta'limi, tarbiyaviy soatlar, darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlaridan iborat bo'lib, ularning yahlit pedagogik jarayon sifatida takomillashtirilishi amaliy tajriba-sinov ishlari natijalariga ko'ra belgilanadi.

Bu jarayon kasb-hunar kollejlari tegishli yo'nalishdagi mutaxassislik fanlarini o'qitish va ishlab chiqarish ta'limi (mutaxassislik fanlari bo'yicha laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar, mashinalarni boshqarishga o'rgatish, o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti) ni yuqori metodik saviyada o'tish orqali amalga oshiriladi. Mashg'ulotlarning qayd etilgan tashkiliy shakllari o'quvchilarni tanlagan mutaxassisliklari bo'yicha amaliy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasb-hunar kollejlari amalga oshiriladigan kasbiy ta'lim natijasida nazariy bilim, ko'nikma va malakalar tizimi shakllantiriladi, ishlab chiqarish ta'limi jarayonida esa o'quvchilar asosan amaliy kasbiy ko'nikma va malakalarni egallaydilar. Bu ikkala mushtarak jarayon mahsuli sifatida muayyan kasb va malakaga ega bo'lgan kichik mutaxassisni tayyorlash ta'minlanadi.

Zamonaviy mutaxassis o'z kasbiy faoliyati sohasidagi yangiliklarni egallab borishi, istiqboldagi taraqqiyot yo'nalishlari hamda yuzaga keluvchi muammolarni echish yo'llarini ko'ra bilishi lozim. Bunday talablar darajasidagi mutaxassisni tarbiyalash uchun kasb-hunar kollejlari ishlab chiqarish ta'limini amalga oshirishning samarali shakllari, faol metodlari hamda zamonaviy vositalari majmuasini ishlab chiqish hamda ilmiy-metodik jihatdan asoslash lozim bo'ladi.

Kasb-hunar kollejlari malakali kichik mutaxassis tayyorlash ishlari quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- mutaxassislik bo'yicha davlat ta'lim standartida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilganligi;
- ta'lim mazmunida ko'zlangan ta'lim-tarbiya maqsadi va vazifalariga mos kelishi;
- malakali kichik mutaxassis tayyorlash jarayonining barcha tarkibiy qismlari (nazariy mashg'ulotlar, laboratoriya-amaliy mashg'ulotlar, ishlab chiqarish amaliyoti) o'zaro bog'liq holda uzviy tashkillashtirilishi;
- kasbiy ta'lim berish mazmunining fan, texnika va texnologiya taraqqiyoti darajasi talablariga javob berishi.

Bu talablarni bajarishda ishlab chiqarish ta'limining o'rni beqiyosdir. Chunki ishlab chiqarish ta'limining asosiy vazifasi - bo'lajak malakali kichik mutaxassislarni muayyan mutaxassislik sohasida amaliy faoliyat ko'rsatishga tayyorlashdan iborat. U esa o'z navbatida nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiriq etishga o'rgatish, zarur bo'lgan kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, o'z mutaxassisliklari uchun xos bo'lgan ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish, tayyorlash, amalga oshirish, nazorat qilish va xizmat ko'rsatishga o'rgatishdan iborat.

Ishlab chiqarish ta'limi deganda birorta kasb yoki mutaxassislik bo'yicha amaliy o'qitish tushuniladi. Lekin, hozirgi kunda bu atama bir tomonlama bo'lib, kasb-hunar kollejlarda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaning nazariy va amaliy jihatlarini qamrab oladi.

Ishlab chiqarish ta'limi jarayonida mutaxassisliklar bo'yicha kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun ma'lum texnologik, tashkiliy-iqtisodiy, nazariy, texnikaviy bilimlar beriladi. U o'z mohiyatiga ko'ra nazariy ta'lim va amaliy mehnat jarayonlarining sintezidir. Bu holat unga har tomonlama majmuaviy yondoshuvni talab etadi.

Qar qanday ta'lim jarayoni o'zaro bir-birini taqozo etuvchi o'qitish – o'qish faoliyatini ko'zda tutadi. Bunda, maxsus ixtisoslik fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilishda o'quvchi faoliyati ikki tomonlama xarakterga ega, ya'ni nazariy bilimlarni o'zlashtirish hamda ularni qo'llashning amaliy ko'nikma hamda malakalarini o'zlashtirish. Ular ta'lim jarayonida birlashadi va bir butun pedagogik jarayonni tashkil etadi. Ushbu xususiyat ta'lim berish jarayoni va metodlariga ham taaluqlidir.

Ishlab chiqarish ta'limi uzoq tarixga ega ta'lim berish turi bo'lib, uzoq davrlar mobaynida u bevosita mahsulot ishlab chiqarish jarayonida amalga oshirib kelingan. Yirik sanoat korxonalarini va rivojlangan qishloq xo'jaligining paydo bo'lishi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni talab qiladi, bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish ta'limini o'qitish jarayonini alohida ta'lim turi sifatida tashkillashtirilishiga olib keldi.

Kasb-hunar kollejlarda o'qitish jarayoni mustaqil va o'zaro bog'langan nazariy va amaliy qismlarga bo'linadi. Amaliy mashg'ulotni yuqori metodik saviyada o'tish uchun maxsus fanlarning nazariy qismi talab darajasida o'qitilishi lozim. Ma'lum sohada kichik mutaxassis tayyorlashda o'quvchilarning ishlab chiqarish mehnatiga oid nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish muhim masalalardan biridir.

Respublikamizda bozor munosabatlari o'tish sharoitida tobora keng ko'lam olayotgan yangi texnika va ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish davr talabi bo'lib qolmoqda. Bundan kelib chiqqan holda bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari uchun zamonaviy talablar darajasiga o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratish talabalarning kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur qo'llanma ham bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining ishlab chiqarish ta'limi metodikasi borasidagi nazariy bilimlarini puxta egallashlariga ko'maklashish, amaliy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga puxta zamin tayyorlashga qaratilgan.

SHuningdek qo'llanma oliy ta'lim muassasalari hamda kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari, soha tadqiqotchilari, aspirant va doktorantlar uchun qiziqarli manba bo'lib qoladi deb ishonamiz.

# Ma'ruza-1. «Kasbiy pedagogika fanining pedagogik fanlar tizimidagi o'rnini»

## 1.1. Trening mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi

<i>O'quv soati: 2 soat</i>	<i>Tinglovchilar soni: 22 ta</i>
<i>O'quv mashg'uloti shakli</i>	Axborotli ma'ruza
<p><i>Mashg'ulot</i></p> <div style="border: 1px solid black; background-color: #d4edda; padding: 5px; width: fit-content; margin: 10px auto;"> <p><b>R e j a s i:</b></p> </div>	<div style="border: 1px solid black; background-color: #d4edda; padding: 5px; margin-bottom: 5px;">Pedagogika kasbiy ta'lim fanining tarmoqlari</div> <div style="border: 1px solid black; background-color: #d4edda; padding: 5px; margin-bottom: 5px;">O'zbekiston Respublikasida kasb ta'limi islohoti</div> <div style="border: 1px solid black; background-color: #d4edda; padding: 5px; margin-bottom: 5px;">Kadrlar tayyorlash jarayonidagi kasbiy-malakaviy o'zgarishlar</div> <div style="border: 1px solid black; background-color: #d4edda; padding: 5px;">Kasbiy ta'lim vazifalari</div>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Tinglovchilarda mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalarni kengaytirish va chuqurlashtirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> <i>tinglovchilar biladilar:</i>
ma'ruza- Pedagogika kasbiy ta'lim fanining tarmoqlari haqida ma'lumot berish; O'zbekiston Respublikasida kasb ta'limi islohoti bilan tanishtirish Kadrlar tayyorlash jarayonidagi kasbiy-malakaviy o'zgarishlar bilan tanishtirish Kasbiy ta'lim vazifalari bilan tanishtirish	Pedagogika kasbiy ta'lim fanining tarmoqlari haqida ma'lumot berish O'zbekiston Respublikasida kasb ta'limi islohoti Kadrlar tayyorlash jarayonidagi kasbiy-malakaviy o'zgarishlar Kasbiy ta'lim vazifalari
<i>Ta'lim usullari</i>	Ma'ruza, tezkor so'rov, namoyish etish, suhbat
<i>Ta'lim vositalari</i>	Tayanch matn, slaydlar
<i>O'qitish shakllari</i>	Ommaviy
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	kuzatish

### Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.:O'zbekiston. 1997.
2. Olimov Q.T. Kasb ta'limi uslubiyati. O'quv qo'llanma. – T.: 2006. 164 b.

**“Ma`ruza mashg`ulotlarida innovatsion ta`lim texnologiyasini loyihalashtirish va rejalashtirish**

<b>F a o l i y a t m a z m u n i</b>	
<i>O`qituvchi</i>	<i>tinglovchi</i>
Mavzuni aniqlaydi, maqsadni belgilaydi va o`quv natijalarini rejalashtiradi. Mavzu bo`yicha ko`rgazmali materiallar tayyorlaydi.	Mashg`ulotga tayyorlanadilar

**qoidalari” bo`yicha ta`lim texnologiyasi**

**I. Tayyorgarlik bosqich**

**II. Amalga oshiruvchi bosqich- ma`ruza**

<b>F a o l i y a t m a z m u n i</b>	
<i>O`qituvchi</i>	<i>tinglovchi</i>
<p><b>1. Ma`ruzaga kirish.</b></p> <p>1.1. Maqsad va rejalashtirilgan o`quv natijalari bilan tanishtirish.</p> <p>1.2. Ma`ruza rejasi bilan tanishtiradi.</p> <p>1.3. Tinglovchilarga tezkor savol berib bilimlarini faollashtiradi: Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy siyosati talablari qanday?” SHunday bo`lsa asoslab bering.</p> <p>1.4. Javoblarni birgalikda umumlashtiradi va asosiy ma`ruza mavzusiga o`tadi.</p>	<p>Diqqat qiladilar va yozib oladilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar.</p>
<p><b>2. Asosiy qism.</b></p> <p>2.1. Faollashtirilgan bilimlar asosida tinglovchilarni mashg`ulot mavzusiga olib kiradi.</p> <p>2.2. Slaydlar yordamida mavzu mohiyatini reja asosida yoritadi.</p> <p>2.3. Ma`ruzani davom ettirishdan avval tinglovchilarga “Tezkor so`rov” texnikasini qo`llagan holda quyidagi savolga javob berishlarini so`raydi: O`zbekiston Respublikasida kasb ta`limi islohoti nimalarga bog`liq?</p> <p>2.4. Javoblarni qabul qiladi va ularni umumlashtiradi.</p> <p>2.5. Rejaning ikkinchi savolini - Dars rejasiniig namunaviy shakli yoritishdan avval tezkor savol orqali murojaat qiladi: “Kadrlar tayyorlash jarayonidagi kasbiy-malakaviy o`zgarishlarga qo`yiladigan talablar?” -----</p> <p>2.6. Javoblarni qabul qiladi va ularga slayd materiali orqali qo`shimcha ma`lumotlar beradi.</p> <p>2.7. Rejaning uchinchi va to`rtinch savolini o`qituvch misollar asosida yoritadi.</p>	<p>Savollarga javob beradilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar .</p> <p>Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar</p>

**III. Yakuniy bosqich**

<b>F a o l i y a t m a z m u n i</b>	
<i>O`qituvchi</i>	<i>tinglovchi</i>
<p><b>Ma`ruzani yakunlash:</b></p> <p>Ma`ruza mashg`uloti mavzusi mazmuni bo`yicha yakun yasaydi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma`ruza yuzasidan savollarga javob beradi;</li> <li>• ma`ruza yuzasidan amaliy ishlar bajarilishini va mavzu yanada mustahkamlanishini aytadi;</li> </ul>	<p>Savollar beradilar, baholar bilan tanishadilar</p>

- |  |  |
|--|--|
| <ul style="list-style-type: none"> <li>• tinglovchilarni tayyorgarligi, ularni savol javobda faolligini baholaydi;</li> <li>• ma`ruza natijaviyligining umumiy bahosini beradi;</li> </ul> |  |
|--|--|

**1.1. Pedagogika kasbiy ta`lim fanining tarmoqlari:** maktabgacha tarbiya pedagogikasi, umumiy pedagogika, pedagogika tarixi, maxsus pedagogika, harbiy pedagogika, kasbiy ta`lim pedagogikasi, ijtimoiy pedagogika, axloq tuzatish, davolash pedagogikasi, solishtirma qiyosiy pedagogika, fanlarni o`qitish metodikasi, hamkorlik pedagogikasi, madaniy-oqartuv pedagogikasi – ma`aviy-ma`rifiy ishlar, injenerlik pedagogikasi, oliy ta`lim pedagogikasi, boshqaruv pedagogikasi, yangi pedagogik ta`lim.

Pedagogika amaliyotning istiqbollarni bashorat qilish va amaliyotga joriy etish uchun pedagogika fani tizimidagi fanlarning o`qitilishi holatini chuqur taxlil qilish zarur. Quyida pedagogika tarmoqlarining ayrim xususiyatlari haqida qisqacha to`xtalib o`tishni zarur deb hisobladik. Bular pedagogikaga oid kitoblarda atroflicha berilgan. Biz esa o`qituvchiga eslatish maqsadida fikr yuritishga harakat qilamiz.

**Umumiy pedagogika** – maktab yoshidagi o`quvchilarni tarbiyalash va o`qitish haqida baxs yuritadigan fan.

Milliy ta`lim-tarbiyani aks ettiruvchi, davr talablarini o`zida singdirgan pedagogika fanlari (nazariyasi) bo`yicha o`quv darsliklari, xrestomatik adabiyotlar yaratish zarur. Hozirgi kunda Respublikada 100 ga yaqin pedagogika fanlari doktorlari, profesoerlar faoliyat ko`rsatmoqdalar, ana shularning kuchiga tayangan holda, umumiy pedagogika muammolarini tahlil qilib, eng muhimlarini echish zarur.

**Maktabgacha tarbiya pedagogikasi** - maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash muammolari bilan shug`ullanuvchi fan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tushuncha, tafakkur, dunyoqarashlarini shakllantiruvchi, ularni fikrlashga o`rgatuvchi, dasrliklarni, qo`llanmalarni yaratib, amaliyotga tadbiiq etish muhim pedagogik vazifadir? Buning uchun bolalarning xususiyati (yosh xususiyati, bilim darajasi, qiziqishi ijtimoiy muhiti)ni yaxshi anglash zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ikki guruhga bo`linadi.

YAsli davri: 1-3 yosh; maktabgacha davr: 3-7 yosh.

Bolaning o`shishi: har yili bo`yi 6 smga, og`irligi esa Rq 1-2kgga o`sadi. Ammo bu o`shish oilaviy sharoit, muhitga bog`liqligini unutmaslik zarur.

V.A.Suxomlinskiy yozadi: «Odam ikki marta tug`iladi»: birinchi marta tirik jon, ikkinchi marta fuqaro va faol fikr yurituvchi, harakat qiluvchi, mustaqil shaxs dunyoga keladi.

Insonni aqliy qobiliyati umumiy rivojlanishining teng yarmi dastlabki 3-4 yoshida, 30 foizi 4-8 yoshlik davrida, qolgan 20 foizi esa 8-17 yoshlarida ro`y beradi.

K.D.Ushinskiy fikricha, 6 yoshli bolaning bir oy davomidagi jismoniy va aqliy kamoloti 10 yashar bolaning bir yillik o`shisidan ustun turadi.

5 yoshdagi bolada paydo bo`lgan biron bir hissiyotni u ko`pincha umrbod esidan chiqarmaydi. 7 yoshdagi odat 70 yoshida ham saqlanadi.

**Pedagogika tarixi** – o`tmish ajdodlarimizning ta`lim-tarbiya sohasidagi qarashlarini o`rganuvchi fan.

O`tmishda ta`lim-tarbiya qanday bo`lganligi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlarning o`zgarishi tufayli pedagogik g`oyalar, tarbiya ishlarining mazmuni, usullarining yangilanib borganligini, o`tmishda ijod etgan olimlar: Abu Nasr Farobiy, Ahmad Farg`oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug`bek, Maxmud Qoshg`ariy, YUsuf Xos Xojib, Umar Hayyom, Az-Zamahshariy va boshqa olimlarning pedagogik qarashlari, faoliyatlari natijasidan bilim olish mumkin.

Bugungi kun talabi asosida Avesto, Qur`oni Karim, Xodislarda aks etgan pedagogik g`oyalarni ilmiy-metodik jihatdan ochib berilmog`i zarur.

Eskini o`zlashtirgan va yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo`laoladi (Konfutsiy)



Ta`lim-tarbiya, pedagogika fani tarixini bilmasdan o`qituvchilik qilish mumkin emas.

Pedagogika fani tarixini yaratish zamon talabi.

**Maxsus pedagogika** – pedagogika faqat sog`lom o`quvchilarning ta`lim-tarbiyasi bilan emas, balki nogiron bolalar (kar, ko`r, aqli zaif) ta`lim-tarbiyasini ham o`rganadi. Bunday pedagogikani maxsus pedagogika deb ataladi:

Oligofreno pedagogikasi – aqliy jihatdan orqada qolgan bolalarga ta`lim-tarbiya beradi.

Tiflo pedagogika – ko`r bolalarni tarbiyalaydigan fan.

Surdo pedagogika – kar va soqov bolalarni tarbiyalaydigan fan.

**Harbiy pedagogika** – armiya sardorlari va askarlarini vatanimizning shon-sharafi va or nomusi uchun etuk kurashchi, zamonaviy harbiy qurol-yarog`lardan samarali foydalana oladigan yoshlarni tarbiyalaydigan fan. Bu sohani takomillashtirishda Amir Temur, Mirzo Ulug`bek hamda umumjahondagi ilg`or g`oyalardan unumli foydalanish lozim.

**Kasbiy pedagogika** – ta`lim-tarbiya oluvchilarga aniq yo`nalishdagi kasbiy ma`lumotlarni o`rgatuvchi fan.

**Ijtimoiy pedagogika** – bolalar va o`smirlarning maktabdan tashqari sharoitdagi ta`lim-tarbiyasiga oid masalalarni o`rganadigan fan.

Ijtimoiy munosabatlar chuqurlashib borayotgan bir sharoitda mazkur pedagogika asoslarini ham nazariy, ham amaliy jihatdan ishlab chiqish zarur. Bu esa, bolalarni bo`sh vaqtlaridan unumli foydalanishlariga imkon yaratadi.

**Axloq tuzatish – mehnat pedagogikasi** – huquqbuzarlik holatlariga yo`l qo`ygan, jazoni o`tash muassasalaridagi shaxslarni qayta tarbiyalashning nazariy hamda amaliy asoslari to`g`risida ma`lumot beruvchi fan.

Terrorizm va diniy ekstremizm, hududiy ayirmachilik, giyohvandlik muammolarining xalqaro maydonda o`sib borishi ularga qarshi kurashni talab etadi. Bunday sharoitda axloq tuzatish, mehnat pedagogikasi fani o`z vazifasini talab darajasida ado etishi zarur.

**Davolanish pedagogikasi** – jismoniy jihatdan nogiron bolalarni bevosita ijtimoiy faoliyatga tayyorlash asoslarini o`rgatuvchi fan.

Maxsus tayyorlangan mutaxassislar ishtirokida fan asoslarini, texnika va texnologiyaning rivoji nuqtai nazaridan yaratilishiga erishish maqsadga muvofiq.

**Solishtirma qiyosiy pedagogika** – jahon mamlakatlari ta`lim-tarbiya tizimlari asosini qiyosiy o`rganadi.

Rivojlangan xorijiy davlatlar ish tarjibasini o`rganib amaliyotga tadbiiq etish, ta`lim tizimining rivojlanishiga asos bo`ladi.

**Fanlarni o`qitish metodikasi** – har bir fanning mazmunini aniqlab, ketma-ketligini belgilab, tanlangan materiallarni o`rganishning shakl va metodlarini hal etadi. Masalan, fizika, kimyo, biologiya va h.k.

**Hamkorlik pedagogikasi** – bola tarbiyasi murakkab jarayon. U o`qituvchidan mas`uliyat, tinimsiz izlanishni talab qiladi. Biroq shunday omillar ham borki, ular ham bevosita bola kelajagini belgilash imkoniyatiga qodir. Bu omillardan biri oiladagi tarbiya bo`lsa, ikkinchisi tashqi muhit, ya`ni mahalla-kuy ta`siri.

Bola tarbiyasiga: maktab, oila, mahalladagi muhit kuchli ta`sir etadi.

Bola tarbiyasida ana shu uchta omil (muhit)ni mushtarak holda olib borilishi, bolaning kelajakda etuk va komil inson bo`lib voyaga etishishida etakchi ahamiyat kasb etadi.

**Oila muhiti.** Jamiyat qurilishining birinchi bosqichi oiladir. Oila a`zolarining o`zaro munosabatlari ijtimoiy muhitni belgilaydi. «Qush uyasida ko`rganini qiladi», degan xalq maqoli oila muhiti mohiyatini ifodalab beradi.

**Madaniy-oqartuv pedagogikasi** – ma`naviy-ma`rifiy ishlarni boshqarish muammolarini o`rganadi.

**Injenerlik pedagogikasi**, oliy o`quv yurtlari pedagogikasi; boshqaruv pedagogikasi ham mavjud.

Umumiy o`rta ta`limda ta`lim-tarbiyani yaxshilash uchun muhim pedagogik tadqiqot izlanishlarni amalga oshirish zarur.

**1.2. Pedagogik izlanishlar.** Pedagogika fani muammolarini hal etish uchun quyidagi savollarga javob izlashga to'g'ri keladi:

- Umumiy ta'lim nimani talab qiladi?
- O'quvchilarga yondashish va ularga ta'lim-tarbiya berish yo'llari qanday bo'lishi kerak?
- Pedagogik jarayon qanday bo'lishi lozim?
- Qachon o'qish oson bo'ladi?
- O'qitib tarbiyalash mumkinmi?
- Qanday qilib bolani erkin ijod qilishga o'rgatish mumkin?
- Ta'lim jarayonining tuzilishi qanday bo'lmog'i kerak?
- O'qituvchi kim, uning pozitsiyasi nimadan iborat?
- Darsga qo'yilgan talab va uni amalga oshirish yo'llari nimadan iborat?
- Hozirgi zamon darsi qanday bo'lishi kerak?
- Muomla san'ati qanday bo'lishi kerak?
- YOsh o'qituvchilarga amaliy yordam qandayo bo'lishi kerak?
- O'quvchilarda fuqarolikni qanday shakllantirish lozim?
- O'qituvchilar kasbiy mahoratini takomillashtirishning pedagogik usullari qanday bo'lishi kerak?
- Ilg'or pedagogik tajribalar o'rganilib, umumlashtirilib, amaliyotga joriy etilayaptimi?
- Ilg'or pedagogik tajribani belgilovchi mezon nima?
- Ta'lim jarayonida o'qituvchini o'rni qaerda bo'lmog'i zarur?

O'qituvchiga qanday talablar qo'yiladi?

Pedagogika fani tizimining rivojlanishida bu kabi muammolarga bo'linish quyidagilar bilan izohlanadi:

1. Uzluksiz ta'lim mazmunining takomillashuvi, yaratilayotgan o'quv manbalarining mazmun va sifat jihatdan yuksak daorajada bo'lishiga qo'yilayotgan talablar, maxsus tadqiqot ishlarning olib borilishini talab etadi.

2. Pedagogika fanlari ijtimoiy-madaniy hayot bilan bevosita bog'liq. SHu bois jamiyatda ijtimoiy-madaniy sohalarining barchasiga amalga oshirilayotgan islohotlarni ijobiy yakun toptirish pedagogika fani rivojini ta'minlaydi.

3. Bilimlarni o'rganish, metod va vositalarni ishlab chiqish, shaxs ta'lim-tarbiyasini amalga oshirishdagi imkoniyatlarni kuchaytiradi.

4. Ta'limiy xizmat ko'rsatish bozorini shakllantirish, uning sifatini oshirish, axborotli texnologiya imkoniyatlarini hamda masofadan o'qitishni ta'minlash.

5. ta'lim jarayonida uzluksiz ravishda mustaqil bilim olishni yo'lga qo'yish.

6. Fanlar mazmunini to'g'ri, to'liq va qiziqarli bo'lishi, uzviylikni ta'minlash.

**1.3. O'zbekiston Respublikasida kasb ta'limi islohoti.** Istiqloлга erishgan mamlakatimizda yuz berayotgan tub o'zgarishlar ta'lim mazmunini davr nuqtai nazaridan yangilashni taqozo etmoqda. Bunday yangilanish O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida amalga oshirilmoqda.

Jumladan, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida shakllantirilayotgan uzluksiz ta'lim tizimi doirasida kasb ta'limiga alohida o'rin berilishining samarasi sifatida kasb- hunar kollejlari va akademik litseylar tizimi shakllandi.

Bugungi kunda kasbiy pedagogika jahon miqyosida tan olingan eng ilg'or metodlar va yo'nalishlar bilan boyib bormoqda. Ayni vaqtda o'zining keng tadbiqini kutayotgan, fanning boshqa sohalarini bilan aloqadorlikda ishlab chiqilgan yangi kontseptsiya va nazariyalar rivojlantirilmoqda.

**1.4. Kadrlar tayyorlash jarayonidagi kasbiy-malakaviy o'zgarishlar.** Kasbiy ta'lim uzoq davr mobaynida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yo'naltirildi, biroq ushbu chora bitiruvchilarning kasbiy mahoratining shakllanish darajasini pasayishi hisobiga amalga oshirildi. Bu holat kasbiy mahorat va layoqatni oshirish, insonning butun umri davomida o'z bilimini takomillashtirib borishi hamda o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyojini oshirishga xizmat qilmas edi. Respublika xalq ta'limi tizimida olib borilayotgan islohotlar natijasida kasbiy ta'limni samarali tashkil etish, ishchi kasblariga maxsus tayyorlash, ta'lim oluvchi shaxsida kasbiy mahorat va layoqat sifatlarini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda.

Kasbiy mahorat deyilganda bitiruvchining yuqori darajada kasbiy ko`nikma va malakalarni egallaganligi tushuniladi, u shaxsning mehnat bozorida egallayotgan kasbi bo`yicha raqobatbardoshlik darajasi aks ettirishida namoyon bo`ladi. Kasbiy mahorat ishchi kuchlarining yuqori darajadagi moslashuvchanligi, yangiliklarni tez o`zlashtirishi, yangi ishlab chiqarish sharoitlariga oz vaqt ichida o`ta olishi va faoliyat sohasini mustaqil tanlay olishi kabi sifatlar bilan belgilanadi.

Kasbiy mahorat va layoqat shaxsning shunday sifatlaridirki, ular bo`lajak mutaxassisning hayotiy hamda mehnat muvofaqiyatlarini belgilab beradi. Mustaqil O`zbekiston Respublikasida ta`limni rivojlantirishning yangi bosqichida kasbiy pedagogika fanining asosi vazifasi jahon talablari darajasida yangilanib borayotgan ishlab chiqarish sharoitlariga moslasha oladigan, iqtisodiyotimizni buyuk davlat darajasiga ko`taradigan mutaxassislarni tayyorlash, ushbu jarayonda asosiy omil sifatida beriladigan axborotlar hajmini e`tirof etish emas, balki ularga nisbatan ijodiy yondoshuvni shakllantirish va mustaqil fikrlash kabi sifatlarini tarbiyalashdan iboratdir. SHu sababli bugungi kunda barcha fan sohalari, jumladan, kasb ta`limi bo`yicha yangi o`quv darsliklari, qo`llanma va tavsiyalarni yaratish muhim ahamiyatga ega bo`lmoqda. Bu o`rinda kasb ta`limiga bo`lgan e`tiborning ortib borayotganligini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- \* ta`lim islohotlari natijasida akadem litsey, kasb-hunar kollejlari va boshqa turdagi o`quv muassasalarining shakllantirishilishi va rivojlanishi;

- \* oliy o`quv yurtlarida kasb ta`limini o`qitilishning yo`lga qo`yilayotganligi, bu borada alohida fakul'tet va bo`limlarning tashkil etilishi;

- \* kasbiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan yanada jipsroq bog`lanib borishi, istiqbolda amalga oshirilishi ko`zda tutilgan bilim sohalari tutashuvida yangi kontsepsiya va nazariyalarning yuzaga kelishi;

- \* kasbiy ta`lim muassasalarining aholiga ta`lim xizmatlarini ko`rsatish borasidagi faoliyat turlarining ortib borishi, o`z bazasida tayyor mahsulot ishlab chiqarishning yo`lga qo`yilishi; mehnatni tashkil qilishning ilg`or shakllarini joriy etishi va boshqalar.

Ularning kasbiy pedagogika talabalar ta`limi, tarbiyasi, o`qishi hamda rivojlanishi qonuniyatlarini o`rganadi, ta`lim- tarbiya, pedagogik va axborot texnologiyalarini qo`llash mezonlarini ishlab chiqadi, kasb ta`limi muassasalari turlarini va ularni boshqarish tizimini asoslaydi. U pedagogik nazariyalar to`g`risidagi bilimlarni, innovatsion texnologiyalarni loyihalash uslublarini umumlashtiradi. Kasbiy pedagogika fani shaxsni kasbiy faoliyatga tayyorlash, yosh avlodni kasbiy tarbiyalash, malakali ishchi kuchining yangi talablar darajasida faoliyat yuritishini ta`minlashni ko`zda tutadi.

**1.5. Kasbiy ta`limni tashkil etish jarayoni.** Kasbiy pedagogika umumiy pedagogika faning tarmog`i sifatida kasbiy - texnik ta`lim tizimining takomillashishi jarayonida shakllanib boradi. U nisbatan yangi fan sohasi sanalib, bugungi kunda ko`plab tushuncha va ma`lumotlar bilan boyib, rivojlanib kelmoqda. Qar qanday fan sohasida bo`lgani kabi kasbiy pedagogika o`z kategoriya, tushuncha, va sifat ko`rsatkichlariga egaki, bular fanning asosini tashkil qiladi.

#### **1.6. Kasbiy ta`lim vazifalari:**

Kasbiy pedagogika fanining asosiy tushunchalari, uning mazmuni kasbiy ta`limni tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalarning bajarilishi uchun xizmat qiladi:

- \* o`qituvchilarning yangi, yanada murakkab tadbirlarni amalga oshirish maqsadida o`z kasbiy mahoratlarini oshirishlari uchun sharoit yaratish;

- \* kasbiy-texnik ta`limning yangi kontsepsiyalarini amalga oshirishning yangi yo`l va vositalarini yo`llarini yaratishga e`tibor qaratish, faol-ijodkor shaxsni tarbiyalash;

- \* pedagogik bilimlarni egallashga yangicha yondoshuvni yuzaga keltirish;

- \* ta`lim tarbiyaning yangi, yanada samarali shakl va metodlarini yaratish;

- \* rivojlanib boruvchi yangi pedagogik jarayonlarni loyihalash, ta`lim oluvchilarning barcha imkoniyatlari va qobiliyatlarini ishga solish uchun sharoit yaratish, kasbiy mahoratni egallashlari uchun sarflanadigan vaqtni qisqartirishga erishish.

## Ma'ruza-2. «Kasb ta'limi pedagogikasida asosiy tushunchalar»

### 1.1. Trening mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi

<i>O'quv soati: 2 soat</i>	<i>Tinglovchilar soni: 22 ta</i>
<i>O'quv mashg'uloti shakli</i>	Axborotli ma'ruza
<p><i>Mashg'ulo</i></p> <div style="border: 1px solid black; background-color: #d4c08e; padding: 5px; width: fit-content; margin: 10px auto;"> <p style="margin: 0;"><b>R e j a s i:</b></p> </div>	<div style="border: 1px solid black; background-color: #e0f7fa; padding: 5px; margin-bottom: 5px;"> <p style="margin: 0;"><b>Kasbiy ta'lim pedagogikasi fanining asosiy tushunchalari</b></p> </div> <div style="border: 1px solid black; background-color: #e0f7fa; padding: 5px; margin-bottom: 5px;"> <p style="margin: 0;"><b>Tarbiya tushunchalari</b></p> </div> <div style="border: 1px solid black; background-color: #e0f7fa; padding: 5px; margin-bottom: 5px;"> <p style="margin: 0;"><b>Kasbiy ta'lim pedagogikasi qonuniyatlari</b></p> </div> <div style="border: 1px solid black; background-color: #e0f7fa; padding: 5px;"> <p style="margin: 0;"><b>Bosqichli o'qitish nazariyasi</b></p> </div>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Tinglovchilarda mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalarni kengaytirish va chuqurlashtirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> ma'ruza- Kasbiy pedagogika fanining asosiy tushunchalari haqida ma'lumot berish; Tarbiya tushunchalaribilan tanishtirish Kasbiy pedagogika qonuniyatlaribilan tanishtirish Bosqichli o'qitish nazariyasi bilan tanishtirish	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> tinglovchilar biladilar: Kasbiy pedagogika fanining asosiy tushunchalari haqida ma'lumot berish Tarbiya tushunchalari Kasbiy pedagogika qonuniyatlari Bosqichli o'qitish nazariyasi
<i>Ta'lim usullari</i>	Ma'ruza, tezkor so'rov, namoyish etish, suhbat
<i>Ta'lim vositalari</i>	Tayanch matn, slaydlar
<i>O'qitish shakllari</i>	Ommaviy
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	kuzatish

#### Adabiyotlar

1. Pedagogika. /A.K.Munavvarovning umumiy tahriri ostida. -T.:O'qituvchi. 1996.
2. Olimov Q.T. Kasb ta'limi uslubiyati. O'quv qo'llanma. – T.: 2006. 164 b.

**“Ma`ruza mashg`ulotlarida innovatsion ta`lim texnologiyasini loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari” bo`yicha ta`lim texnologiyasi**

**I. Tayyorgarlik bosqich**

<b>F a o l i y a t m a z m u n i</b>	
<i>O`qituvchi</i>	<i>tinglovchi</i>
Mavzuni aniqlaydi, maqsadni belgilaydi va o`quv natijalarini rejalashtiradi. Mavzu bo`yicha ko`rgazmali materiallar tayyorlaydi.	Mashg`ulotga tayyorlanadilar

**II. Amalga oshiruvchi bosqich- ma`ruza**

<b>F a o l i y a t m a z m u n i</b>	
<i>O`qituvchi</i>	<i>tinglovchi</i>
<p><b>1. Ma`ruzaga kirish.</b></p> <p>1.1. Maqsad va rejalashtirilgan o`quv natijalari bilan tanishtirish.</p> <p>1.2. Ma`ruza rejasi bilan tanishtiradi.</p> <p>1.3. Tinglovchilarga tezkor savol berib bilimlarini faollashtiradi: Kasbiy pedagogika qonuniyatlari talablari qanday?” SHunday bo`lsa asoslab bering.</p> <p>1.4. Javoblarni birgalikda umumlashtiradi va asosiy ma`ruza mavzusiga o`tadi.</p>	<p>Diqqat qiladilar va yozib oladilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar.</p>
<p><b>2. Asosiy qism.</b></p> <p>2.1. Faollashtirilgan bilimlar asosida tinglovchilarni mashg`ulot mavzusiga olib kiradi.</p> <p>2.2. Slaydlar yordamida mavzu mohiyatini reja asosida yoritadi.</p> <p>2.3. Ma`ruzani davom ettirishdan avval tinglovchilarga “Tezkor so`rov” texnikasini qo`llagan holda quyidagi savolga javob berishlarini so`raydi: Kasbiy pedagogika fanining asosiy tushunchalarinimalarga bog`liq?</p> <p>2.4. Javoblarni qabul qiladi va ularni umumlashtiradi.</p> <p>2.5. Rejaning ikkinchi savolini - Dars rejasiniig namunaviy shakli yoritishdan avval tezkor savol orqali murojaat qiladi: “Tarbiya tushunchalariga qo`yiladigan talablar?” -----</p> <p>2.6. Javoblarni qabul qiladi va ularga slayd materiali orqali qo`shimcha ma`lumotlar beradi.</p> <p>2.7. Rejaning uchinchi va to`rtinch savolini o`qituvch misollar asosida yoritadi.</p>	<p>Savollarga javob beradilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar .</p> <p>Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar</p>

**III. Yakuniy bosqich**

<b>F a o l i y a t m a z m u n i</b>	
<i>O`qituvchi</i>	<i>tinglovchi</i>
<p><b>Ma`ruzani yakunlash:</b></p> <p>Ma`ruza mashg`uloti mavzusi mazmuni bo`yicha yakun yasaydi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma`ruza yuzasidan savollarga javob beradi;</li> <li>• ma`ruza yuzasidan amaliy ishlar bajarilishini va mavzu yanada mustahkamlanishini aytadi;</li> <li>• tinglovchilarni tayyorgarligi, ularni savol javobda faolligini baholaydi;</li> <li>• ma`ruza natijaviyligining umumiy bahosini beradi;</li> </ul>	<p>Savollar beradilar, baholar bilan tanishadilar</p>

**2.1. Kasbiy pedagogika fanining asosiy tushunchalari.** Mustaqillik sharoitida o`sb kelayotgan yosh avlodlar tarbiyasida umuminsoniy qadriyatlarni, umuminsoniy ijobiy xislatlarni rivojlantirishga oid g`oyalar O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida va nutqlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida o`z aksini, tasdig`ini topgan. O`zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tutgan o`z yo`li, tamoyillari tarbiya jarayonida hali avvalgi, keksa avlod oldida turmagan yangi masala va muammolarni echish uchun zarur bo`ladigan xislat va sifatlar shakllantirilishini taqozo etadi.

O`zbekistonda milliy mafkurasi shakllanib bormoqda. Pedagogika ilmidagi tushunchalar, ta`riflar milliy mafkuraga mos, umuminsoniylik ruhida tushuntirilmog`i maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Albatta ta`lim va tarbiyada umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy o`ziga xoslik nisbati, muvozanati alohida ahamiyatga ega.

YAna bir tomondan ta`lim nazariyasshsh, ta`lim-tarbiya mazmunini, shaklini va uslublaripnng asosiy jihatlari SHarqda ishlab - chiqarilib, Ovrupo orqali o`zgarib, rivojlanib yana SHarqqa qaytib kelganini va dunyo pedagogik jarayonini bir butunligini xisobga olinsa quida kstiriladigai tushuichalarda xususim milliylikdan ko`ra umuminsoniylik jixatlarining ko`pligi ko`zga tashlanib turadi.

Kasbiy ta`lim pedagogikasinpng muxim tushunchalariga to`xtalamiz.

**Ma`lumot** - o`kitish jarayoni va uning natijasi xisoblanib, o`quvchida bilim, iqtidor va ko`nikmalarning o`zlashtirilganligini, bilish qobiliyati o`sganligi va ular asosida ilmiy dunyokarash, shaxsiy sifatlar shakl-langanligini, ularning ijobiy kuchlari va qobiliyatlarining qay darajada rivojlanganligini anglatadi.

**Ta`lim** - ma`lum maqsadga io`naltirilgan, rejali ravishda amalga oshiriladigan «o`qituvchi - o`quvchi -o`qituvchi» muloqoti bo`lib, uning natijasida o`quvchida ma`lumot, tarbiya va umumiy shakllanish, rivojlanish amalga oshadi. Odamlarning ma`lumoti faqat ta`limninggina natijasi bo`lib qolmay, balki ota-ona va oila tarbiyasi o`z-o`zini tarbiyalash va ommaviy axborot vositalarining (kino, radio, zangorn ekran va hokazo) ta`-sirida amalga oshiriladi.

**Insonning rivojlanishi** -tashqi va ichki, boshqariluvchi va boshqarilshiga berilmaydigai omillar tomonidan shaxsning shakllaiish jarayonidir. Ularning tarkibida albatta, maqsadga ytsialtirilgai tarbnya asosiy rol o`ynaydn.

Maktabdagi o`qitish jarayonida ta`lim, tarbiya va ma`lumot o`zaro xmustahkam bog`lpk «ravishda amalga oshiriladi. O`qituvchi qaysi fanni o`kitishdan qat`i nazar, o`sb kelayotgan avlodga fan asoslarnpn o`rgatadi, bilimlarni bayon kiladi. SHu materiallarning mazmuniga qarab tarbiya masalalarzni xam hal qiladi, bolalarda ilmiy dunyokarashni tarkib toptiradi, madanny xulq-atvor ko`nikmalarini tarbpyalaydi, ularping ongi-ga ilg`or madannyatlipk printspplarini spngdirib boradi. Demak, ta`lim nazariyasining mavzu baxsi tarbiya va ta`lim masalalaridan tashkil topib, ularning xammasi bir vaqtda, bir jarayonda amalga "oshirib bori,ladi.

Inson shaxsining shakllanishida ma`lum maqsadga qaratilgan o`zi tushunib etib orzu qilgan (o`zi mustaqil tarbiyalay oladigan) fazilatlar, sifatlar" va xulqlarning shakllantirnlishi katta rol o`ynaydi.

**O`qitish - o`rgatish** - bolalarning maxsus tashkil etiladigan faol mustaqil, bilish - tanish, mehnat, estetik, jismoimy faoliyati bo`lib, tabiiy qobiliyatlarini va psixik jarayonlarini rivojlantirish, tajriba-lar, ko`nikmalar hamda bilimlarni egallash, o`zlashtirishga yo`naltirilgan faoliyatidir.

**Pedagogik faoliyat** - estetik, axloqiy, siyosiy, iqtisodiy maqsadlarga muvofiq ravishda yosh avlodpi hayotga tayyorlashning aqlan o`ylab ko`rilgan, katta yoshdagilarning ijtimoiy zarur bo`lgan mehnatining o`ziga xos turidir.

**Tarbiyaning ob`ektiv qonunlari** - o`quv - tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va ijtimoiy hayotnng shaxsni, uni o`ziga xosligi hamda sifatlarini shakllantirishdek talablaridagi turg`un bo`lgan an`analardir.

**Tarbiyaning asosiy qonuni** - o`sb borayotgan yosh avlodni katta yoshdagilar ijtimoiy tajribasining egasi qilish uchun, ularning ijtimoiy hayotga qo`shilishini ta`minlab berish uchun amalga oshiriladigan zaruriy va majburiy faoliyatdir. Jamiyatning hayotiyligini ta`minlash, alohida olingan bir

inson va har bir shaxsning mohiyatini tashkil etuvchi kuchlarning rivojlanishini, avlodlar orasidagi vorisligini amalga oshirish demakdir.

**Pedagogika printsiplari** - ijtimoiy munosabatlarning tekshirilgan amaliy va barqaror yo`nalishlarini o`zida aks ettiradigan nazariy umumlashtiruvchidir. SHuningdek, o`quv-tarbiyaviy jarayonni, bolalarning jismoniy» badii, ijodiy, mehnat va boshqa har qanday faoliyatiga pedagogik rahbarlikni tashkil etishga bog`liq bo`lgan qonuniy aloqalardir.

**Pedagogik tajriba** - o`qituvchi tomonidan pedagogikaning printsiplari va amaliy qonunlarini ijodiy va faol ravishda o`zlashtirish xamda real shart-sharoitlarni, bolalarning, bolalar jamoasiing, shaxsning o`ziga xosliklarini hisobga olgan holda amaliyotga tatbik etishidir.

**Pedagogik qarama-qarshiliklar** (kelishmovchiliklar)-pedagogika amaliyoti jarayonida vujudga keladigan eskirgan pedagogik ko`rsatmalar, qarashlar, kontseptsiyalar va pedagogik jarayoniing tarbiyaviy sama-radorligini pasaytiradigan, shaxsni shakllantirish tizimlari bilan vujudga kelgan nomuvofiqlikdir,

YAngi taraqqiy etib borayotgan, o`sib borayotgan yosh avlodga hayot talablarining murakkablashib borishi, umuman bu tarzida vujudga keladigan extiyoj ta`lim va tarbiyaning yangi mazmunga, shaklga ega bo`lgan uslublari bilangina qanoatlantirinishi mumkin.

**Tarbiyaniig maqsadi** - jamiyating alohida bir olingan shaxsga bo`lgan ehtiyojlarini aks ettirsh, unipg mohiyati, ideal talablarini, o`znga xosligi va fazilatlarini, xayotga munosabatining, akliy, jismoniy, axlokliy va estetik rivojlanishini nazariy umumlashtirishdir.

**SHaxsning har tomonlama kamolotga etishi** - ma`lum bir real tarixiy shart-sharoitlarda amalga oshirish mumkin bo`lgan Qobiliyatlar va iqtidorlarning, uning mohiyatini tashkil etadigan hamma kuchlarining to`liq, va batamom rivojlanishidir.

**Pedagogik jarayon** - ma`lum bir maqsadga yo`naltirilgan kattalarning pedagogik faoliyati ta`sirida tashkilpy shakllantirilgai va mazmunan boyitilgai hamda tarbiyachining yo`naltiruvchi va olib boruvchi rahbarlik roli -natijasida bolaning o`z-o`zi tarraqiy ettirishidir.

**Bolalarni tarbiyalovchi jamoa** - bir butun o`quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishning asosiy shakllaridan biri bo`lib, jamoaviy yuqori darajadagi axloqiy, estetik xamda ijtimoiy munosabatlarni tarbiyalaydigan, maxsus tashkil etilgan sistema, bolalar muhitida muloqot olib borishdir.

**Havaskorlik** - bolalarniig mustaqil, ixtiyoriy, o`z xohishiga ko`ra amalga oshiradigan ichki faoliyatidir.

**Tarbiyaviy muxit** - inson shaxsini shakllantnruvchi tabiat, ijtimoiy munosabatlarning sistemasi, ijtimoiy tafakkur, turmush va shaxslararo munosabatlarning doirasi kabi omillarping bir-birini boyitishi va muvofiq kelishidir.

**Pedagogik muxit** - pedagogik maqsadlarga muvofiq ravishda maxsus tuzilgan shaxslararo munosabatlar sistemasidir.

**Ichki muxit** - yuqorp darajadagi o`ziga xos asabiy faoliyatlarning, xarakterlar o`ziga xoslngining, hayotiy tajribaning, irsiy tafakkur ko`nikmalari tizimining hamda bola uchun, odatdagi ruhii xolatlarda o`zini namoyon etadigan ta`sirchanlik va xaqiqatga munosabatlar majmuasining o`zaro bir-birnga muvofpq keinski, bir-byrini to`ldirishi va boyitishidir,

**Irsiylik** - bolaning shakliy o`ziga xosliklariii belgilab beradigan anatomik, fiziologik, psixologik tashkiliy jnhatlarni, qobiliyatlarinn va iqidorlarini rivojlantirishga yo`naltirilgan, bolalarga ota-onalari tomonidan o`tkazilgan irsiy bslgilardir.

**Ta`lim va tarbiyani insonparvarlashtirish** - psdagogik diqqat hamda e`tiborning markazida insonning muxim masalasi va muammosi, ya`ni bolalarda inson shaxsiga dunyodagi eng yuqori, bebaho boylik sifatidagi munosabatini shakllantirishdek muhim faoliyat yotadi.

**Ta`limni gumanitarlashtirish** - texnokratizmga va noinsoniy qiyofa va xususiyatlarga qarama-qarshi turish, inson shaxsining ma`naviy boyligini oshirish va taraqqiy ettirish maqsadida ta`limning gumanitar hamda tabiiy-matematik davriyliklari orasida garmonik muvozanatni o`rnatish.

## 2.2. Tarbiya tushunchalari

**Aqliy tarbiya** - bolalarning ongi va tafakkurini -bilimlar, ongli ko`nikmalar hamda malakalar bilan boyitish. Aqliy kuchlar, sezgilar, ruhiy jarayonlar, iqtidorlar, biluvchanlik maqsadlari, dunyoqarash va faoliyat ozodligini shakllantirish.

**Huquqiy tarbiya** - huquqiy madaniyatni, o`quvchilarda- qonunga bo`ysunuvchanlik xatti-harakatini shakllantirish.

**Politeknik ma`lumot** - hozirgi zamon ishlab chikarishini tashkil etishning asosiy printsiplari bilan, chiqindisiz va ekologik toza texnologiya bilan tanishish. SHu bilan birga komp'yuter texnikasi, mexanizatsiyalashtirilgan hamda avtomatlashtirilgan mehnatning hozirgi davrdagi jihozlari bilan ishlash malakasi bilan qurollantirish.

**Mehnat tarbiyasi** - bolalarni umumiy mehnat bilimlari va ijtimoiy foydali mehnat malakalari bilan hurollantirish. SHu bilan birga, mehnatssvarlik, mehnat kishisining psixologiyasini rivojlantirish, mulkning har xil shakldagi turlarida mehnatipig xar xnl shakllarini tashkil etish qobiliyatini namoyon etib muvaffaqiyatga erishish, tadbirkorlik va ijodii yondoshuvni namoyon etish xususiyatlarinng egasi sifatida shakllantirishdir.

**Iqtisodiy tarbiya**-o`quvchilarni asosiy iqtisodiy tushunchalar bilan tanishtirish jarayoni bo`lib, ularni ishlab chiqarishni tashkil etish sohasidagi oddiy harakatlar, qilishi lozim bo`ladigai ishlar ko`nikmasi, malakasi bilap, taqsimot va ta`limot bilan, iqtisodiy tafakkurning rivojlanipsh bilan qurollantirish.

O`zbekiston Respublkasi sotsial-iqtisodiy rivojlainshning asosiy tamoyillarini chuqur o`zlashtirish.

**Ekologik tarbiya** - o`quvchilarni ekologik (atrofmuxit muxofazasi) bilimlari bilan qurollantirish, shuningdek tabiatga nisbatan axlokiy-estetik, okilona ekologik xatti-harakatlar ko`nikmalarini, ekologik ta-fakkurini hamda ekologiya uchui faol kurashish qobiliyatlarini shakllantirishdir.

**Axloqiy tarbiya** - o`quvchilarda umuminsopiy axloqiy printsiplarga sodiq bo`lishdek, jamiyat axloqiy talablari va me`yorlarini hisobga olgan holda o`z xatti-harakatlarini tanlay olish maxoratini, axlokiy tafakkur va kundalik odatdagi axloki! xatti-xarakatlarinig mustahkam tizimini shakllantirish.

**Jismoniy tarbiya** - bolaning xamma jismoniy xususiyatlarini: anatomik, fiziologik, asab va boshka sistemalarini xar tomonlama rivojlaitirish, sog`lom xayot kechirishning afzalliklari, shart-sharoitlari, asoslari xamda jismoniy madaniyatning odatdagi zarur elementlarini mustaxkam tarzda shakllaitirish.

**Estetik tarbiya**-badiy-eststpk tafakkurni shakllantirish, real hayotda san`atdagi estetik hodisalar» ko`rinishlar, xolatlarini xis qila olish, qabul qila olish, baholay olish kobiliyatlarini shakllantirish shuniigdek, pjdoyotda faol ishtnrok etish.

**Tarbiyalash uslublari** (metodlari)- katta yoshdagilar bilan bolalar o`rtasidagi pedagogik, aklan o`ylab ko`rilib, ma`lum maqsadga yo`naltirilgan ta`sirlarining jamiyat tomonidan shart sifatida qo`yilgai usullari bo`lib, bolalik davri, faoliyati, muloqoti, munosabatlarini tashkil etishga yordam beradi, ularning faolligini rag`batlantiruvchi xamda xatti-harakatlarini boshqarish asoslari hmsoblanadi.

Ta`lim metodlari (uslublari)-bolalarnipg bilimlarni, ko`nikmalar va malakalarni o`zlashtirishini, umumiy ma`lumot xamda umumiy ta`lmining vositalarini egallashi uchun aqliy kuchlari, kobiliyatlarini rivojlantirishni ta`mplnlaidigan, pedagog bilan o`quvchining o`quv o`rganish jarayonidagi o`zaro ta`sirlarinng maxsus usullaridpr.

Psixologiyaning prsdmeti tirik organizmning vujudga kslishi, faoliyat yuritishi, tarkibiy tuzilishi va ruxiyatini rivojlantirish mexanizmlari hamda qonuniyatlari, ash`yoviy dalillaridir.

Ruhiyat - sub`ektiv (shaxs) tomonidan ob`ektiv real hayotiy haqiqatnn aks ettirish, uning sub`ektiv qiyofasini, obrazini yaratish va o`z xatti-harakatlari hamda faoliyatini uning asosida o`z-o`zidan boshqaruvini o`zida namoyon etaddgan, yuqori darajada tashkil etilgan materiyaning mahsuloti va o`ziga xos shaklidir.

Ong, atrof-muhitni anglash - inson ruhiyatining yuqori darajasi bo`lib, dunyo haqidagi ob`ektiv bilimlarning, unga ob`ektiv munosabatlarning tahlili, kishilarning o`zaro muloqotlari, o`zaro ta`sirlarining, ijtimoiy munosabatlarning natijasidir.

O`z-o`zini anglash - kishining o`ziga va o`z faoliyatiga, shaxsiga anglangan munosabatda bo`lishidir.

Faoliyat- harakatlar va operatsiyalar sistemasida amalga oshiriladigan ehtiyojlar hamda sabablarga javob beradigan, birona maqsadga yo`naltirilgan faollikdir.



SHaxs - odamning jamiyat aʼzosi sifatida, oʻz-oʻzini anglash va tafakkurni, faoliyatning obʼektivligini, muloqot hamda biluvchanlikni tashuvchanligidir.

Jamoa - insonparvarlik va javobgarlik masʼuliyatlariga bogʻliqligi bilan xarakterlanadigan munosabatlar hamda hamkorlikdagi ijtimoiy - ijobiy faoliyatga asoslangan, kishilarning tashkil etilgan umumiyli, jamoasidir.

Ijtimoiy - psixologik iqlim - jamoa va guruhlarining rivojlanish darajasini, ularning shaxsga taʼsiri darajasini hamda hamkorlikdagi faoliyatlari samaradorligini belgilab beradigan shart-sharoitlar bilan ijtimoiy-psixologik hodisalar (munosabatlar, jamoaviy fikr, kayfiyat va boshqalar)ning bir-birini boyitish, bir-biriga muvofiq kelishligidir.

Muloqot - oʻzaro munosabatlar, oʻzaro taʼsirlarni taʼminlashga, maʼlumotlarni almashtirishpi oʻz ichiga olgan va munosabatlarni, ularning aloqalarini amalga oshiradigan, maʼlum yoʻnalishga asosan olib boriladi-gan faoliyat hisoblanib, kishilarning birgalikdagi faoliyatining bir turidir.

Pedagogik muloqot- oʻquv-tarbiya jarayoi davomida oʻqituvchi (pedagogning oʻquvchilar bilan kasbiy muloqoti xisoblanadi.

SHaxsning psixologik tarkibiy tuzilishi- insonning psixologik oʻziga xosligini xarakgerlaydigan va bir butun tarkibiy tuzilishga umumlashtirilgai shaxsnng oʻziga xosligi, hamda fazilatlarining dinamik sigemasidir.

Ruhiy jarayon - kiyofasi (obraz), xolat, oʻziga xoslik yoki boshka psixologik tuzplmalar . koʻrinishpdagi maxsus oʻziga xos natijalarshshg mavjudligi bilan xarakterlanadigan ruhiyatni ichki faoliyat sifatida faol, dinamik tashkil etilishidpr.

Ruhiy holat - xatti-xarakterlar va faolnyatning samaradorligini, oʻziga xosligini belgilaydigan koʻp jihatlardan insonning ruhiy oʻzini tutishn, oʻznni his qilishiny xarakterlaydigan bir butun ruhiyatning tarkibiy kismlaridan biridir.

SHaxsning psixologik oʻziga xosligi-ruxny jarayonlar va uning ruxiyatininng turgʻui, mustaxkamligiga bogʻlnq ravishdagi kompleks xolatlarinnng birgalikda mavjud boʻlishligidir.

SHaxsning yoʻnalganligi - odampnng dunyo bilan munosabatlarning bir butun sistemasini taʼminlab beradigan va extiyojlarning dinamikligini oʻzida namoyon etadigan koʻrsatmalar, yoʻl-yoʻriklar, sabablar, manfa-atdorliklar, shaxsnng mazmuniligi, shaxsning maʼnolari, odamning boshka intilishlari kabi munosabatlarning psixologik tuzilmasi. Zarurat, ehtiyojlilik - qandaydir bir obʼektiv etishmovchnlikka, oʻzida yoʻq narsaga javob beradigan insonning ruxiy holati boʻlib, bu faollik manbaidir.

Maqsad - boʻlgʻusi natijalar hakida har doim aqlan oʻylab koʻrilgan, rivojlantirilgan xayoliy tasavvurlar.

Sabab - psixologik reallik oʻzining anikligini topadigan zarurat, extiyojiing predmetidir; ruxiyat va inson faoliyatini uygʻotishga yoʻnaltirilgai hayoliy tuzilmalarii amalga oshirish vositasidir.

Mohirlik - xayotiy tajriba va oʻzlashtirilgan bilimlar asosida aniq va ongli ravishda amaliy va nazariy ishlar, xarakterlarni tsz bajarpsgha tayyor ekanlikdir.

Oʻquvchining bilimi - tabiat va jamiyatnng rivojlanish qonuniyatlarini aks ettirgan fan konunlari, tushunchalar, ashyoviy dalillarnn oʻzlashtirishga yoʻnaltirilgan pedagogik faoliyatning natijasidir.

Malaka - oʻzining shakllaiish jarayonida avtomatlashib ketgan, yaʼii ixtiyoriy ravishda toʻliq takrorlash qobiliyati, odatdagi faolpyat sifatida shakllanib boʻlgan xamda murakkab xarakterlarning tarkibiga kiritilgan jarayonlarni psixologik tanlashga aylanib ketgan ish-harakatidir, faoliyatdir.

Qobiliyat - shaxsning individual - psixolognk oʻziga xosligining psixologik tarkibiy tuzilishiga kiritilgan, qaysidir bir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga taalluqli boʻlgan va bilimlar, malakalarni egallashning tezkorligini, engilligini izoxlab beradigan xususiyatdir.

Joʻshqinlik, mijoz (temperament)-odamning xatti-xarakterlari va ruhiyatining dinamik oʻziga xosligini xarakterlaydigan, shaxsning psixologik tarkibiy tuzilishlariga kiradigan bir butun, yaxlit koʻrsatkichlar sistemasndir.

Xarakter (qiyofa, tavsifiy jihatlari) - xatti-harakatlarning sifat jihatlarining oʻziga xosligini, mustahkamligini koʻrsatib turadigan, shaxsning dunyoga maxsus munosabatlarini aks ettiradigan va shu munosa-batlar paydo boʻlish jarayonida oʻzining iziii qoldiradigan xususiyatlar majmuasi boʻlib, shaxs psixologik tarkibiy tuzilishining integrativ tarkibiy qismidir.

Erk -o`z oldiga maqsadlarni qo`yish va qabul qilish bilan, shu bilan birga, ularni hal etish, amalga oshirish yo`lida ichki va tashqi to`sqinliklarni engib o`tish bilan bog`liq bo`lgan tafakkuri va xatti-harakatlarini ongli ravishdagi o`zo`zini boshqaruvidir.

Buzilgan xatti-harakatlar - jamiyat tomonidan qabul kilingan me`yorlarga qarama-qarshi bo`lgan, ruxiy sog`lom shaxsning xulq-atvori, qiliqlari sistemasidir. Birinchidan, qiliqlar va harakatlar sifatida, ya`ni yudob-axloq me`yorlaridan chetga chiqish, buzilish va uning asosida shakllangan ma`muriyat, kasbiy (shular qatorida pedagogik ham) talablardan chetga chiqish, rioya etmaslikdir. Ikkinchidan, qonunning buzilishi va og`ir jinoyat sodir etilishi bilan bog`liq bo`lgan, xuquqiy me`yorlardan chetga chiqish kabi xatti-harakatlardir.

Hissiyot - ob`ektiv dunyodagi hodisalar, ular mazkur muddatda sezgi organlariga bevosita ta`sir etishi jarayonida yoki narsalarning o`ziga xos tarkibiy tuzilishini alohida aks ettirishdarn iborat bo`lgan ruhiyatning oddiy shakli hisoblanadi.

Idrok - mazkur mudatda sezgi organlarga ularning bevosita ta`sir etishi davomidagi bir butun hodisalar (o`ziga xosliklarining majmuaviy muvofiq kishligi) yoki narsalarning inson ongida aks etishidir.

Diqqat - faoliyat (xatti-harakat) va ruhiy aks ettirishni ta`minlaydigan, belgilangan ob`ektga faoliyat yoki ongining jamlanish holatidir.

Xotira - ob`ektiv dunyo ta`sirlarini qayta tasvirlash va saklash, tasavvurida yodda saqlashdan iborat bo`lgan ruxiy jarayonlarning majmuasidir.

Tafakkur - bilish, anglashning yukori shakli bo`lib, o`zida ob`ektiv dunyodagi hodisalar bilan narsalar o`rtasidagi munosabatlar hamda aloqalarni aks ettirish qobiliyatining mavjudligini namoyon etishdir. Bu voqelikni bevosita ichki aks ettirish, uni kiyofalarda qonupimtlar va tushunchalar darajasiga kadam umumlashtirishdir.

His-tung`u (hissiyot)- o`zining xolatlariga va ob`ektiv dunyoga o`z munosabatlarini aks ettirish natijalari xamda jarayonidir.

Sababiy reaksiyalar (ta`sirlar)- his-tuyg`uning haddan tashkari oshib, sababning funksiyasiga ega bo`ladigan darajada kuchayishi natijasida faoliyatning izidan chiqishidir.

Sezgi - his-tuyg`uning oliy turi bo`lib, yukori darajadagi turg`unlikni va umumiylikni, jamlanganlikni, qo`llamdorlikni xarakterlanishidir.

Bilish, anglash - dunyo xakidagi yangi bplnmlar xisoblanadigan sub`ekt va ob`ektning o`zaro ta`sirini, voqelikning ruxiyatda qayta tasvir etilishi hamda aks ettirish jarayonidir.

O`rgatish - organizmning tug`ma reaksiyalariga to`g`ri kelmaydigan va updan oldingi faoliyatlar natijasida vujudga keladigan faoliyatlar xamda bilimlarning mustaxkam xolatda o`zgarishidir,

O`rganish - ta`lim jarayonining tarkibiy tuzilishlarida o`quvchining shaxsiy faoliyati.

Uyg`unlik - insoning ichki dunyosining xamma tarkibiy ksmalarni rivojlantirishdagi tsppa - tenglik, muvofiqlik, xajmiy muvofiqlik (o`lchamdorlik)da bo`lishligidir, Buning mumkin bo`lnshi uchun insonning hamma o`ziga xosligi va fazilatlarining asoslarida bir sistemaga birlashadigan yaxlit asos, manba yotishi kerak.

SHaxsning bus-butunligi-progressiv (ijobiy) insoniyatning ma`naviy merosi va amalda mavjud bo`lgan ijtimoiy munosabatlarining ijtimoiy sub`ekt tomonidan to`liq o`zlashtirish faoliyati, uyg`un, har tomonlama rivojlangan shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega ideallarga yaqinlashuvining mezonidir.

SHaxsning har ishga mohirligi - shaxsning ijodiy imkoniyatlari, ehtiyojlari, qobiliyatlarini chegara bilmaydigan rivojlanishi sifatida qarab ko`riladigan xususiyatidir.

Bu shaxs ijtimoiy faoliyatining har xil turlarida o`rgangnligi, o`z o`rnini erkin almashinuvi, jamiyat hayotining ishlab chiqarish, shuningdek ishlab chiqarishdan tashqari bo`lgan doiralarda o`z kuch-quvvatsh sarf etishidir.

Kasbga yo`naltirish - o`quvchning o`z extiyojini oqilona cheklaydigan shaxs sifatida kamolotga etishining pedagogik jarayoni bo`lib, nafaqat pedagogik tashqi ijtimoiy-iqtisodiy, balki psixologik, tibbiy, hukuqiy muammo hamdir.

Odob-axloq-shaxsning o`ziga va dunyoga munosabatlariga olib boruvchi xatti-harakatlarining belgilangan, aniqlangan usuli bo`lib, sababiyat, tasavvurlar va qarashlarni o`z ichiga oladi, ya`ni shaxs shakllanishining manbai hisoblanadi.

Axloqiy tarbiyalanganlik - shaxsning asosiy fazilatlarining (mehnatsevarlik, to'g'riso'zlik, jamoaviylik) yoki axloqlikning asosiy bslgilarining rivojlanishn darajasiga qarab aniqlanadi.

SHaxsning aqliy sifatlari (fazilatlarini)-shaxsning aqliy jihatdan kamolotga etishuvi uning aqliy, zehniy sifatlari, fazilatlarini orqali namoyon bo'ladi. Bu darajaga olib boruvchi sifatlar: bilag'onlik, ob'ektivlik, fikrlovchanlnk, sevishganlik hisoblanadi.

Aqliy, zehniy tarbiyalanganlik - aqliy va zehniy sifatlari, fazilatlarinnng rivojlanganlik darajasiga qarab shaxsning yoshiga ko'ra xamma davrlarida intellektual tarbiyalanganligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Aqliy tarbiyaning maktab yillaridagi mezoniy fazilati mantiqiylik hisoblanadi. Balog'at yoshida esa, aqlning qobiliyatlari yangi ma'lumotnn vujudga keltiradi. Maktab o'quvchilarining aqliy rivojlani-shini boshqarish uchun uch jihat bo'yicha ma'lumotlarni olish ksrak: bilishlik, faollik, aqlning rivojlanganligi (fikrlovchanlik).

Umumpedagogik tayyorgarlik- pedagogikaning kategoriyalari va metodologik asoslari xaqidagi bnlimlarni shakllantirish, pspxolognk-pedagogik sezgirlik, kuzatuvchanlik, pedagogik tasavvurlar, tashkilotchnlik qobiliyatlari, talabchanlik, odamshavandalik, maqsadga intiluvchanlik, qat'iylik, vazmnnlnk va o'zini tuta olish, bolalarning, o'spirinlar hamda yosh yigit-qizlarning yoshiga ko'ra anatom-fiziologpk rnojlanishpning asosiy qonupiyatlari xaqidagi bnlimlarni, o'quvchilarning individual o'ziga xosliklarini, pedagogik ishlar bilan qiziquvchanligini shakllantirishdir.

Professional (kasbiy)-pedagogik mohirlik har xil shart-sharoitlarda pedagogning o'z kasbiy faoliyatinn bajarish qobiliyati bo'lib, uniig asosida ijtimoiy-siyosiy, umummillpy, maxsus, pspxologik-pedagogik, kasbiy-uslubiy bilimlar va malakalarning shakllangan tizimni ko'lga kiritish, o'zlashtirib olish yotadi.

Kasbiy-metodik mohirlik - o'qituvchi, mazkur fanni olib boruvchining mavjud bo'lgan pedagogik va uslubiy bilimlar asosida malakaviy faoliyatini bajara olpsh qobilnyatidir. SHunday qilib, pedagog ikki turdagi: kasby va malakaviy tayyorgarlikka ega bo'ladi. SHunng uchun o'kituvchining maktabda o'kitayotgan fani yuzasidan malakasiga xamda kasbiga ko'ra xaqli ravishda pedagog dsb ataydilar.

Ta'lim (o'qitish) usullari -ta'lnmning uslubiy tarkibiy qismlarini tashkil uggan bo'laklardan iborat. Masalan, og'zaki bayon etish davomida doskaga yozib borish, ko'rgazmali qurollar yoki ular bilan tanishtirish jarayonida qiyoslashlardan foydalanish kabi va boshqalar; Har bir uslub doirasida o'quv materiali mazmuniga, o'quvchilarning tayyorgarligiga, darsning jihozlanishiga, o'qitishning individual o'ziga xosliklariga bog'liq ravishda usullar almashinadi.

Quntlilik, tirishqoqlik - mehnat va o'rganishda serg'ayratlilik, quntlilik bo'lib, bolalarni yoshlik yillaridan boshlangan ishini oxiriga etkazishga, uni vijdonan xamda puxta, tartibli kilib bajarishga o'rgatish, ongiga singdirishdir.

Ta'lim metodikasi – xususiy didaktika yoki ta'limning xususiy iazariyasini o'zida namoyon etadigan pedagogika faniing tarmog'idir. Uning vaznfalari o'quv fani yuzasidan ta'lim berish hodisasini o'rganish jarayopida ularning orasidagi qonuniy aloqalarni ochish, anglangan qonuniyatlar asosida esa, o'kituvchining ta'lim faoliyatiga va o'quvchishshg aiglash, biluvchanlik faoliyatiga talablar me'yorini o'rnatishdan iboratdir.

Didaktika - (grekcha «didaktikos» so'zidan olingan bo'lib, o'rnak, saboq bo'lishlilik kabi mazmunlarni anglatadi.)- pedagogikaning ta'lim jarayonida tarbiyalash nazariyasini ishlab chiqadigan qismi hisoblanadi.

**2.3. Kasbiy pedagogika qonuniyatlari.** Kishilik taraqqiyotining ilk bosqichlaridayoq pedagogik faoliyat o'z mavqeiga ega bo'la oldi. Bugungi kunga kelib ilm-fan va ishlab chiqarishning o'zaro bog'liqligini pedagogika fani rivojiga ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Mazkur holat haqida to'laqonli tushunchaga ega bo'lish uchun pedagogik qonuniyatlar mohiyatini bilishimiz lozim bo'ladi. Ular quyidagilardir:

***1. Ishlab chiqarish turiga ko'ra ishchilarni muayyan sohaga tayyorlash***

Ishlab chiqarish turiga ko'ra o'qitish dasturlari 3 ta yirik guruhga bo'linadi:

1. YAkka holda ishlab chiqarish.
2. Guruh asosida ishlab chiqarish.
3. Ommaviy ravishda ishlab chiqarish.

Ishlab chiqarishning har bir turi o'zining texnik jihatlari va shakllariga egadir. Ishlab chiqarishning qaysi turi bo'lishdan qat'iy nazar bir tsexning o'zida ham 3 ta ishlab chiqarish turi mavjud bo'lishi mumkin.

**Yakka holda ishlab chiqarish** - o'z xususiyatiga bir qator afzalliklariga ega bo'lib, u yoki bu operatsiyalarni universal uskunalarda uning yaratilishiga mahsulot qo'yiladigan turli talablarni aniq bajarish imkonini beradi. Ishlab chiqarishning bu turi ishchidan, o'lchov asboblari bilan to'g'ri foydalana olishni talab etadi.

**Gurux** asosida ishlab chiqarish – bu tur yakka holda ishlab chiqarishdan qismangina farq qilib, unda ishlab chiqariladigan mahsulot donalab emas, balki qism - qism tarzida ishlab chiqarildi. Ishlab chiqarilgan har bir mahsulot turi bir nomda va bir xil o'lchamga ega bo'ladi. Qar bir operatsiya alohida-alohida uskunalarda bajariladi. Ishlab chiqarish xizmatini ko'rsatish, ya'ni moslash, sozlash hamda kichik ta'mirlash ishlari maxsus ishchilar zimmasiga yuklatiladi.

**Ommaviy** ishlab chiqarish mahsulot ishlab chiqarishni operatsiyasini ma'lum o'rinda hamda doimiy ravishda qaytarilishi bilan tavsiflanadi. Uchastka va tsexlardagi asboblarning sifati, ularning tipi, jamlanishi va samaradorligi ishlab chiqarilayotgan mahsulotga mos bo'lishi shart.

**2.4. Ishchi-mutaxassisning keng miqyosidagi ish modeli.** Etuk malakali ishchi-mutaxassis faoliyatining asosiy modeli sifatida ilg'or ishchilarni mehnat faoliyatini misol yoki namuna qilib olishimiz kerak. Ularning malaka va ish qobiliyatlari pedagogik kuzatuv hamda tajriba orqali o'rganiladi. Olingan natijalar asosida mukammal model yaratiladi. Bunday model ishchi-mutaxassislarning shaxsiy sifatleri fikrlash va bilim darajalari, ko'nikma malakalari, ish jarayonida qo'llaniladigan uslub hamda metodlarni aniqlashga yordam beradi. Malakali ishchi-mutaxassis andozasini quyidagi ko'rinishda tasvirlash mumkin:

**1. Prognostik (bashoratlash)**– oldindan bilish va ish rivojini xarakterlash.

**2. Malakaviy** – texnik mazmuniga qo'yiladigan talablar.

1. Bu maqsadda maxsus ruxsat etilgan va tasdiqlangan xujjatlar: maqola, ilmiy texnik, axborotlar, turli ilmiy tashkilotlar axborotnomalari, dissertatsiyalar, patent, konferentsiya materiallar va hokazolardan keng foydalaniladi.

2. Ishchilarni malakaviy tayyorlash maqsadida ishlab chiqilgan talab va mazmun. Oldindan tashhislangan ma'lumotlar andozada qayd qilinib, ilmiy ravishda ishchi malakasini oshirishga imkon beradi. SHu bilan birga didaktik bashoratga alohida urg'u berilishi lozim. O'quv rejasi va dasturlarining mukammal yaratilishi va ishchi reja ustida ishlashda tashxisli ma'lumotlar zarur. Ishlab chiqilgan andoza o'quv jarayonida muayyan o'zgarishlarning ro'y berishini e'tirof etadi..

**2.5. Bosqichli o'qitish nazariyasi.** Didaktik tizim negizini o'quv tarbiya jarayoni tashkil etib, u o'z navbatida 2 bosqichda tashkil etiladi: a) doimiy; b) dinamik.

Buning asosida o'quv dasturlarini ishlab chiqishning asosiy va maxsus jarayoni, muayyan kasb ta'limiga muvofiq aniq va puxta, shu bilan bir qatorda, o'zaro bog'liqlikda olib boriladi.

**Asosiy o'quv jarayoni** bosqichda o'quvchilar umumiy talablarga javob beruvchi bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lib, ular shunday bilim oladilarki, ularning bilim darajalari u ilmiy texnik o'zgarishlar holatiga mos keladi. Umumiy mehnat egallangan bilim-ko'nikma va malakalarga kasbiy bilimlarga asos bo'lib, uning mustahkamligi ishlab o'qitish samaradorligini ta'minlashga olib keladi. Asosiy o'quv jarayonida o'quvchi egallashi lozim bo'lgan bilimlar kelajakdagi ularning faoliyati, mehnat turi va ishlab chiqarishda egallaydigan o'rnini belgilashga xizmat qiladi. Asosiy bilim berish jarayoni maxsus bilim berish negizi bo'lib xizmat qiladi, shuning uchun o'quvchi ko'rsatilgan fanlar nazariy va amaliy mashg'ulotlarini mustahkam egallab bormog'i lozim.

**Maxsus o'quv jarayoni.** Asosiy o'quv bosqichdan maxsus ta'lim bosqichiga o'tish sekin – asta ro'y berib, butun o'quv jarayoni shu maqsad asosida tashkil etiladi. Maxsus bosqichda o'qitish tanlangan kasbga yo'naltirish bo'yicha olib borilib, o'qitish jarayoni shu sohada texnik va texnologik rivojlanish talablariga javob bermog'i lozim, ammo markazlashtirilgan tartibda ishlab chiqilgan o'quv dastur barcha xalq xo'jaligi sohalari yoki korxonalar talablariga javob bera olmaydi, chunki bir sohada texnologik jihozlarning bir turi o'rganilsa, ikkinchi turida ishchilarni tayyorlash sohalari bo'yicha o'qitish afzaldir.

**O`quvchining asosiy ish mazmuni** – xizmat ko`rsatuvchi texnologik jarayonlar mohiyatini anglash, ish rejimini optimal ajratish, faoliyatning murakkab tomonlarni o`z vaqtida aniqlash va ularni ta`mirlash, ish yuqori sifatni ta`minlovchi texnologik jarayonni aniqlash.

**Maxsus o`qitish jarayonida** tablim oluvchilarni korxonaning xususiyatlari bilan aniq va mukammal tanishtirish, ularning korxonadagi barcha ish turlarini bajarishda egallagan bilim va malakalarini amalda qo`llay olishlarini ta`minlash lozimdir. Ta`lim oluvchilar ishlab chiqarishning texnik va texnologik jarayonlari, qurilma va moslamalar haqidagi bilimlarini amalda qo`llay bilishlari lozim. Kasbiy ko`nikma va malakalarni rivojlantirish keng, umumtexnikaviy asosida olib borilishi kerak. Bu o`z navbatida ishchining istagan korxonada faoliyat ko`rsatishini ta`minlaydi. Maxsus o`qitish jarayonida o`qituvchi ustaning ishlab chiqarish jarayoniga tayyorlashda quyidagilarga erishmog`i lozim:

1. Ta`lim oluvchini hozirgi zamon texnika jarayoni metodlari hamda zamonaviy metod va qurilmalarda ishlashga o`rgatish.

2. Mehnatni tashkil etish metodi ham o`quvchini zarur bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalari darajasi hamda kasbiy malakasiga ko`ra turli ish operatsiyalarini zamonaviy texnologiya talablariga muvofiq beruvchi ishlab chiqarishni tashkil etish.

3. Ta`lim oluvchini ish me`yoriga amal qilishga nisbatan ijodiy yondoshishga o`rgatish.

4. Korxonada ish chizmalarini to`g`ri o`qish hamda texnologik xujjatlardan to`g`ri foydalanishga o`rgatish.

5. Korxonada jamoasi tomonidan o`quvchi ishi sifatidan muhim tarbiyaviy omil tarzida foydalanishga erishish.

6. Ta`lim oluvchini mehnat, ishlab chiqarish va yong`in xavfsizligi talablariga amal qilishga o`rgatish.

7. Ta`lim oluvchida ish o`rni va qurollariga nisbatan javobgarlik, ularni qadrlash hissini hosil qilish.

8. O`quvchida ish madaniyati haqida taassurotni yuzaga keltirish ish joyini tashkil etishni o`rgatish.

9. SHunday ishchi-mutaxassisni tarbiyalashga erishish kerakki, u har qanday holda ham ish unumdorligini oshirishga o`z hissasini qo`shsin. Ishchilarni korxonada obro`li va ish sifatini oshirish, mehnat intizomiga qat`iy rioya qilish ruhida tarbiyalash.

## Ma'ruza-3. « KASBIY TA`LIM QONUNIYATLARI»

### 1.1. Trening mashg`ulotining ta`lim texnologiyasi

<i>O`quv soati: 2 soat</i>	<i>Tinglovchilar soni:22 ta</i>
<i>O`quv mashg`uloti shakli</i>	Axborotli ma`ruza
<p><i>Mashg`ulot</i></p> <div style="border: 1px solid black; background-color: #d4c08c; padding: 5px; display: inline-block; margin: 10px 0;"> <p><b>R e j a s i:</b></p> </div>	<div style="border: 1px solid black; background-color: #e0f7fa; padding: 5px; margin-bottom: 10px;"> <p><b>Ta`lim va tarbiya printsiplari</b></p> </div> <div style="border: 1px solid black; background-color: #e0f7fa; padding: 5px; margin-bottom: 10px;"> <p><b>Kasbiy ta`lim jarayonida shaxs rivojlanishining pedagogik shart-sharoitlari</b></p> </div> <div style="border: 1px solid black; background-color: #e0f7fa; padding: 5px;"> <p><b>Kasbiy bilish jarayonining psixologiyasi</b></p> </div>
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi:</i>	Tinglovchilarda mavzu bo`yicha bilim va ko`nikmalarni kengaytirish va chuqurlashtirish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O`quv faoliyatining natijalari:</i>
ma`ruza- Ta`lim va tarbiya printsiplari haqida ma`lumot berish; Kasbiy ta`lim jarayonida shaxs rivojlanishining pedagogik shart-sharoitlari bilan tanishtirish Kasbiy bilish jarayonining psixologiyasi bilan tanishtirish	<i>tinglovchilar biladilar:</i>  Ta`lim va tarbiya printsiplari haqida ma`lumot berish Kasbiy ta`lim jarayonida shaxs rivojlanishining pedagogik shart-sharoitlari Kasbiy bilish jarayonining psixologiyasi
<i>Ta`lim usullari</i>	Ma`ruza, tezkor so`rov, namoyish etish, suhbat
<i>Ta`lim vositalari</i>	Tayanch matn, slaydlar
<i>O`qitish shakllari</i>	Ommaviy
<i>O`qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo`ljallangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	kuzatish

#### Adabiyotlar

1. K.D.Davlatov. «Kasb va kasb - ta`lim, kasb tanlash» «Kasb tarbiya nazariyasi va uslubiyati» Toshkent. Kasb 1994
2. Olimov Q.T. Kasb ta`limi uslubiyati. O`quv qo`llanma. – T.: 2006. 164 b.

**“Ma`ruza mashg`ulotlarida innovatsion ta`lim texnologiyasini loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari” bo`yicha ta`lim texnologiyasi**

**I. Tayyorgarlik bosqich**

<b>F a o l i y a t m a z m u n i</b>	
<i>O`qituvchi</i>	<i>tinglovchi</i>
Mavzuni aniqlaydi, maqsadni belgilaydi va o`quv natijalarini rejalashtiradi. Mavzu bo`yicha ko`rgazmali materiallar tayyorlaydi.	Mashg`ulotga tayyorlanadilar

**II. Amalga oshiruvchi bosqich- ma`ruza**

<b>F a o l i y a t m a z m u n i</b>	
<i>O`qituvchi</i>	<i>tinglovchi</i>
<p><b>1. Ma`ruzaga kirish.</b></p> <p>1.1. Maqsad va rejalashtirilgan o`quv natijalari bilan tanishtirish.</p> <p>1.2. Ma`ruza rejasi bilan tanishtiradi.</p> <p>1.3. Tinglovchilarga tezkor savol berib bilimlarini faollashtiradi: Ta`lim va tarbiya printsiplari qanday?” SHunday bo`lsa asoslab bering.</p> <p>1.4. Javoblarni birgalikda umumlashtiradi va asosiy ma`ruza mavzusiga o`tadi.</p>	<p>Diqqat qiladilar va yozib oladilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar.</p>
<p><b>2. Asosiy qism.</b></p> <p>2.1. Faollashtirilgan bilimlar asosida tinglovchilarni mashg`ulot mavzusiga olib kiradi.</p> <p>2.2. Slaydlar yordamida mavzu mohiyatini reja asosida yoritadi.</p> <p>2.3. Ma`ruzani davom ettirishdan avval tinglovchilarga “Tezkor so`rov” texnikasini qo`llagan holda quyidagi savolga javob berishlarini so`raydi: Ta`lim va tarbiya printsiplari nimalarga bog`liq?</p> <p>2.4. Javoblarni qabul qiladi va ularni umumlashtiradi.</p> <p>2.5. Rejaning ikkinchi savolini - Dars rejasiniig namunaviy shakli yoritishdan avval tezkor savol orqali murojaat qiladi: “Kasbiy ta`lim jarayonida shaxs rivojlanishining pedagogik shart-sharoitlariga qo`yiladigan talablar?” -----</p> <p>2.6. Javoblarni qabul qiladi va ularga slayd materiali orqali qo`shimcha ma`lumotlar beradi.</p> <p>2.7. Rejaning uchinchi va to`rtinch savolini o`qituvch misollar asosida yoritadi.</p>	<p>Savollarga javob beradilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar .</p> <p>Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar</p>

**III. Yakuniy bosqich**

<b>F a o l i y a t m a z m u n i</b>	
<i>O`qituvchi</i>	<i>tinglovchi</i>
<p><b>Ma`ruzani yakunlash:</b></p> <p>Ma`ruza mashg`uloti mavzusi mazmuni bo`yicha yakun yasaydi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma`ruza yuzasidan savollarga javob beradi;</li> <li>• ma`ruza yuzasidan amaliy ishlar bajarilishini va mavzu yanada mustahkamlanishini aytadi;</li> <li>• tinglovchilarni tayyorgarligi, ularni savol javobda faolligini baholaydi;</li> <li>• ma`ruza natijaviyligining umumiy bahosini beradi;</li> </ul>	<p>Savollar beradilar, baholar bilan tanishadilar</p>

Ta'limning quyidagi konunlari mavjud: tarbiyalovchi ta'lim qonuni; xar qanday ta'lim faqat o'qitayotgan, o'kitayotgan va o'rganayotgan ob'ektning ma'lum bir maksadga yo'naltirilgan o'zaro ta'siri yordamida amalga oshiriladi; ta'lim fakatgina o'qituvchiing faoliyati va o'y-fikrlarga muvofiq ravishda o'quvchilarning aktiv faoliyatlari davomida yuz beradi; o'quv jarayoni o'kituvchi hamda o'quvchining maksadlari muvofiq kelgan holda yuz beradi; aloxida bir shaxsni u yoki bu faoliyatini o'rganishga yo'llash uni ushbu faoliyatga jalb etish orqali erishiladi; ta'limning maksadi, bilim olishning mazmuni va ta'lim metodlari orasida doimiy bog'liklik mavjud bo'ladi; ta'limning maksad» ta'lim mazmunini va metodini belgilab beradi.

Ta'lim jarayoni bilan ijtimoiy tizimlar va shart-sharoitlar orasidagi qonuniy alokalarni o'rganish imkonini beradigan tizimli-tarkibiy tuzilshini biz ta'lim qonuniyatlarini o'rganish uchun etakchi metodologik manba, asos deb hisoblaymiz. Keyin esa ta'lim tarkibiga kiradigan o'qitish va o'rganish jarayonlari orasidagi aloqalarni, eng oxirida esa o'quv jarayonining vazifalari, mazmuni, metodlari, shakllari kabi ayrim tarkibiy qismlar orasidagi aloqalarni karab chiqish lozim.

Ta'lim qonuniyatlari tarkibiy qism sifatida ta'lim jarayoniga kiradigan, uning konuniyatlaridan kelib chikadigan yaxlit pedagogik jarayon bilan keng ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning o'zaro aloqalarini tahlil etishdan kelib chiqadi.

Ta'lim jarayoni yaxlit, bir butun pedagogik jarayon tarkibiga kiradigan ma'lumot, tarbiya, rivojlanish jarayonlari bilan qonuniy bog'liqdir. Demak, ta'lim har doim ma'lumot berish, tarbiya va umumiy rivojlanish vazifalarini birgalikda amalga oshirish orqali shaxsning har tomonlama taraqqiy etishiga ko'maklashadi.

Ta'lim jarayoni ta'lim olayotganlarning real o'quv imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi. Bu imkoniyatlar shaxsning ta'lim olish shart-sharoitlga tashqi va ichki munosabatlarning muvofiq kelishidir.

Ta'lim jarayoni qonuniy ravishda u sodir bo'ladigan, amalga oshadigan tashqi shart-sharoitlarga ham bog'liqdir. Maktabda ta'lim uchun muvofiq keladigai maxsus o'quv-moddiy, axlokiy-ruhiy va estetik shart-sharoitlar yaratish kerak. SHu bilan blrga ko'llagan vazifalarni hal etish uchun zarur vaqtga ham ega bo'lish lozim.

**3.1. Ta'lim va tarbiya printsiplari.** Ta'lim va tarbiya tushunchalari bir-biriga chambarchas bog'liq tushunchalar bo'lganligi sababli pedagogikadagi ta'lim va tarbiya printsiplarini ham birgalikda ko'rib chiqamiz.

Pedagogikada fan sifatida asosiy qoidalar, g'oyalar mavjud. Bu g'oyalar ta'lim samaradorligini, qo'niladigan talablarning izchilligini ta'minlaydi. Ta'lim va tarbiya printsiplari jamiyat ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqib pedagogika nazariyasi va amaliyoti yutuqlariga ko'ra o'zgarib, takomillashib boradi.

Tarixda pedagogika printsiplarini aniqlash bo'yicha turlicha yondoshuvlar mavjud bo'lgan. Masalan: XVI asrda YA.A.Komenskiy ta'lim printsiplarini tabiatga qiyoslab o'rganishni ya'ni, o'quvchilarga tabiat qo'ynida bevosita ta'lim berishni, tabiatda qanday mutanosiblik bo'lsa ta'limda ham xuddi shunday mutanosiblikka erishishni taklif etadi. 17-XVIII asrlarda madaniy jihatlardan mutanosiblikka erishish printsiplari ilgari suriladi. Hozirda ta'limning ilmiylik printsiipi, o'quvchilar imkoniyatlari va yosh xususiyatlarini hisobga olish printsiipi, ko'rgazmalilik printsiipi, ta'limda muntazamlilik va davomiylik printsiipi, ta'limning hayot bilan bog'liqligi, ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligi va ongliligi, ta'lim va tarbiyaning tarbiyaviy xarakteri kabi ko'pgina printsiiplari mavjud.

Ta'lim va tarbiyaning ba'zi printsiplarini izohlaymiz. Har qanday ta'lim tizimida ta'lim vazifalari jamiyat tomonidan g'oyaviy yo'naltiriladi. Bizning mustaqil Respublikamiz misolida ta'lim va tarbiya umuminsoniy qadriyatlarga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarda barcha insonlarga mos ijobiy xislatlarni shakllantirishni ko'zda tutadi. Ta'lim va tarbiya jarayoni turli partiya va oqimlarning ta'siridan ozod qilinadi. Tarbiyada o'zbeklarga xos urf-odatlar, udumlar, an'analarga amal qilish ko'zda tutiladi. Istiqlol mustaqillik mafkurasi o'zbekona ta'lim-tarbiyaning asosi qilib olinadi. «SHu Vatan barchamizniki», «Vatanni sevmoq iymondandir» g'oyalari, hur O'zbekiston madhiyasi, O'zbekiston Respublikasining milliy bayrog'i ta'lim va tarbiyaniig asosi hisoblanadi. Mustaqillik - islohot - ta'lim-tarbiya, bular bir-birlari bilan egizakdir. SHuning uchun ham Prezidentimiz I. A.



Karimovning barcha asarlari nafaqat fanning iqtisodiy, siyosiy sohalariga, balki hozirgi zamon pedagogikasi fani taraqqiyoti va ravnaqiga samarali hissa bo`lib qo`shildi. Ular insoniyatning yangicha tafakkur olamini tadqiq etishga yo`l ochib berdi. Ma`rifiy-axloqiy printsiplarni isloh qilish borasida amaliy qo`llanma hamda qo`llanma vazifasini o`taydi.

O`zbekiston Respublikasining Prezidenti I. A. Karimov e`lon kllgan bozor iqtisodiyotiga o`tishning tamoyillarini faqat Uzbekistoi Reelublikasigagina xos mustaqil yo`lini ta`limning barcha jabhalariga singdirish darkor. Buning uchun Rospublkkamiz sotsial-iqtisodiy rivojlanishga oid ko`rsatkichlar, iqtisodiy yil yakunlariga oid fakt va materllar, yangilik ijodkorlari hakldagi ocherklardan foydalanish yaxlit natijalarga ollb keladi

. Ta`lim va tarbiyaning birligi printsipti ta`lim jarayonida o`quvchilarni yangi-yangi ilmiy bilpmlar bilan qurollantirish va o`zlashtirilgan bilimlar asosida umuminsoniy sifatlarni shakllantirishni ta`minlaydi. O`quv predmetlarning har bir, hatto, ayrim mavzu va qismlari ham tarbiyalovchi xarakterga ega.

Ta`limda nazariyaning amaliyot bilan birligi printsipti bevosita bilish faoliyatining psixologik asoslaridan kelib chikadi. YA`ni xar kandy bilish jarayoni oldin tushunish, anglash keyin umumlashtirish va umumlashgai bilimlarni mustaxkamlash va nixoyat mustahkam bilim, iqtidor ko`nikmalarini amalda ko`llashdan iborat.

O`quv tarbiya jarayonining xamma jabxalari o`quv faoliyatining mazmuni, o`qitish metodlari, ta`limniig tashkiliy shakllari - barchalarida iazariya bilan amaliyotning birligi - printsiptiga asoslanadi. Nazariy o`zlashtirilgan bilimlarning amaliy iqtidor va ko`nikmalarga aylanishining o`zi aloxida bir murakkab jarayon hisoblanadi. Bu jarayonning fiziologik asoslari chuqur o`rganilganida psixologik o`ziga xosliklar hisobga olingan taqdirdagina bilimlarni ko`nikmalarga aylanish jarayoni boshqara olinadi. Faqat shundagina nazariy bilimlar bilan amaliyot o`rtasida bog`lanish zanjirlari, bog`lanish qonuniyatlarini ochilishi mumkin.

Ta`limda ko`rgazmalilik printsiptiga amal kilish o`quvtarbiya jarayonining asosini tashkil etadi. Ta`lim va tarbiyada ko`rgazmalilikdan foydalaiish haqida Al-Forobiy ko`pgina ibratli so`zlarni aytib qol-dirgan. Forobiyning fikriga qaraganda o`quvchilarni, shogirdlarni uch toifaga bo`lish mumkin. Birinchi toifasi (guruhning 3-5 foizini tashkil etadi) o`quv materialini o`zlari mustaqil o`rgana olishadi. Uchinchi toifadagilarni (bular 8-10 foizni tashkil etadi) majburlab, zo`rlab o`qitish kerak, deydi. Va nixoyat ikkinchi toifa talabalarga (ular 85-90 foizni tashkil etadi) ta`lim berishda ko`rgazmalilikdan foydalanib, o`quv mexnatini jadallashtirish va birmuncha osonlashtirish imkoniyati tug`iladi.

Ta`limda tushunarlik printsipti. O`qituvchining tarbiyachi sifatidagi asosiy funksiyalaridan biri fan temalari bo`yicha darslik, dastur, o`quv qo`llanmalari, ilmiy-ommaviy va boshqa adabiyotlarda tarqalib yotgan axborotni to`plab, uidan kerakli mazmunni tanlab olib, uni o`quv materlaliiga ayaltirishdan iborat.

Bizda ta`limning tashkiliy shakli sifatida asosan. sinf-dars tizimidan foydalaniladi. Birinchi siifga 6-7 yoshdan olingan o`quvchilarning psixik rlvjlanish ko`rsatkichlari turlicha bo`llshi anik. O`qituvchi tomonidan berilayotgan bilim va ko`nlkmalarni o`zlashtirishga o`quvchilarda imkoniyat mavjudmi, o`quv materlini o`zlashtirishga ular tayyormilar? O`quvchilarga o`quv materialini alglatish uchun nima kilmok ksarak?

Ilg`or pedagogik tajribalarga asoslanib shuni aytish mumkinki, tushunarlik printsiptini darsni yaxshilashni tashkillashtirish, dars mazmuniga mos metodlardan foldalanish, o`quvchilar aqliy aktivligini rivojlantirish orqali amalga oshirish mumkin. Bu erda o`quvchilarda o`quv faoliyatini tashkil kilish ko`nikmalarini shakllantirish katta axamiyatga ega.

O`qituvchi o`quv materialini o`quvchilar tushunishi oson bo`lgan oddiy faktlardan boshlashi va shu tarika ularni birmuncha murakkab materialni o`zlashtirlshga tayyorlashi lozim. SHu bilan blrga juda oson yoki o`quv-chilarga yaxshi ma`lum bo`lgan matsrlai ularning e`tiborini susaytlradi. Ukluvchining vazlfasi o`quvchilar tushuna oladlgan, lekin shu bilan birga ularni o`ylashga, tasavvur kilishga xamda ma`lum darajada qiyinchiligini engishga majbur qiladigan materlni tallashdan iborat bo`lmog`i lozim.

Ma`lumdan noma`lumga o`tish xam ta`limning tushunarli bo`lishini ta`minlaydl. Bu erda har bir yangi dars materlali o`quvchilar ilgarl puxta o`zlashtirib olgan bilimlar asosida tushuntiriladi.

O`qituvchi darsda o`quvchilarning o`zlashtirgan bilimlaridan hayotiy tajribalaridan foydalanadi, yangi materialni tushuntirishda ularga ma`lum bo`lgan misol va faktlarga asoslanadi.

O`quvchilar bilim egallashlarini osonlashtirish uchun o`quv materialini osondan qiyinga o`tilishini ta`mnnlash kerak. SHunday sharoit yaratilganida o`quvchilarning o`z kuchiga bo`lgan ishonchi ortadi.

Ta`limda onglik va aktivlik printsiplari amalga oshirish ham bilish jarayonining psixologik asoslariga to`la-to`kis tayanadi. Tartib va qoidalar yaxshi o`zlashtirilsada, ayrim hollarda shu bilimlarni bsvosita qo`llash jarayonida o`quvchilar qiynalishi mumkin.

O`qiguvchi tushunarli bo`lishi uchun kitob va boshqa manbalardagi rasmlarni ko`rsatar ekan o`quvchilarda aktiv munosabat tug`diradi va o`zlashtirshi lozim bo`lgan material to`g`risida idrok xosil kildiradi. Konkret materiallardan olingan taassurot bolalar tafakkurini uyg`otadi.

Ta`lim printsiplarini qarab chiqishni yakunlay turib, faqat ularning bir-birini to`ldirishi, bir-biriga muvofiq bo`lishigina ta`lim turi, vositalari, uslublari, tarkibiy tuzilishi va maqsadlarini muvaffa-hiyatli belgilashini ta`kidlab o`tmoqchimiz. U yoki bu printsiplarni muxim deb ko`rsatish mumkin emas, chunki bir xil ta`limiy va tarbiyaviy maqsadlarning xal etilishi boshqalarning hisobiga bo`lganligi sababli umumiy samaradorlikning pasayishini keltirib chiqaradi.

Xuddi shuningdek, ayrim printsiplarni etarli darajada baholamaslik ta`lim samaradorligini pasaytiradi, ta`lim printsiplarini yaxlit, mushtarak holda qo`llashgina zamonaviy maktab vazifalarini muvaffa-qiyatli hal etish imkoniyatini yaratadi.

**3.2. Kasbiy ta`lim jarayonida shaxs rivojlanishining pedagogik shart-sharoitlari.** Odam-individ tug`ilishi bilan o`zida insoniy, shaxsiy xislatlarni shakllantira boshlaydi. Ikki va undai ortiq insonlar bilan munosabatda, muloqotda bo`lgan har qanday odamda shaxsiy xislatlar paydo bo`ladi. Demak, xar bir tug`ilgan inson individ- odam. SHaxsiy xislatlarga ega bo`lgan ipson endi shaxsga aylana boshlaydi va aylanadi ham. SHaxslar odamlar taqdirini o`zgartira olish doirasiga, hajmiga qarab oddiy va buyuk shaxslarga bo`linadi.

SHaxsning kamolotga erishish ya`ni rivojlanish jarayoni murakkab jarayon bo`lib shaxsning ichki ta`siri va shaxsga ta`sir etuvchi tashqi omillar inson tomonndan boshkarilishi mumkin va unga umuman bog`liq bo`lmasligi mumkin.

SHaxsning rivojlanishi avvalo unda shaxsiy xislatlarning shakllanishi bilan boshlanadi. Rivojlanish o`zida shaxsning jismoniy, aqliy, axloqiy va boshqa xislatlarining takomilini namoyon etadigan jarayon bo`lib, bunday xislatlarning tug`ma, ba`zilari keyinchalik erishilgan bo`ladi.

Inson rivojlanishini xarakteratga keltiruvchi kuchlar ipson extlyojlarining ta`sirida yuz beradigan ob`ektiv omillar bilan ya`ni, oddiy jismoniy, moddiy ehtiyojdan boshlab, oliy ma`navll xztiyojlarga qadar bo`lgan ehtiyojlar bplap ularpp kanoatlantirishning imkoniyatlari va vositalari orasidagi karama-qarshilikdir. Bunday extnyojlar u yoki bu faoliyatning sabablarini vujudga keltiradi, o`zining extiyojlarini qanoatlantirish uchun vositalar va manbalar kidirishga, kishilar bilan muloqot qilishga undaydi. Inson ko`p sonli o`zaro alokalar o`rnatishi davomida uning ijtimoiy sifatleri shakllana boradi.

Ota-onadan tug`ma xislatlar, inson organnzmnning o`ziga xosligi uning genetik kodida yashirilgan bo`ladi, ya`ni inson jismnining o`ziga xosligi xaqida ma`lumot beruvchi va saqlovchi genetik kod mavjud bo`ladl.

Oilalardagi ota kasbiga qpziqish ko`p jixatdan oilalardagi bolalarning ma`lum bir faoliyat turiga qiziqish holatida tarbiya kilinganligiga hamda ularli ancha ertaroq bu faolnyatga jalb eta boshlalgalligi bilan ham izohlanadi. SHu bilan birga tug`ma iqtidorlar miyaning tarkibiy tuzilishiga, sezgi organlariga joylashtirilgan bo`lib, biron bir real faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishning shartlaridan biri sifatida xizmat qiladi. Ammo faoliyatning bu sohasida muvaffaqiyat ko`p darajada mazkur mehnat turi doirasida tajriba yig`ish va uni amaliyotda qo`llashni o`zlashtirish yordamida erishiladi.

SHaxsning rivojlanishi, taraqqiy etishi murakkab jarayondir. SHaxsning hamma ruhiy fazilatleri uning atrof muhit bilan muloqoti natijasida, insonning mexnat qilishdek xayotin faoliyati natijasnda ko`lga kiritiladi. Insonga tug`ma ravishda xatti-harakatlarning hech qanaqa, na ijtimoiy, na noijtimoiy dasturlari berilgan emas.

- ijtimoiy muhit ko`p jihatdan sotsial shart-sharoitlarga bevosita bog`liq. Insonning ijtimoiy qiyofasi uning ijtimoiy va davlat tuzumiga mansubligi, ijtimoiy ishlab-chiqarish munosabatlariniig

maxsuli, u yoki bu davlatning fuqaroligi, shaxsning sinfiy o`rnini belgilaydigan mazkur jamiyatda, mamlakatda o`rnatilgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning mahsuli hisoblanadi.

SHaxsiy sifatlarning shakllanishi va rivojlanishida tashqi atrof muhit bilai birga shaxsiy rivojlantirishga maksadli yo`naltirilgan o`quv tarbiya dargohlari alohida o`rin tutadi. Oila shaxsning shakllanishida jamiyatiipg asosiy bo`g`iii sifatida katta rol` o`ynaydi.

Ma`lum maqsadga yo`naltirilgan tarbiya faoliyatida san`at, adabiyot, madaniyat muassasalari, ijtimoiy tashkilotlar, uyushmalarning yordamidan foydalaniladi. SHaxs jamiyatda o`z o`rnini tezda topa bilishi uchun bir qator ijtimoiy bilim, ko`nikma va malakalarga ega bo`lishi, jamiyatda yashash tarzini o`zida singdirishi, mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko`rishi, jamiyatdagi xatti-harakatlar qoidalariga, me`yorlariga rioya etishga, odamlar, ijtimoiy institutlar bilan muloqot qilish haqidagi bilimlarning belgilangan xajmi bilan qurollantirish nazarda tutiladi. YA`ni tarbiyaning asosiy maqsadi shaxsning xatti-harakatlarini mazkur ja-miyatda qabul etilgan xatti-xarakatlar qoidalariga, me`yorlariga muvofiklashtirishdan iborat.

Maxallalarda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning ota-onalar orasidagi targ`ibot markazi maktab bo`lishi kerak. SHu bilai birga bola tarbiyasida va asosan o`quvchi shaxsining rivojlanish jarayonida tarbiya-chining ta`siri har bir o`quvchi uchun ayrsh o`ziga xos.liklarga ega bo`lishi lozim.

Insonning rivojlanishida, ruxiy fazilatlar va sifatlari, shuningdek, bilish jarayonlarini shakllantirishda uning asab sistemasining o`ziga xosliklari katta rol o`ynaydi. Pedagog va psixologlar ta`kidlashicha, oliy asab faoliyatiniig tug`ma turi hech o`zgarishsiz qolmaydi, balki yashash sharoitining ta`siri ostida, xususan tarbiya va o`z-o`zini tarbiyalash natijasida insonda o`zini tiya olish jarayonlar rivojlanishi, mustahkamlanishi, asabiy jarayonlarning kuchi hamda xa-rakatchanligi faoliyati oshishi mumkin.

Pedagogika fani tomonidan rivojlantirilayotgan tarbiya kontsentsiyasida tarbiyaning faqatgia ob`ekti emas, balki sub`ekti xam xisoblangan insonning o`z faoliyatiga katta o`rin beriladi. Tarbiyalash jarayonida tarbiyachi tomonidan unga taklif, takdim etiladigan talablarning inson tomonidan tushunlishi xamda kabul qilinishi katta rol o`ynaydi, ya`ni ularning aklan o`ylab ko`rilganligini tushunishga intilishni, haqqo`ylkni, izohlanganlikni, uning nzidan borish xoxishi qo`yilib keladigan nikobiy munosabatlarni unda shakllantiradi.

Tarbiya-tarbiyachining insonning ma`lum bir sifatlari va xususiyatlarini shakllantirish uchun maqsadiy yo`nalishli faoliyati bo`lib, har doim u ma`lum bir belgilangan yosh guruhiga yo`naltirilgan bo`ladi. CHunki ularning o`ziga xosliklari hamda imkoniyatlari inobatga olingan holda real tarbiyaviy vazifalar ilgari surilishi hamda tarbiyaviy ta`sirning aniqlangai, belgilangan usullari va vositalari tanlab olinishi mumkin. Inson hayotining bunday yoshga ko`ra boskichlariga maktabgacha, maktab, o`spirin yoshdagi hamda ijtimoiy etuklik davri - balog`at yoshi davrlari kiradi.

Maktab yoshlarini xayotga va jamoada mexiat kilishga tayyorlashga, xar bir balog`atga etmagan yoshlar vakilining shaxs sifatidagi no`nalishni belgilab boradigan dunyoqarashini shakllatirish uchui jamiyat oldida juda xam mas`ulpyatli bo`lib, unda beqiyos buyuk javobgarlik hissi yotadi.

**3.3. Kasbiy bilish jarayonining psixologiyasi.** Bilish jarayonida insonda muayyan faoliyag bilan birga ichki ruhiy faoliyat xam yuz beradi. Bu faoliyat shaxsning ruxiy rivojlapiishga olib ksladn. Xo`sh, ta`lim birlamchimi, rivojlanil birlamchim? Bu savolga ko`pchilpk psixolog olimlar javob berishga harakat qilishgan. Ko`pchilik olimlarniig fikricha ta`lim birlamchi, rivojlainsh ikkilamchi, ya`ni har qanday rivojlanish ma`lum darajada to`plangan bilimlarga asoslanadi. Bilimlar majmuasi - ta`lim xajmi jixatidan kengaya boradi. Sifat jixati yaxshilanishi natijasida rivojlanish xam shunga uzviy bog`liq ravishda ro`y beradi. Albatta, bu ikki qirra orasida juda xam uzviy bog`lanish mavjud. Ta`lim jarayonida odam mehnat kurollaridan foydalanpsh ko`nikmalarini egallab oladi. Uz-o`zidan ma`lumki, kishilarning ta`lim mobaynida namoyon bo`ladigan ijtimoiy munosabatlari ularning ruhiy faoliyatlar rivojlanishiga olib keladi.

O`zbek pedagogik psixologiyasining o`ziga xos tomonlaridan biri burchlarni shakllantirishga faol yo`naltirilganidir. Rivojlanishni xnsobga oladigan, uni ta`minlaydigap ta`lim tizimni tuiysh o`zbsk millii pedagogikasiiiiig asosiy printsipalaridan xisoblanadi.

SHaxsning rivojlanishida o`quv, akliy mehnat, ijodiyot bilan birga muloqot faoliyati xam aloxida o`rin tutadi. Muloqot bilimlarni o`zlashtirish uchun shart-sharoit yaratadi, bilish jarayonini aktivlashtiradi. Muloqot o`qituvchining o`quvchilar bilan o`quv jarayonini tashkil qilishning bir shakli

xisoblanadi. Muloqotning amalda keng qo'llaniladigan turli shakllari mavjud. Bulardan eng mukammali bu og'zaki muloqotdir. Og'zaki muloqot- ya'ni so'zlar aytiluvi orkali amalga oshiriladigan turi bir necha ming yillik tarixiga ega.

O'quv-bilish faoliyati o'quvchilar tomonidan o'quv ma'lumotlarini o'zlashtirish bilan birga ichki ruxiy kechinmalar tarzida yuz beradi. Albatta xamma o'quvchilar ham ichki ruhiy kechinmalarini og'zaki muloqot paytida ochib-solishga botinavermaydilar.

Ko'pchilikni tashkil etadigan guruxlarda og'zaki, hamda yozma muloqotni bevosita o'quv jarayonida, darsda o'tkazish birmuncha qiyinchiliklar tug'diradi. Bunday xollarda muloqotning boshqa shakllaridan foydalaniladi.

Keyilgi yillarda axborot vositalari sifatida komp'yuterlar va televideniedan keng foydalanilmoqda. «Axborotlar banki» ko'rsatkichi bo'yicha hozirda xechqanday vosita hlsoblash mashnalarlga teng kela olmaydi. Bu erda o'quvchilar bilan bevosita muloqot sifat auditoriyada o'rnatilgan guruxiy koml'yuterlar bilan o'qiguvchi pul'tida joylashgan komp'yutsr orasida amalga oshirilishi mumkin. Ommaviy axborot vositalarida esa komp'yuter butun bir korporatsiya, soha, vazirlik, tuman yoki viloyat hajmida yoki davlatlararo ko'lamda amalga oshirilgan bo'lishi mumkin.

Ta'lim jarayoni bevosita o'qituvchi rahbarligida amalga oshirilganida o'quvchilar o'qituvchn tomonidan taklif etilgan o'quv vazifalarini hal etish tadbirlarini bajaradilar, o'qituvchining sistemali nazorati ostida o'quv faoliyatini vaqti-vaqti bilan to'g'rilab boradilar, o'qituvchi rahbarligida o'quv faoliyati natijalarini tahlil etadilar.

Ta'lim jarayoni bevosita o'qituvchining raxbarligisiz o'quvchilar tomonidan mustaqil amalga oshirilganida o'quvchilar o'zlarining o'quv faoliyatini rejalashtiradilar va vazifalarini oydinlashtiradilar, o'quv faoliyati davomida o'z-o'zlarini nazorat qiladilar, nazorat natijalariga asoslanib o'quv faoliyatlarini kuchlari etganicha to'g'rilaydilar, o'quv faoliyatlari natijalarini o'zlari va o'quvchilar aro taxlil etadilar.

Ta'lim jarayoniida o'qituvchi o'quvchilarnint bprgalikdagi yoki o'quvchilarniig aloxida mustakil o'quv faoliyatlari bilish jarayonining asosini tashkil etadi. Bulardan tashqari bilimlarni o'zlashtirishning ichki jarayonlari xam mavjuddir. IIIu nuktai pazardan o'zlashtirish jarayonining psixologik tavsifini quyidagicha tasavvur etish mumkin:

#### BILISH JARAYONI

<i>Qabul etish (eshitish)</i>	<i>Tushunish</i>	<i>Anglash</i>	<i>Umumlashtirish</i>	<i>Mustahkamlash</i>	<i>Qo'llash</i>
-----------------------------------	------------------	----------------	-----------------------	----------------------	-----------------

Qabul etish (eshitish, sezish) o'quvchi sezgi organlariga ta'sir etadigan hodisalar va "jarayonlarning inson tafakkurida aks etishidir. Qabul etish jarayoniga ko'rish, fikr yurgizish, mulohaza yuritish bilan birga ularning avvalgi tajribalari haqidagi ma'lumotlar ham kiradi. Inson qabul etish jarayonida o'zining avvalgi bilimlari, amaliy tajribalariga suyalnish holda hodisalarning ayrim o'ziga xosliklai, belgllari, shakllari, shu bilan birga o'qituvchining tovush asosidagi ma'lumoti ham qabul etiladi.

Qabul qilish, eshitish, sezish o'rganilayotgan manbali tushunishga o'tishi kerak. Tushunish ayrim jarayollar, hodisalar orasidagi bog'liqliklar, voqea va xodlsalarning kelib chiqish sabablarini, matn mazmunining mohiyatini ochish va hokazolardan iborat. Izoxlalayotgan o'quv materiali tushularli bo'llshi uchun o'qituvchi o'quvchilarni o'z fikri ortidan ergashtira olishi, aniq mantiqiy bayon etishi muhimdir. Xususan ta'limni shu xusuida qurish kerakki, toki o'quvchilarning o'zlarl o'rganilayotgan ashyoviy dallllarni, tajribaviy ma'lumotlarni kiyoslashga jalb etilsin, ularning ilk sababla-rini izohlasinlar, o'zlarining ba'zi bir mustaqil xulosalarini chiqarsinlar.

O'zlashtirish jarayonining ketma-ketligi dars reproduktiv tarzida, ya'ni analiz metodi bilan o'tkazilganida namoyon bo'ladi. Amalda o'quv materialini o'zlashtirish muammoli hayotiy masalalarni hal etishdan boshlanadigan holatlar ham bo'lishi mumkin. O'quvchilarga muammo yoki nazariy xulosa taklif etiladi. O'quv jarayonida nazariy xulosalarni hayotda qo'llash, tatbik etishdan nazariy jihatdan tushunishga, anglash va fikr-lashga tomon boshqarib boriladi. Ta'lim jarayoniga mana shunday deduktiv yondoshish o'qitish muammoli metod bilan o'tkazilganida samarali natijalar beradi.

Guruh o'quvchilariniig hammasi ham bir xilda xlssiy kechinmalarga berila olmaydilar. SHuning uchun ham har bir o'quvchining indivedual psixologlk xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda

yoidoshish maqsadga mu-voflqdir. Zaif, sust o`zlashtirayotgan o`quvchilar uchun maxsus yutuqli vaziyatlar tashkil etllshi kerak. Sust o`quvchining xam yutuqlari albatta bo`ladi. Ijobiy xislatlar o`ziga xosllklarga mos vazifalarni ongli ravishda tanlash yo`li bilan ro`yobga chiqariladi.

Iqtidorli o`quvchllar bilan ishlashda xam hissiyotning ahamlyati katta. Iktidorli yoshlar murakkab masalalarni echish jarayonida qiyinchiliklarni boshidan o`tkazishadi. SHu bilan birga masala echilganida cheksiz quvonch tuyg`usi, o`z-o`zidan faxrlanish hissi paydo bo`ladi, masala echilmaganda esa qayg`u chekish holatlari yuz beradi. Iqtidorli o`quvchilar ko`pincha xudbinroq bo`lpb o`sishadi. Ularda o`z o`rtoqlariga nisbatan xayri-xoxlik kechinmalarini yo`lga qo`yish juda zarurdir.

Hozirda dunyo pedagogik jarayonida o`zlashtirish mustaqilligi asosiy o`rinda turadi. Amerika kollej va universitetlarida o`quvchilar shaxsiy aktivligi birinchi o`ringa qo`yiladi. Dars davomida o`quvchilar mustaqil ishlarining hajmi tajribalarni mustaqil ravishda o`tkazish, kuzatishlar, masalalar echishlar bilan boyitilsa, o`quvchilar hayotga yanada yaxshi tayyorlangan bo`ladilar. Darsda beixtiyor muammoli vaziyatlarni hosil kilish, o`quvchilarni bu vazifalarni echishdagi aktivligini rag`batlantirish, «yaxshisini oshirib, yomonini, kamchnligini yashirish», o`quvchilarni o`quv qiyinchiliklaridan o`zlari chiqib olish imkoniyatlarini yaratib berish o`qituvchining vazifasidir.

## Ma'ruza-4. « KASB TA`LIMI JARAYONI »

### 1.1. Trening mashg`ulotining ta`lim texnologiyasi

<i>O`quv soati: 2 soat</i>	<i>Tinglovchilar soni: 22 ta</i>
<i>O`quv mashg`uloti shakli</i>	Axborotli ma`ruza
<p><i>Mashg`ulot</i></p> <div style="border: 1px solid black; padding: 5px; width: fit-content; margin: 10px auto;"> <p><b>R e j a s i:</b></p> </div>	<div style="border: 1px solid black; padding: 5px; margin-bottom: 5px; background-color: #e0f7fa;">Pedagogik jarayon mohiyati va tuzilmasi</div> <div style="border: 1px solid black; padding: 5px; margin-bottom: 5px; background-color: #e0f7fa;">Ta`lim oluvchilarning o`quv faoliyatini tashkil etish</div> <div style="border: 1px solid black; padding: 5px; margin-bottom: 5px; background-color: #e0f7fa;">SHaxsiy bilimlarni oshirishning asosiy nazariyasi</div> <div style="border: 1px solid black; padding: 5px; background-color: #e0f7fa;">Kasbiy ta`limning samaradorlik mezonlari</div>
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi:</i> Tinglovchilarda mavzu bo`yicha bilim va ko`nikmalarni kengaytirish va chuqurlashtirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O`quv faoliyatining natijalari:</i>
ma`ruza- Pedagogik jarayon mohiyati va tuzilmasi haqida ma`lumot berish; Ta`lim oluvchilarning o`quv faoliyatini tashkil etish bilan tanishtirish SHaxsiy bilimlarni oshirishning asosiy nazariyasi bilan tanishtirish Kasbiy ta`limning samaradorlik mezonlari bilan tanishtirish	<i>tinglovchilar biladilar:</i> Pedagogik jarayon mohiyati va tuzilmasi haqida ma`lumot berish Ta`lim oluvchilarning o`quv faoliyatini tashkil etish SHaxsiy bilimlarni oshirishning asosiy nazariyasi Kasbiy ta`limning samaradorlik mezonlari
<i>Ta`lim usullari</i>	Ma`ruza, tezkor so`rov, namoyish etish, suhbat
<i>Ta`lim vositalari</i>	Tayanch matn, slaydlar
<i>O`qitish shakllari</i>	Ommaviy
<i>O`qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo`ljallangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	kuzatish

#### Adabiyotlar

1. K.D.Davlatov. «Kasb va kasb - ta`lim, kasb tanlash» «Kasb tarbiya nazariyasi va uslubiyati» Toshkent. Kasb 1994
2. Olimov Q.T. Kasb ta`limi uslubiyati. O`quv qo`llanma. – T.: 2006. 164 b.

**“Ma`ruza mashg`ulotlarida innovatsion ta`lim texnologiyasini loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari” bo`yicha ta`lim texnologiyasi**

**I. Tayyorgarlik bosqich**

<b>F a o l i y a t m a z m u n i</b>	
<i>O`qituvchi</i>	<i>tinglovchi</i>
Mavzuni aniqlaydi, maqsadni belgilaydi va o`quv natijalarini rejalashtiradi. Mavzu bo`yicha ko`rgazmali materiallar tayyorlaydi.	Mashg`ulotga tayyorlanadilar

**II. Amalga oshiruvchi bosqich- ma`ruza**

<b>F a o l i y a t m a z m u n i</b>	
<i>O`qituvchi</i>	<i>tinglovchi</i>
<p><b>1. Ma`ruzaga kirish.</b></p> <p>1.1. Maqsad va rejalashtirilgan o`quv natijalari bilan tanishtirish.</p> <p>1.2. Ma`ruza rejasi bilan tanishtiradi.</p> <p>1.3. Tinglovchilarga tezkor savol berib bilimlarini faollashtiradi: Pedagogik jarayon mohiyati va tuzilmasi talablari qanday?” SHunday bo`lsa asoslab bering.</p> <p>1.4. Javoblarni birgalikda umumlashtiradi va asosiy ma`ruza mavzusiga o`tadi.</p>	<p>Diqqat qiladilar va yozib oladilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar.</p>
<p><b>2. Asosiy qism.</b></p> <p>2.1. Faollashtirilgan bilimlar asosida tinglovchilarni mashg`ulot mavzusiga olib kiradi.</p> <p>2.2. Slaydlar yordamida mavzu mohiyatini reja asosida yoritadi.</p> <p>2.3. Ma`ruzani davom ettirishdan avval tinglovchilarga “Tezkor so`rov” texnikasini qo`llagan holda quyidagi savolga javob berishlarini so`raydi: Pedagogik jarayon mohiyati va tuzilmasi nimalarga bog`liq?</p> <p>2.4. Javoblarni qabul qiladi va ularni umumlashtiradi.</p> <p>2.5. Rejaning ikkinchi savolini - Dars rejasiniig namunaviy shakli yoritishdan avval tezkor savol orqali murojaat qiladi: “Ta`lim oluvchilarning o`quv faoliyatini tashkil etishga qo`yiladigan talablar?” -----</p> <p>2.6. Javoblarni qabul qiladi va ularga slayd materiali orqali qo`shimcha ma`lumotlar beradi.</p> <p>2.7. Rejaning uchinchi va to`rtinch savolini o`qituvch misollar asosida yoritadi.</p>	<p>Savollarga javob beradilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar .</p> <p>Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar</p>

**III. Yakuniy bosqich**

<b>F a o l i y a t m a z m u n i</b>	
<i>O`qituvchi</i>	<i>tinglovchi</i>
<p><b>Ma`ruzani yakunlash:</b></p> <p>Ma`ruza mashg`uloti mavzusi mazmuni bo`yicha yakun yasaydi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma`ruza yuzasidan savollarga javob beradi;</li> <li>• ma`ruza yuzasidan amaliy ishlar bajarilishini va mavzu yanada mustahkamlanishini aytadi;</li> <li>• tinglovchilarni tayyorgarligi, ularni savol javobda faolligini baholaydi;</li> <li>• ma`ruza natijaviyligining umumiy bahosini beradi;</li> </ul>	<p>Savollar beradilar, baholar bilan tanishadilar</p>

**4.1. Pedagogik jarayon mohiyati va tuzilmasi.** Pedagogik jarayon o`qituvchi va ta`lim oluvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarini amaliyotda qo`llash faoliyatini o`z ichiga qamrab oladi. Kasbiy ta`lim jarayonida **mazmun, o`qish, o`qitish, tarbiyalash** asosiy bog`lovchi komponentdir.

**O`qish** tizimli va asoslangan o`quv faoliyati bo`lib, ta`lim oluvchi tomonidan bilim, ko`nikma va malakalarni o`zlashtirishda o`quv jarayoni o`ziga xos o`rin tutadi.

**Anglash** murakkab, rivojlanuvchi jarayondir. Xis-tuyg`u va bilimlarni qabul qilish jarayonida ta`lim oluvchi ob`ektiv xaqiqatni anglaydi, u yoki bu predmet yoki jarayon to`g`risida taassurotga ega bo`ladi.

Samarali o`qitishning muhim shartlari quyidagilardir: ta`lim oluvchining qiziqishi faoliyatining faolligi, o`qituvchi va ta`lim oluvchi o`rtasidagi samimiy munosabat. Bu esa o`z navbatida o`quvchining o`qishga bo`lgan munosabati, uning samarali o`zlashtirishi, bilim va malakasining oshirishi, o`quv materiali bilan samarali ishlashi irodaviy sifatlarining rivojlanishi va olgan bilimlaridan estetik qoniqish hosil qilishini ta`minlaydi.

Ta`lim oluvchining xarakteri va faolligi rivojlanishi darajalari turlichadir. Agarda ta`lim oluvchilar faoliyati passiv bo`lsa, o`qitish jarayonini amalga oshirib bo`lmaydi.

1. Ta`lim oluvchining bilimlarni qabul qilish faolligi uning shaxs sifatida shakllantirishiga ham ta`sir ko`rsatadi. O`quvchida o`z-o`ziga munosabati mehnatiga, boshqa shaxslarga, jamiyatga, ishlab chiqarishga, atrof muxitga ham shakllantirib boradi.

2. Pedagogik jarayonning muhim speo`ifik sharoitlari. Oliy o`quv yurtlarida o`qitishning muhim speo`ifik shartlaridan biri - bu amaliy o`qitishdir. Amaliy o`qitish ta`limning muhim komponentlaridan biridir. O`qitish jarayoni amaliyotidan tubdan farq qiladi, chunki ishlab chiqarishdagi o`qitish uslubining asosiy maqsadi ta`lim oluvchining ma'lum bir kasbga yo`naltirish va shakllantirishdan iborat.

#### **O`qitish sistemada o`zaro aloqadorlik**

O`qitish jarayonini metodlar nuqtai nazaridan ko`rib chiqish lozim. Agar o`qish jarayoni ta`lim oluvchilarning o`zlashtirish qobiliyatlarini xisobga olmasdan tashkil etilsa, unday holda o`qitish jarayoni samarasiz bo`ladi.

#### **O`qitish jarayonining muhim komponenti**

Beriladigan bilim mazmuni o`quv dasturi, davlat ta`lim standartida ko`rsatilgan bo`lib, uning tarkibini ijtimoiy maqsad, davlat buyurtmasi, pedagogik tizimining aniq maqsadlari belgilaydi. Pedagogik jarayonning faqat ta`limning mazmunlilikigagina emas, balki uning qonuniyligiga ham ta`sir ko`rsatadi, chunonchi,

a) pedagogik jarayon sharoitiga qarab mazmun belgilanmasa, ta`lim oluvchilarning o`zlashtirishlari qiyin kechadi hamda pedagogik jarayon bilan amaliyotiy sharoit o`rtasidagi bog`liqlik yo`qoladi.

b) guruhning shaxsiy imkoniyatidan kelib chiqib o`qituvchi dasturga mantiqiy o`zgartirishlar kiritishi mumkin, biroq bunday holda ham pedagogik jarayonning o`zaro bog`liqligi buzilmasligiga e`tibor berishi kerak. O`quv jarayonining sifati butun pedagogik jarayon samaradorligiga bog`liq.

#### **Pedagogik jarayonning rivojlantiruvchanlik funktsiyasi**

Berilayotgan bilimlarni o`zlashtirish o`quv dasturida qayd qilingan ta`lim oluvchilar aqliy, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish borasidagi harakatlar ularning o`zlari tomonidan ham amalga oshirilishi lozim.

**Ta`lim oluvchilarni rivojlantirish** – bu pedagogik jarayon natijasidir o`qish rivojlanishning garovi bo`lib, fikriy, aqliy rivojlanish bilan birga faoliyatning ham rivojlanishiga olib keladi.

Pedagogik jarayon to`g`risida aniq fikrga ega bo`lish uchun bu jarayonni yo`naltiruvchi (boshqaruvchi) kuchlar haqida ham ma`lumotga ega bo`lish kerak. Bunday kuchlarning rivojlanishini dialektik o`qish nuqtai nazaridan aniqlash mumkin. Pedagogik jarayonga yuzaga keluvchi qarama - qarashliklar va ularning o`zaro aloqasini o`rganish ham muhimdir.

**4.2. Kasbiy ta`lim tamoyillari.** Umumdidaktik tamoyillar bilan pedagogik jarayon qonunlari o`zaro aloqada bo`lib, mazkur aloqa o`zining speo`ifik xususiyatlariga egadir. Ularning asosiylarini ko`rib chiqamiz.



**Politexnik tamoyil** Politexnik bilim zamonaviy ishlab chiqarish tizimining ilmiy asoslarini egallashni nazarda tutib, shu bilimlar asosida umumkasbiy politexnik va maxsus bilimlar shakllantiriladi.

Politexnik tamoyillarni o`qitishda quyidagi shartlarga amal qilish lozim.

- a) Asosiy yo`nalishdagi rivojlangan texnika va ilmni o`qitish
- b) bir-biri bilan o`zaro bog`langan o`quv material tizimini tashkil etish.
- v) O`rganilayotgan fan asoslari borasidagi bilimlarni amaliyotda qo`llash.
- g) Ta`lim berishda ta`lim oluvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish.
- d) Ta`lim oluvchilar qiziqishlarini qondirish.
- e) Kasbiy bilim berish umumta`lim bilimlariga tayanish.
- j) O`quv materialining turg`un bo`lishiga erishish.
- z) O`quv mavzularining ketma-ketligiga erishish.

**Amaliyot va nazariyaning o`zaro bog`liqligi tamoyili.**

O`quv jarayonida nazariy va amaliy bilimning o`zaro aloqadorligiga tayanish va o`quv predmetining asosiy maqsadi o`zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo`llash quyidagi shartlarga amal qilishga bog`liq.

- a) nazariy bilimlarning amaliyotda sinalishi.
- b) ixtiyoriy ish jarayonida sohaviy bilimlarning qo`llanilishi.
- v) ishchilarni samarali o`qitish omili kasbiy ishlab chiqarish talabiga muvofiq kasbiy bilim berish ekanligini yodda tutish;
- g) bilimlarni o`zaro malakaviy bog`lashda gorizontal va vertikal yo`ldan foydalanish.

**O`quv jarayonida mutaxassis faoliyatini modellashtirish tamoyili.** Modellashtirish orqali mazmun va maqsadlarni isbotlash uchun avval oson bilimlarni o`zlashtirish, o`qitish metodlarini o`quv rejasi va o`quv dasturi talablari asosida tanlash. O`quv jarayonida keng tarmoqli ishchi faoliyati quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi:

- a) bilim va malakani politexnik yo`naltirish.
- b) Ko`chirib (integrtsiya asosida) o`qitish jarayonida gradatsiyaning o`rni.
- v) Ko`chirib o`qitish jarayoni.

**Mobillik tamoyili.** Bu printsip shaxsning texnik bilimlari tez o`zlashtirish qobiliyatini tavsiflanadi. Ishchining ijodiy ish xarakteri, dunyoqarashining kengligi muammolarni anglab olish va ishlab chiqarish rivojlanishini ko`ra bilish bilan belgilanadi.

**Tartibli ketma – ketlik tamoyili quyidagilarni o`z ichiga oladi:**

- \* o`quv jarayonini rejalashtirish;
- \* o`quv jarayonida ketma – ketlikga amal qilish;
- \* deduktiv o`qitish metodlarini qo`llash;
- \* umumiy ta`lim bilimlarini tayanch qilib olish;
- \* o`quv materallarini o`zaro bog`liq holda tartibli berib borish.

**Atrof-muhitni tashkil etish tamoyili.** Atrof muhit deganda avvalom bor bilim yurtida o`quv qurollari didaktik vositalar bazasini aratish va texnik, texnologik, ekologik talablarga rioya qilish shu bilan birga mehnat muhofazasini ta`minlash va ta`lim oluvchilarning sog`liqlarini saqlash borasida muayyan sharoitlarni yaratish lozimligi tushuniladi.

**Komp`yuterlashtirilgan pedagogik jarayon tamoyili**

Hozirgi vaqtda komp`yuterlar hayotimizning turli sohalariga kirib kelmoqda. SHu bois ushbu tamoyil muhim ahamiyatga ega. Komp`yuterlar pedagogik sohada ham keng qo`llanilmoqda. Ta`lim oluvchilar komp`yuterlar yordamida mavzuni kengroq, qiziqarliroq o`zlashtiradilar va tushuntirilayotgan mavzuni ekranda ko`rish imkoniyatiga ega bo`ladilar.

**4.3. Pedagogik jarayonni loyihalash. Pedagogik loyihalash tushunchasi** hozirgi davrda pedagogik adabiyotlarda shuningdek, amaliyotchi pedagoglar tomonidan muammoli texnologiya keng qo`llanilib, aqliy rivojlanishini ta`minlash maqsadida bosqichma bosqich komp`yuter texnologiyasi va boshqa texnologiyalarni qo`llash tavsiya etilmoqda. Ushbu faoliyat ixtiyoriy pedagogik texnologiyani loyihalash asosida qo`llash mumkinligini anglatadi.

**Loyihalash ob`ekti va muammolari.** Loyihalash hozirgi kunda pedagogik jarayonning muhim jihatdan biri bo`lib, malakali pedagogik jarayon texnologiyasi va boshqa ob`ektlar o`qituvchiga ta`lim

oluvchilarni shaxs sifatida shakllantirish hamda ular tarbiyasiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni yo'qotib, har bir ta'lim oluvchi uchun individual pedagogik sharoitlar yaratadi.

#### **Pedagogik loyihalashning (rejalash) umumiy algoritmi.**

Tayyorlov ishlari:

- 1.Loyihalash ob'ektining tahlili.
- 2.Loyihalash shakllarini tanlash
- 3.Loyihalashtirishni nazariy jihatdan ta'minlash (tajriba natijasi).
- 4.Loyihalashtirishni metodik jihatdan ta'minlash (didaktik va metodik materiallar).
- 5.Vaqt bilan ta'minlash (ma'lum vaqt va hajmda ishlash).
- 6.Loyihalashni moddiy va texnik jihatdan ta'minlash.
- 7.Loyihalashni xuquqiy jihatdan ta'minlash (pedagogik tizim va jarayonda).

8.Loyihani ishlab chiqish. Bilim berish omilini tanlash. Ixtiyoriy tizimning o'z-o'ziga bilim berish omili orqali qolgan komponentlari aniqlanib, bu omil boshqa omillar bilan bir butunlikni tashkil etadi. Pedagogik tizimning o'zi bilim beruvchi bir butun komponent hisoblanadi. Chunki u, ta'lim oluvchini shaxs sifatida shakllantiradi. Ushbu faoliyatni komp'yuterlar ham bajarishi mumkin, faqat ular maqsadga mos ishchi lozim.

9.Komp'yuterlar orasidagi aloqani yo'lga qo'yish.

10.Hujjatlarni rasmiylashtirish-oldindan barcha pedagogik loyihalashtirish shakllari qo'llanilishi bilan birga maqsadni, yaqinlashtiruvchi yangi shakllardan ham foydalanish mumkin. Chunki, loyiha sifatini tekshirish.

11.Ilmiy faraz (hayolan umumiy jarayonni ko'rish).

12.Loyihaga nisbatan mutaxassislar bahosi (sohaning mutaxassislari va bu loyihani qo'llashdan manfaatdor shaxslarning bahosi).

13.Loyihani shakllantirish.

14.Loyihani tasdiqlash va foydalanishga berish.

Loyihani tasdiqlashda birinchi o'rinda loyiha kafedra muhokamasiga berilib keyin yuqori attestatsion kengashlar himoyasiga qo'yiladi. Attestatsion komissiya himoyasiga qo'yilgan loyiha yutug'i, maqsadi, chuqur tahlili, o'quv materiallarining mazmuni, metod va shakllariga nisbatan o'z bahosini beradi.

**4.4. Ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish.** Ta'lim oluvchilarning asosiy o'quv faoliyati bilimlarni o'zlashtirish bo'lib, u quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi. O'quv materialini qabul qilish, fikrlash, egallab qolish va qo'llash. Bu komponentlar bir – biri bilan o'zaro bog'liq bo'lib, o'quv jarayonida ketma-ket qo'llanilib, butun bir o'quv jarayonini tashkil etadi.

#### **Ta'lim oluvchi tomonidan o'quv materialining qabul qilinishi.**

O'quv materialini qabul qilish o'quv jarayonining eng muhim qismidir. O'quv materialining yaxshi qabul qilinishi o'quv ishlab chiqarish faoliyatida mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.

**O'quv materialini samarali o'zlashtirishning ichki sharoitlari.** O'quv materialini samarali o'zlashtirish uchun, eng avvalo ta'lim oluvchining ehtiyoji bo'lishi kerak. Ichki ehtiyoj bilimlarni o'zlashtirish vaqtida harakat sifatini oshiradi. Ichki o'zlashtirish, materialni imtixonga qadar esda saqlanib qolish bo'lib, javob berib bo'lgandan keyin esdan chiqadi. O'zlashtirishning muvaffaqiyati ta'lim oluvchining faoliyatiga ham bog'liq bo'ladi. Chunki ta'lim oluvchi berilayotgan material mazmuniga qiziqsa va o'z ustida ishlasa o'zlashtirishning eng yuqori cho'qqisiga erishishi mumkin.

**Qabul qilishning tashqi omillari.** Qabul qilishning asosiy omillari asosan o'quv materialining mazmuniga bog'liq bo'ladi. Uning qiyinligi, o'quv materialida qo'llaniladigan texnik tushunchalarning aniq yoki mavhumligi amaliyotga bog'liqligiga ko'ra farq qiladi.

**Eslab qolish.** O'quv materialini qabul qilishning eng muhim komponenti bu yangi materialni eslab qolish va xohlagan vaqtda uni nazariy va amaliy jihatdan qo'llay olishdir. Ta'lim oluvchi o'quv materialini bilan faol ishlagan sari uni yaxshi o'zlashtiradi va samarali qo'llaydi. SHuni ham unutmaslik kerakki, o'ta murakkabdan ko'ra yaxshi eslab qolinadi va formulali materialga nisbatan hayotiy ma'lumotlar uzoq saqlanadi. eslab qolishning samaradorligi ta'lim oluvchining irodaviy xususiyatlariga bog'liq bo'lib, irodasiz ta'lim oluvchilar materialni yuzaki o'zlashtiradilar, natijada ma'lumotlar tez unutiladi.

**Tushunishni tizimlashtirish.** Bilimlarni egallash, bu, eng avvalo, muayyan tushunchaga ega bo'lgan shaxsiy bilimlar darajasini xarakterlaydi. Tushunishning asosiy xususiyati mavhumdan aniqlikka o'tishdir. Tushunish muomala va muloqotning mahsuli hisoblanadi.

Signalizatsiya – fikrlash faoliyati davrida o'rganiladigan, egallaniladigan bilimlar majmuasi demakdir.

**Bilimlarni qo'llash asosida ko'nikma va malakalarni shakllantirish.**

Bizga ma'lumki bilimlarni amaliy faoliyat jarayonida qo'llay bilish bilimlarning egallanganlik darajasini ko'rsatadi. Nazariy bilimlar o'zida ikki jihatni aks ettiradi:

– Nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay bilish, ya'ni laboratoriya ishlarini bajarish davomida egallagan bilimlar asosida uy vazifasini bajarish;

– Bu jarayonda bilimlar kengayib mukamallashib chuqur o'zlashtirilgan bilimga aylanadi.

**4.5. SHaxsiy malakaviy bilimlarni o'zlashtirish.** SHaxsning o'z ustida ishlashi. SHaxsiy bilimlarni oshirish, bilim olishning alohida turi hisoblanib, unda ta'lim olishning asosiy og'irligi ta'lim oluvchi zimmasiga yuklatiladi. Bu jarayonda quyidagi ijtimoiy psixologik shartlarga amal qilinadi:

– Ta'lim oluvchining shaxsiy kasbiy malakasining yuqoriligi.

– Ommaviy o'qitish korxonalar individual ish faoliyati aholi orasidagi bandlikni ta'minlashga olib keladi.

– Mutaxassislar bilim darajasi mehnat jarayonida raqobatbardoshlikni ta'minlaydi.

– Zamon anaviy texnologiyalar va mutaxassislar faoliyati ishsizlikni keltirib chiqaradi, bu holat esa ishsizlarni yangi mutaxassislik turlariga qayta o'qitishni taqozo etadi.

– Dunyo iqtisodiyotining rivojlanishi va shu bilan birga mutaxassislar bilimining mukamallashib borishiga olib keladi.

**4.6. SHaxsiy bilimlarni oshirishning asosiy nazariyasi.** Bu o'rinda ham mutaxassisning shaxsiy qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan:

– SHaxs sifatida turli sohalarda rivojlanish (shaxsning individual yutuqlari xisobiga olingan xolda).

– Ishchilarning ish mazmuni tubdan o'zgaradi. Bunda ishchilarning bilim ko'nikma va malakalardan tashqari mutaxassislik mahorati alohida rol' o'ynaydi.

– Kasblarning turg'unsizligi, ya'ni, mehnat bozorida kasblarga bo'lgan talabning o'zgarib turishi.

**4.7. SHaxsiy ma'lumot mazmuni.** An'anaviy rejalashtirish mazmuni malakaviy ta'lim berishda shaxsni rivojlanib, shakllanib borishga to'la imkon bermaydi, O'quv rejasi mazmuni va shakllar bunga hamisha to'la yo'l qo'yavermaydi.

Bunga erishishi uchun o'quv dasturi xujjatlariga modul xarakterli qo'llanilib har bir bo'limga mustaqil yondashuvi imkoniyatini berish kerak. Ta'lim oluvchiga didaktik vositalar o'quv blokini tanlash va o'z ustida ishlash imkoni beriladi. O'qituvchi esa sekin-asta maslahatchi, ilmiy rahbar rolini bajarishga o'tadi.

**4.8. Malakali rivojlanishning sub'ektiv monitoringi.** Monitoring tushunchasi lotin tilidan olingan bo'lib, eslatib turuvchi ma'nosini anglatadi. Malakaviy o'quv jarayonini tashxisli kuzatish ushbu tushuncha mazmunini anglatadi. Monitoringning asosiy mohiyati malakali o'quv jarayonini dinamik jihatdan tashhishlashdir.

Texnologik monitoringni quyidagi gruppalariga bo'linishi mumkin:

a) Kuzatish – kasbiy rivojlanganligi o'zgarishlar va yangiliklarda kuzatib borish. Kuzatish doimo o'zining sub'ektivligi bilan tavsiflanib monitoring sifatiga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin.

b) Testli sharoit metodi – bunda o'qituvchi maxsus sharoit yaratib, bu sharoitda ta'lim oluvchilarning malakaviy o'quv faoliyati yaqqol ko'rinadi. Malakaviy faoliyat sifatini aniqlash uchun o'qituvchi o'quv jarayoni orasida aniqlovchi savollar berib borishdir.

v) eksplikatsiya.

g) So'rov metodi – o'qitish jarayonida o'quv materialini yuzasidan muayyan sub'ekt borasida yozma tahlilni olib borish yoki maxsus tayyorlangan (tanlangan) savollarga og'zaki javob berish.

Bu metod yordamida o'quv materialining o'zlashtirilganlik darajasini ham aniqlash mumkin. Monitoring asosiy metodi bu malakaviy o'quv jarayonining natijalarini tahlili etishdir. Ushbu tahlil

asosida ta`lim oluvchilarning grafik materiallari, texnik ishlari, hamda yozma matnlari yuzasidan tahlil olib boriladi.

**Monitoringni 3 turga ajratish mumkin:**

- Boshlang`ich tashhis.
- Ekspress (teskor) tashhis.
- YAkunij tashhis.

**4.9. Ta`lim oluvchilarning shaxsiy malakaviy rivojlanishini mo`ljallash texnologiyasi.**

Ta`lim oluvchilarning shaxs sifatida texnologik jihatdan o`rganishning malakaviy bilimlari rivojlanishi darajasini aniqlash o`qituvchining innovatsion faoliyati mazmuniga bog`liq. CHunki o`qituvchi ma`lumotlarni to`plab qolmay, balki ta`lim oluvchilarga etkazib ham beradi. SHunday ekan, o`qituvchilarning malakaviy bilimlari takomillashib, pedagogik faoliyati hamda fikrlash faoliyati mazmuni mukamallashib boradi.

**SHaxsiy malakaviy bilimlar rivojini mo`ljallashning maqsadi** - ta`lim oluvchida malakaviy bilimlarni rivojlantirish, kasbiy tajribaga ega bo`lishni ta`minlash, unda soha mutaxassisi bo`lish va o`z ustida ishlashga ko`nikma hosil qilishdan iborat. Tamoyillari:

1. Kasbiy ta`limni insonparvarlashtirish.
2. Kelajakni rejalashtirish, kasb tanlashda shaxs qobiliyati va malakasini hisobga olish.
3. O`z ko`nikma va malakasini oshirish, shakllantirishga nisbatan izlanuvchanlik iqtidori va ichki ehtiyoj bilan yondoshish.

**O`qituvchi malakasini oshirishda motivatsiyani shakllantirish quyidagilarni o`zida aks ettiradi:**

- O`qituvchining shaxsiy attestatsiyasi.
- Malakani oshirish jarayonida muammoli seminar va rivojlantiruvchi ma`ruzalarni tashkil etish.

**Ta`lim oluvchining shaxsiy bilimlar mazmunini farqlashda quyidagi vazifalar hal etiladi:**

- O`quv rejasini variantlar asosida tuzish;
- SHaxsni rivojlantirishda ishlab chiqarish texnologiyasi texnika, texnik ijod psixologiyasi, hamda malakali psixologlar xizmatidan unumli foydalanish.
- Qo`shimcha psixologik fakul`tativ kurslarni tashkil qilish.

**Pedagogik texnologiyada shaxsiy malakaviy rivojlanishni mo`ljallash quyidagiga tashkil etadi:**

- Masalalar majmuasini xal qilish va integrativ dasturlarni ishlab chiqish jarayonida texnologik o`qitishni tashkil etish;
- Qo`llanmalar yordamida o`z o`zini boshqarishga o`qitish.

**O`qish jarayonida o`quv jihozlarni tanlashda shaxsiy mo`ljallash olish ko`nikmalarini tarbiyalash quyidagilardan iborat bo`ladi:**

- Ta`lim oluvchining o`qish jarayonini nazorat qilishi va boshqarishi;
- Amaliy xonalarni tashkil qilishi;
- O`quv joylarini tashkil etishi.

**4.10. Kasbiy ta`limning samaradorlik mezon.** Mutaxassislik malakasi samaradorligini aniqlovchi asosiy kriteriyalar quyidagilar kiradi:

- malakaviy faoliyatda mustaqillik xissining yuzaga kelishi;
- mehnat xavfsizligiga amal qilgan holda texnik talablarni bajarish;
- ishlab chiqarishda vaqt va me`yorlarga amal qilish;
- kasbiy faoliyatida fikrlash va o`zini o`zi nazorat qilishni tashkil etish;
- mehnat madaniyatiga qat`iy amal qilish;
- mehnat faoliyatiga ijodiy yondoshish;
- bajariladigan ish uchun ma`suliyat xis qilish.

## Ma'ruza-5. «KASBIY TA'LIMDA O`QITUVCHI VA O`QUVCHI SHAXSI FAOLIYATINI UYG`UNLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI»

### 1.1. Trening mashg`ulotining ta`lim texnologiyasi

<i>O`quv soati: 2 soat</i>	<i>Tinglovchilar soni: 22 ta</i>
<i>O`quv mashg`uloti shakli</i>	Axborotli ma`ruza
<p><i>Mashg`ulot</i></p> <div style="border: 1px solid black; padding: 5px; width: fit-content; margin: 10px auto;"> <p><b>R e j a s i:</b></p> </div>	<div style="border: 1px solid black; padding: 5px; margin-bottom: 5px; background-color: #e0f7fa;"> <p><b>Ta`lim texnologiyasining mohiyati</b></p> </div> <div style="border: 1px solid black; padding: 5px; margin-bottom: 5px; background-color: #e0f7fa;"> <p><b>O`quv materialini o`zlashtirish darajalari</b></p> </div> <div style="border: 1px solid black; padding: 5px; margin-bottom: 5px; background-color: #e0f7fa;"> <p><b>Modullashgan ta`lim texnologiyasi</b></p> </div> <div style="border: 1px solid black; padding: 5px; background-color: #e0f7fa;"> <p><b>Ta`lim va tarbiyag mafkurasi</b></p> </div>
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi:</i>	Tinglovchilarda mavzu bo`yicha bilim va ko`nikmalarni kengaytirish va chuqurlashtirish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O`quv faoliyatining natijalari:</i>
ma`ruza- Ta`lim texnologiyasining mohiyati haqida ma`lumot berish; O`quv materialini o`zlashtirish darajalari bilan tanishtirish Modullashgan ta`lim texnologiyasi bilan tanishtirish Ta`lim va tarbiyag mafkurasi bilan tanishtirish	<i>tinglovchilar biladilar:</i>  Ta`lim texnologiyasining mohiyati haqida ma`lumot berish O`quv materialini o`zlashtirish darajalari Modullashgan ta`lim texnologiyasi Ta`lim va tarbiyag mafkurasi
<i>Ta`lim usullari</i>	Ma`ruza, tezkor so`rov, namoyish etish, suhbat
<i>Ta`lim vositalari</i>	Tayanch matn, slaydlar
<i>O`qitish shakllari</i>	Ommaviy
<i>O`qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo`ljallangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	kuzatish

#### Adabiyotlar

1. K.D.Davlatov. «Kasb va kasb - ta`lim, kasb tanlash» «Kasb tarbiya nazariyasi va uslubi» Toshkent. Kasb 1994
2. Olimov Q.T. Kasb ta`limi uslubi. O`quv qo`llanma. – T.: 2006. 164 b.

**“Ma`ruza mashg`ulotlarida innovatsion ta`lim texnologiyasini loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari” bo`yicha ta`lim texnologiyasi**

**I. Tayyorgarlik bosqich**

<b>F a o l i y a t m a z m u n i</b>	
<i>O`qituvchi</i>	<i>tinglovchi</i>
Mavzuni aniqlaydi, maqsadni belgilaydi va o`quv natijalarini rejalashtiradi. Mavzu bo`yicha ko`rgazmali materiallar tayyorlaydi.	Mashg`ulotga tayyorlanadilar

**II. Amalga oshiruvchi bosqich- ma`ruza**

<b>F a o l i y a t m a z m u n i</b>	
<i>O`qituvchi</i>	<i>tinglovchi</i>
<p><b>1. Ma`ruzaga kirish.</b></p> <p>1.1. Maqsad va rejalashtirilgan o`quv natijalari bilan tanishtirish.</p> <p>1.2. Ma`ruza rejasi bilan tanishtiradi.</p> <p>1.3. Tinglovchilarga tezkor savol berib bilimlarini faollashtiradi: Ta`lim texnologiyasining mohiyati talablari qanday?” SHunday bo`lsa asoslab bering.</p> <p>1.4. Javoblarni birgalikda umumlashtiradi va asosiy ma`ruza mavzusiga o`tadi.</p>	<p>Diqqat qiladilar va yozib oladilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar.</p>
<p><b>2. Asosiy qism.</b></p> <p>2.1. Faollashtirilgan bilimlar asosida tinglovchilarni mashg`ulot mavzusiga olib kiradi.</p> <p>2.2. Slaydlar yordamida mavzu mohiyatini reja asosida yoritadi.</p> <p>2.3. Ma`ruzani davom ettirishdan avval tinglovchilarga “Tezkor so`rov” texnikasini qo`llagan holda quyidagi savolga javob berishlarini so`raydi: Ta`lim texnologiyasining mohiyati nimalarga bog`liq?</p> <p>2.4. Javoblarni qabul qiladi va ularni umumlashtiradi.</p> <p>2.5. Rejaning ikkinchi savolini - Dars rejasini namunaviy shakli yoritishdan avval tezkor savol orqali murojaat qiladi: “O`quv materialini o`zlashtirish darajalariga qo`yiladigan talablar?” -----</p> <p>2.6. Javoblarni qabul qiladi va ularga slayd materiali orqali qo`shimcha ma`lumotlar beradi.</p> <p>2.7. Rejaning uchinchi va to`rtinch savolini o`qituvch misollar asosida yoritadi.</p>	<p>Savollarga javob beradilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar .</p> <p>Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar</p>

**III. Yakuniy bosqich**

<b>F a o l i y a t m a z m u n i</b>	
<i>O`qituvchi</i>	<i>tinglovchi</i>
<p><b>Ma`ruzani yakunlash:</b></p> <p>Ma`ruza mashg`uloti mavzusi mazmuni bo`yicha yakun yasaydi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma`ruza yuzasidan savollarga javob beradi;</li> <li>• ma`ruza yuzasidan amaliy ishlar bajarilishini va mavzu yanada mustahkamlanishini aytadi;</li> <li>• tinglovchilarni tayyorgarligi, ularni savol javobda faolligini baholaydi;</li> <li>• ma`ruza natijaviyligining umumiy bahosini beradi;</li> </ul>	<p>Savollar beradilar, baholar bilan tanishadilar</p>

### **5.1. Ta'lim texnologiyasining mohiyati**

O'zbekiston Respublikasi mustaqillika erishgach, ta'lim davlat siyosatida markaziy o'rinlardan birini egalladi. Bu esa "Ta'lim to'g'risidagi" Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturining" yaratilishiga asos bo'ldi. Natijada ta'lim jarayonida ta'lim mazmunining yangi loyixasi - ilg'or pedagogik texnologiyalarga o'tish zaruriyati vujudga keldi.

Oliy majlisning XIV sessiyasida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov "Yangi darsliklarni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni tahminlashni alohida nazorat ostiga olish zarur"ligini uqtirgan edilar.

*Ma'lumki, har qanday pedagogik texnologiya ta'limning yangi loyihasi rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillariga asoslangan bo'lib, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilmog'i kerak. Ilg'or pedagogik texnologiyaning markazida esa ta'lim jarayonining rahbari hamda shu jarayonning sub'ekti-yu ob'ekti bo'lgan o'qituvchi va o'quvchi turadi. SHunday ekan, bu ikki shaxsning hamkorligi, o'zaro muloqoti, bir-biriga ko'rsatadigan ta'siri eng zamonaviy va milliy talablar asosida tashkil topishi lozim. Buning uchun birinchi navbatda, o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayoni oldiga qo'yilgan talablar, ta'limni tashkil etish va boshqarish printsiplari hamda yo'llari, o'quvchini aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish usullari, u bilan hamkorlik qilish, uni o'qishga, o'rganishga yo'naltirish, o'quvchi shaxsi faoliyatini to'g'ri tashkil etish, ular bilan muloqotga kirishish, muammo va kelishmovchiliklarni bartaraf etish, sinfda ijodiy, ishchan muhitni vujudga keltirish, o'quvchi faoliyatini aniq va to'g'ri baholash metodlari bilan qurollangan bo'lishi lozim.*

Ta'lim texnologiyasining falsafasi nimadan iborat

"Texnologiya" yunoncha so'z bo'lib, "techne" - "mahorat", "sanhat" va "logos" - "tushuncha", "o'rganish" demakdir. Texnologiya so'zi zamirida jarayonlarni amalga oshirish usul va vositalari haqidagi bilimlar yig'indisi, shuningdek, ob'ekt-da sodir bo'ladigan sifat o'zgarishlar tushuniladi.

O'qituvchilar o'z ish faoliyatini quyidagi texnologik jarayonga bo'ysundirishlari kerak: tartibga solish, bir tizimga keltirish, ilgaridan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish.

"Ta'lim texnologiyasi" tushunchasi "Ta'lim metodikasi" tushunchasiga nisbatan kengdir. "Ta'lim metodi" - o'quv jarayonining kompleks vazifalarini echishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatish usuli. "Ta'lim metodikasi" esa muayyan o'quv predmetini o'qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimini ifodalaydi.

"Ta'lim texnologiyasi" tushunchasi - ta'lim maqsadiga erishish instrumentariysi, yahni ilgaridan loyihalash-tirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish va shu maqsadga erishishning metod, usul va vositalar tizimi, ta'lim jarayonini boshqarishni ifodalaydi.

### **5.2. O'quv materialini o'zlashtirish darajalari.**

Pedagogik texnologiya doirasida yangi o'quv materialini o'zlashtirishning boshlang'ich, algoritm, ijodiy, evristik xarakterdagi darajalari mavjud.

Boshlang'ich xarakterdagi daraja - o'quvchining eshitgan-lari, ularga berilgan namunalar, taqdim etilgan algoritm va ko'rsatmalar asosida topshiriqlarni bajarish ko'nikmasi-ni ifodalaydi.

Algoritm xarakterdagi daraja - bilim va ko'nikmalar mazmunini tatbiq qila olish mahorati, bir tipdagi masalalarni echa olish, yozib olish va eslab qolish faoliyatini amalga oshirish ko'nikmasini ifodalaydi.

Ijodiy xarakterdagi daraja - o'quv materialini, shuningdek, ilgari o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni turli holatlarda tadbiq eta olish mahorati bilan xarakterlanadi.

Evristik xarakterdagi daraja - taqdim etilgan o'quv masalalarini echish yo'llarini izlash hamda bu muammolarni echish uchun yangi axborotlarni mustaqil tarzda izlab topish ko'nikmasiga ega bo'lish bilan xarakterlanadi.

Boshlang'ich va algoritm xarakterdagi darajalar reproduktiv plandagi bilim va ko'nikmalarni talab qiladi. O'zlashtirishning ushbu darajalardagi pedagogik texnologiyani ijrochi texnologiya deb atash mumkin.

O'quv materialini esda saqlab qolishga va ko'nikmalarni hosil qilishga yo'naltirilgan bilim va mahoratlar dara-jasi o'quvchilarning reproduktiv va mahsuldor (produktiv) faoliyatlarini uyg'unlashtirishni talab qiladi.

Bu darajaning pedagogik texnologiyasi muammoli-rivojlantiruvchi texnologiyaga aloqadordir. Bunday texnologiya asosida ta'lim jarayonini tashkil etganda o'quvchilar o'quv materialini referatlashtirishga, ma'ruzalar bilan chiqishga, munozaralarda va ishchan o'yinlarda ishtirok etishga o'rganishlari lozim.

O'quv-biluv faoliyati izlanuvchi, evristik xarakter kasb etganda, yuqori darajadagi muammoli, muammoli-rivojlantiruvchi ta'lim metodi, vaziyatlarni tahlil qiluvchi topshiriqlar metodi, ishchan o'yinlar, mustaqil ishlar, muammoli xarakterdagi topshiriqlardan foydalanish zarur. Bu darajaning pedagogik texnologiyasi evristik texnologiya deb ataladi.

Ta'lim jaraenining didaktik tarkibi quyidagi pedagogik texnologiyalarni ajratishga imkon beradi: muayyan o'quv tarbiya maqsadlarini bajarishga sabab bo'luvchi omillarni yaratishga asoslangan pedagogik texnologiya (kelgusida o'quv omillarini yaratish texnologiyasi), faoliyat ko'rsatishga asoslangan pedagogik texnologiya va boshqarishga asoslangan pedagogik texnologiyasi.

Ta'lim-tarbiya ishini tashkil etishda o'qituvchi va o'quvchi orasidagi o'zaro munosabat va muloqotning turli yo'llari (stillari) mavjud. Ularni quyidagilarga -o'qituvchining o'quvchilar jamoasiga nisbatan barqaror-ijobiy, sust-ijobiy hamda beqaror munosabatlariga ajratish mumkin.

O'qituvchining o'quvchilarga nisbatan barqaror-ijobiy munosabati bolalarga nisbatan turg'un hissiy-ijobiy munosabat, ularga g'amho'rlik ko'rsatish, qiyinchiliklarni engishga yordam berish, ular bilan vazmin va teng ohangda muloqotda bo'lish bilan xarakterlanadi.

Sust-ijobiy munosabatdagi o'qituvchilar quruq munosabat va rasmiy ohang bilan ajralib turadilar.

Pedagogik texnologiyaning faoliyat ko'rsatishi hisobiga ta'lim jarayonining motivatsiyasi kuchaytirilishi mumkin. Ma'lumki, tayyor holda olingan bilimlar, odatda, ularni amaliyotda qo'llashni qiyinlashtiradi, bu ayniqsa, aniq masalalarni echishda namoyon bo'ladi. SHuning uchun bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda bevosita o'quvchilarning o'zlari faoliyat ko'rsatishlari talab etiladi. Bu muammolarning echimi bevosita boshqaruvga asoslangan pedagogik texnologiyaning qo'llanilishi bilan bog'liqdir.

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasining etakchi printsiplari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: inkorporatsiya - sistemali yondashuv asosida turli fanlarga oid bilimlarni birlashtirish, moslashganlik - turli ta'lim muassasalarida ta'lim shakli, metodi va usullarining qo'llaniluvchanligi, uyg'unlilik-muayyan o'quv predmetiga oid o'quv materiali mazmunining shaxsni rivojlantirish shakli, metodi va usullari bilan uyg'un tarzda bog'lanishi, yaratuvchanlik - turli o'quv muassasalari pedagoglarining pedagogik texnologiyalarni yaratish imkoniyatlari, tabiiylikni his qila olishlik - shaxsning genetik va ijtimoiy jihatlariga asoslangan holda o'quvchilarning o'ziga xosligini individual xususiyatlarini hisobga olish.

### **5.3. Modullashgan ta'lim texnologiyasi.**

Modullashgan texnologiya modullarni loyihalashtirishdan boshlanadi (o'quv predmeti va uning bo'limlari mazmunini tartibga solish - bu ta'limning muayyan bosqichidan boshlab bo'linmaydigan kasbiy faoliyatni mantiqan tugallangan qismlarga ajratish). So'ngra ajratilgan har bir modulh bo'yicha shu modulning o'zigagina taalluqli bo'lgan faoliyatning mazmuni va ta'sir doirasi aniqlanadi va shu asosda modellashgan texnologiyaning maqsadi belgilanadi. Modellashgan texnologiyaning maqsadiga erishish uchun modelh bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bunda har bir qadam o'quv elementi sifatida qaraladi.

Ta'lim texnologiyasi jarayonining umumiy maqsadi bir necha darajalarda oydinlashadi: birinchisi - ta'lim muassasasining maqsadi hamda pedagog va uning metodik faoliyati identifikatsiyasi, ikkinchisi - o'quv predmeti (bo'lim)ning maqsadi, pedagog va uning metodik faoliyati identifikatsiyasi, uchinchisi - ushbu modul' (o'quv elementi)ning maqsadi va uning o'quvchilar faoliyatidagi identifikatsiyasi. SHunday qilib, ta'limning umumiy maqsadi alohida modulga ham, uning tashhis qilinadigan oxirgi natijalariga ham o'tkaziladi.

SHunday qilib, ilgari loyihalashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayonining pedagogik texnologiyasi o'zida metodlar tizimini, ta'limning metodik usullarini, o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatish imkoniyatlari va vositalarini, o'quvchilarning ijobiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirish maqsadini, yakuniy natijalarga erishish instrumentariysini mujassamlashtiradi.

YAngi pedagogik texnologiyalarni tuzishda an'anaviy ta'lim va tarbiya metodlaridan nimalarni olish mumkin? Hurmatli Prezidentimiz I.A.Karimovning "YAngisini qurmasdan eskisini buzma"



iborasi ta`lim tizimiga ham bevosita oiddir. An`anaviy o`quvchilar bilan bevosita aloqa, og`zaki so`rov, yozma ishlar olish, insho, mustaqil dizayn va rasm, chizmakashlik, amaliy ishlarni kog`oz, yog`och, yung, metal, plastmass materiallardan tayyorlash mutolaa (deklomatsiya shehr, monologlarni og`zaki bayon etish.)

SHu bilan birga umumiy o`rta maktab ta`lim standartlarini yangi dasturlar asosida amalga oshirishda an`anaviy metodlarni o`zi etarli bo`lmay qoldi. Hozirda dars jarayonini aktivlashtirish uchun o`quvchilar bilan muammoli, dasturli, izlanuvchan metodlardan ko`proq foydalanilsa, amaliy mashg`ulotlarda esa ishchan va pedagogik o`yinlardan, individual topshiriqlar berish, o`quvchilar yakkama yakkama va guruhiy faoliyatlarini uyg`unlashtirishni amalga oshirilishi zarur shartlardan biri bo`lib qoldi.

Har qanday mustaqil davlatning o`z mafkurasi bo`lmog`i darkor. Ta`lim va tarbiyada umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy o`ziga xoslik nisbati, muvozanati alohida ahamiyatga ega. Prezidentimiz I.A.Karimovning "O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li". "O`zbekiston - kelajagi buyuk davlat" risolalarida va ijodkor ziyolilar bilan o`tkazgan uchrashuvida mustaqil O`zbekiston Respublikasi mafkurasining asosiy yo`nalishlari-belgilab berilgan.

YUqorida ko`rsatilgan asosiy yo`nalishlarni amalda tatbiq qilish uchun etarli darajada pedagogik shart sharoitlar yaratilganmi? Bunday savol masalani chuqurroq tahlil qilishni taqozo etadi. Xo`sh, ta`lim tarbiya mafkurasi qanday bo`lmog`i lozim? Bu borada yaqin va o`tmishimizga nazar tashlasak, ko`p narsa ravshan bo`lib, bir qator tushunmovchiliklar oydinlashadi.

Bizga, Movarounnahrta ta`lim nazariyasi qaerdan kelgan? Ovropadanmi? Rossiyadanmi? Ko`p sonli tadqiqotlarga, tarixiy manbalarga asoslanib shuni aytish mumkinki, ta`lim nazariyasini ta`lim-tarbiya mazmuni, shakli va uslublarining asosiy jihatlari SHarqda ishlab chiqilib, Ovropani orqali o`zgarib, rivojlanib hamda buzilib, yana Movarounnahrta qaytib keldi.

Bunday fikrni tasdiqlash uchun bir necha dalillarning o`zi kifoya. Dunyo tarixiy pedagogik jarayonida umuminsoniylik va milliy masalalarni tahlil qilish hozirgi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Bu borada SHarq ulug` mutafakkirlarining g`oyalari ahamiyatga molikdir. Ma`lumingiz bo`lsinki, Al Forobiy, ibn Sino, Beruniy, Al Xorazmiy va boshqalarning g`oyalari dunyo ijtimoiy-pedagogik jarayoniga ko`p jihatdan ta`sir etib, ma`lum darajada o`yg`onish davrining asosiy shart-sharoitlarini yaratib bergan.

#### **5.4. Ta`lim va tarbiyag mafkurasi**

Ta`lim va tarbiyaning mafkurasini belgalaydigan kishilar shaxsiy xislatlari pardasini bir oz ochsak, bizning nazarimizda quyidagilar yaqqol ko`rinadi. To`g`ri tarbiyaga molik umuminsoniy ijobiy xislatlarni olti qirrali deb tasavvur etish mumkin.

Birinchidan, shaxsning umumiy xislatlari: yoqimlik, ko`rkamlik, jozibadorlik, fusunkorlik, basavlatlik, salobatlik, rivojlanganlik, hurmatga sazovorlik, shoironalik, ruhlanganlik, ulug`siyatlik, o`ziga hoslik, etuklik, jiddiylik, madaniyatlilik, tarbiyalanganlik va boshqalar.

Ikkinchidan, shaxsning axloqiy xislatlari: insonparvarlik, do`stlik, g`amxo`rlik, jonkuyarlik, samimiylik, kuyunchaklik, odamiylik, bolajonlik, imonlilik, fidokorlik, xushmuomalalik, boadablik, iltifotlik, ochiq yuzlik, kechirimlilik, mehmondo`stlik, xushaxloqlik, hajmihatlik va boshqalar.

Uchinchidan, ishbilarmonlik xislatlari: ishchanlik, tirishqoqlik, serhafsaliqlik, serharakatlik, mashuliyatlilik, halollik, insoflilik, malakalilik, bekami ko`stlik, siyatlilik, ephillik, uddaburonlik, saranjom-sarishtalik, botartiblilik, tadbirkorlilik, aniqlik, tejamkorlik, barkamollik, tahhmasizlik va boshqalar...

Turtinchidan, zukkolik, idroklilik xislatlari: zehnlilik, bomahnilik, xotirjamlik, sog`lom fikrlilik, donishmandlik, asoslilik, farosatlilik, sezgirlik, zakovat, topqirlik, lo`ndalik, dalillik, omilkorlik, savodxonlik, qiziquvchanlik, ishqibozlik va boshqalar.

Beshinchidan, sobitlik xislatlari: faollik, qathiyatlilik, tezkorlik, kuydipishdillik, jo`shqinlik, zardalilik, sabotlilik, bir so`zda turishlik, barqarorlik, botirlik, dovyuraklik, intizomlilik, erksevarlik, jiddiylik, nafsini tiyishlik, o`zini yo`qotmaslik, sovuqqonlik, o`ziga talabchanlik, kamsuqumlik, odamoxunlik, o`zini iroda eta bilish va boshqalar.

Oltinchidan, ehtiroslilik xislatlari: nekbinlilik, ko`tarinkilik, tantanavorlik, kulib turuvchanlik, hazinlik, ishonuvchanlik, hayolchanlik, kelajakka ishonch, ezgulik, kek saqlamaslik, mushfiqlik, olijanoblik, otashinlik, nozik tabiatlilik, uyatchanlik, hijolatlilik, iffatlilik va boshqalar.


Hammasi bo`lib ijobiy xislatlar soni mingdan ortiq. Tarbiya mafkurasining maqsadi mana shu xislatlarni shakllantirishdan iborat. Buning uchun o`quv-tarbiya jarayoni, hadislar, oila, mahalla, an`anaviy udumlar, to`y, aza, mahraka ulfat va boshqa kam guruhli va ko`p sonli odamlar ishtirok etadigan yig`inlar, sayllar, mehmondorchilik, mehmon kutish, ommaviy axborot vositalari, afsonalar, romanlar va boshqalar vosita bo`lishi mumkin.

YUqorida ko`rsatilgan shaxsiy xislatlarni shakllantirish o`quv-tarbiya ishlarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Qamma mamlakatlar ham ana shunday ijobiy xislatlarni o`z xalqida shakllantirishga harakat qiladi. Ana shu mahnodan tarbiyaning umumiy maqsadi dunyo pedagogik jarayonida yagona maqsadga - umuminsoniy xislatlarni shakllantirishga qaratiladi. Falsafa fani, uning turlicha qarama-qarshiliklari, turli oqimlari, nazariyalari bilan birga yagona bo`lganidek, pedagogika ham umumiy maqsadi bo`yicha dunyoviy pedagogik jarayonda yagona, bir jinsli deb qaraladi. Gap ana shu maqsadlarga qanday vositalar bilan qanday ketma -ketlikda va qaysi mahnodan erishishga bog`liq. Bir mamlakat ta`lim va tarbiyaning bir shaklini tanlasa, ikkinchisi o`zgacharoq, uchinchisi yana bir boshqacha yo`l tutadi. SHu, jumladan, xalqning, elatning o`z udumi, odati, turmush tarzi bor. Mana shu kabi o`ziga xoslik ta`lim va tarbiyaning o`ziga xos shakl, vosita va uslublarini, xalqning umumiy madaniyatini belgilaydi.

Xozirgi davrda o`quvchi o`qituvchi munosabatlarini, o`quvchilar shaxsiy xislatlarini shakllantirish muammolarini tadqiq etish muammoli ilmiy mavzularda yo`q, Xalq ta`limi vazirligida o`quvchilar va o`quvchilar shaxsi munosabatlariga bag`ishlangan bo`lim ham yo`qligi kabi bir necha muammolar ob`ektiv mavjud. YAna bir muammo, bir tomondan o`rta umumiy ta`lim davlat standartlari ishlab chiqilib xurmatli Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan tasdiqlandi va ta`lim tarbiya jarayoniga qadam-bo qadam joriy etilayapti. Ikkinchi tomondan birmuncha murakkablashtirilgan, yuqori saviyaga, jahon talablariga mos fanlar standartlarini amalga oshirishga hamma o`qituvchilarimiz ham tayyormi? Mana shu qarama-qarshiliklarni echish xalq ta`limi xodimlari oldida turgan yirik muammo hisoblanadi va uning dolzarbligini qayd etadi.

## Ma'ruza-6. « MUSTAQIL O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY ISTIQLOL MAFKURASI VA UMUMINSONIY XISLATLAR »

### 1.1. Trening mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi

<i>O'quv soati: 2 soat</i>	<i>Tinglovchilar soni: 22 ta</i>
<i>O'quv mashg'uloti shakli</i>	Axborotli ma'ruza
<p><i>Mashg'ulot</i></p> 	<div style="border: 1px solid black; background-color: #e0f7fa; padding: 5px; margin-bottom: 5px;"> <p><b>SHaxsning milliy va umumiy xislatlari</b></p> </div> <div style="border: 1px solid black; background-color: #e0f7fa; padding: 5px; margin-bottom: 5px;"> <p><b>SHaxsning umuminsoniy xislatlari</b></p> </div> <div style="border: 1px solid black; background-color: #e0f7fa; padding: 5px;"> <p><b>O'rta SHarq mutafakkirlari ta'limotida umuminsoniy qadriyatlar</b></p> </div>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Tinglovchilarda mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalarni kengaytirish va chuqurlashtirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i>
ma'ruza- SHaxsning milliy va umumiy xislatlari haqida ma'lumot berish; SHaxsning umuminsoniy xislatlari bilan tanishtirish O'rta SHarq mutafakkirlari ta'limotida umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish	<i>tinglovchilar biladilar:</i> SHaxsning milliy va umumiy xislatlari haqida ma'lumot berish SHaxsning umuminsoniy xislatlari O'rta SHarq mutafakkirlari ta'limotida umuminsoniy qadriyatlar
<i>Ta'lim usullari</i>	Ma'ruza, tezkor so'rov, namoyish etish, suhbat
<i>Ta'lim vositalari</i>	Tayanch matn, slaydlar
<i>O'qitish shakllari</i>	Ommaviy
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	kuzatish

#### Adabiyotlar

1. K.D.Davlatov. «Kasb va kasb - ta'lim, kasb tanlash» «Kasb tarbiya nazariyasi va uslubiyati» Toshkent. Kasb 1994
2. Olimov Q.T. Kasb ta'limi uslubiyati. O'quv qo'llanma. – T.: 2006. 164 b.

**“Ma`ruza mashg`ulotlarida innovatsion ta`lim texnologiyasini loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari” bo`yicha ta`lim texnologiyasi**

**I. Tayyorgarlik bosqich**

<b>F a o l i y a t m a z m u n i</b>	
<i>O`qituvchi</i>	<i>tinglovchi</i>
Mavzuni aniqlaydi, maqsadni belgilaydi va o`quv natijalarini rejalashtiradi. Mavzu bo`yicha ko`rgazmali materiallar tayyorlaydi.	Mashg`ulotga tayyorlanadilar

**II. Amalga oshiruvchi bosqich- ma`ruza**

<b>F a o l i y a t m a z m u n i</b>	
<i>O`qituvchi</i>	<i>tinglovchi</i>
<p><b>1. Ma`ruzaga kirish.</b></p> <p>1.1. Maqsad va rejalashtirilgan o`quv natijalari bilan tanishtirish.</p> <p>1.2. Ma`ruza rejasi bilan tanishtiradi.</p> <p>1.3. Tinglovchilarga tezkor savol berib bilimlarini faollashtiradi: SHaxsning milliy va umumiy xislatlari talablari qanday?” SHunday bo`lsa asoslab bering.</p> <p>1.4. Javoblarni birgalikda umumlashtiradi va asosiy ma`ruza mavzusiga o`tadi.</p>	<p>Diqqat qiladilar va yozib oladilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar.</p>
<p><b>2. Asosiy qism.</b></p> <p>2.1. Faollashtirilgan bilimlar asosida tinglovchilarni mashg`ulot mavzusiga olib kiradi.</p> <p>2.2. Slaydlar yordamida mavzu mohiyatini reja asosida yoritadi.</p> <p>2.3. Ma`ruzani davom ettirishdan avval tinglovchilarga “Tezkor so`rov” texnikasini qo`llagan holda quyidagi savolga javob berishlarini so`raydi: SHaxsning milliy va umumiy xislatlari nimalarga bog`liq?</p> <p>2.4. Javoblarni qabul qiladi va ularni umumlashtiradi.</p> <p>2.5. Rejaning ikkinchi savolini - Dars rejasiniig namunaviy shakli yoritishdan avval tezkor savol orqali murojaat qiladi: “SHaxsning umuminsoniy xislatlariga qo`yiladigan talablar?” -----</p> <p>2.6. Javoblarni qabul qiladi va ularga slayd materiali orqali qo`shimcha ma`lumotlar beradi.</p> <p>2.7. Rejaning uchinchi va to`rtinch savolini o`qituvch misollar asosida yoritadi.</p>	<p>Savollarga javob beradilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar .</p> <p>Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar</p>

**III. Yakuniy bosqich**

<b>F a o l i y a t m a z m u n i</b>	
<i>O`qituvchi</i>	<i>tinglovchi</i>
<p><b>Ma`ruzani yakunlash:</b></p> <p>Ma`ruza mashg`uloti mavzusi mazmuni bo`yicha yakun yasaydi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma`ruza yuzasidan savollarga javob beradi;</li> <li>• ma`ruza yuzasidan amaliy ishlar bajarilishini va mavzu yanada mustahkamlanishini aytadi;</li> <li>• tinglovchilarni tayyorgarligi, ularni savol javobda faolligini baholaydi;</li> <li>• ma`ruza natijaviyligining umumiy bahosini beradi;</li> </ul>	<p>Savollar beradilar, baholar bilan tanishadilar</p>

**6.1. SHaxsning milliy va umuminsoniy umumiy xislatlari.** Milliy mafkura, umuminsoniy qadriyatlar bilan milliy o'ziga xoslik o'rtasidagi muvozanatni belgilaydigan mezonlarni aniqlash maqsadida umuminsoniy fazilatlar va o'zbeklarga xos xislatlarni teranroq o'rganishga xarakat qilinmoqda.

Ma'lumki baynalminal madaniyat milliy madaniyatlar yig'indisidan iboratdir, shubxasiz, baynalminal madaniyat rivojlanishi uchun alohida olingan milliy madaniyatlar tarakkiy etgan bo'lishi ksrak. Madaniyat ko'rsatkichlari, toifalari davlat chegaralariga bo'ysinmaydi, mintaka tanlamaydi.

Xadislar butun musulmon mamlakatlaridagi kabi bizda xam yakin o'tmishimizgacha tarbiyaning asosi kilib olingan, (bolalar bog'chasining kichik yoshdagilar guruhi), o'rtacha yoshdagi guruh - 5 yoshlilar, katta yoshdagilar guruxi - 6 yoshlilar va tayyorlov guruhi - 7 yoshlilarga bo'linadigan - maktabgacha bo'lgan yoshdagilar davriga bo'linadi. Maktab yoshdagilar ta'lim va tarbiyaning asosiy boskichlariga muvofiq ravishda boshlang'ich (I-II-III sinflarga kiritiladigan), o'rta (IV snifdan IX sinflarga qadar) va yuqori (IX dan XI sinflarga kadlr) deb nomlanadigan yosh davrlariga bo'linadi.

SHunday qilib, bu yoshdagi o'quvchilar bilan ishlashda pedagogik vazminlik va chidam, hamla xushmuomalalikni saqlagan holda ularga nndividual yondoshuvni maktabda xam shuningdek maktabdan tashqarida ham ularning faoliyatini to'g'ri tashkil etish tarbiyachilarning zarur vazifalari hisoblanadi.

O'spirinlarning hayotida, xususan VIII sinfda, ular to'liq o'rta ma'lumotni amalga oshirish zarur bo'lganda har xil kasblarga qiziqishi ko'p o'rin egallaydi. YA'ni qaysidir bir maktab fanlari yuzasidan o'zining yuqori darajadagi qiziqish sohasini belgilash kelgusida esa bilimlar bo'lsa, ikkinchi tomondan shu hazilni tushuna bilish, hazil qila olish hissi bor.

Ishonuvchanlik - shaxsning ijobiy xislatlaridan biri, boshqalarga ishonch hissi. Hamma ham shunday xislatga ega bo'lsa olam guliston bo'lur edi. Lekin har doim ham shunday bo'lavermaydi. Irodali shaxs ishonch hissi bilan boshqalarni tarbiyalamog'i darkor.

Kek saqlamasllk, adovatslzlik, gina-qudratslzlik- musulmonchllikda arazlash muddati uch kundan oshmasligi kerak ekan. Agar uch kundan ortiq arazlab yurilsa gunoh hisoblanarkan. Afsuski ayrim shaxslar blr marta o'tgan ginani umrbod esdan chiqarmay o'ziga dushman ortirishadi.

Otashinlik, qizg'inlik, jo'shqinlik - barcha shaxslarga xos xislat, lekin ba'zilarida bir oz namoyon bo'ladi, ba'zilarida esa o'ta oshiq namoyon bo'ladi. Bu xislat ham ehtiros tiliga bog'liq bo'ladi.

Uyatchanlik, tortinchoklik, mo'min-qobillik - me'yoridagi diyonatlilik insonga husn beradi, atrofda gilarida unga nisbatan ijobiy fikr uyg'otadi.

Ozodalik, nozlk tabiatlilik - inson ehtirosli xislatlarining eng nafisi gard yuqtlrmaslik hissi xisoblanadi. Qaerda bo'lmasin inson o'zini ozoda tutsa shuncha ruhi pok, fikri-zikri yaxshi bo'ladi.

YUqorida ko'rsatilgan shaxsiy xislatlarni shakllantirish o'quv-tarbiya ishlarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Hamma mamlakatlarda ham ana shunday ijobiy xislatlarni o'z xalqida shakllantirishga xarakat qilinadi.

O'zbek xalqlning milliy an'analarini, udumlarini, turmush tarzini sinchiklab o'rganib biz xadislarda keltilirilgal ijobiy xislatlarnn xozirgi zamon ilg'or madaniyat durdonalari bilan boyitish maqsadida to'g'ri tarbiyaga molik umuminsoniy xislatlarni olti jihatga bo'lish mumkin, deb hisoblaymiz.

#### **I. SHaxsning umumiy xislatlari (sifatleri, jihatleri):**

1.YOqimlilik, jozibadorlik, dilbarlik, ko'rkamlik. Insonni birlmchi ko'rishdayoq ko'zga tashlanadigan jozibali, dllbar o'ziga xosligi. Ko'rkam odam fakat kiyimi bilangina emas, muomalasi, odobi bilan e'tibor topadi.

2.YOqimtoylik, kelishgaplilik - bunday xislatli klshllar xipcha, engll, bo'yi-bastiga mos, ortikcha og'lrllkdan xoli, kiyimi o'ziga, yoshiga, ishiga, atrof muhitga mos tailangan insonlar xlsoblanadi. Kelishganllk, kimmatbaxo kiyimlar bilan yoki mingan avtomashinasining rusumi bilan emas, balki o'z ishiga, yoshiga mos xatti-harakatlari, odob va axlok normalariga rioya qilishlik bilan o'lchanadi, xarakterlanadi.

3.Istarasi issiqlik - ayrim insonlar haqida gap ketganda istarasi issiq yoki turqi sovuq deb baholashadi. Istarasi issiq odamning yuzidan nur yog'ilib turadi. Inson yuzining rangi oq, qora, sarik, bug'doyrang bo'lishi mumkin, lekin istarasi issiqlik rang tanlamaydi.

4. Maftunkorlik, fusunkorlik, afsunkorlik ko`proq ayollarga xos bo`lib, go`zallik, idshalik, o`ziga maftun etuvchi o`ziga xoslik bilan xarakterlanadi.

5. Oydinlik, yorqinlik, ochiqlik - bunday xislatli insonlarni ko`ngli ochiq odam, teskarisni esa mug`ombir deyiladi. Uzbeklarda bir maqol bor: yuz ko`r hol, so`r deyiladi. YA`ni inson yuzida uning ochiq ko`ngilliligi ravshan ko`rinib turadi.

6. Salovatlilik, savlatlilik, hurmatga sazovorlilik. Hurmatli insonning salobati bosadi, deyiladi xalkimizda. Bu xislat ham kiygan kiyimi bilan o`lchanmaydi. Ruslarda, mehmon kiyimiga qarab qarshi olinib, aqliga qarab kuzatiladi, degan bir naql bor. Savlatlilik kishini atrofdagilarning nechoglik hurmatini joyiga qo`yishi, tutgan mavqeidan o`zini pastrok olib boshqalarnig hurmatini balandroq qo`yishga xarakat qilishi bilan xarakterlanadn.

7. Buyuklik, daholik - ulkan inson tashabbusni o`zgardaniga oladi, u ko`pchilik insonlar takdirini ijobiy tomonga burishga tayyor turadi.

8. Monandlik, muvofiqlik, uyg`unlik - insoinning xam aqliy, ham jismoniy, ham axloqiy, ham irodaviy xislatlarining uyqashlilik tushuniladi.

9. Rivojlanganlik, taraqqiy qilganlilik, etuklik, aqli rasolik, iqtidorlilik, salohiyotlilik-insonolgan bilimlar salmog`i bu bilimlarning yaxshn ishlarga tezkor qo`llanilishi bilan o`lchanadi.

10. Har tomonlilik, har taraflamalilik, ko`ptomonlamalilik - shaxsda shakllangan va rivojlangan ijobiy xislatlarning ko`p qirraligini, ayrim olingan xislatdan ko`ra ko`pchilik xislatlarning bir xilda mukammal rivojlanganligi tushuniladi.

11. Bekamiko`stlik, butunlilik - xalqimizda hamma xislatlari badastur degan naql bor. Aslida beayb parvardigor, Iskii ummatlar ichida xam bir butui, yaxlit insonlar uchraydi.

12. Nafislik, noziklik, nafosatlilik, latofatlik inson o`zining nafis tabiati, yurish-turishi bilai go`zallik iamunasmni eslatadn.

13. YAshovchanlik, umribokiylik, barhayotlilik. SHunday insonlar borki ularning nomi tirikligidayok tarix daftariga oltin xarflar bilan yoziladi. Biri qoldirgan shogirdlari bilan, biri yaratgan buyuk ilmiy, San`at asarlari bilam, yana biri afsonaviy qahramonligi, kishilar katta ko`pchiligining takdirini yaxshi tomonga burishligi bilan, xalqiga, butun olam axliga ko`rsatgan karomati bnlan barxayot bo`ladi.

14. So`zamollilik, so`zga chechanlilik, shoirtabiatlik - shaxsshning so`zamolligi bnrnchi so`rashishidanoq bilinad. To`liq ma`nodagi so`zamollik deganda eshituvchilarga mazmunli va`z ayta olishlik, etkazilishi zarur bo`lgan ma`noni bo`rttirib, dramalastirib, lirik so`zlar, qochirim gaplar bilai bezash ko`nikmasi, xalqsevar shoirlar she`rlaridan, so`z ustalarinig nakllaridan, xalq makollaridan ustalik bilan foydalanish tushuniladi. So`zamollik san`ati nutq madaniyati bilan bog`liq narsa.

15. Ruhlanganlik, ko`tarinkilik, jo`shqinlik, ulug`vorlik, ulug`sifatlilik - o`quvchilarni, talabalarni, nainki barcha tinglovchilarni biron bir faoliyatga safarbar kilish uchun so`z aytuvchining o`zi ko`tarinki ruxda bo`lishi, jo`shqii nutq so`zlashi lozim.

16. Jiddiylik, bosiklik - ma`lum tajriba soxibi, masalaga engil-elpi karamay jiddiy yondoshadigan, kam gapirib ko`p ishlaydigan, xar bir so`zi, har bir harakatiga javob beradigan shaxs.

17. Moslashuvchanlik, egiluvchanlik - oldindan kutilmagan, og`ir sharoitlarga tez moslashib, butun imkoniyatlarini, muammolarini echishga karatish, baxona qidirmay imkoniyat izlash.

18. Madaniyatlilik, odoblilik, kamsuqumlilik -har bir millatga xos odob-axloq normalarining umuminsoniy madaniy, madaniylik elementlari bilan hamohang bo`lishi.

19. Ziyolilik, savodxonlik, o`qimishlilik - shaxs umumiy xislatlarining asosini tashkil etadi. Ziyoli shaxs o`zining xatti-harakatlari bilan ziyo tarqatadi, o`kimishlilikning namunosib ko`rsatadi, odamlarning ko`ngliga tszroq io`l topa biladi.

20. Tabiiylik, odillik, oddiylik- shaxs o`z xatti-harakatlari, odobi, axloqiy tabiy qanday bo`lsa shundayligicha ko`rsatish xislati.

## **II. Axloqiy xislatlar:**

1. Odamiylik - chin insonga xos fazilat bo`lib, bu aql - zakovat mevasidir.

2. Qanoatlilik - kishining o`zida mavjud bo`lgan va o`z imkoni darajasida ishlab toigan halol mablag`i bilan kifoyalaniishi.

3. YAqinlik, do`stonalilik - ish yuritishda, muomalada boshka shaxslarning haqqi-huquqiii, shaxsiyatini hurmat kilish.

4. Jonkuyarlilik, mexribonlilik, kuyunchaklik boshqalar dardiga sherik bo`lish, ota-onaga, etim-esirlarga, qariyalarga xizmat qilish, njtimoiy muhofaza ishlarida faol qatnashish.

5. Raxmdillik, mushfiqlik - inson salohiyotida boshqalar ko`ngliga ochiq yo`l qoldirish, to`yiga xam, azasiga ham qatnashish iqtisodiy, ma`naviy ko`makka «labbay» deb tayyor turish hissi.

6. Oliyjanoblik, oliy ximmatlik - insolarga yaxshilik istab yashash xissi.

7. Bolaxonlik, bolajonlik - o`zbeklarga xos xislat, ko`p bolalik, bolalar uchun yashash, bolalar dardini o`zligidan yuqori qo`yish, bolalarga qayg`urish, kschirimli bo`lish xissi.

8. Atrof-muhitga javobgarlik tuyg`usini xis etsin.

9. Iymonlilik, xotamtoylik - musulmonlarga ko`prok xos xislat.

10. Bainalminallik, boshka millat vakillarini ardoklash, e`zozlash - baynalminal madaniyat millatlar, elatlar madaniyatlarining yig`nndisi, in`ikosi.

11. G`oyaviy sodiqlik - Mustakil Uzbekistonning kslajagi buyuk davlat bo`lishiga ishonch, davlatimiz, prezidentimiz olib borayotgan ichki va tashqi siyosatiga isholch.

12. Muloyimlik, xushmuomalalik, nazokatlik, xushfe`llilik - dolmo ko`igli ochiqlik.

13. Uzrlilik, kechirilmllik - ayb ish qilinganida kechirim so`rashga shoshilish, farzandlarni, yoshlarni kechirish xissi.

14. Andishalilik - andishaning oti qo`rqoqlik emas, andishalilik, irodaning belgisi. Aidishalilik ko`proq o`zbeklarga xos xislat.

15. Sertakalluflilik, sermulozamatlilik - insonlar o`zaro munosabatlarida ular orasida ishonchlilikning mezoni.

16. Odamlarga el bo`llishlilik, klrishimlilik, shirin suxanlilik - inson psixik xolatiga, tempsrament turiga, dunyoqarashiga, to`g`ri tarbiyalanganligiga bog`liq bo`lib, xarakterni belgilaydigan asosiy ko`rsat-kichlardan biri hisoblanadi.

17. SHaxsiy manfaatlarni ijtimoiy (jamoatchnlik) manfaatiga bo`ysundirish, shaxsiy manfaatdan ijtimoiy manfaatdorlikni yuqori qo`yaolishlilik, shaxsiyatparastlikning teskarisi, shaxsning avvalambor boshqalar, davlat nuqtai nazarini ustun qo`yish hissi.

### **III. Ishbilarmonlik, ishchanlik, uddaburonlik xislatlari:**

Quntlilik, tirishqoqlik, serhafsalalik-kasb egallash, mohir mutaxassis bo`lish uchun juda zarur xislat. Faoliyat hafsala bilan bajarilsa, mutaxassis quntli bo`lsagina mehnat unumdorligining yuqori cho`qqilariga erishish mumkin..

Javobgarlik, mas`uliyatlilik-so`z bergandan keyin bajarishlik, ishga, o`qishga mas`uliyat xissi bilan yondoshish hissi.

Halollik, poklik - tadbirkorlik ishlarida halollik, poklik asosiy xislatlardan bo`lib, bo`lg`usi tadbirning muvaffaqiyatli yakuniga ko`p jihatdan bogliq. SHarq biznesmenlarining xulosalariga qaraganda har bir yangi tadbir boshlanishi oldidan tadbirkor o`zi poklanib, xalol ish yuritsa bu tadbirning albatta ijobiy bo`lishi ta`minlangan bo`ladi.

Urinchoqlik, serharakatlilik, tirishqoklik - tadbirni amalga oshirishda birgina halollikning o`zi etarli emas. Buning uchun shaxsning tirishib, uriiib harakat qilishi, doimo izlanishda bo`lishi lozim bo`ladi.

Musobaqaviylik, raqobatlilik, muqobillik - hozirgi bozor munosabatlariga o`tishda raqobatlilik, bir ishni tezroq, oldinroq bajarishga shoshilish muvaffaqiyat keltiradi.

Ijro etuvchanlik, ishchanlik, bajaruvchanlik ishlab chikarish ishini, o`quv ishini vaktida bajarish shaxsni itizomlilikka, tartibga o`rgatadi, xogirani mustahkamlaydi, turli salbiy oqibatlarining oldi olinadi.

Zo`r beruvchanlik, kuchanuvchanlik - xar bir tartibda shunday damlar uchraydiki xarakat qilinib urinish etarli bo`lmay qoladi. Xamma fikrni, kuchni ishlatib zo`r berishga to`g`ri keladi.

Malakalilik, salohiyatlilik - malakalilik fakat bilimlar bilan o`lchanmaydi..

Sifatlilik, yuqori navlilik - maxsulotni, tayyorlangan mutaxassislarning yuqori sifatlilik bozor iqtisodiyoti sharoitida xamma taaqalarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishni do`ndirshlilik, ishni o`rniga qo`yuvchanlik, ishni o`rinlatmoqlik - shaxsning ko`p yillik qunt bilan olib borgan harakatlari natijasida topshirilgan ishni tez, unumli bajarish ko`nikmasini egallashi.

CHaqqonlik, abjirlmk, epchillik - shaxsning topshirilgan ishni ko`p mehnat, kuch sarflamasdan ustalik bilan bajarish ko`nikmasini egallashi.

Saranjom-sarishtalik, jo-bajo ish tutish, batartiblik - shaxsning kiyinishida, ish tutishda, muomalasida, odobida namoyon bo`ladigan batartiblik ko`nikmalari.

Ishshshg xavosini olganlik, ishning xadisini olganlik - shaxsning avtomat malakalarni shakllantirishi. Ko`p o`ylamay ishni malakali bajarish ko`nikmasi.

Ishga layoqatlilik, hormas-tolmaslik, imkonlilik- shaxsning uzoq muddat talab etilgan darajaga ishga layokatligini saqlab kola olishlilik ko`nikmasi. Layokatli xpmatchi ish kunining boshida xam, oxirida ham bir xilda unumli, xam sifatli mehnat kila oladi.

Tashabbuskorlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik - shaxsning hali ochilmagan yo`ldan turli usullar, imkoniyatlar topib olg`a yura olishi, yangilikni, tashabbusni qo`lga olib atrofdagilarni shu ishga safarbar kila olish ko`nikmasi.

Aqlga, maqsadga muvofiqlik, ma`qullik, ixtirochilik - ratsional shaxs iish bajarish uchun ksrakli a`zolarinigina jalb qila olish ko`nikmasiga ega bo`ladi, kam mehnat qilib ko`p mahsulot oladi, kam kuch sarflab ko`p samara oladi.

CHidamlilik, sabr-toqatlilik, bardoshlik, tokatlilik, baquvvatlik - shaxsning uzoq vaqt katta kuchlanish talab qiladigan faoliyatda qatnasha olish ko`nikmasi.

Muntazamlilik, rejalilik - shaxsshg rejal ish tutish ko`nikmasi. Buyuk Napoleon «faoliyatda, xarakatlarda faqat oldindan rejalashtirilgan narsagagnia erishish mumkin, hech qanday tasodif natija bermaydi» degan.

Juda aniqlik, o`z vaqtida bo`lishlik, puxtalik tadbirkorlikda ko`p narsa aniq vaqt bilan o`lchanadi, «vaqting ketdi naqding ketdi»-xalqimizda shunday naql bor.

Tejamkorlik, ehtiyotkorlik, mo``tadillik - shaxsning tejamli ish yuritishi, ishning kirimidan chikimini kam qilib yuritish, doimo zaxirada biron kism mulkni saqlashi, evida ish yuritish ko`nikmalari.

#### **IV. SHaxsning zakovatlilik, idroklilik, zukkolik xislatlari:**

Zehniliq ziyraklik - shaxsniig tabiat xodisalari, qonunlariga, jamiyat iqtisodiy jarayonlariga old qonuniyatlarini umumlashtira olishi va undan kerakli joyda samarali foydalanish ko`nikmalari.

Xotiralilik - xotiralilik shaxsning eng asosiy psixik xislatlaridan biri. Faoliyatda ko`p narsa aynan xotiraga bog`liq..

Mantikiylik, izchillik, teran fikrlilik-shaxsning hodisalar, qonuniyatlar orasidagi o`zak bog`laiishlar tizimini, mantiqini tuza olish ko`nikmasi.

Asoslilik, isbotlanganlik, muhrlanganlik - shaxsniig tayyorlayotgan axborotini nechoglik asosli kilib tayyorlash ko`nikmasi.

Oldindan aytib beruvchanlik, bashoratgo`ylik - xodisalarni, jarayonlariig yo`sinini oldindan prognozlash, oldindan aytib bsrish insoning eng noyob xnslatlarndan biri xisoblanadi.

Aklning o`tkiriligini iamoyoi kilmok - zakovatlilik, shaxsning biron-bir qarorga tezkorlik bilan kelish uchun aklning o`tkir bo`lishini, tez-tsz «charxlanib» turishini t`miinlash ksrak.

Ijodkorlik, topag`onlik - shaxsning o`z faoliyati davomida, xanuzgacha echilmagai muammoni echish, pxtiro qilish ko`nikmasi.

Tushunarlilik, ravshanlilik, lo`ndalik - nazariya qanchalik haqiqatga yaqin bo`lsa, shunchalik tushunilishi oson kechadi, ko`rinishi sodda bo`ladi. Mutaxassisga ish topshnrilayotganida ham, talab qilinayotganida ham masala lo`nda, aniq va ravshan bo`lishi ta`minlanishn darkor.

Tanqidiylik- shaxs o`z faoliyatida ishga tankidiy munosabatda bo`lishi, o`z xatti-harakatlarni tankidiy nuktai nazar bilan kuzatishi muhim xislatlardan xisoblanadi.

Xabardorlik, omilkorlik - shaxsning o`z mutaxassisligi bo`yicha to`liq ma`lumotga ega bo`lishi, o`z soxasining dunyoviy jarayonlardan tahlilga moslash, ulardan o`rganish ko`nikmalarini o`z ichiga oladi.

Savodxonlilik, bilimdonlilik - shaxsning tili, yozuvi nechog`lik to`g`ri, adabiy bo`lishi, ishlatgan iboralarini qisqa mantiqli, tushunarli qilib bayon etish ko`nikmasi.

Odatdan tashqari fikrlash - shaxs talantining mezoni, o`ziga xosligida, boshqalardan farqli o`larok yangicha fikrlash ko`nikmasi.

Hayratlilik, hayratmandlik - shaxs nozik jarayonlarni, faktlarni nihoyatda sinchkovlik bilan kuzata olishi, bu jarayonlardan hayratlanib yanada yangi natijalar olishga qiziqish ko`nikmalari.



Qiziquvchanlik, ishqibozlik - shaxsning tabiatan tabiatga, turli jarayonlarga, fanga, san`atga kiziquvchanligi. Psixologik ichki motivatsiya, shu jumladan ishqibozlik ko`pincha tashqi ta`sirdan ustun turadi.

Sinchkovlik, diqkatlilik - hozirgi axborotni, ayniqsa komp'yuterlar yordamida asrash, pshlov berish davrida sinchkovlik xislati va aniq javob toppsh uchun juda ham qo`l keladi.

CHuqur bilimdonlilik, saviyalilik-saviyalilpk faqat bilimdonligina emas, balki har tomonlamalilik hozirjavoblnlik mezoni.

#### **V. Irodaviylik xislatlari:**

Serg`ayratlilik, serharakatlilik, qat`iyatlilik- shaxs temperament turiga, tipiga mos serharakatlilik darajasi faoliyatning samaradorligini belgilaydi.

CHakkonlik, ephpplik, uddaburonlik - shaxs sa'y-xarakati samarali bo`lishi uchun uddaburonlnk xislatlariga ega bo`lishi kerak. Bu xislat xam bilvosita shaxs extirosi tillariga bog`lq.

Vazminlik, sipolilik, bosiklik, kamsuqumlilik - vazminlik, sipolik irodaviylik belgisi, irodasi kuchli shaxsdagina vazmiilpk belgilari bo`lishi mumkin.

Jo`shqishshk, serzavqlik, issiqmijozlilik- shaxsning faoliyatida zavki-shavqlilik, jo`shqinlik, ko`tarinki ruh bilai ish yuritpsh odati, qaltis vaziyatlarnn serzavklik bilan engish, janjallashish o`rniga odamlar ko`nglinn ko`tarish, shaxsni namuna ko`rsatib odamlarni o`z ortidan ergashtirish ko`nikmalari.

Zardasi tezlik, serzardalilik - shaxsning extiros turiga bog`liq xislati, ayrim xolatlarda zardali shaxsning ishi yurishadi, atrofdagilarning uyushishi osonlashadi, ko`p xollarda ijobshiy natija beradi.

Bir so`zda turishlnlik, kat`iyatlilik, qat`iylik - shaxsning maksad yo`lida og`ishmay qplgan faoliyat. Agar raxbar tez-tez o`z karorini o`zgartiraversa tez subuti ketishi mumkin. O`qituvchi bir ko`ygam talabini og`ishmay talab qilaversa oxiri ijobiy natijaga erishishi mumkin.

Tashabbuskorlik ilg`orlnk - shaxsning tezkorlik, tinib-tinchnmaslik, tadbirkorlik xislatlari. Tashabbus juda xam javobgarlik talab ztadigan xislat. Ammo ayrim shaxslar uchun tashabbus bilan chikpsh va aynnksa shu tashabbusni amalda bajarish bilan bog`lik faoliyatni amalga oshirish xsch kanday ko`shimcha qiyinchilik tug`dirmaydi.

litizomlnlik, bosiklik, uyushganlilik - shaxs xarakteridagi eng asosiy xislatlardan biri. Intizom ishni, faoliyatni tashkil qilishning asosi. Intizom bo`lmasa ishlab chpqarish xam, oddiy dars xam o`z maksadiga erishmaydi. Intizomga beriluvchan shaxslar bor, intizomga qiyin bo`nsunadigan insonlar bor. Agarda hamma intizomga bo`ysunsa xar qanday qiyinchilikni engish, maqsad sari ildam odimlar bilan yurish imkoniyati tug`iladn.

Intizomlilik -bu faoliyatining keragicha va maslahatga muvofiq ravshida amalga oshirilishiga kuch etmoqligidir. Emoq-ichmoqda, uiquda, ish, kasbda, har bir ishda intizomdan chikmagan odam baxtu saodatga erishadi.

**VI. ehtirosli xislatlar.** SHodmonlik, o`z hayotidan rozilik, baxtiyorlk, ko`tarinkillk, tantanavorlik, quvnoqlik, xushchaqchaqlik -psixologik jihatdan shaxsning doimo quvnoq yurishi, ish faoliyatini yaxshilashga, turli ruhiy kasalliklarning oldinn olishga, og`ir sharoitda xam atrofdagilarning kayfiyatini, tez charchamaslikning oldini olish imkonini beradi.

Hazil-mutoyibalkk, hazilkashlik, joyida ustalik bilan ishlatilgan hazil faoliyatda ham, odamlar o`rtasidagi munosabatlarda, diplomatiyada juda katta ahamiyatga ega. Bir tomonda hazilni ustalik bilan ishlatish.

**6.2. O`rta SHarq mutafakkirlari ta`limotida umuminsoniy qadriyatlar.** Jahon tarixiy-pedagogik jarayoni va uning hozirgi bosqichi umuminsoniy hamda milliy masalalarni chuqur va har tomonlama o`rganishin ta`qozo etadi. SHarqning buyuk olimlarinpng pedagogik qarashlari bu borada katta ahamiyatga ega. Ma`lumki, Al Forobiy, Ibn Sino, Al Beruniy, Al Xorazmiy va boshqalarning g`oyalari hamda pedagogik qarashlari ijtimoiy-pedagogik fikr taraqqiyotining dunyoviy jarayoniga, xususan,. Ovro`paga ko`p darajada ta`sir ko`rsatdi. SHu bilan birga o`z navbatida uning ta`sirini ham o`ziga ola bildi.

O`rta asrlarda SHarq qomusiy olimlari tomonidan Turonda yangi davrning (I-III asrlar) ko`pgina ilmiy tasavvurlari asoslari yaratilgan edi. Ular qadimgi SHarq na Antik dunyoning boy ilmiy merosiga suyanib turib bir qator fan tarmoqlarining: falsafa, jo`g`rofiya, tarix, riyoziyot va falakiyot ilmini shakllanishiga, ishlab chiqilishiga hissa qo`sha oldilar.

Ularning ushbu yaratuvchilik ishlarida pedagogik jihatdai ahamiyatli bo`lgan ko`plab g`oyalar va qoidalar aytib o`tilgan. Masalan, ular tomonidan birinchi bo`lib riyoziyot fani, umuman olib qaralganda arif-metika belgilab, aniqlab berildi.

Qomusiy olimlar bilish jarayoniga hayotiy-amaliy yo`nalish bag`ishladilar. Qurshab turgan olamdagi hodisalar va narsalarning mohiyatini bilish insonlarga ularning kundalik ishlarida, kosiblplk, va savdo-sotiq faoliyatlarida, dexqonchilikda, dengizda suzishda, davlatni boshqarish hamda huquqiy masalalarni hal etishda xizmat qilishi lozim. Ular fanni va ilmiy tuzilmani shaxs shakllanishining muhim omillari sifatida qarar edilar. Fan bilan shug`ullanish, ilmiy bilimlarni egallash ular tomonidan odamni xaqiqatga etish uchun har doim intilishga undovchi, shuningdek, kishilar o`rtasida haqiqiy inso-niy munosabatlarni o`rnatishga yo`llovchi qudratli kuch sifatida tushuntirib, izohlab o`tiladi. Fanni va ilmiy tuzilmaniig ushbu vazifasiga berilgan yuqori baho qomusiy olimlarniig pedagogik kategoriyalari maqsadlarining asoslariga, mazmuniga, ta`lim va tarbiyaning uslublariga, printsiplariga qiziqishlarini belgilab berdi.

Ularning qoidalari va xulosalarining o`ziga xosliklari, o`ziga xos xususiyatlari ular tomonidan ilgari surilgan pedagogik g`oyalar fanning o`z mantiqidan ajralgan emas edi. Tarbiya va ta`limning usullari, printsiplari, mazmuni, maqsadlari kabi masalalar yuzasidan ular o`z fikr-qarashlarini taomil bo`yicha o`zla-rining maxsus asarlarida emas, balki fanning bir aniqlangan tarmog`iga oid konkret bilimlarni bayon etish bilan bog`liq ravishda keltirib o`tganlar. Bu yana shu bilan tushuntirilishi mumkin; shu vaqtning ilmiy traktatlari o`quv qo`llanmalari sifatida madrasada, shuningdek, fan bilan mustaqil ravishda shug`ullangan barcha kishilar tomonidan foydalanilgan.

O`rta asr buyuk donishmandlarining g`oya va qoidalari -hozirga qadar o`zining ahamiyatini yo`qotmagan, o`tkinchi bo`lmagan tarixiy, umuminsoniy boylikdir. Tarixiylik jihatidan ijodiy yondoshilganda ular hozirgi zamon.pedagogikasini boyitishi mumkin.

SHarq olimlarining merosidagi qimmatbaho sanaladiganlar bizningcha boshqalari bilan bir qatorda quyidagilar ham hisoblanadi:

1. Al Forobiy Platon va boshqa yunon faylasuf-donishmandlarining pedagogik g`oyalariga amal qila borib, o`zida shaxsni iqtidoriy, aqliy va nazariy tarbiyalashni aks ettiradigan ma`naviyo tarbiyaga juda katta ahamiyat beradi. Aristotelning izdoshi Al Forobiy ham insonning aqliy kuchi bilan dunyoni bilish mumkinligini tan oladi va himoya etadi, ya`ni mantiqiy mashqlar va mashg`ulotlar yordamida rivojlanadigan va mukammallashadigan iqtidorni tan oladi.

2. Al Forobiyning fikricha nazariy bilimlar «ular qanday va qaerdan paydo bo`lganlari» noma`lum bo`lgan fanlar bilimlarini o`zida namoyon etadi. Ushbu bilimlar shu toifalarga ajratiladi: qaysiki,odam eng avval qabul qilib oladi, shunday qilib bu birinchi (ilk) bilimlar qanday va qaerdan paydo bo`lganligini anglab etmaydi, hamda bilmaydi. SHuningdek, yana shundaylarga ajraladi, qaysiki u fikrlash, o`rganish, tadqiq etish, o`rgatish va ta`lim yo`li bilan egallab oladi. Al Forobiyda fanni egallashning metodologik va metodik masalalari o`zaro bog`lanib ketgandir, chunki har qanday fanning boshlanishiga, manbalariga, metodlar majmuasini: fikrlash, o`rganish, tadqiq etish, o`rgatish va ta`limni qo`llash yordamida erishiladp. Bu o`zining ahamiyatini hozirgi davrning didaktikasi uchun ham yo`qotmagan bunyodkorona yondoshuv edi.

3. O`rganilayotgan narsalar va tushunchalarning gneseologik ildizlarini bilish ularni samarali o`rganishning metodik yo`lini ta`kidlaydi. Bilish samaradorligi sharti, ta`limning boshlanishi bilan turmushni bilishni boshlanishining muqobilligi bilan xarakterlanadigan bilimlarning ishonchligi hisoblanadi. Ushbu boshlanmalarni qidirish eng yaqin boshlanmadan eng uzoqdagiga o`tish vositasida amalga oshiriladl. Agar bu buzilsa ta`limdagi samaradorlikni kutishga to`g`ri kelmaydl.

4. Al Forobiyning tahlil etish va bo`laklash dialektikasi, induktsiyasi hamda deduktsiyasi didaktik fanlar uchun juda katta qiziqish uyg`otadi. Uning fikricha, fikrni tasdiqni «ehtimollikdan zamonaviylikka ko`chirish ikki yo`l bilan amalga oshiriladi: 1.Bo`laklash metodi. 2. Tahlil metod. Qachonki extimollik asosiy yo`naltiruvchi nuqta sifatida qaraladigan bo`lsa, tahlil metodi qo`llanadi».

5. Al Forobiy fikriga ko`ra, ta`limning asosiy shakli - ishonitirish metodlaridir. Ulguradiganlar uchun - mavhum fikrlar yordamida, o`rtachalar uchun ko`rgazmalar yordamida, ya`ni obrazli shaklda. O`qitish ma`ruzalarga bog`langan qism sifatida, so`zlashuvlar ko`rinishida suhbatiy tadqiqotlarning qismi sifatidagi yo`l bilan amalga oshiriladi.

6. Al Forobiy ma`nodor, ta`sirli, san`at va so`zning juda ham muhim didaktik rolini belgilab beradi (Bizning mohirligimizga ko`ra).

7. Majbur etish metodi «qo`zg`olonchilar yoki bo`ysunmas fuqarolarga, xalklarga; qaysiki ixtiyoriy ravishda uyg`onmaydi, o`zining xohishiga ko`ra va aqli, dono maslahatlarga, so`zlarga quloq solmaydigan, qaysiki ularniig o`zlari egallashni nazariy bilimlarni o`zlashtirishga kimki qarshilik qilsa» shundagina qo`llaniladi,

8. Ta`limning differentsiyasi haqidagi Al Forobiyning didaktik xulosalari hozirgi vaqtga qadar o`zining kuchini yo`qotmadi: «Ishontirish metodlari va xayolda paydo bo`lgan fikriy tasavvurlar oddiy xalqni, xalqlardagi va shaharlardagi oddiy kishilarga ta`lim berish davomidagina qo`llanadi. Qaysiki, ishonchli dalillash metodi, ya`ni narsalarning mohiyatiga o`zining aqli bilan etishish metodi tanlanganlar qatoriga chiqishi mumkin bo`lgan kishilarnigina o`qitish davomida qo`llaniladi».

9. O`rganish baxt keltirishi kerak. Al Forobiyning ushbu tezisi o`qishda qiyinchilik bo`lmasligi, nafratlantiradigan jihat bo`lmasligi, balki quvonch va lazzatlanish keltirishi, kamolotga etishuviga hamda haqiqiy baxtga erishuviga olib borishi lozim deb ko`rsatadigan bugungi kunning pedagog-novatorlari g`oyalariga qo`shilib ketadi. Al Forobiy ta`lim jarayonida bilimlarning boshlanishi va dalillarning asosi hisoblanadigan kuzatish va tajriba kabi ko`rgazmali metodlarni keng qo`llashni taklif etadi. Tajriba natijasida olingan va kuzatishlar yoki tajriba yo`li bilan tekshirilgan bilimlar natijasida insonning fikr-o`yi aqlli bo`lib boradi, uning o`zi esa - ko`p darajada mukammallashadi.

10. Al Forobiy ta`limning milliy xarakterini faqatgina tilni o`rganishda ko`radi. Bir vaqtda har bir tilda belgilangan qoidalar mavjud bo`lishligini, umumiy bo`lgan xarakterli belgilari, tilning o`ziga xosliklari bilan bir qatorda, qaysiki ularning yordamida milliy tillar bir-birlaridan farq qilib turadigan belgilar ham mavjud bo`lishligini ko`rsatib o`tadi.

11. Mantiq grammatika bilan bog`liqdir, hatto ularning nomlanishi ham bitta ildizdai «nutqdan» olingandir. Mantiqning zarurligi xususida Al Forobiyning dalillari ahamiyatga molikdir, qaysiki Al Forobiy tomonidan pedagogika, o`doba-xloq va psixologiya sohasida amalga oshirilgan insonparvarlik hamda demokratik an`analari uchun xos bo`lgan - o`zlarining qobiliyatlariga ko`ra hamma kishilarning tengligi haqidagi fikridir.

## Ma'ruza-7. «PEDAGOGIK TADQIQOT FUNKTSIYALARI VA METODLARI»

### 1.1. Trening mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi

<i>O'quv soati:</i> 2 soat	<i>Tinglovchilar soni:</i> 22 ta
<i>O'quv mashg'uloti shakli</i>	Axborotli ma'ruza
<p><i>Mashg'ulot</i></p> <div style="border: 1px solid black; background-color: #d4c08c; padding: 5px; display: inline-block; margin: 10px 0;"> <b>R e j a s i:</b> </div>	<div style="border: 1px solid black; background-color: #e0f7fa; padding: 5px; margin-bottom: 5px; text-align: center;"> <b>Pedagogik tadqiqot funksiyalari</b> </div> <div style="border: 1px solid black; background-color: #e0f7fa; padding: 5px; margin-bottom: 5px; text-align: center;"> <b>Pedagogik tadqiqotlar metodlari</b> </div> <div style="border: 1px solid black; background-color: #e0f7fa; padding: 5px; text-align: center;"> <b>Tadqiqotlarning tarixiy-takkoslash metodlari</b> </div>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Tinglovchilarda mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalarni kengaytirish va chuqurlashtirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i>
ma'ruza- Pedagogik tadqiqot funksiyalari haqida ma'lumot berish; Pedagogik tadqiqotlar metodlari bilan tanishtirish Tadqiqotlarning tarixiy-takkoslash metodlari bilan tanishtirish	<i>tinglovchilar biladilar:</i>
	Pedagogik tadqiqot funksiyalari haqida ma'lumot berish Pedagogik tadqiqotlar metodlari Tadqiqotlarning tarixiy-takkoslash metodlari
<i>Ta'lim usullari</i>	Ma'ruza, tezkor so'rov, namoyish etish, suhbat
<i>Ta'lim vositalari</i>	Tayanch matn, slaydlar
<i>O'qitish shakllari</i>	Ommaviy
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	kuzatish

#### Adabiyotlar

1. K.D.Davlatov. «Kasb va kasb - ta'lim, kasb tanlash» «Kasb tarbiya nazariyasi va uslubiyati» Toshkent. Kasb 1994
2. Olimov Q.T. Kasb ta'limi uslubiyati. O'quv qo'llanma. – T.: 2006. 164 b.

**“Ma`ruza mashg`ulotlarida innovatsion ta`lim texnologiyasini loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari” bo`yicha ta`lim texnologiyasi**

**I. Tayyorgarlik bosqich**

<b>F a o l i y a t m a z m u n i</b>	
<i>O`qituvchi</i>	<i>tinglovchi</i>
Mavzuni aniqlaydi, maqsadni belgilaydi va o`quv natijalarini rejalashtiradi. Mavzu bo`yicha ko`rgazmali materiallar tayyorlaydi.	Mashg`ulotga tayyorlanadilar

**II. Amalga oshiruvchi bosqich- ma`ruza**

<b>F a o l i y a t m a z m u n i</b>	
<i>O`qituvchi</i>	<i>tinglovchi</i>
<p><b>1. Ma`ruzaga kirish.</b></p> <p>1.1. Maqsad va rejalashtirilgan o`quv natijalari bilan tanishtirish.</p> <p>1.2. Ma`ruza rejasi bilan tanishtiradi.</p> <p>1.3. Tinglovchilarga tezkor savol berib bilimlarini faollashtiradi: Pedagogik tadqiqot funksiyalari talablari qanday?” SHunday bo`lsa asoslab bering.</p> <p>1.4. Javoblarni birgalikda umumlashtiradi va asosiy ma`ruza mavzusiga o`tadi.</p>	<p>Diqqat qiladilar va yozib oladilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar.</p>
<p><b>2. Asosiy qism.</b></p> <p>2.1. Faollashtirilgan bilimlar asosida tinglovchilarni mashg`ulot mavzusiga olib kiradi.</p> <p>2.2. Slaydlar yordamida mavzu mohiyatini reja asosida yoritadi.</p> <p>2.3. Ma`ruzani davom ettirishdan avval tinglovchilarga “Tezkor so`rov” texnikasini qo`llagan holda quyidagi savolga javob berishlarini so`raydi: Pedagogik tadqiqot funksiyalari nimalarga bog`liq?</p> <p>2.4. Javoblarni qabul qiladi va ularni umumlashtiradi.</p> <p>2.5. Rejaning ikkinchi savolini - Dars rejasini namunaviy shakli yoritishdan avval tezkor savol orqali murojaat qiladi: “ Pedagogik tadqiqotlar metodlari ga qo`yiladigan talablar?” -----</p> <p>2.6. Javoblarni qabul qiladi va ularga slayd materiali orqali qo`shimcha ma`lumotlar beradi.</p> <p>2.7. Rejaning uchinchi va to`rtinch savolini o`qituvch misollar asosida yoritadi.</p>	<p>Savollarga javob beradilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar .</p> <p>Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar</p>

**III. Yakuniy bosqich**

<b>F a o l i y a t m a z m u n i</b>	
<i>O`qituvchi</i>	<i>tinglovchi</i>
<p><b>Ma`ruzani yakunlash:</b></p> <p>Ma`ruza mashg`uloti mavzusi mazmuni bo`yicha yakun yasaydi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma`ruza yuzasidan savollarga javob beradi;</li> <li>• ma`ruza yuzasidan amaliy ishlar bajarilishini va mavzu yanada mustahkamlanishini aytadi;</li> <li>• tinglovchilarni tayyorgarligi, ularni savol javobda faolligini baholaydi;</li> <li>• ma`ruza natijaviyligining umumiy bahosini beradi;</li> </ul>	<p>Savollar beradilar, baholar bilan tanishadilar</p>

**7.1. Pedagogik tadqiqot funksiyalari.** Ilmiy nuqtai nazardan didaktika ta'lim jarayonlarini tushuntirish, rivojlanish istiqbollari ko'rsatish, amalda ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'sir etish va ularga baxo berishni maqsad kilib ko'yar ekan, quyidagi funksiyalarni bajaradi.

1. Diskriptiv funksiyasi. "Diskriptiv" so'zi inglizchadan olingan bo'lib, «yoritish», «ta'svirlash» degan ma'noni bildiradi. Tasvirlash ko'pincha diagnostika tilda tarqalgan. U o'quv-tarbiya jarayonida uchrayotgan cheklanishlarning qay yo'sindaligini aniqlash uchun xizmat qiladi. Pedagogik diagnostikaning maqsadi faqat sodir bo'lgan cheklanishlarning shakli, hajmi va xususiyatini aniqlash emas, balki bu cheklanishlar o'quv tarbiya tizimining qaysi bo'g'inlari susayganligi sababli yuz berganini aniqlashdan iborat.

2. Tushuntirish funksiyasi. Didaktika tadqiqotining bu turi eksperimentlar o'tkazish bilan boglikdir. Bu erda ta'lim jarayonining barcha sharoitlari saqlangan holda o'quv jarayonini o'zgartiruvchi omillar kiritilish natijasida didaktik tadqiqot o'quv-tarbiya jarayonining asosida yotgan qonunlarni ochish imkonini beradi.

3. Pedagogik tadqiqotlarning ta'lim-tarbiya jarayonlarini oldindan kura bilish funksiyasi. Bu xilidagi tadqiqotlar, izlanishlar jarayonlarning kandayligini ko'rsatish bilan birga, jarayon yuz berayotgan davrdan keyingi zamonda qanday o'zgarishlar, qanday bog'langan qonuniyatli pedagogik va boshqa jarayonlar yuz berishini oldindan ko'ra bilishga asos bo'la oladi. SHu bilan birga oldindan ko'ra bilish funksiyasi sodir bo'lishi mumkin bo'lgan jarayonlarni biz istalgan yo'nalishda rivojlantirish imkoniyatlarini va ularga tegishli, etarli darajadagi ob'ektiv, har tomonlama o'ylangan baho berish imkoniyatlarini ham yaratadi. Natijada yuqoridagi ko'rilayotgan tadqiqotlar o'tmish, hozirgi zamon va kelajak o'rtasida mustahkam ko'prik yasash, ta'lim va tarbiya xakida kishilik jamiyati to'plagan bitmas-tuganmas tajribani to'la-to'kis kelgusi avlodga tatbiq etish uchun tayyor ko'rsatmalar, xulosalar ishlab chiqish imkonini yaratadi.

4. Pedagogikada, xususan didaktikada o'tkaziladigan tadqiqotlarning amaliy funksiyasi ta'lim jarayonidagi ochilgan qonuniyatlar ob'ektiv didaktik xaqiqat yanada chuqurroq tushunilish va bu jarayonlarga tadqiqotchi nuqtai nazaridan amaliy ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.

Pedagogik tadqiqotlarning funksiyalari bir-birlari bilan uzviy ravishda bog'liqdir. Nisbatan oddiy, ommabop hisoblangan tasniflash, tushuntirish tadqiqotlari ta'lim va maorifning hozirgi ahvolini yoritish imkonini yuzaga keltiradi. Tajriba, eksperimental tadqiqotlar ta'lim qonuniyatlarini anglab etish va tushuntirish, eng asosiysi bu jarayonlarni tushuntiruvchi nazariyalar yaratish imkonini beradi. Tushuntirish va eksperimental ma'lumotlarga asoslanib, kelgusida yuz berishi mumkin bo'lgan hodisalar xususida dastlabki xulosalar chiqariladi va istiqboldagi ishlar rejasi va dasturi tuzilib, bevosita amalda tatbiq etish jarayoniga o'tiladi.

**7.2. Pedagogik tadqiqotlar metodlari.** O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. A. Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li», «O'zbekiston- kelajagi buyuk davlat» asarlarida umuminsoniy qadriyatlarga qaytish haqidagi mulohazalarida ta'lim-tarbiya masalalarini faollikka asoslangan printsiplarga o'tkazish, o'sib kelayotgan yosh avlodni yangiliklarni tez qabul qilishga undash, istiqbol yaratgan keng imkoniyatlardan foydalanib, xo'jalik va madaniyatning hamma sohalarida yuksak natijalarga erishish haqida gap boradi.

Bu yangicha dunyoqarash xalq ta'limida ilgari surilgan uzluksiz ta'lim va shaxs xislatlarini ijodkorlik ta'limi orqali rivojlantirishda ta'lim nazariyasi oldiga yapada yangi vazifalar qo'yadi. Bunday ulkan masalalar ayrim kamchiliklarni tugatish, «yamash» bilan echilmaydi. Xalq ta'limi tizimni tubdan o'zgartirish, uning rivoji uchun pedagogik, uslubiy, psixologik sharoitlarni yaratish talab etiladi.

Amaliyotdan shu narsa aniq ravshanki, har qanday ilmiy xulosa tajriba va ilmiy tadqiqotlarga asoslanadi. Pedagogikada, xususan ta'lim va tarbiyada ilmiy tadqiqotlar hech qachon to'xtamaydi va uzluksiz davom etaveradi.

Pedagogik tadqiqotlarning predmeti sifatida maktab va boshqa o'quv yurtlarining faoliyati, uning maqsadi, dasturiy ma'nosi, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati, tashkiliy shakl hamda ijtimoiy sharoitlar xizmat qiladi.

Didaktikaning predmeti taxsil va ta'lim bilan bog'liq turli shakl va turlarda yuz beradigan xodisalar, faktlar xisoblanadi. Ta'lim va tahsil boshqa ijtimoiy voqeliklardan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Didaktik tadqiqotlarning predmeti ijtimoiy faoliyatning aloxida shakli didaktik faoliyat hisoblanib, uning maksadi taxsil berish na o'zgarib borayotgan tarixiy ideallar va ijtimoiy talablar asosida odamlarni qayta tarbiyalashdir.

Didaktik faoliyat o'qituvchi va o'quvchilarning xatti-xarakatlaridan iborat. Bunday faoliyat natijasida o'quvchilar bilim, iqtidor va ko'nikmalarga ega bo'ladilar, o'z dunyoqarashini, shaxsiy kadriyatlar tizimini shakllantiradilar. Taxsil natijasida o'quvchi shaxsining turli xislatlari shakllantiriladi. Bunday o'zgarishlarni kuzatish, xisobga olish didaktik tadqiqotlarning asoslaridan xisoblanadi. Yuqoridagi o'zgarishlar, bir tomondan, o'qituvchining didaktik faoliyati ta'siridagi va o'z shaxsiy xatti-xarakatlari ta'siridagi o'zgarishlar orasidagi kopuniyatlarni ochishga, ularni taxlil qilishga imkon beradi. O'quvchilar va o'qituvchilarning o'quv sharoitlari, harakatlari, ta'lim mazmuni, uslub va vositalari orasidagi bog'liqliklar, tabiat qonuniyatlari kaday ob'ektiv xarakterga ega bo'lsa, shunday ob'ektiv xarakterga egadir.

Ta'lim va tarbiyaga taallukli xatti-xarakatlarni tafakkurga asoslanib taxlil qilish redagogika va didaktikada yagona usul xisoblanadi. Yan Amos Qomenskiyning «Buyuk didaktika», K.D.Ushinskiyning «Inson tarbiya predmeti sifatida» asarlarida masalaga shunday yondashishni ko'rish mumkin.

O'quv-tarbiya jarayoni xakida jiddiy xulosalar chiqarish uchun muntazam ravishda olib borilgan kuzatishlar, tajriba, faktlarga asoslangan emperik tadqiqotlar natijalariga asoslanish zarur.

**7.3. Tadqiqotlarning tarixiy-takkoslash metodlari. Tarixiy metodlar.** Podagogik tadqiqotlar, xususan, didaktik tadqiqotlar asosan o'qituvchining didaktik faoliyati bilan o'quvchilar taxsili natijasida hamda o'quvchilarning o'z faoliyatlari natijasida ular shaxsi, bilim, iqtidor va ko'nikmalarining o'zgarishi orasidagi bog'liqlikni ochishga qaratiladi. Xo'sh, bunday bog'liqlik didaktik tadqiqotlar natijasidan olinadimi yoki ularni yaqin, uzoq o'tmishdan olsa bo'lidimi? Amaliy hayot bu muammoga o'zicha javob beradi.

Tarixiy taraqqiyotning turli davrlarida ijtimoiy munosabatlar ma'lumotning maksad va vazifalarini belgilab bergan. Masalan, sanoat ishlab chiqarishini industrilashtrish, ilmiy texnikaviy revolyutsiya ma'lum darajada ta'lim va tarbiya mazmuni, shakllari va uslublarini tanlashga ta'sir ko'rsatadi.

Tarixan ta'lim-tarbiyaning barcha hollarida yuz bergan o'zgarishlarning xususiyatlari, tamoyillari, qonuniyatlarini o'rganmasdan turib, ma'lumot masalalari haqida keng tasavvurga ega bo'lish mumkin emas.

Tarixiy pedagogik tadqiqotlarning maqsadi shunday qonuniyatlarni aniqlashdan iboratki, bu qonuniyatlar faqat yaqin va uzoq tarixni o'rganishni emas, shu bilan birga ta'limning hozirgi axvolini, undan ham muhimi- kelgusini belgilash imkonini bermog'i lozim

**Nazariy taqqoslash- solishtirish metodi.** Bunday pedagogik tadqiqot xalqaro pedagogik tadqiqotlarga asosan uch yo'nalishda olib boriladi. Birinchi yo'nalish- turli mamlakatlardagi ta'lim va tarbiya tizimlarining umumiy qonuniyatlarini aniqlash. Dunyoda yuzdan ortiq ta'lim tizimlari mavjud. Albatta, mustaqil O'zbekiston Respublikasida eski ta'lim tizimi asosida ishlash mumkin emas. Boshqa mamlakatlarda amal qilib turgan ta'lim tizimlarining qulay ijobiy tomonlarini yuqorida ko'rsatilgan taqqoslash-solishtirish tadqiqotlari asosida bizning ta'lim tizimimizga ko'chirish mumkin.

Ikkinchi yo'nalish har bir ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni, ularni tasdiqlovchi faktlar to'plamini, turli tarixiy davrlardagi va turli tarbiya muhitlariga oid o'ziga xos tomonlarni aniqlashdan iborat.

Uchinchi yo'nalish ta'lim tizimlarining ichki xususiyatlarini aniqlash, o'xshash va farqli xususiyatlarini belgilab, ularning ta'lim tizimidagi umumiy xususiyatlar bilan bog'liq alomatlarini va aloxida xususiyatlari sabablarini aniqlash imkonini beradi. Bu turdagi tadqiqotlar faqat statistik ma'lumotlar va anketalar natijasini tahlil qilish bilan chegaralanmaydi.

Ta'lim tizimlarini tadqiq etish maxsus taiyorgarlikdan o'tgan xalqaro ekspertlar guruhlarini tomonidan tegishli ilmiy-tekshirish tashkilotlari bilan xamkorlikda o'tkaziladi. Buning uchun ilmiy-tadqiqotning maxsus kontseptsiyasi, usullarini tanlab olish mezonlari ishlab chiqiladi va matbuotda

e`lon kilinadi. Keng kitobxonlar va qizikuvchilar e`tiboridan o`tgan kontseptsiya alqaro pedagogik uyushmalar tomonidan tasdiqlanadi va bevosita ishga kirishiladi.

Ta`lim tizimlarining o`xshashlik va alohidalik alomatlarini, ularning ildizlarini, sabablarini aniqlash birmuncha murakkab bo`lib, maorif tizimlarining yutuqlarini tadqiq etuvchi xalqaro assotsiatsiya eksperimentlari kabi atroflicha ilmiy-tekshirish ishlarini olib borishni talab etadn. Ta`lim-tarbiya omillarini tushuntirish va ularga tasnif berish nazariy taqqoslash-solishtirish usullarining asosny kismi hisoblanadi. Albatta, xamma ilmiy-tadqiqotlar yig`ilgan faktlarni tushuntirish bmlan ish tugamaydi.

Bu turdagi izlanishlarning yana bir o`ziga xosligi shundan iboratki, tabiiy fanlarda umumiy belgilar, atamalar, birliklar mavjud, pedagogik (didaktik) tadqiqotlarda esa bunday umumiy xalqaro birlik va atamalar deyarli yo`q. SHuning uchun ham olingan natijalarning tasnifi birmuncha sub`ektiv tus olishi mumkin. Bunday hollar ta`lim haqidagi statistik ma`lumotlarga matematik ishlov berish orqali bir-muncha to`g`rilanadi. Masalan, biron mamlakatdagi biron yilda tug`ilgan bolalarning maktablarga kamrab olinishi yoki ta`limga ajratilgan milliy daromadning foizi shu mamlakatning maorif masalalariga munosabatini asosan ob`ektiv belgilandi. Qolgan omillar ta`lim ahvolini belgilashda yuqorida ko`rsatilgan statistik ma`lumotlarni yanada chuqurlashtiradi.

**Kuzatish metodi** ta`lim-tarbiyaning mazkur vaktdagi holatini aniqlash imkonini beradi. Kuzatish usulining maqsadi bor faktlarni yoritishdangina iborat bo`lmay, bizga oldindan qo`yilgan maqsad bo`yicha aniqlanishi lozim bo`lgan faktlarni qidirish va aniqlashdan iborat.

Kuzatish jarayonida tadqiqotchini qiziqtnruvchi muammo va vazifalar kuzatishni saylab (tanlab) o`tkazishni taqozo etadi. Tadqiqotchi muayyan tanlangan muammoni hisobga olib, nimani kuzatish kerakligini tanlab oladi. SHuning uchun ham u kuzatish natijasida echilishi kerak bo`lgan muammoni hali kuzatishni boshlamasdan oldinroq biladi. Natijada tadqiqotchining kuzatish natijalarini umumlashtirishi birmuncha osonlashadi.

Kuzatishga asoslangan tasniflash tadqiqotlari uch ko`rinishga ega: 1)obzor tadqiqotlari; 2) ta`lim-tarbiya unsurlari orasidagi bog`liqlikni aniqlash; 3) izlanish tadqiqotlari.

Bunday sharoitda kuzatish to`g`ridan-to`g`ri yoki bevosita amalga oshiriladi. To`g`ridan-to`g`ri yoki bevosita kuzatish faktlarni qabul qilib olish, tushunib etish va o`lchashdan iborat. Qabul qilib olish- sezish organlari yordamida tekshiruvchi ob`ekt aniq joyda turganligini qayd qilish; tushunib etish tanlab olingan, qayd qilingan ob`ekt oldindan aniq yoki noaniqligini aniqlashdan, o`lchash esa shu ob`ektning sonini anik-lashdan iborat.

Bilvosita kuzatish ob`ektini bevosita kuzatish imkoniyati bo`lmaganda amalga oshiriladi. SHunday ob`ektdagi shaxsning tug`ma qobiliyati, imkoniyatlari, intizomlilik, rostlik, kamtarlik, kamsuqumlik kabi xislatlari kirishi mumkin. Bunday xislatlarni bevosita kuzatish natijasida aniqlash qiyin. SHuning uchun ham tadqiqotchi o`ziga qulay ko`rsatkichlardan foydalanadi.

Bevosita va bilvosita kuzatish bilan bir qatorda faol kuzatish ham qo`llaniladi. Faol kuzatishda didaktik jarayonda bevosita tadqiqotchining o`zi xam qatnashadi va jarayonning borishiga ta`sir etadi. Bunda ishtirok etishning ijobiy tomoni shundan iboratki, tadqiqotchi bo`lib o`tayotgan jarayonning ikir-chikirlarini tushunib etadi, bu esa o`quv jarayonini tadqiqot talablariga yo`naltirish imkonini beradi. Bunday usul ayrim kamchiliklariga qaramasdan, ijodkor-o`qituvchilar tomonidan o`quvchilar faoliyatini faollashtirishda keng qo`llaniladi.

Bilvosita kuzatish tadqiqotchini hodisalarni o`rganishga ko`proq jalb etishga imkonnyat yaratadi. Mashg`ulotlar stenogrammalari, uchinchi odam tomonidai tayyorlangan kuzatish bayonlari, foto-kinolavhalar, rasmlar, diagrammalar, statistik mashg`ulotlar shular jumlasidandir. Bu hujjatlar pedagogik faoliyatning natijalarini xamda ijtimoiy muxit, xususan o`kituvchi faoliyatining o`quvchi shaxsida uyg`otadigan o`zgarishlarni kuzatish imkonini beradi.

Ilmiy-tekshirish maqsadlarini aniqlash tadqiqotchini qiziqtirib qolgan muammoli xolatni taxlil kilish ehtiyojidan kelib chiqadi. Bunday xolatni tahlil qilish va unda ma`lum va noma`lumlarni aniqlash, qo`shimcha adabiyotlarni o`rganish, tajribali shaxslarning bu masalaga bergan baxosi tadqiqotchiing asosiy va ko`shimcha muammolarini aniqlash imkonini beradi.

**O`zgaruvchan parametrlarni aniqlash va tahlil qilish.** O`zgaruvchilar- bu tekshirilayotgan ob`ektda turli axamiyatga ega bo`lgan omillardir, o`zgaruvchilar- tekshirilayotgan ob`ektning bizni qay tomondan qiziqtirayotganligi haqida axborot beradi.



Ta'limning salmog'i, rivojlanish tezligi, maktabning yutuqlari kabi murakkab o'zgaruvchilar ma'lum shkalalar asosida tartibga keltiriladi.

**Muammolarni gipotezalar zanjiriga aylantirish** tadqiqot jarayonining kelgusi bosqichi hisoblanadi. Tadqiqotning asosiy muammosi yoki shu muammodan kelib chiquvchi savollarga tadqiqotchi dastlabki xomaki javoblar qidiradi. Izlanish davomida u yangi qo'shimcha axborotlar to'playdi va javoblar yanada rivojlanib boradi. SHunday kilib, ko'yilgan savollar gipotezalarga aylana boradi, kelgusi kidirish yo'nalishlarini belgilab beradi, boshqacha aytganda, ishchi gipotezaga aylana boradi.

Pedagogikadan olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarning jiddiy bosqichlaridan biri tadqiqot muammosini echish bo'yicha bir yoki bir necha gipotezalarni belgilashdir. **Gipoteza- bu muammoni echishning taxminiy yo'lini ilmay tomondan tasdiklash demakdir.** Tadqiqotchi qo'yilgan muammomi atroflicha, xamma o'zgaruvchilarni hisobga olgan xolda, tahlil kiladi. Gipoteza empirik jnxdan tasdiklanmog'i darkor. Buning uchun eksperiment loyixasi tuzilib, eksperimental tadqiqotlar o'tkaziladi.

Tadqiqot texnikasini va «asbob-uskunalari»ni tanlash. Bu tadqiqotning mazkur bosqichida tadqiqot ob'ekti o'zgaruvchilarni tanlashga ko'p jihatdan bog'liqdir. Tadqiqot texnikasi atamasi yoki tadqiqot usuli yoki tadqiqot faoliyatining ketma-ketligi atamasi ishlatiladi. Ilmiy usul bu ilmiy muammoni echishda qayta-qayta ishlatiladigan usuldir. Tadqiqot texnikasi deganda, tadqiqot muammosini echish uchun ob'ekt va hodisalar haqida axborot to'plashda tez-tez kaytariladigan usul tushuniladi. Masalan, kuzatish usulida turli tadqiqot texnikasi ishlatiladi: **linik kuzatish, savol-javob, zondlash, tanlab tekshirish va xujjatlar tahlili.** Bunday texnologiyadagi ishlatiluvchi «asboblar» turlicha bo'ladi. Ulardan keng tarkalganlari anketalash, psixologik yoki didaktik testlardir.

Tezkor yuz beradigan jarayonlarni qayd qilib, keyinchalik chuqur tahlil qilish uchun maxsus texnikaviy vositalar ham ishlatiladi. Bulardan fotoapparat, kinokamera, proektor, magnitofon, videomagnitofon yoki o'lchov asboblari va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin.

**Didaktik eksperiment metodi.** eksperimentni ko'llash natijasida tadqiqotchi didaktik amaliyotga uning ichki tarkibiy tuzilishi, qonuniyatlarini, ta'lim ma'nosni va jarayonlarini ochish maqsadida «sho'ng'iydi».

Agar kuzatishda tadqiqotchi borliqni qanday bo'lsa, shundayligicha idrok qilib tekshirsa, eksperiment jarayoni bu borliqni o'zgartirib, uning ichki konuniyatlarini, unga ta'sir etishning samarador usullarini aniqlaydi.

Eksperimentning birinchi xususiyati shundan iboratki, unda tadqiqotchining o'zi qatnashadi, ishni tashkil etadi, amalga oshiradi va natijani taxlil kiladi.

Ikkinchi xususiyati - o'quv-tarbiya jarayonining ichki qonuniyatlarini aniqlash uchun jarayon sharoitlarini o'zgartirish imkoni tug'iladi. Uchinchi xususiyati- o'quv-tarbiya jarayonini nazorat qilib, ularni anik o'lchash imkonidir. To'rtinchi xususiyati - eksperimentga ilmiy tus berib, ishchi gipotezani aniqlashtirishdir. Demak, eksperiment shunday ilmiy-tadqiqot usulini, unda ta'lim-tarbiya jarayonini nazorat kilish o'lchash va ishchi gipotezani yanada oydinlashtirish imkoni tug'iladi.

YUqorida ko'rsatilgan to'rt xususiyat bajarilsa eksperiment laboratoriya eksperimenti hisoblanadi, birinchisi bajarilmasa, bu tabiiy eksperiment deyiladi.

Pedagogikadan ilmiy-tadqiqot ishlarining metodologik asoslari:

1. SHaxsning ijodiy va faolyatlilik ma'nosi xaqidagi ta'limot.
2. SHaxsning o'zaro aloka bog'lash va o'zaro bog'liqligi xakidagi ta'limot.
3. Munosabatlar nazariyasi
4. Mutaxassis shaxsini shakllantirish xaqidagi nazariya.
5. Bilish faoliyati haqidagi ta'limot.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish ilmiy tadqiqot metodlar:

#### **I. empirik darajadagi metodlar:**

1) diagnostik metodlar (anketalash, hujjatlarni o'rganish, interv'yu uyushtirish, suxbatlar), sotsiometrik metodlar;

2) observatsion metodlar (bevosita va bilvosita kuzatish, to'g'ri va uzokdan kuzatish, bevosita jarayonda qatnashish orqali kuzatish, o'z-o'zini kuzatish);

3) prognostik metodlar (ekspertlar metodi bilan baholash, bir-biriga bog`lik bo`lmagan xarakteristikalarini umumlashtirish, modellashtirish, ekstropolyatsiya, shkalalash, ranglash, «Dol`fa metodi» va boshqalar);

4) eksperimental metodlar (sifat eksperimenti, o`lchash eksperimenti, konstatatsiya eksperimenti, shakllantirish eksperimenti, prognostik eksperiment va boshqalar);

5) praksimetrik metodlar (faoliyat natijalarini analiz qilish, modellashtirish, professiografik va psixografik analiz, xronometraj);

6) matematik metodlar (korrelyatsion analiz, faktorli analiz, dispers analiz va boshqalar).

## **II. Nazariy darajadagi metodlar:**

1) Ilmiy bilish darajadagi metodlar:

- psixologo-pedagogik va sotsial adabiyotlarni analiz qilishi;
- empirik materiallarni sintez qilish;
- to`plangan materiallarni tasniflash;
- tekshirilayotgan jarayonini deduktsiyalash;
- induktsiyalash;
- analoglarni ko`rish;
- modellashtirish.

2) Mantiqiy analizga asoslangan metodlar:

- o`xshatishlik metodlari;
- o`ziga xosligini aniqlash metodlari;
- o`ziga xos uzviy bog`liqligi o`zgarishlarini analiz qilish metodi.

Ilmiy tadqiqot bosqichlari:

**1-bosqich.** Nazariy izlanish bosqichi. Bu bosqichda tadqiqot muammosi ilmiy jihatdai obdon o`ylab ko`riladi.

Kerak bo`lganda muammoning hozirgi axvolini chuqurroq tushunib etmoq uchun uzoq va yaqin o`tmishni tarixiy-nazariy analiz qilinadi. Natijada tadqiqotning tub negizi aniqlanadi, tadqiqot maqsadiga mos adekvat metodologiya va tadqiqot metodlari aniqlanadi, tushunchalar apparati kiritiladi, umumiy va xususiy gipotezalar, taxminlar qo`yiladi, tadqiqotni tashkillashtirish elementlari belgilanadi.

Bu bosqichda yana tadqiqot ob`ektining (institut, maktab, kolledj, litsey va hokazolar) ish tajribasi o`rganiladi, umumlashtiriladi va analiz qilinadi. O`rganilayotgan muammo bo`yicha studentlar, bitiruvchilar, o`qituvchilar kuzatiladi, suhbat, anketalar o`tkaziladi, interv`yular olinadi, o`quvmetodik va rejalashtirish hisobot hujjatlari o`rganiladi. Tadqiqot tub maqsadlarini aniqlashtirish maqsadida izlanish eksperimentlari o`tkaziladi.

**2-bosqich.** eksperimental-diagnostik bosqichida o`quv-tarbiya jarayonining mexanizmi, xossalari, o`ziga xos qarama-qarshiliklari, jarayon rivojlanishinng sifat belgilari, tezligi, shiddatkorligi, darajalari o`rganiladi.

Bu bosqichda hisobga olish eksperimenti bilai bir qatorda anketalash, suhbatlar, o`z-o`zini baholash, reyting baholash, shkalalash, ranglash kabi metodlar orqali dastlabki sinov shakllantirish eksperimentlari o`tkaziladi.

**3-bosqich.** Tajriba eksperimental bosqichida nazariy va metodik ishlanmalar, yangi darslik o`quv qo`llanmalari, o`qitishning yangi izchil metodlari tekshirib ko`riladi va tegishli aniqliklar kiritiladi.

**4-bosqich.** YAkunlovchi umumlashtirish bosqichi xisoblanadi. Tadqiqot natijasida olingan natijalar yana bir bor sistemaga solinadi, ishlab chiqiladi, ksrak bo`lgan xollarda ilmiy-tadqiqot natijasida olingan metodik yo`riqnomalar, xulosalar qaytadan tekshirib ko`riladi yoxud o`quv yurtlari amaliyotida bevosita qo`llab ko`rilib, tegishli xulosalar olinadi.

## Ma'ruza-8. «KASB TA'LIMI MAZMUNI. TA'LIM MAZMUNINI TANLASH PRINTSIPLARI»

### 1.1. Trening mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi

<i>O'quv soati: 2 soat</i>	<i>Tinglovchilar soni: 22 ta</i>
<i>O'quv mashg'uloti shakli</i>	Axborotli ma'ruza
<p><i>Mashg'ulot</i></p> <div style="border: 1px solid black; background-color: #d4c08c; padding: 10px; width: fit-content; margin: 10px auto;"> <p style="margin: 0;"><b>R e j a s i:</b></p> </div>	<div style="border: 1px solid black; background-color: #e0f7fa; padding: 5px; margin-bottom: 5px;"> <p style="margin: 0;"><b>Ta'lim mazmunining strukturasi va tuzilish printsiplari</b></p> </div> <div style="border: 1px solid black; background-color: #e0f7fa; padding: 5px; margin-bottom: 5px;"> <p style="margin: 0;"><b>Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari</b></p> </div> <div style="border: 1px solid black; background-color: #e0f7fa; padding: 5px; margin-bottom: 5px;"> <p style="margin: 0;"><b>O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standarti</b></p> </div> <div style="border: 1px solid black; background-color: #e0f7fa; padding: 5px;"> <p style="margin: 0;"><b>Mikro darajadagi o'qitish mazmunining tuzilmasi</b></p> </div>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Tinglovchilarda mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalarni kengaytirish va chuqurlashtirish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i>
<p>ma'ruza- Ta'lim mazmunining strukturasi va tuzilish printsiplari haqida ma'lumot berish;</p> <p>Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari bilan tanishtirish</p> <p>O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standarti bilan tanishtirish</p> <p>Mikro darajadagi o'qitish mazmunining tuzilmasi bilan tanishtirish</p>	<p><i>tinglovchilar biladilar:</i></p> <p>Ta'lim mazmunining strukturasi va tuzilish printsiplari haqida ma'lumot berish</p> <p>Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standarti</p> <p>Mikro darajadagi o'qitish mazmunining tuzilmasi</p>
<i>Ta'lim usullari</i>	Ma'ruza, tezkor so'rov, namoyish etish, suhbat
<i>Ta'lim vositalari</i>	Tayanch matn, slaydlar
<i>O'qitish shakllari</i>	Ommaviy
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	kuzatish

#### Adabiyotlar

1. K.D.Davlatov. «Kasb va kasb - ta'lim, kasb tanlash» «Kasb tarbiya nazariyasi va uslubiyati» Toshkent. Kasb 1994
2. Olimov Q.T. Kasb ta'limi uslubiyati. O'quv qo'llanma. – T.: 2006. 164 b.

**“Ma`ruza mashg`ulotlarida innovatsion ta`lim texnologiyasini loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari” bo`yicha ta`lim texnologiyasi**

**I. Tayyorgarlik bosqich**

<b>F a o l i y a t m a z m u n i</b>	
<i>O`qituvchi</i>	<i>tinglovchi</i>
Mavzuni aniqlaydi, maqsadni belgilaydi va o`quv natijalarini rejalashtiradi. Mavzu bo`yicha ko`rgazmali materiallar tayyorlaydi.	Mashg`ulotga tayyorlanadilar

**II. Amalga oshiruvchi bosqich- ma`ruza**

<b>F a o l i y a t m a z m u n i</b>	
<i>O`qituvchi</i>	<i>tinglovchi</i>
<p><b>1. Ma`ruzaga kirish.</b></p> <p>1.1. Maqsad va rejalashtirilgan o`quv natijalari bilan tanishtirish.</p> <p>1.2. Ma`ruza rejasi bilan tanishtiradi.</p> <p>1.3. Tinglovchilarga tezkor savol berib bilimlarini faollashtiradi: Ta`lim mazmunining strukturasi va tuzilish printsiplari talablari qanday?” SHunday bo`lsa asoslab bering.</p> <p>1.4. Javoblarni birgalikda umumlashtiradi va asosiy ma`ruza mavzusiga o`tadi.</p>	<p>Diqqat qiladilar va yozib oladilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar.</p>
<p><b>2. Asosiy qism.</b></p> <p>2.1. Faollashtirilgan bilimlar asosida tinglovchilarni mashg`ulot mavzusiga olib kiradi.</p> <p>2.2. Slaydlar yordamida mavzu mohiyatini reja asosida yoritadi.</p> <p>2.3. Ma`ruzani davom ettirishdan avval tinglovchilarga “Tezkor so`rov” texnikasini qo`llagan holda quyidagi savolga javob berishlarini so`raydi: Ta`lim mazmunining strukturasi va tuzilish printsiplari i nimalarga bog`liq?</p> <p>2.4. Javoblarni qabul qiladi va ularni umumlashtiradi.</p> <p>2.5. Rejaning ikkinchi savolini - Dars rejasiniig namunaviy shakli yoritishdan avval tezkor savol orqali murojaat qiladi: “Ta`lim jarayonining tarkibiy qismlari ga qo`yiladigan talablar?” -----</p> <p>2.6. Javoblarni qabul qiladi va ularga slayd materiali orqali qo`shimcha ma`lumotlar beradi.</p> <p>2.7. Rejaning uchinchi va to`rtinch savolini o`qituvch misollar asosida yoritadi.</p>	<p>Savollarga javob beradilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar .</p> <p>Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar</p>

**III. Yakuniy bosqich**

<b>F a o l i y a t m a z m u n i</b>	
<i>O`qituvchi</i>	<i>tinglovchi</i>
<p><b>Ma`ruzani yakunlash:</b></p> <p>Ma`ruza mashg`uloti mavzusi mazmuni bo`yicha yakun yasaydi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma`ruza yuzasidan savollarga javob beradi;</li> <li>• ma`ruza yuzasidan amaliy ishlar bajarilishini va mavzu yanada mustahkamlanishini aytadi;</li> <li>• tinglovchilarni tayyorgarligi, ularni savol javobda faolligini baholaydi;</li> <li>• ma`ruza natijaviyligining umumiy bahosini beradi;</li> </ul>	<p>Savollar beradilar, baholar bilan tanishadilar</p>

Ta'lim mazmuni ta'lim jarayonida o'zgacha jarayon elementlari bilan bilvosita bog'liq bo'lib o'quv-dasturiy hujjatlar: o'quv rejasi, o'quv dasturi, darslik, o'quv qo'llanmalari shaklida mavjud bo'ladi. O'quv-dasturiy hujjatlarni tuzish, belgilash o'quv-tarbiya jarayonining pedagogik va uslubiy nazariya bilan bog'laydigan elementi hisoblanadi. Ta'lim mazmunini tanlash hozirgi bosqichma-bosqich o'qishni tashkil qilish sharoitida alohida ahamiyatga ega, chunki bu erda o'quv dasturiy hujjatlar har qaysi alohida olingan yo'nalishga (bakalavr, magistr, litssy, gimnaziya, kolledj) alohida-alohida tuziladi.

**8.1. Ta'lim mazmunining strukturasi va tuzilish printsiplari.** Ta'lim mazmunining strukturasi va tuzilishi quyidagi printsiplarga asoslanadi: 1. Ta'lim mazmunining davlat sotsial-iktisodiy rivojlanish yo'nalishlariga bog'liqlik printsiplari. O'zbekiston Respublikasining xozirgi mustaqillik sharoitida Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning Oliy Kengash sessiyasida so'zlagan nutqida bayon qilinganidek respublikamiz sotsial-iqtisodiy rivojlanishining 5 ta yo'nalishi belgilangan:

1) Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi printsiplari. YA'ni barcha siyosiy masalalar iqtisodiyotga bog'lab o'rganiladi va echiladi. Siyosiy partiyalar faoliyatlari o'quv yurtlarida bevosita faoliyat ko'rsatmaydi.

2) O'tish davrida qonunlarning ustunligi ta'minlanadi.

3) Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish jarayonini davlat boshqaradi.

4) Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida kam ta'minlanganlar sotsial muhofaza ostida bo'ladi.

5) Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

YUrtboshimiz I. A. Karimov Oliy Kengash sessiyasida, fan, madaniyat arboblari bilan uchrashuvlarida istiqbol mafkurasi masalalariga to'xtalib ta'lim-tarbiya masalalarida biz umuminsoniy qadriyatlarga asoslanishimiz kerakligini uqtiradilar. Bu demak, g'oyaviy yo'nalish bizda umuminsoniy ijobiy xislatlarni shakllantirish yo'nalishida, ya'ni siyosiy partiyalar ta'siri, kurashish ta'sirida emas, balki asrlar osha sayqallanib kelayotgan xalq pedagogikasi durdonalari asosida,, o'zbekona odat, udumlariga tayangan holatda yuz beradi.

1. YOshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash. («Vatanni sevmoq iymondandir») Vatan, ona er,onadan boshlanadi. Vatanni sevmoq uchun vatanni bilmoq kerak.

Vatan bayrog'i, gerb nishonasini bilib, yoshlarda unga nisbatan hurmat hissini tarbiyalash lozim. Bayroqdagi ranglar ma'nosini, yulduzlar soni, joylanishi ma'nosini bilish kerak.

2. Fanlararo kompleks aloqalar printsiplari. Bakalavr va magistrlar tayyorlash mazmuni strukturasi o'quv materiallari orasidagi bog'lanish asosai kompleks bo'ladi. Bunday bog'lanishlarning ma'nosi umumtexnika, umummuhandislik, maxsus fanlar, turli bevosita ishlab chiqarilgan, texnologik jarayonlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan tabiiy fanlarga asoslanadi.

3. Kasblarga yo'naltirilganlik printsiplari:

Ma'lumki, o'quv rejasidagi barcha predmetlar bo'yicha barcha bilimlarning o'zi etarli emas. CHunki yosh mutaxassis o'qishni bitirib to'ishga joylashgunicha real texnologik jarayonda ko'pgina o'zgarishlar yuz berib bo'ladi.

4. Ta'lim mazmunini tanlashda yadro va qobik yoki ustivor va o'zgaruvchan (dinamik) qismlarga bo'lib tanlash printsiplari.

5. Ta'lim mazmunini unifikatsiyalash va tabaqalashtirish printsiplari.

Ta'lim mazmunini unifikatsiyalash va tabaqalashtirish bir tomondan ma'lum bir yo'nalish bo'yicha mutaxassis tayyorlanayotganida uning bpr necha tur modifikatsiyasini (xillarini) tayyorlash imkoniyatini ko'zda tutuvchi unifikatsiyalashgan o'quv rejalarini tuzishni ko'zda tutsa, ikkinchidan umumtexnik, umumpedagogik va maxsus predmetlari mazmunini tabaqalashtirish ijtimoiy ishlab chiqarish rivojlanishini an'analarni hisobga oladi.

**8.2. Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari.** Ta'lim jarayoni ta'lim beruvchi - o'qituvchining va ta'lim olayotgan o'quvchilar faoliyatining yig'indisidan iborat. Bu jarayon o'qituvchi tomonidan ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi, doimo dinamik tarzda o'zgarib boradi. Ta'lim davomida ta'lim olayotganlar-ning shaxsiy xislatlari shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

O'quv jarayonining vazifasi faqatgina bilimlar, ko'nikma va malakalarni shakllantiribgina qolmay, balki o'quvchi shaxsiga kompleks ravishda ta'sir etishga yo'naltirilgan bo'ladi..

Ta'lim jarayonida olib boriladigan tarbiya ta'lim jarayonining borishiga ijobiy, foydali ta'spr ko'rsatadi. Tarbiya intizomlilikka, uyushqoqlikka, jamoaviy aktivlikka undaydi va o'z navbatida ta'lim va-zifalarini oson bajarish imkonini beradi.

Ijtimoiy tuzumlar rivojlanishi jarayonida ta'limning rivojlantiruvchilik funksiyasini ta'minlashga harakat qilingan, ammo ta'lim mazmunining mantiqi, ta'lim metodlarining mukammal bo'lmaganligi sababli rivojlantiruvchi fazilatlarining doirasi bir qancha darajada torroq bo'lgan edi.

Ta'limning asosiy vazifalari amaliyotda rivojlantirish, tarbiyalash, ta'lim berish masalalari har tomonlama hisobga olingan holda rejalashtiriladi. O'qituvchi va o'quvchilar o'quv faoliyatlarini muvofiqlash orqali hamma uch turdagi vazifalarning bajarilishi ta'minlanadi, bunda mashg'ulotning har bir bosqichida ularning qaysidir biri katta yoki kichik darajada berilishi nazarda tutiladi. Uch vazifaning mushtarakligi ta'limning har xil vositalari, shakllari, metodlarini uyg'unlashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchilar asosiy diqqat-e'tiborlarini faqatgina o'quv faoliyatiga jalb etsalar, ta'sirning natijasi etarli bo'lmasligi mumkin va aksincha qulay muloqot ta'minlanib, shart-sharoitlar yaratilib, ammo o'quv faoliyati tashkil etilmasa, bunday hollarda ham kuch sarflashlar samarasiz bo'lishi mumkin. Mana shuning uchun ham ta'limning mohiyatini ochish davomida muloqot va bilimning, ma'lumotning mushtarakligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. SHaxsning rivojlanishi, ta'lim va tarbiyasi faqatgina ta'lim hamda tarbiyalash vositasida emas, balki uni qurshab turgan muhit, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy foydali mehnat, jismoniy mashqlar, o'yinlar va boshqa shunga o'xshash darsdan tashqari mashg'ulotlar yordamida ham amalga oshiriladi.

Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari: maqsadlilik, rag'batlantiruvchi-izohiy, mazmuniy, operatsion-faoliyatli (ta'limning metodlari, shakllari), nazorat to'g'rilov baho, natijaviy bilimlardan iboratdir. Ta'lim jarayonining ushbu tarkibiy qismlari pedagoglar va o'qitilayotganlarning o'z oldiga maqsad tanlash, maqsad qo'yishdan tortib, ularning amalga oshirilib haqqoniy natijalar keltirilishiga qadar bo'lgan hamjihatliklarining rivojlanishini aks ettiradi. SHu bilan birga, ta'lim jarayonining ushbu tarkibiy qismlari pedagoglar va o'qitilayotganlarning ma'lum darajada belgilangan davriy hamjihatliklarini nazarda tutishi lozim.

Rag'batlantirishlar o'quvchilarning diqqat-e'tiborlarini mavzuga jalb etish hisobiga, shuningdsk, havasmandlikni, tirishqoqlikni, sinchkovlikni, ilmga qiziquvchanlikni uyg'otish hisobiga ham amalga oshirilishi mumkin. Darsning borishi jarayonida, xususan uning ikkinchi qismida, o'quvchilarning tabiiy ravishda charchashlari yuz bera boshlaganda va ular toliqishni, charchoqni ketkazadigan ta'sirlarga hamda o'quv materialini faol o'zlashtirishiga xohishini uyg'otadigan ta'sirga muhtoj bo'lganda foydalanadigan rag'batlantirish usullarini o'ylab topish kerak.

**8.3. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standarti.** Davlat ta'lim standartlari ta'limning zarur, etarli darajasi va o'quv yuklamalari hajmiga qo'yiladigan asosiy davlat talablarini belgilab beradi.

Ta'lim mazmunining zaruriy o'zagi hisoblanish davlat ta'lim standarti vositasida mamlakat hududidagi barcha o'quv muassasalarida ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi, O'quv yuklamalari me'yorga keltiriladi, o'quvchilar bilimni baholashning mezonlari ishlab chiqiladi.

Davlat ta'lim standartlari o'quv tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari uchun majburiy tayyorgarlikka qo'yiladigan talablarning ochiq bo'lishini nazarda tutadi. SHakl va mazmun jihatdan tushunarli tarzda ifoda qilingan mazkur talablar o'quvchilar va ularning ota-onalariga oldindan ma'lum qilinadi.

Davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq, oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standarti ishlab chiqiladi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining tarmoqli standarti-malaka talablariga mos ravishda kasbiy tavsifnoma asosida muayyan tayyorlov yo'nalishi yoki kasb-hunar bo'yicha ta'lim mazmunining zarur va etarli hajmi va maqsadi, o'quv yuklamalari hajmini aniqlovchi hamda ta'lim sifatining standart talablariga muvofiqligini taminlovchi me'yoriy xujjatdir.

Kasb-hunar ta'limi dasturi kasb-hunar ta'limi tayyorgarligining asosiy mazmunini aniqlovchi xujjatlar tuplami. Kasb-hunar ta'limi dasturi kasb-hunar kolleji bitiruvchisiga egallagan kasbi bo'yicha ishni malakali bajarish imkonini berish hajmidagi umumkasbiy va maxsus fanlar shuningdek, ishlab chiqarish ta'limi amaliyoti mazmunini aks ettiradi.

Kasb-hunar ta'limi dasturi kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini muayyan kasb va ixtisosli bo'yicha mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqi bilan ta'minlaydi. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limining yuksak sifati mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, sifati ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish, kadrlar tayyorlash sifati va ta'lim faoliyatini baholashning mezonlari va tartibini belgilashdan iborat.

**8.4. Ta'lim mazmuni tuzilmasining makrodarajasi.** Ta'lim mazmuni tuzilmasining makrodarajasi modulli blok yordamida amalga oshiriladi. Modulli-blok yondashuv ta'lim mazmuni asosini ajratib olishga yordam beradi, hamda kasbiy ta'lim tizimining moslashuvchanligini ta'minlab beradi.

Aniq bir yo'nalish bo'yicha ta'lim mazmunini tekshirish boshlang'ich kasbiy ta'lim sohalaridan boshlanadi.

Kasbiy ta'lim mazmuni umumiy holda umumta'limiy va kasbiy tayyorgarlikni o'z ichiga oladi. Umumta'limiy tayyorgarlik gumanitar va tabiiy ilmiy bloklar orqali olib boriladi.

Umumtexnikaviy blok – o'quv material, tarmoqlararo vazifasiga ko'ra texnika va texnologiyaning ilmiy asosini ko'rsatib beradi, tarmoqlar guruhiga tavsifli (tarmoqchalar, ishlab chiqarish) yondashuvni yuzaga keltiradi.

Tarmoqli blok – o'quv materialini umutexnik, umumtexnologik va iqtisodiy jihatdan boyitadi ishlab chiqarish asoslari va tarmoqlarini ochib beradi, boshqa kasb tarmoqlari mehnati bilan tanishish, ishlab chiqarish mehnati xavfsizligi to'g'risida ma'lumot beradi, ishlab chiqarish ekologiyasini tashkil qiladi.

0 qatlam	Tarmoqlararo (tarmoqlar guruhi) ishlab chiqarish Tarmoqlararo (tarmoqlar guruhi) ishlab chiqarish	Umumiy ta'limiy tayyorgarlik Gumanitar blok Tabiiy-ilmiy blok Kasbiy tayyorgarlik Umumtexnikaviy blok
1-qatlam	Tarmoqlararo ishlab chiqarish faoliyat turi	Tarmoq bloki Umumkasbiy blok
2-qatlam	YAqin kasblar guruhi	Umumkasbiy blok
3-qatlam	Kasblar, mutaxassisliklar	Kasbiy blok Kasbiy blok
		blok blok 1 2 3 1 2 3

**1-shakl. Ta'lim mazmuni keng miqyosdagi kasblar bo'yicha tarmoqlar va tarmoqlararo kasblar integratsiya bloklarining shakllanishi asosida hosil bo'ladi**

Umumiy ta'limiy blokka – nazariy va amaliy o'quv material kiradi, yaqin kasblar guruhi uchun integratsiya asosini o'taydi, tarmoqlardan (ishlab chiqarish) ajratilgan va yoki tarmoqlararo darajasida bo'ladi. Bu umumtexnik, texnologik yoki kasbiy faoliyatning asosini tashkil etuvchi guruhlar bo'lishi mumkin. Agar bu kasblar uchun tarmoqli blok unsurlari, masalan, iqtisodiy tavsif bo'yicha, umumiy kasbiy blokka kiritilishi mumkin.

Ta'lim jarayonida kasbiy blok eng asosiysi hisoblanib kasbiy blokda o'quv material, turli kasbiy faoliyatni talab etilayotgan darajada o'rganish maqsadga muvofiqdir. Mutaxassislik bloki-nazariy va amaliy o'quv material kasb mutaxassisligini o'rganish uchun zarur.

Umumiy mutaxassislik bloki – keng miqyosli texnik-texnologiyani qamrab oluvchi, mehnatning mazmuni bo'yicha nisbatan har xilligiga asoslanadi. Bir necha mutaxassisliklar uchun kasblar bo'yicha umumta'lim mazmunini ajratib, umumiy mutaxassislik blokiga kiritish mumkin. Masalan, «Tikuvchilik» kasbi uchun ta'lim mazmuni tanlanganda, yuqori qatlam bo'yicha – tikuvchilik ishlab

chiqarishga to'g'ri keladi, o'rta qatlam bo'yicha kiyimlarni, yakka tartibda tikish texnologiyasii, yaqin kasblar guruhi, quyi katlam- «tikuvchilik» kasbi mutaxassisliklar masalan, ayollar engil kiyimlarini tikuvchi.

Kasbiy ta'limni oshirish bloki – kadrlar tayyorlashning 2- tizimi bilan bog'liq. Agar 2-tizim - umumtexnik daraja va tarmoqli tayyorlashni kasbiy ta'limning o'rta darajasigacha olib borish masalasini hal etishga xizmat qilsa, u holda ta'lim oluvchilar kasbiy ta'limni egallaganliklari haqidagi diplom bilan birga texnik diplomni ham oladilar (kichik injener).

Biznes blok – bozor iqtisodiyoti sharoitida muhimdir. Bu blok odamlarni bozorga jalb etishga va muayyan faoliyatni yuritishga yordam beradi. Blok – Kasbiy tayyorgarlikni takomillashtiruvchi bloki – o'z kasbi bo'yicha yangi texnika va texnologiyalar haqida ma'lumotlar berish, yangi texnika va texnologiyalarda ishlay oluvchi ishchi va mutaxassislarni tayyorlashda muhimdir. Bu blok bo'yicha o'qitish biror firma tomonidan tushgan taklif asosida o'quv dasturiga kiritilishi mumkin.

Biz asosiy va qo'shimcha bloklar mohiyati bilan tanishib chiqdik. Ular asosida uzluksiz kasbiy ta'limni tashkil etish jarayonida kasbiy ta'lim mazmuni yaratiladi.

Uzluksiz kasbiy ta'lim yaxlitligini ta'minlash uchun bloklar sirasiga ijtimoiy-iqtisodiy darajadagi bloklarni ham kiritish lozim.

Ular jumlasiga «Kompyuter asoslari», «Bozor iqtisodiyoti va kichik biznes», «Moliya asoslari», «Xuquq asoslari» kabi bloklar kiritilib ular asosiy tuzilma unsuri bo'lib xzmat qiladi. Mazkur bloklar yordamida ta'lim mazmuni ham shakllanadi.

Tarmoqli blok tikuvchilik i/ch Materialshunoslik Uskunalar Bozor iqtisodiyoti	Umumkasbiy blok Yakka tartibda Kiyimlar tikish Madaniyat Badiiy loyihalash	Kasbiy blok Kasb-tikuvchi Kiyimlar tayyorlash texnologiyasi Kiyimlarni konstruksiyalash asosi I/ch ta'limi
Yo'nalish bloki Tikuvchilik asosida Aniq mutaxassislik Bichuvchi Xalq badiiy ishlari Kiyimlar dizayni Kiyimlarni konstruksiyalash va modellash Laboratoriya-amaliy ishlar Kiyimlarni bichish, tikish bo'yicha Diplom loyihalari	Mutaxassislik bloki Bazoviy modul Boshlang'ich darajadagi tikuvchi barcha mutaxasliklar Kiyim tayyorlash texnologiyasi Ishlabchiqarish ta'limi	Boshlang'ich malaka darajasidagi tikuvchi
YUqori malaka darajasidagi bichuvchi  Kasbiy ta'lim yuqori bloki Modeler – konstruktor Kostyumlar tarixi Xalq badiiy ijodi Kiyimlar dizayni kiyimlarni konstruksiyalash, modellash Marketing, menedjment asoslari Laboratoriya–amaliy ishlar Kiyimlarni konstruksiyalash va texnik xujjatlarni i/ch tayyorlash Konstruksiya bo'yicha laboratoriya – amaliy ishlar Kiyimlarni tayyorlash	Mutaxassislik bloki Qo'shimcha modul aniq mutaxassislik bo'yicha tikuvchi Kiyim tayyorlash texnologiyasi Ishlab chiqarish ta'limi va amaliyoti Kiyim tayyorlash texnologiyasi bo'yicha kurs ishi  Biznes blok Menedjer-kichik Korxonada (tikuvchilik) Hisob kitob Iqtisod Marketing Menedjment Huquq asoslari Tikuvchilik ustaxonasini tashkil qilish ishlab chiqarish	YUqori malaka darajasidagi tikuvchi  Kasbiy ta'limni oshirish bloki Ishlab chiqarish ta'limining ustasi Kostyumlar tarixi Xalq badiiy ijodi Kiyimlar dizayni Ta'lim psixologiyasi Pedagogika Ishlab chiqarish ta'limi metodi va uni tashkil qilish Marketing va menedjment Kiyimlarni konstruksiyalash va modellash Konstruksiyalash va modullash tirish bo'yicha laboratoriya-amaliy ishlar Kiyim bichish va tikish bo'yicha laboratoriya –amaliy ishlar



Modellashtirish, konstruksiyalash bo'yicha kurs ishi Diplom ishlari	amaliyoti diplom ishlari	Pedagogik amaliyot Diplom ishlari
Model'er-konstruktor	Kichik korxonada menedjeri Tikuvchilik ishlab chiqarishi	Ishlab chiqarish ta'limi ustasi

Modul' birligi sifatida tavsiya etiladigan fanlar hamda amaliy ta'lim turlari: laboratoriya-amaliy ishlar, ishlab chiqarish amaliyoti, kurs ishlar va diplom ishlarini ko'rishimiz mumkin.

**8.5. Mikro darajadagi o'qitish mazmunining tuzilmasi.** YUqori darajadagi o'qitish mazmuni tuzilgandan keyin (standart, modul-blok o'quv dasturi kasbiy ta'lim uchun ta'lim berish muassasalari yoki kishilarning bandlikka o'qitish bloki modul o'quv dasturi) moduli birliklar mazmuni ochib beriladi. (fan, fan doirasi, amaliy mashg'ulot turlari, mehnat).

O'quv predmeti dasturini o'zlashtirish uchun ob'ekt, hodisa va faoliyat uslublarini «o'quv unsuri» degan umumiy atama bilan ifodalaymiz. Qar qanday o'quv dasturi o'quv unsurlari iborat bo'ladi. O'quv unsurlari ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhdagi o'quv jarayonining ob'ekti, predmeti va faoliyat uslublari ko'rib chiqiladi. Ikkinchi guruhda – barcha ko'rsatkichlar kiritilib, ular yordamida ob'ekt va jarayonlarning avzalliklari ochib beriladi.

Umumiy kasbiy blokka kiruvchi – yakka tartibda kiyim tikish, mavzuviy rejaga mos keluvchi mavzular o'quv unsurlari asoslarini tashkil etadi.

- figurali chizish;
- siluet shakllarni tuzish;
- kiyimlarni badiiy loyihalash;
- jurnallarga qarab kiyim modalarini chizish;
- ranglar asosini belgilash;
- kostyumlarni badiiy loyihalash va hokazolar.

Kiyimlarni badiiy loyihalashda – kiyimlar detallari o'quv unsurlari orqali ochib beriladi. – Taqilma va cho'ntak turlari, yoqa adib eng turlari, ularni bezash.

Ichki tartibdagi modulni birlik mazmuni amaliy ta'lim va amaliy ish orqali ochib beriladi. Modulni birlikda asosiy o'quv elementiga mayda faoliyat elementlari kiritiladi. Mikro darajadagi bunday tuzilmasi o'quv kurslari mazmunini ishlab chiqarishga yordam beradi.

## Ma'ruza-9. «KASBIY TA'LIM METODLARI»

### 1.1. Trening mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi

<i>O`quv soati:</i> 2 soat	<i>Tinglovchilar soni:</i> 22 ta
<i>O`quv mashg'uloti shakli</i>	Axborotli ma`ruza
<p><i>Mashg'ulot</i></p> <div style="border: 1px solid black; background-color: #d4c08c; padding: 5px; width: fit-content; margin: 10px auto;"> <p><b>R e j a s i:</b></p> </div>	<div style="border: 1px solid black; background-color: #e0f7fa; padding: 5px; margin-bottom: 5px;">Kasbiy ta'lim metodlarining umumiy tavsifnomasi</div> <div style="border: 1px solid black; background-color: #e0f7fa; padding: 5px; margin-bottom: 5px;">Nazariy ta'lim metodlari</div> <div style="border: 1px solid black; background-color: #e0f7fa; padding: 5px; margin-bottom: 5px;">Amaliy ta'lim metodlari</div> <div style="border: 1px solid black; background-color: #e0f7fa; padding: 5px;">Kasb ta'limida o`quvchilarning o`quv faoliyatini aktivlashtirishning noan`anaviy metodlari</div>
<i>O`quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Tinglovchilarda mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalarni kengaytirish va chuqurlashtirish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O`quv faoliyatining natijalari:</i>
<p>ma`ruza- Kasbiy ta'lim metodlarining umumiy tavsifnomasi haqida ma'lumot berish;</p> <p>Nazariy ta'lim metodlari bilan tanishtirish</p> <p>Amaliy ta'lim metodlari bilan tanishtirish</p> <p>Kasb ta'limida o`quvchilarning o`quv faoliyatini aktivlashtirishning noan`anaviy metodlari bilan tanishtirish</p>	<p><i>tinglovchilar biladilar:</i></p> <p>Kasbiy ta'lim metodlarining umumiy tavsifnomasi haqida ma'lumot berish</p> <p>Nazariy ta'lim metodlari</p> <p>Amaliy ta'lim metodlari</p> <p>Kasb ta'limida o`quvchilarning o`quv faoliyatini aktivlashtirishning noan`anaviy metodlari</p>
<i>Ta'lim usullari</i>	Ma`ruza, tezkor so`rov, namoyish etish, suhbat
<i>Ta'lim vositalari</i>	Tayanch matn, slaydlar
<i>O`qitish shakllari</i>	Ommaviy
<i>O`qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo`ljallangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	kuzatish

#### Adabiyotlar

1. K.D.Davlatov. «Kasb va kasb - ta'lim, kasb tanlash» «Kasb tarbiya nazariyasi va uslubi» Toshkent. Kasb 1994
2. Olimov Q.T. Kasb ta'limi uslubi. O`quv qo`llanma. – T.: 2006. 164 b.

**“Ma`ruza mashg`ulotlarida innovatsion ta`lim texnologiyasini loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari” bo`yicha ta`lim texnologiyasi**

**I. Tayyorgarlik bosqich**

<b>F a o l i y a t m a z m u n i</b>	
<i>O`qituvchi</i>	<i>tinglovchi</i>
Mavzuni aniqlaydi, maqsadni belgilaydi va o`quv natijalarini rejalashtiradi. Mavzu bo`yicha ko`rgazmali materiallar tayyorlaydi.	Mashg`ulotga tayyorlanadilar

**II. Amalga oshiruvchi bosqich- ma`ruza**

<b>F a o l i y a t m a z m u n i</b>	
<i>O`qituvchi</i>	<i>tinglovchi</i>
<p><b>1. Ma`ruzaga kirish.</b></p> <p>1.1. Maqsad va rejalashtirilgan o`quv natijalari bilan tanishtirish.</p> <p>1.2. Ma`ruza rejasini bilan tanishtiradi.</p> <p>1.3. Tinglovchilarga tezkor savol berib bilimlarini faollashtiradi: Kasbiy ta`lim metodlarining umumiy tavsifnomasi talablari qanday?” SHunday bo`lsa asoslab bering.</p> <p>1.4. Javoblarni birgalikda umumlashtiradi va asosiy ma`ruza mavzusiga o`tadi.</p>	<p>Diqqat qiladilar va yozib oladilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar.</p>
<p><b>2. Asosiy qism.</b></p> <p>2.1. Faollashtirilgan bilimlar asosida tinglovchilarni mashg`ulot mavzusiga olib kiradi.</p> <p>2.2. Slaydlar yordamida mavzu mohiyatini reja asosida yoritadi.</p> <p>2.3. Ma`ruzani davom ettirishdan avval tinglovchilarga “Tezkor so`rov” texnikasini qo`llagan holda quyidagi savolga javob berishlarini so`raydi: Kasbiy ta`lim metodlarining umumiy tavsifnomasi nimalarga bog`liq?</p> <p>2.4. Javoblarni qabul qiladi va ularni umumlashtiradi.</p> <p>2.5. Rejaning ikkinchi savolini - Dars rejasiniig namunaviy shakli yoritishdan avval tezkor savol orqali murojaat qiladi: “Nazariy ta`lim metodlariga qo`yiladigan talablar?” -----</p> <p>2.6. Javoblarni qabul qiladi va ularga slayd materiali orqali qo`shimcha ma`lumotlar beradi.</p> <p>2.7. Rejaning uchinchi va to`rtinch savolini o`qituvch misollar asosida yoritadi.</p>	<p>Savollarga javob beradilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar .</p> <p>Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar</p>

**III. Yakuniy bosqich**

<b>F a o l i y a t m a z m u n i</b>	
<i>O`qituvchi</i>	<i>tinglovchi</i>
<p><b>Ma`ruzani yakunlash:</b></p> <p>Ma`ruza mashg`uloti mavzusi mazmuni bo`yicha yakun yasaydi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma`ruza yuzasidan savollarga javob beradi;</li> <li>• ma`ruza yuzasidan amaliy ishlar bajarilishini va mavzu yanada mustahkamlanishini aytadi;</li> <li>• tinglovchilarni tayyorgarligi, ularni savol javobda faolligini baholaydi;</li> <li>• ma`ruza natijaviyligining umumiy bahosini beradi;</li> </ul>	<p>Savollar beradilar, baholar bilan tanishadilar</p>

**9.1. Kasbiy ta'lim metodlarining umumiy tavsifnomasi.** Kasb ta'lim metodlari deganda o'qituvchi, usta va o'quvchilarning birgalikda bajaradigan faoliyat usullari tushuniladi va bu usullar o'quvchilarning texnik-texnologik bilimlar, ko'nikma va malakalarni egallashlariga, mustaqil ravishda bilim olish va bu bilimlardan amalda foydalanish qobiliyatini oshirishga qaratilgan bo'ladi.

Ta'lim metodlaridan unumli foydalanishimiz uchun ularni bir tizimga keltirib olishimiz zarur.

Pedagogik amaliyotda quyidagi metodlar – og'zaki metod (og'zaki bayon, tushuntirish, suhbat), kitob bilan ishlash (instruktiv materiallar), ko'rgazmali metod (ko'rgazmalar, kino, videofil'm, kuzatuv...), amaliy metod (mashqlar, laboratoriya-amaliy ishlar)lardan keng foydalaniladi.

Didaktik vazifalarga bog'liq holda quyidagi metodlar qo'llaniladi – bilimlarni hosil qilish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, bilimlarni qo'llash, mustahkamlash, bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish.

Ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatiga mos ravishda ikki metod ajratiladi va ular 2 guruhga birlashtiriladi: reproduktiv va muammoli izlanish metodlari.

Ta'lim metodini 3 ta asosiy guruxga bo'lishimiz mumkin:

1. O'quv bilish va o'quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish metodi.
2. O'quv faoliyatiga qiziqtirish va rag'batlantirish metodi.
3. O'quvchilar o'quv faoliyatini samaradorligini nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish metodi.

Metodning har bir guruhi ham o'z navbatida kichik guruhlariga bo'linadi, ularning alohida metodlari bo'lib, ular ta'lim jarayonining quroli hisoblanadi.

O'quv bilish va o'quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish metodiga quyidagilar – suhbat, ko'rgazmali va amaliy metod, o'qituvchi boshchiligida induktiv yoki deduktiv reproduktiv yoki produktiv yo'nalishlardagi metodlar kiradi.

O'quv faoliyatiga qiziqtirish va rag'batlantirish metodiga – o'quv bilish va o'quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish hamda o'qish faoliyatiga qiziqtirish metodlari kiritilgan.

O'quv faoliyati samaradorligini va o'z-o'zini nazorat qilish metodiga – og'zaki, yozma va amaliy nazorat o'z-o'zini nazorat, hamda bilim darajalari bo'yicha testlar o'tkazish kabi metodlar kiritiladi.

Ta'lim metodi – ko'p ma'noli tushuncha hisoblanadi. Bu metodlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi, balki ulardan kerakli o'rinda unumli foydalanish zarurdir. Qar doim metodlar bir-birini to'ldirib keladi, o'qituvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasidagi faoliyatda keng qo'llaniladi. Agar aniq bir metod muayyan vaqtda keng qo'llanilayotgan bo'lsa, bu metod shu vaqt (jarayon)da didaktik vazifalarni echish uchun juda muhim va qulaydir.

Har bir metod boshqa bir metod yordami bilan qo'llaniladi. Masalan, reproduktiv va muammoli-izlanish metodi suhbat, ko'rgazmalar, amaliy faoliyat yordamida qo'llaniladi. SHu navbatda suhbat, ko'rgazmali va amaliy faoliyat metodlari ham reproduktiv yoki izlanish metodlari orqali qo'llanilishi mumkin.

Metodlarning nomlaridan ham shuni ko'rishimiz mumkin: muammoli bayon, evrichtik suhbat, izlanish, tajribaviy-amaliy ishlar, kuzatuv va hokozolar.

Mazkur metodlar nomlari o'zida ularning yo'nalishlari mazmuni hamda qo'llanilish maqsadini ham ifoda etadi.

O'quv jarayonining eng muhim jihati ushbu metodlarning turlarga bo'linishi emas, balki o'qituvchining chuqur bilimga ega bo'lishi, metodlardan unumli foydalana olishi, ta'lim oluvchilarga o'quv hamda o'quv ishlab chiqarish faoliyatida mazkur metodlarni to'g'ri qo'llay olishga o'rgatishdan iboratdir.

Ta'lim metodlari o'quv jarayonini samarali tashkil qilishga yordam beradi. SHunga ko'ra ularning uch jihatini ko'rishimiz mumkin: umumdidaktik va xususiy metodik.

Umumiy didaktik jihat – o'zida ob'ektiv mohiyatni, didaktik metodning imkoniyat va talablarini aks ettiradi, bu esa o'quv jarayoni davriga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshiriladi.

Xususiy didaktik jihat – metodning ta'lim jarayoni davrlarida qo'llash sharoiti hamda ta'lim mazmunining o'ziga xos xususiyatini ifoda etadi.

Xususiy metodik jihat – metodlarning umum didaktik va xususiy – didaktik tavsifiga asoslanadi va alohida predmetlarni xususiy metodik jihatdan o'rganilishini ifoda etadi.

**9.2. Nazariy ta'lim metodlari.** O'quv muassasalarida boshlang'ich kasbiy ta'limni o'qitishning nazariy asoslari quyidagi bosqichlarda o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi: umumiy ta'lim, umumiy texnik ta'lim va kasbiy ta'lim.

Umumiy ta'lim fanlari bo'yicha ta'lim metodlarining umumiy didaktik, xususiy didaktik va xususiy metodik jihatlari pedagogik adabiyotlarda chuqur bayon qilib berilgan.

Umumtexnika va kasb fanlarini o'qitish metodlari aksariyat xalqlarda o'ziga xos mazmuniga ko'ra aniqlanadi, ya'ni:

- ko'p xususiyatli tuzilma, ob'ektlarni turli xil yo'nalishlarda o'rganish;
- materialning keng qamrovligini, ta'lim oluvchining turli xil usullar asosida bilimlarni qabul qilishi;
- ta'lim oluvchilarning ishlab chiqarish ta'limi jarayoni bilan mustahkam aloqadorligi;
- materialning keng qamrovligi, tajribaviy izlanish soni va sifati jihatidan, xizmat ko'rsatish usullarini amaliy o'rganish.
- o'quv materiali mazmunida yangi texnika va texnologiyalar va imkoniyati mahalliy shart-sharoitlarning aks ettirish.

Ta'lim metodlaridan foydalanishda bularni inobatga olish zarur.

#### **O'quv (bilish) faoliyatini tashkil qilish metodlari.**

**Suhbat metodi. Og'zaki bayon.** Umumtexnika va kasbiy fanlarni o'rganish o'quv materialini og'zaki bayon etish, gapirib berish va tushuntirish orqali amalga oshiriladi, bunda mavzuni to'liq taqqoslaniladi, isbotlanib, misollar asosida tushuntiriladi.

- Bayon qilinayotgan material ta'lim oluvchilarning tushunishlari uchun qiyin bo'lgan, yangi ma'lumotlar berilayotgan, mehnat faoliyatini bajarilish yo'llarining tushuntirilib berilishi talab qilingan xollarda og'zaki bayon qilish metodidan foydalaniladi.

**Suhbat.** Bu kasb ta'limining shunday usulidirki, unda o'qituvchi savollar yordamida ta'lim oluvchilarning ilgari o'qilashtirilgan bilimlari asosida ularni esga tushiradi hamda mustaqil ravishda yangi bilimlar xosil qilishga undaydi.

Suhbat o'tkazishda uning mantiqiy rejasiga qat'iy rioya qilish kerak, savol-javoblarning ketma-ketligi shunday tuzilgan bo'lishi kerakki, unda mavzu murakkablashib, rivojlanib borishini o'quvchi sezishi lozim.

O'qituvchi suhbatni xulosa bilan tugatishi kerakdir.

**Ta'lim oluvchilarning kitob bilan ishlashi.** Ilmiy va amaliy pedagogikada ta'lim oluvchilarning kitob bilan ishlashlarini bir qator metodik turlari ko'rsatilgan: tez o'qitish, konspekt olish, asosiy ularning aniqlash va reja tuzish; misollar muhokamasi, nazorat savollariga javob va hokazolar.

#### **Ko'rgazmali metod.**

Insondagi tashqi olma sezishining eng muhim organi – ko'zdir. Olimlarning fikricha, 80% axborot miyaga ko'z orqali uzatiladi. Ish operatsiyalarining 80% ko'z orqali bajariladi. Ushbu dalillardan ko'rishimiz mumkinki, ta'lim jarayonida ko'rgazmali metod katta ahamiyatga egaligini.

Umumtexnik va kasb ta'limi fanlari bo'yicha ko'rgazmali metod tabiiy (asbob, dastgoh, detall, jihoz, material namunalari) va tasviriy (plakatlar, model, maket, sxema, kino-videofil'm, slayda, kinoproektsiya, komp'yuter, mel'timedia...) jihozlari vositasiga qo'llaniladi. Ko'rgazmali metodning vazifalari turlicha bo'lishi mumkin. O'qituvchi mavzu tushuntirishda yoki bir xil xollarda o'rganilayotgan fan bo'yicha aniq ko'rgazma sifatida, yangi axborotlarni berishda ko'rgazmali metoddan samarali foydalanish mumkin.

**9.3. Amaliy ta'lim metodlari.** Mashq amaliy metodning asosiy metodlaridan biri hisoblanadi. Mashq o'tkazishning asosiy maqsadi o'qitish jarayonida ta'lim oluvchilar texnika va kasbiy fanlar bo'yicha egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish borasidagi ko'nikmalarga bo'lishlari ta'minlashdan iboratdir. Ta'lim oluvchilarning bilimlarini mustahkamlashda ham mashqlarning o'zini katta. Barcha mashqlarni 3 ta asosiy tipga ajratish mumkin: reproduktiv badiiy, izlanuvchanlik.

Reproduktiv mashq - bu tipdagi mashqlarni bajarishda ta'lim oluvchilar qurilmaning tuzilishi, materiali, asbob-uskunalar, yozma vazifalarini o'rganishadi. Reproduktiv mashqda chizma, sxema, grafik va diagrammalar muhokama qilinadi hamda ta'lim oluvchilar tomonidan ular bajaradi. Kasbiy fanlar bo'yicha texnik xujjatlar – stanok pasportlari va texnologik kartalarni o'rganish mumkin.

Bu mashqda berilgan mazmundagi bilimlarni qo'llashilgandir.

**Badiiy mashq.** Ta'lim oluvchilar bu turdagi mashqlarni bajarishda egallagan bilim va malakalaridan turli xil kombinatsiyalarda foydalanishadi, yahni oldiga qo'yilgan vazifalar yuzasidan mustaqil ravishda original javoblarini topishadi.

**Izlanish mashqi** – bu ham egallangan bilimlarni mashqlarda badiiy qo'llash usuli bo'lib, ta'lim oluvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stirishga yordam beradi. Izlanish metodining texnika va kasbiy fanlarga tegishlik bo'lgan turlari.

**Tashhisli mashqlar.** Ular 3 ta bosqichda yo'lga qo'yiladi. Birinchi bosqichda o'quvchilar – nuqsonlarning buzilish sabablarini o'rganishadi, buzilishlar bo'yicha jadvallar, vazifalar – kartochkalar tuziladi. Ikkinchi bosqichda esa – ta'lim oluvchilar turli vaziyatlardan chiqa olishni o'rganishadi.

**9.4. Ta'limda faollik metodi.** Hozirgi kunda ilmiy va amaliy pedagogikada ta'lim metodlari katta ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim oluvchilarning ichki va tashqi faolligini oshirish uchun turli xil o'yinlardan foydalaniladi. Bulardan keng, ko'p qo'llaniluvchisi – didaktik o'yinlardir.

Kasb ta'limida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar: texnik «diktant», kichik tanlovlar, «kim epchilu», «kim chaqqon», «texnik kurashlar», savollar, «texnik loto», «texnik domino» va hakazolardan iboratdir.

– Faollik metodi sirasiga seminar darslari ham kiradi. U uch bosqichda tashkil etiladi: seminar bo'yicha o'qituvchining ma'ruzasi, ta'lim oluvchilar tomonidan seminar mavzusi bo'yicha mustaqil ravishda uy vazifalarining tayyorlanib kelinishi va seminarning o'tkazilishi bunda ta'lim oluvchi tayyorlab kelgan matnlari bilan chiqadi va ko'rgazmalari qurollar, asboblari va jihozlardan foydalanib tushuntirib beradi.

Kasbiy ta'lim muassasalarida amaliy ishlar jarayonida integrativ darslar ham keng qo'llanilmoqda. Ushbu darslarda ikki yoki bir necha fanlarning mavzulari o'rtasidagi aloqadorlik o'rganiladi. Masalan, matematika va informatika, fizika va ximiya, kasbiy texnologiya va ishlab chiqarish ta'limi va boshqalar. Bunday darslarda ayrim xollarda mavzular fanlar o'rtasidagi bog'liqlik orqali tushuntiriladi va ta'lim oluvchilarning fanni, mavzuni o'rganish bo'yicha qiziqishlarini ortadi.

Fanlar o'rtasidagi integratsion bog'liqlik 3 darajada amalga oshiriladi:

I daraja. YUqori – butun daraja, fanlar o'rtasidagi integratsiya. Masalan «elektrotexnika va elektronika asoslari».

II daraja. – Didaktik sintez, har bir fan saqlanib, integratsiya ularning birida qo'llaniladi. Umumiy ob'ekt integratsiya shakli sifatida o'rganiladi.

III daraja. Fanlararo aloqadorlik, integratsiya shakli bo'lib, fanlar mazmunidagi umumiy unsurlarlar hisoblanadi.

**9.5. Ishlab chiqarish ta'limi metodi.** Avvalo ishlab chiqarish ta'limining maqsadi ustida to'xtalib utish lozim. Ishlab chiqarish ta'limining asosiy maqsadi ta'lim oluvchilarda muayyan kasb, soha bo'yicha ustachilikni shakllantirishdir. Ishlab chiqarish ta'limida asosiy maqsadga bosqichma-bosqich erishiladi.

Ishlab chiqarish ta'limi metodi bilan nazariy ta'lim metodlari o'rtasid boqliqlik, o'xshashlik bor. Ishlab chiqarish metodlari sirasiga: mehnat faoliyati harakatlarini ko'rsatish, mashqlar, mustaqil kuzatish, yozma instruktsiya berish va faollik metodlari kiradi.

#### **Mehnat faoliyati harakatlarini ko'rsatish metodi**

Bu metod yordamida ta'lim oluvchilar mehnat faoliyatini aniq va ravshan ko'rishadi hamda ish jarayonida mashqlar o'tkazish bilan o'zlarining mehnat faoliyatlari bilan taqqoslay oladilar. Ta'lim oluvchilarda mehnat faoliyati to'g'risidagi to'liq tushuncha bir lahzada paydo bo'ladi, avval umumiy holda saqlanib qoladi, keyin sekinlik bilan detallar aniqlanadi. **Mashqlar.** Ko'nikma va malaka mashqlar orqali hosil qilinadi. Mashq - bu xarakterlarning ko'p marotaba takrorlanishidir.

**Birinchidan,** didaktik maqsad: kasb malakasini shakllantirish bo'yicha mashqlar, boshlang'ich ko'nikmalarni shakllantiruvchi mashqlar.

**Ikkinchidan,** mazmun: mehnat xarakterlarini bajarish, mehnat operatsiyalari va mehnat jarayonlarini boshqarish bo'yicha mashqlar texnologik jarayonni boshqarish bo'yicha mashqlar o'tkazish.

**Mashqlar va mustaqil ishlash.** Mashq metodida «mashq» va «mustaqil ishlash» terminlari ko'pincha birgalikda ifodalanadi. Mustaqil ishlash o'quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishdan o'quvchilarning mashqlar jarayonida hosil qilingan mehnat va kasb ko'nikma va malakalarini to'la-

to`kis shakllantirish, yanada takomillashtirish va mustahkamlash maqsadida foydalaniladi. Didaktik maqsad-ishlab chiqarish, kasbiy mustaqillikka erishishga xizmat qiladi.

**Ta`lim oluvchilarning mustaqil kuzatuv.** Bu metod, asosan, ta`lim oluvchilarning ishlab chiqarish ta`limi mehnat korxonalarida, murakkab jihozlar bilan ishlaganda qo`llaniladi. Ta`lim oluvchilar usta rahbarligida o`quvchilar berilgan vazifalar bo`yicha mustaqil kuzatuvlar o`tkazishadi. Vazifada mustaqil kuzatishning maqsadi belgilanadi, uni olib borish ketma-ketligi ko`rsatiladi.

**YOzma yo`riqnoma.** Bu metod ishlab chiqarish ta`limi darslari uchun turli instruktiv o`quv xujjatlar, mustaqil axborot manbai bo`lib xizmat qiladi. Ishlab chiqarish ta`limida yo`riqnomalar, texnologik kartalar, o`quv algoritmi ko`p qo`llaniladi. O`quv operatsiyalarini o`rganishda instruksion kartalar (qoidalar, yo`l-yo`riq, bajarish, nazorat va o`z-o`zini nazorat qilish qoidalari) qo`llaniladi. Texnologik karta kompleks tavsifdagi ishlarni bajarishda qo`llaniladi – mehyorlar, texnik talab, o`quv ishlab chiqarish ishlarini tashkil etish mohiyatini ochib beradi.

**Ishlab chiqarishning faollik metodi.** O`quv ishlab chiqarish ishlarida faollik aqliy, bilim, badiiy faolliklar sanaladi. Ular ta`lim oluvchilarning mustaqil faoliyatida, faoliyat turini mustaqil va maqsadni tanlashlarida va ularni ijobiy natijalarga olib kelish, mehnatni rejalashtirish, tahlil va xatoliklarga yo`l qo`ymaslikda ko`rinadi.

Ishlab chiqarish ta`limidagi faollik metodiga – ishlab chiqarishda texnik masalalarni echish kiradi: ishlov berish, tuzatish, boshqarish me`yorini xisoblash, avtomatlashtirilgan jihozlar uchun boshqaruv dasturini ishlab chiqish.

Texnik masalalarni echishning yuqori darajasi badiiy xarakterdagi masalalarni bajarish hisoblanadi.

Ta`lim oluvchilar ko`nikmasi oshgani sari ularga qiyinroq vazifalar topshiriladi hamda texnologik jarayon ob`ektlari muntazam ravishda o`zgartirib turiladi.

Ishlab chiqarish ta`limining faollik metodi sirasiga mashqlar ham kiradi. Ta`lim oluvchilar ko`nikmasi oshgani sari mustaqil ishlab chiqarishda hosil bo`ladigan jarayonlarni o`rganishga qaratish lozim. Bunda 2 - usuldagi vazifalardan foydalanish kerak bo`ladi.

**9.6. Ta`lim oluvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarini nazorat qilish.** Nazorat qilishning 2 turi mavjud. Birinchidan, ta`lim oluvchilarning o`quv faoliyatini doimiy kuzatish, ikkinchidan, ta`lim oluvchilarning bilimlari va malakalarini tekshirish.

Nazariy ta`lim jarayonida nazorat qilishning asosiy metodlari, ta`lim oluvchilarning bilimlarini og`zaki hamda yozma tekshirish, nazorat ishlari, texnik diktant o`tkazish, texnik hujjatlar mazmuni muhokama qilish. Nazariy ta`limda ta`lim oluvchilarning bilimlarini amaliyotda qo`llay olishini nazorat qilish, sxemalarni yig`ish, o`lchash, mexanizmlarni tuzatish, buzilish sabablarini aniqlash va boshqalar. Bu metodga yana laboratoriya – amaliy ishlar orqali tekshirishni ham kiritish lozim.

Nazariy ta`lim jarayonida test 2 usulda o`tkaziladi.

Birinchisi – tashkil qiluvchi sifatida, dasturlashtirilgan ta`lim, nazorat (dasturiy nazorat), qayta aloqa tizimi. «Ta`lim oluvchi – texnikada dasturli ta`lim – o`qituvchi», «ta`lim oluvchi – dasturli ta`lim – o`qituvchi»

Ikkinchi usul – mustaqil nazorat qilish metodi. Ishlab chiqarish ta`limida test o`z-o`zini mustaqil nazorat qilish metodi hisoblanadi. Ishlab chiqarish ta`limi o`quv jarayonining har bir bosqichda testlar o`tkazish mumkin.

**Nazariy ta`limda ta`lim oluvchilarning bilim va ko`nikmalarini test orqali tekshirish**

Ta`lim oluvchilarning bilim va ko`nikmalari ularning faoliyatlarida ko`rinadi, foydalanilgan axborotlar reproduktiv va produktiv bo`lishi mumkin. Qar bir tur o`quv faoliyatda mustaqil yoki muayyan yordam bilan bajarilishi mumkin.

Reproduktiv faoliyatda aytib berish orqali o`qituvchilar tomonidan aniqlik kiritish, yo`riqnoma, ma`lumotnoma, kitob va boshqa axborot manbalari asosida faoliyatni to`g`ri bajarilishiga yordam beradi.

Produktiv faoliyatda yordam berishning asosi – algoritmlar va faoliyat turlari, ularning vazifalar bo`yicha yangi algoritmlar olishdir. Mustaqil produktiv o`quv faoliyatida – izlanish unsurlari, o`quv ijodiyoti, mustaqil faoliyat yuritish, ta`lim oluvchilarda yangi bilim va ko`nikmalarni sub`ektiv shakllantirish.

I - darajadagi testlar ta`lim oluvchilarga ob`ekt to`g`risida ma`lumotlar berish xarakterlarni bajara olishlarini tekshirish uchun mo`ljallangan. Bunday testlarga: tanib olish testlari, turli xil testlar misol bo`ladi.

II-darajadagi testlar – ta`lim oluvchilar mustaqil bilimni aqlan qabul qilishlari va avval egallangan bilimlarni qo`llashlari uchun mo`ljallangan. Ularga – tipovoy mashq testlari, javoblarni loyihalash testlari, tipovoy vazifa testlari.

III-darajadagi testlar – ta`lim oluvchilar qobiliyatini evristik tipdagi produktiv xarakter orqali aniqlash, ularga tipovoy bo`lmagan vazifa va tipovoy bo`lmagan masalalarni hal qilish.

IV-darajadagi testlar – egallagan bilimlardan ijodiy foydalanish uchun mo`ljallangan bo`lib, ularga – muammoli testlar kiradi.

O`zlashtirish darajalari	O`zlashtirish darajalarining tavsifi	Ishlab chiqarish ta`limi
I reproduktiv. Mustaqil emas	Faoliyat usta-kuzatuvchi bilan birga amalga oshiriladi, o`qituvchi bergan instruktiv ko`rsatmalar, taklif, hujjatlar asosida yozma yo`riqnoma instruktiv texnologik kartalar, o`quv algoritmi, ishlab chiqarish yo`riqnomasi, tipovoy qoidalar. olib boriladi.	Mehnat, ish operatsiyalari va harakatlari, qiyin bo`lmagan ishlarni bajarishni o`rganish, o`zlashtirish
II reproduktiv. Mustaqil	Tipovoy algoritmlar asosida mustaqil o`zlashtirish tashkil etiladi. (ishning texnologik ketma-ketligi, bosqichlari, unsurlari)	O`rtacha og`irlikdagi kompleks tavsifdagi ishlarni bajarish: harakatlar, yangi asbob va jihozlarni qo`llab ishlash turlari hamda yangi texnologiyalarni o`rganish.
III produktiv mustaqil	Mustaqil tayyorlangan algoritmlar asosida o`zlashtirish olib boriladi. Tipovoy bo`lmagan xollarda ta`lim oluvchilar o`zlari mustaqil xulos chiqarishadi.	Ta`lim oluvchilarning malakasini oshirish uchun attestatsiya: kasbiy bilimi va kasbiy mahoratining shakllanganligini tekshirish
IV mustaqil ijodiy	Ijodiy faoliyat jarayonida bilim va malakalaridan foydalaniladi. Ta`lim oluvchilar mustaqil ratsionalizatorlik ishlarini olib borishadi.	

**9.7. Ta`lim metodlarini tanlash.** Ta`lim metodining umumiy tavsifida ko`rsatilganidek, har bir metodning ta`lim jarayonida aniq vazifalari bor. Ta`lim jarayonida bir necha metodlar qo`llaniladi. Bu metodlar bir-biriga bog`liq bo`lib, o`qituvchi-ta`lim oluvchi o`rtasidagi o`zaro faoliyat mohiyatini tavsiflaydi. O`qitish jarayonida metodlarning o`rni va vazifalari belgilab olinganda ularni tanlash onson bo`ladi.

Metodlarni tanlashda ularning mezonlarini ko`rib chiqish kerak bo`ladi. Mezonlardan biri - metodlarning didaktik qoidalarga mos kelishi shartidir.

Keyingi mezon esa – metodlar mazmunining ta`lim maqsad va vazifalarini ta`lim oluvchilarni tarbiyalash va o`stirish bilan mosligi uchun xizmat qilishidir.

Jadvalda metodlarni tanlash uchun yordam beradigan ta`lim metodlarining o`zaro taqqoslanishi ko`rsatilgan.



№	Ta`lim metodlari	YUtuqli (+) yoki engil (-) masalalarni echish							
		shakllantirish					rivojlantirish		
		Nazariy bilimlar	Amaliy bilimlar	Amaliy malaka	Abstrakt fikrlash	Ko`rgaz mali	Mustaqil	Nutq so`z	Qiziquvchanlik
1	Suhbat	+	+	-	+	-	+	+	+
2	Ko`rsatish	-	+	+	-	+	+	+	+
3	Amaliy	-	+	+	-	+	+	-	+
4	Reproduktiv	+	+	+	-	-	-	-	+
5	Muammoli izlanuvchan	+	-	-	+	-	+	+	-
6	Induktiv	+	+	+	+	+	+	+	+
7	Deduktiv	+	-	-	+	+	+	+	+
8	O`qituvchi boshchiligida	+	+	+	+	+	-	-	+
9	O`quvchilarni mustaqil ishlashi	+	+	+	+	+	+	+	+

**9.8. Kasb ta`limida o`quvchilarning o`quv faoliyatini aktivlashtirishning noan`anaviy metodlari.** Agar ta`lim jarayoni o`quvchida faol harakat, bilim va ko`nikmalar orttirish ishtiyoqini uyg`otsagina samarali kechadi va sifatli natijalar beradi.

O`quv faoliyatini bunday tashkil qilish uchun uning barcha usullari - og`zaki, ko`rgazmali va amaliy, reproduktiv, qidiruv, induktiv hamda diduktiv, shuningdek, mustaqil ish usullaridan foydalaniladi. Ta`lim jarayonida rag`batlantirishning asoslash vazifasini o`taydigan bu usullarni shartli ravishda ikki guruhga, o`quvchilarning bilish ishtiyoqini uyg`otuvchi hamda ta`limda burch va mas`uliyat tuyg`usini shakllantiruvchi usullardan iborat guruhga ajratish mumkin.

O`quv faoliyatiga qizikishning asosiy manbai, avvalo, uning mazmunidir. Bu mazmun kuchli rag`batlantiruvchi ta`sir ko`rsatish uchun ta`lim printsiplari qator talablarga javob berishi lozim. Bunda ta`lim mazmunining rag`batlantiruvchi ta`sirini oshiradigan ayrim maxsus usullari ham mavjuddir. Ularga birinchi navbatda yangilik va dolzarblik vaziyatlarini yaratuvchilik mazmunini, fan hamda texnikaning eng muhim kashfiyotlarini zamonaviy madaniyat, san`at, adabiyot yutuqlariga, ijtimoiy-siyosiy va xalkaro hayot hodisalariga yaqinlashtirishni kiritish mumkin.

O`quvchilarning o`qishning ijtimoiy ahamiyatini anglab olishlarida ularga hozirgi jamiyatda fanning bevosita ishlab chiqaruvchi kuch sifatidagi rolini tushuntirish muhimdir. O`quvchilarga ishonarli misollar asosida umumta`lim saviyasining oshishi mehnat unumdorligining sezilarli darajada oshishiga, ishlab chikarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish keng ko`lam kasb etishiga, mehnat jarayonlari engillashuviga, fan yutuqlarini qo`llash esa ishlab chiqarishda inqilobiy o`zgarishlar yasalishiga olib kelishini tushun-tirish kerak.

Og`zaki savol-javob o`quvchilar og`zaki nutq madaniyatini o`stiradi. Ularnn so`zamollikka, ravon adabiy so`zlar ishlatib mantiqiy javob axtarishga, shakllangan bilimlarni so`zlarda ifodalashga o`rgatadi. Albatta o`quvchilarning ba`zilarida ogzaki nutqi rivojlanmagan bo`ladi. Pedagogning vazifasi o`quvchilar nutkidagi bt`zi xatoliklarni ustalpk bilan to`g`rilashdan iborat. Qo`pollik bilan berilgan tanbeh o`quvchilarda so`zlash ishtiyoqini kaytaradn. Maktov, dalda berish kabi pedagogik tadbirlar o`quvchilarda o`ziga ishonch uyg`otadi, sinfda musobakaviy ko`tarinkilik ruhini uyg`otadi, sinf jamoasini yanada birlashtiradi. Ammo shunga qaramasdan og`zaki savol-javobga barcha o`quvchilarni yuz foiz jalb qilib bo`lmaydi. Buning ob`ektiv sabab-lari ayrim tortinchoq xarakterdagi o`quvchllar boshkalar oldida so`zlashga iymanadilar, xato gapirib ko`ysam «kulgiga qolaman» qabilida ish tutadilar.

Ko`p hollarda nazoratning yozma shakli o`quvchilar ichki sir-asrorlarini, kechinmalarini, yashirinib yotgan iste`dodlarini ochish imkonini beradi. Bu usul yozma nazorat, insho, bayon, diktant, yozma sinov va hokazolarni 15-20 minut yoki butun dars davomida o`tkazilishi mumkin.

## Ma'ruza-10. « KASBIY TA`LIMNING TASHKILY SHAKLLARI »

### 1.1. Trening mashg`ulotining ta`lim texnologiyasi

<i>O`quv soati:</i> 2 soat	<i>Tinglovchilar soni:</i> 22 ta
<i>O`quv mashg`uloti shakli</i>	Axborotli ma`ruza
<p><i>Mashg`ulot</i></p> <div style="border: 1px solid black; background-color: #c0c0c0; padding: 5px; display: inline-block; margin: 10px 0;"> <b>R e j a s i:</b> </div>	<div style="border: 1px solid black; background-color: #e0ffff; padding: 10px; margin-bottom: 20px;"> <p><b>Ta`limning sinf-dars tizimi</b></p> </div> <div style="border: 1px solid black; background-color: #e0ffff; padding: 10px;"> <p><b>Kasb ta`limining boshqa tashkiliy turlari</b></p> </div>
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi:</i> Tinglovchilarda mavzu bo`yicha bilim va ko`nikmalarni kengaytirish va chuqurlashtirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O`quv faoliyatining natijalari:</i>
ma`ruza- Ta`limning sinf-dars tizimi haqida ma`lumot berish; Kasb ta`limining boshqa tashkiliy turlari bilan tanishtirish	<i>tinglovchilar biladilar:</i>  Ta`limning sinf-dars tizimi haqida ma`lumot berish Kasb ta`limining boshqa tashkiliy turlari
<i>Ta`lim usullari</i>	Ma`ruza, tezkor so`rov, namoyish etish, suhbat
<i>Ta`lim vositalari</i>	Tayanch matn, slaydlar
<i>O`qitish shakllari</i>	Ommaviy
<i>O`qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo`ljallangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	kuzatish

#### Adabiyotlar

1. K.D.Davlatov. «Kasb va kasb - ta`lim, kasb tanlash» «Kasb tarbiya nazariyasi va uslubiati» Toshkent. Kasb 1994
2. Olimov Q.T. Kasb ta`limi uslubiati. O`quv qo`llanma. – T.: 2006. 164 b.

**“Ma`ruza mashg`ulotlarida innovatsion ta`lim texnologiyasini loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari” bo`yicha ta`lim texnologiyasi**

**I. Tayyorgarlik bosqich**

<b>F a o l i y a t m a z m u n i</b>	
<i>O`qituvchi</i>	<i>tinglovchi</i>
Mavzuni aniqlaydi, maqsadni belgilaydi va o`quv natijalarini rejalashtiradi. Mavzu bo`yicha ko`rgazmali materiallar tayyorlaydi.	Mashg`ulotga tayyorlanadilar

**II. Amalga oshiruvchi bosqich- ma`ruza**

<b>F a o l i y a t m a z m u n i</b>	
<i>O`qituvchi</i>	<i>tinglovchi</i>
<p><b>1. Ma`ruzaga kirish.</b></p> <p>1.1. Maqsad va rejalashtirilgan o`quv natijalari bilan tanishtirish.</p> <p>1.2. Ma`ruza rejasi bilan tanishtiradi.</p> <p>1.3. Tinglovchilarga tezkor savol berib bilimlarini faollashtiradi: Ta`limning sinf-dars tizimi talablari qanday?” SHunday bo`lsa asoslab bering.</p> <p>1.4. Javoblarni birgalikda umumlashtiradi va asosiy ma`ruza mavzusiga o`tadi.</p>	<p>Diqqat qiladilar va yozib oladilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar.</p>
<p><b>2. Asosiy qism.</b></p> <p>2.1. Faollashtirilgan bilimlar asosida tinglovchilarni mashg`ulot mavzusiga olib kiradi.</p> <p>2.2. Slaydlar yordamida mavzu mohiyatini reja asosida yoritadi.</p> <p>2.3. Ma`ruzani davom ettirishdan avval tinglovchilarga “Tezkor so`rov” texnikasini qo`llagan holda quyidagi savolga javob berishlarini so`raydi: Ta`limning sinf-dars tizimi nimalarga bog`liq?</p> <p>2.4. Javoblarni qabul qiladi va ularni umumlashtiradi.</p> <p>2.5. Rejaning ikkinchi savolini - Dars rejasiniig namunaviy shakli yoritishdan avval tezkor savol orqali murojaat qiladi: “Kasb ta`limining boshqa tashkiliy turlariga qo`yiladigan talablar?” -----</p> <p>2.6. Javoblarni qabul qiladi va ularga slayd materiali orqali qo`shimcha ma`lumotlar beradi.</p> <p>2.7. Rejaning uchinchi va to`rtinch savolini o`qituvch misollar asosida yoritadi.</p>	<p>Savollarga javob beradilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar .</p> <p>Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar</p>

**III. Yakuniy bosqich**

<b>F a o l i y a t m a z m u n i</b>	
<i>O`qituvchi</i>	<i>tinglovchi</i>
<p><b>Ma`ruzani yakunlash:</b></p> <p>Ma`ruza mashg`uloti mavzusi mazmuni bo`yicha yakun yasaydi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma`ruza yuzasidan savollarga javob beradi;</li> <li>• ma`ruza yuzasidan amaliy ishlar bajarilishini va mavzu yanada mustahkamlanishini aytadi;</li> <li>• tinglovchilarni tayyorgarligi, ularni savol javobda faolligini baholaydi;</li> <li>• ma`ruza natijaviyligining umumiy bahosini beradi;</li> </ul>	<p>Savollar beradilar, baholar bilan tanishadilar</p>

**10.1. Ta'limning sinf-dars tizimi.** Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning ma'lum bir belgilangan tartibda amalga oshiriladigan faoliyatining tashkiri ko'rsatish ta'limshahg tashkiliy shaklini belgilaydi. Ta'limning tashkiliy shakllari o'qituvchi va o'quvchining hamjihatlikdagi faoliyatini aniklab beradi, ommaviy ta'lim va alohida (individual) holdagi ta'limning nisbatlarini belgilaydi.

O'rta SHarq ta'limi alohidalik, ayrimlik, yakka holda o'rgatish xususiyatlariga ega edi, o'rta asr davrida esa mashg'ulotlar o'quvchilarning uncha katta bo'lmagan guruhlarida o'tkazildi. XVI asrda dunyo maktablarining tajribalarini o'rganish asosida YA.A.Komenskiy xarakterli jihati dars shaklidagi ta'limni tashkil etishdan iborat ta'limning sinf-dars tizimini nazariy jihatdan tushuntirib berdi.

Ta'limning tashkiliy shaklida – dars davomida o'quv mashg'ulotlari o'qituvchining rahbarligida, bir xil yoshdagi va ma'lum muddat mobaynidagi tayyorgarlik darajasi xamda o'rnatilgan jadvalga ko'ra doimiy bo'lgan o'quvchilarning guruhi bilan mashg'ulotlar olib boriladi. Dars davomida o'qituvchi tomonidan katta miqdordagi o'quvchilarni bir vaqtda o'qitish mumkinligi imkoniyatlari tug'iladi.

Ta'limning sinf-dars shakli XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida Angliyada yoyildi va bellankater tizimi dsb nomlandi. Bu nom uni taklif etgan mualliflar A. Bella va D. Lakkaster ism-shariflaridan hosil qilingandir. Kichik harakatlar asosida yosh avlodga oddiy ta'limning keng joriy etishdek jamiyatning ehtiyojini aks ettiradigan bu tizim o'qituvchining bir vaqt mobaynida 600 va undan ko'proq o'quvchilar bilan ishlashini nazarda tutar edi. Tajribali o'qituvchilarning faoliyati katta yoshdagi o'quvchilarni ta'lim jarayoniga tayyorlashga yo'naltiriladi, ular o'z navbatida o'quv mashg'ulotlarini o'zlarining kichik yoshdagi o'rtoqlari guruhi bilan o'tkazardilar, ularning ishlarini kuzatib borar va nazorat etardilar.

Sinf-dars tizimi amalda ko'p jihatdan ustun ekanligini namoyon etdi va ko'pgina mamlakatlarda qo'llana boshlandi. O'quvchilarning anglash faoliyatlarini yanada faollashtirish uchun qilingan harakatlardan biri ta'limning yangi tashkiliy turi bo'ldi. Bu asrning boshlarida AQSH xalq ta'limining jamoat arbobi bo'lgan E. Tarkxerst tomonidan taklif etilgan edi. Bu dal'ton - reja deb nomlanib, ta'limni individuallashtirish va har bir o'quvchiga o'rgatishda mustaqil ravishda hamda o'z tezligida ilgari siljish imkoniyatini beradigan ta'lim turi edi.

XX yillarda dal'ton-rejaning ba'zi bir jihatlarini ta'limning brigada - amaliy tashkiliy turlarida foydalanilgan edi. (Bu shakl sinfning yoki brigadaning jamoaviy ishini har bir o'quvchining individual ishi bilan muvofiqlashtirganligi jihatidan dal'ton - rejadan farq qilardi, ammo ta'limning brigada - amaliy tashkiliy turini keng yoyilishiga olib keldi.

Ba'zi bir mamlakatlarda ta'limni tashkil etishning umumiy an'anasi aholining turli-tuman ijtimoiy tabaqalari uchun ta'lim imkoniyatlarini turlicha bo'lishini ta'minlashdan iborat. Ushbu maqsad yo'lida shaxsning takrorlanmasligini, bir buyukligini ta'minlaydigan ta'limdagi juda ham alohidalik, individuallikka asoslanish tendentsiyasi mavjud. Ko'pgina amerikalik va ingliz didaktlari (E. Melbi, R. Vorner va boshqalar) o'rganish - bu shaxsiy individual jarayon bo'lib, har bir bola nimani o'rganishi mumkin bo'lsa, shunga o'qitilishi kerak, deydi. SHu sababli bolalarni juda ham individual rejalarda va individual tezlikda o'qitishni taklif etishadi.

AQSH o'quvchilarining jamoaviy ishlari bilan bir qatorda ta'limning individualligini ma'lum darajada muvofiqlashtiradigan Tramp rejasida texnik vositalardan keng foydalanish asosida o'quv jarayonini yuqori darajada individuallashtirish nazarda tutiladi. Ushbu rejaning muallifi - ameriqolik pedagog Lloyd Trampning fikricha o'rta maktablarda o'qitish 100-150 kishidan iborat bo'lgan guruhlarda (ma'ruzalarda ta'lim turli-tuman texnik vositalardan foydalanish bilan) o'tkaziladi. Bunga o'quv vaqtining 40 foizi ajratiladi. 10-15 kishidan iborat bo'lgan kichik guruhlarda esa (ma'ruza materialini muhokama etish hamda ayrim bo'limlarini chuqur o'rganish, ko'nikmalar va malakalarni qayta ishlash bilan) vaqtning 20 foizi ajratiladi hamda mustaqil ishga (o'quvchilarning individual ishlari) vaqtning 10 foizi ajratiladi.

Dars hozirgi zamon o'quv tarbiya jarayonida tahsil maqsadlarini amalga oshirishda asosiy ta'limi shakli hisoblanadi. Bir necha asrlar davomida ta'limning dars shaklidan boshqa bir yangi shaklini pedagogika nazariyasi ham, amaliyoti ham taklif etgancho yo'q.

O`tkazilgan dars o`quvchilarni ham, o`qituvchilarni ham qanoatlantirish uchun ma`lum darajada umumiy ba`zi bir talablarga javob berishi kerak. SHulardan ba`zilarini eslatib o`tamiz. Ayrim olingan biron-bir dars predmet kalendar dasturidagi o`z o`rniga ega bo`lishi, maqsadi anik belgilangan bo`lishi kerak. Dars o`tish jarayonida shakllantirilishi lozim bo`lgan bilim, iqtidor va ko`nikmalar alohida aniqlanishi darkor. SHu bilan birga mazkur dars davomida bilim, iqtidor va ko`nikmalarining erishiladigan darajasi ham belgilanishi ma`qul bo`ladi. Darsda ishlatiladigan metodlar, vositalar turkumi aniq bo`lishi oldindan belgilanishi maqsadga muvofiqdir. Darsga qo`yiladigan didaktik talablardan yana biri shuki, beriladigan o`quv materialini sistemali ravishda osondan- qiyinga, oddiydan-murakkabga, o`quvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilish kerak.

O`qituvchi darsni tashkil qilar ekan o`quvchilar o`quv faoliyatini aktivlashtiruvchi ijodiy fikrlash ko`nikmalarini shakllantirishning muqobil rejalarini amalga oshirishni ko`zda tutmog`i lozim. Darsga birmuncha tarbiyaviy talablar qo`yiladi. Qar bir dars ma`lum darajada g`oyaviy yo`nalgan aniq tarbiyaviy vazifalarni bajarishi, olingan ilmiy bilimlar asosida dunyoqarashni, yuqori axloqiy fazilatlarini, estetik didni shakllantirib ta`limni xayot bilan mustaqil aloqalarini ta`minlashi zarur. O`quvchilarda bilimga qiziqishni, bilimlarni mustaqil egallash ko`nikmalarini qaror toptirish, ijodiy tashabbuskorlikni qo`llab-quvvatlash, ularning tasavvurlari chuqurligi, rivojlanish darajasini hisobga olish xam darsga qo`yiladigan tarbiyaviy talablardan hisoblanadi.

Darsga qo`yiladigan tashkiliy talablar: mavzuiy (kalendar) rejalashtirish asosida dars o`tkazishning ishlab chiqilgan aniq reja mavjud bo`lishi, dars o`z vaqtida boshlanib, o`z vaqtida tugashi kerak. Darsning mantiqiy izchilligi, tugallanganligi va darsning boshidan to oxirigacha o`quvchilar ongli intizomi ta`minlanmog`i lozim. Darsni tashkil etishda turli-tuman vositalardan, o`quv-texnik, komp'yuter, statsionar va dinamik ko`rgazmali qurollardan foydalanish ko`zda tutiladi.

Darsning tarkibiy tuzilishi o`rganilayotgan materialning mazmuniga, darsda foydalaniladigan ta`limning usullari va metodlariga, o`quvchilarning tayyorlanish hamda rivojlanish darajasiga, o`quv jarayonida darsning o`rniga bog`liq bo`ladi.

Darslar juda ham turli-tuman tarkibiy tuzilishlarga ega bo`lib, darslarni bir marta doimiy ravishda mavjud bo`ladigan ko`rinish tarzida rejalashtirish va o`zgaraydigan qotib qolgan namuna asosida o`tkazaverish mumkin emas. Darsning tarkibiy tuzilishiga yuqorida qayd etib o`tilgan omillar qatorida mazkur sinfdan ishlanishning haqqoniy shart-sharoitlari, shuningdek, o`qituvchi ish faoliyatining ijodiy xarakteri katta ta`sir ko`rsatadi. har bir dars boshqa darslardan hatto ular bitta fan, bitta mavzu yuzasidan teng, yonma-yon sinflarda o`tkazilganda ham o`zining o`ziga xos jihatlarga ko`ra farq qiladi. Darsda har doim o`qituvchining maxsus «pedagogik yondoshuv tarzi»ni ko`rish mumkin. Masalan, kombinatsiyalashgan dars quyidagi ko`rinishda tashkil etiladi: tashkiliy ish, o`quvchilarga berilgan uy ishlarining bajarilishini tekshirish, o`rganilgan material yuzasidan o`quvchilardan so`rash, o`qituvchi tomonidan yangi materialning bayon etilishi, o`rganilgan materialni mustahkamlash, uyga topshiriqlar, vazifalar berish.

Darsning tarkibiy tuzilishi o`qituvchi va o`quvchilarning darsdagi hamjihatlikdagi faoliyatlarini tashkil etishning tashqi ko`rinishini, tashqi namoyon bo`lishinigina emas, balki o`quvchilarning aktiv anglash faoliyati bilan bog`liq bo`lgan ichki jarayonlarning mohiyatlarini ham aks ettirishi kerak.

Darsning tuzilishi o`quv materialining mazmuniga, shart-sharoitlariga, o`quvchilarning tayyorgarligiga va boshqalarga bog`liq ravishda o`zgarishi mumkin. Yangi bilimlarni o`zlashtirish darsi quyidagilardan iboratdir: o`quv materialini anglash va qabul etish; undagi aloqalar, o`zaro munosabatlarni anglash, bilimlarni umumlashtirish hamda sistemalashtirish. Ammo yangi bilimlarni o`zlashtirish darslarining ayrimlarini tarkibiy tuzilishlarida, ya`ni masalan, o`quvchilar uchun butunlay notanish bo`lgan materiallarni o`rganish davomida asosiy bilimlarni tasavvurdan o`tkalish umumai bo`lmasligi mumkin. Darslarning har bir turi ko`rsatib o`tilgan asosiy bosqichlardan tashqari ichki tuzilishga-darsning har bir bosqichida ayrim didaktik vazifalarni hal etish metodikasiga ega bo`ladi. Bu metodika har bir darsning ko`p darajada muhim qismi hisoblanadi, chunki darsda qo`llaniladigan metodlar, usullar va ta`lim o`qitish vositalari davomiylik hamda o`zaro bog`liqliklarning turli-tuman muvofiqligi asosida qo`llaniladi. Masalan, yangi o`quv materialini anglash va qabul etish bosqichida o`qituvchi tushuntirishdan, muammoli bayon etishdan, evristik suhbatdan, o`quvchilarning turli-tuman mustaqil ishlaridan, o`qitishning texnik vositalaridan foydalanishi mumkin.

Zamonaviy darslar uchun o`zlashtirish, qismlarga ajratish, takrorlash va mustahkamlash, yangi o`quv materialini egallash hamda uni amaliy jihatdan qo`llash bilan bog`liq ravishda oldin o`rganilganlarni nazorat etish kabi tarkibiy qismlarning o`zaro bog`liqliklari xarakterlidir. O`quvchilarning mustaqil ishlari faqatgina takrorlash va mustahkamlash bosqichlaridagina emas, balki yangi materialni o`rganish davomidayoq tashkil etiladi, bu orqali o`qitish bilan o`rganish orasida, siifnning jamoaviy ishi bilan o`quvchining individual (yakka holdagi) ishi orasidagi mustahkam bog`liqlik amalga oshiriladi.

Darsga miridan-sirigacha tayyorlanish, xususan etarli darajada pedagogik ish tajribasiga ega bo`lmagan yosh o`qituvchilar uchun juda zarur.

O`qituvchining darsga tayyorlanishida dastlabki bosqichlar ajralib turadi. O`quv yili boshlanishi oldidan o`qituvchi dasturdagi hamma mavzularni o`rganish vaqtini taqsimlab chiqadi, o`quv mashg`ulotlarining jadvali va mazkur fanni o`rganishga o`quv rejasidan ajratilgan haftalik soatlarning miqdorini hisobga olgan holda unga muvofiq bo`lgan taqvimiy muddatlarni o`rnatadi. SHunday tarzda belgilab chiqilgan dastur o`qituvchi uchun fan yuzasidan ishlarning taqvimiy (kalendar) rejasi sifatida xizmat qiladi.

O`qituvchining darsga bevosita tayyorlanishi har bir, darsda qo`llaniladigan mavzuni rejalashtirishni konkretlashtiradi. Darsning rejasi (uni ba`zida mavzuiy rejadan farq qilib, darsning ish rejasi deb nomlaydilar) har bir o`qituvchi uchun zarurdir. Odatda faqat uning hajmi farq qiladi: endigina o`zining o`qituvchilik faoliyatini boshlayotganlar o`zlarining hamma harakatlari va darsning borishini tasvirlash, kichik bo`laklarigacha ko`rsatilgan mukammal tayyorlama yozadilar. Tajribali o`qituvchilar esa qisqa, ixcham reja tuzadilar.

Darsning rejasi ixtiyoriy shaklda tuziladi, ammo unda quyidagi tarkibiy qismlarning aks etishini ta`minlash zarur: darsning o`tkazilish muddati va uning mavzuiy reja bo`yicha tartib raqami; o`tkaziladigan sinfning, dars mavzusining nomi; ta`limning vazifalari, shakllantiriladigan bilim, iqtidor va ko`nikmalar; o`quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirish; dars bosqichlarining davomiyligi va ushbu bosqichlarda vaqtning taxminiy taqsimlanishini ko`rsatgan holdagi tarkibiy tuzilishi; o`quv materialiniig mazmuni; darsning har bir qismida o`qituvchi va o`quvchining ish usullari hamda metodlari; ta`limning ko`rgazmali va texnik vositalarini qo`shib hisoblaganda darsni o`tkazish zarur bo`lgan o`quv qurollari; darsda bevosita o`tkaziladigan test sinovlari; uy vazifalari, topshiriqlar.

Darsdagi o`quv ishlarining alohida holdagi shakli (individual turi) uning imkoniyatlari hamda tayyorgarligini o`ylab ko`rib o`rganishda xar bir o`quvchining ilgari siljish tszligini nazorat etish imkoniyatini beradi. Uning yutuqlari differentsiyalashgan topshi-riqlarni to`g`ri tanlash bilan, ularning bajarilishini o`qituvchi tomonidan sistematik ravishda nazorat etish bilan, o`quvchilarda vujudga keladigan qiyinchiliklarni hal etishlariga o`z vaqtida yordam ko`rsatish bilan belgilanadi. O`tkazilgan tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, zaif o`zlashtiruvchi (o`zlashtirmovchi) o`quvchilar uchun nafaqat totshiriqlarning murakkabligini, balki ko`p darajada unga ko`rsatiladigan yordamni ham darajalashtirish (differentsiyalash) zarur. O`quvchilarning individual (alohida holdagi) ishlarini mohirlik bilan tashkil etganda ularda o`z ustida ishlashning malaka va ehtiyojlari shakllanadi.

O`quvchilarning darsdagi individual (alohida holdagi) shakldagi ishlarini tashkil etishdagi jiddiy kamchiliklar shundan iboratki, ular amaliy jihatdan bir-birlari bilan muloqot qilmaydilar, ular egallagan mustaqil faoliyatning tajribasi esa jamoaning mulkiga aylanmaydi, sinfdagi o`z tengdoshlari va o`qituvchi bilan birgalikda muhokama qilinmaydi. SHuning uchun o`quvchilarning darsdagi individual (alohida, yakka holdagi) ishlari uni tashkil etishning jamoaviy shakllari bilan muvofiqlashib ketishi kerak.

O`quvchilarning darsdagi ishlarini barcha uchun umumiy (frontal) shaklda tashkil etish bilan bir qatorda, sinf bir xil yoki turli-tuman mashqlarni bajaradigan bir qancha guruhlariga ajratiladigai o`quvchi-larning guruhiy ishlari kabi jamoaviy shakllari ham qo`llaniladi. SHunga bog`liq ravishda yagona va darajalashgan (differentsiyalashgan) guruhiy ishlarni ajratadilar, shu bilan birga boshqa xolatlarda u o`quvchilarning individual (alohida holdagi) va har tomonlama (frontal) ishlari bilan juda ham mustahkam bog`liqdir. Tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, ko`p darajada maqsadga muvofiq bo`lgan guruhning tarkibi 5-7 kishidan iboratdir. Qamkorlikdagi muvaffaqiyatli ishlar uchun bir xil ishlash tezligiga va taxminan bir xil o`zlashtirish darajasiga ega bo`lgan o`quvchilardan guruh jamlash zarur.

Qoida bo'yicha ushbu guruhlarining tarkibi doimiy bo'lmasdan har bir fanlar bo'yicha turlicha bo'ladi, o'quvchilarning o'zlari tomonidan belgilanadi, o'qituvchi esa o'quvchilar orasidagi o'zaro munosabatlarni hisobga olgan holda to'g'rilab, bir yo'nalishga solib boradi.

O'quvchilarning guruhiy ishlari sal kam hamma asosiy didaktik masalalarni: masala va mashqlarni hal etish, mustahkamlash va takrorlash, yangi materialni o'rganish kabilarni hal etish uchun qo'llanishi mumkin. Alohida holda (individual) ta'lim berishdagi kabi guruhlarda o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi, ammo darajalashgan (differentsiyalashgan) guruhiy topshiriqlarni bajarish o'quvchilarni jamoaviy ish metodlariga (usullariga) o'rgatadi, muloqot esa psixologlar ta'kidlab o'tganlaridek, shaxsiyatparastlikdan qutulish imkoniyatini yaratadigan to'g'ri tushunchalarni shakllantirishning o'zgarmas shart-sharoiti hisoblanadi.

O'quvchilarning har tomonlama (frontal). guruhiy va individual (alohida holdagi) ishlari tarbiyaviy hamda ta'limiy vazifalarni amalga oshirishga ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun ularni muvofiqlashtirish, o'qituvchi tomonidan o'quv fanining o'ziga xosligi-ni, o'rganilayotgan materialning mazmunini, o'qitish metodlarini sinf va ayrim o'quvchining o'ziga xos jihatlarni hisobga olgan holda u yoki bu shaklini o'ylab ko'rilgan, asoslangan shakli tanlanishi kerak.

Pedagog sifatida o'zliginn namoyon etishni talab qilish zarur holatlarda o'qituvchi tomonidan o'z hissiyatini aks ettirishni inkor etmaydi: u darslarda faqatgina ziyrak va mehribon, quvnoq, hushyor, ko'ngilchan bo'libgina qolmasdan, balki jiddiy, xafa va noroziligi bilangan qiyofada bo'lishi ham kerak.

O'qituvchining pedagogik optimizmi, uning o'quvchilarga munosabatidagi ishonch, o'quv faoliyatini tashkil etishning turli-tuman shakllaridagi darsda ularning hamjihatlikdagi izlanuvchanligini tashkil etish, o'quvchilarning ishlariga hakqoniy baho berish, ularga doimiy zarur yordam ko'rsatishga tayyor turishlik - bularning barchasi juda katta didaktik va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi, o'quvchilarda jamoaviy mehnat malakalarini hamda ijobiy axloqiy fazilatlarni shakllantiradi.

Darsni mukammallashtirish, takomillashtirishning zamonaviy bosqichi yangi sharoitlarda ta'limni tashkil etishning asosiy shakllarining o'ziga xosliklarini o'rganish bilan xarakterlanadi. Bunda darslarning samaradorligini ko'rsatkichi o'quvchilar tomonidan olingan bilimlarning o'zinigina darajasi bilan chegaralanmaydi, balki ular tomonidan anglashning ko'nikma va malakalarini egallashning darajasi bilan ularning bilishga bo'lgan qiziqishlarini, shakllantirishlarini ham qo'shib oladi.

O'quv-tarbiya muassasalari ishlash sharoitlariga va o'quvchilarning yoshiga ko'ra imkoniyatlarini hisobga olgan holda dars o'ziga xos xarakterda tashkil etiladi. Masalan, quyi sinflarda, ya'ni o'quvchilarning diqqatlarini qiyosan juda ham tez qo'shish zarur bo'lib, darslarda o'quv ishlarining har xil turlari, jumladan, o'yin va mashg'ulot xarakteriga ega bo'lganlaridan foydalaniladi. Ta'limning birinchi bosqichida o'quvchilar tabiiy fanlar yoki maxsus tarqatma materiallarni gerbariy va kolleksiyalar hamda o'rganadigan fanni darslar deb yuritiladigan va izohiy o'qish darslari o'tkaziladi.

YUqori sinflarda o'qituvchi tomonidan yangi materialni bayon etish darslarining (hikoya, tushuntirish yoki ma'ruza ko'rinishidagi) roli ortadi va o'quvchilarning mustaqil ishlari (darsliklari va o'quv qo'llan-malari bilan) ahamiyati oshadi, muammoviy darslarda ijodiy xarakterdagi individual (alohida holdagi) va guruhiy ishlarni bajarish keng qo'llaniladi. IX- X sinflarda o'quv mashg'ulotlarining jadvaliga ikkilantirilgan darslar deb nomlanadiganlari kiritila-di. Tajriba shuni ko'rsatadiki, bunday darslarni katta mazmunga ega bo'lgan yangi ma'lumot asosidagi ma'ruzani o'tkazishda, shuningdek, amaliy ishlarni, seminar va amaliy mashg'ulotlarni, praktikumlar va o'quv sayohatlarini bajarishda qo'llab ko'rish maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchi darslarda va kechki maktablarda hayotiy masalalarni mustaqil hal etish (ishlab chiqarish hamda turmush masalalarini ham) malakasiga ega bo'lgan o'quvchilarning mustaqil ishlariga keng suyanadi.

Ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarish davomida ish vaqtining har bir daqiqasini qanday qadrlash va e'zozlash kerakligini yaxshi tushunuvchi balog'at yoshidagi o'quvchilar ba'zi hollarda darslarda vaqtlardan tejamay foydalanishning guvohi bo'ladi.

Maktab-internatlarda va kuni uzaytirilgan gruppalariga ega bo'lgan maktablarda darslarni o'tkazishning o'ziga xosligi shundan iboratki, ular o'quv jarayoni to'laligicha (maktab-internatlarda)

yoki sal kam butunligicha (kuni uzaytirilgan gruppalariga ega bo'lgan maktablarda) tashkil etiladi va maktabda amalga oshiriladi. Kunning ikkinchi yarmi esa o'qituvchi rahbarligida amalga oshiriladigan mustaqil ishlarga ajratiladi.

**10.2. Kasb ta'limining boshqa tashkiliy turlari.** Darsni to'lg'azadigan va o'quvchilarning politexnik ta'limiga ko'maklashadigan ta'limning tashkiliy turlaridan biri praktikum hisoblanadi. Praktikumlar yuqori sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladi va o'zida o'quvchilar dastur asosida ma'lum bir belgilangan ishlarni bajaradigan tajribaviy hamda amaliy mashg'ulotlarni namoyon etadi. Praktikumlar tajribaxonalarda, ustaxonalarda, o'quv kabinetlari va o'quv-tajriba uchastkalarida, o'quvchilarning ishlab chiqarish kombinatlari hamda o'quvchilarning ishlab chiqarish brigadalarida o'tkaziladi.

Quyida sinflarda o'tkaziladigan odatdagi va amaliy mashg'ulotlar bilan qiyoslaganda ular o'quvchilarning topshiriqni bajarishga ijodiy yondoshuvi va juda katta mustaqilligi bilan farq qiladi.

O'qituvchi praktikumga ajratilgan vaqt doirasida ish rejasini tuzadi, darsliklar va o'quv qo'llanmalarida mavjud bo'lganlarga qo'shimcha ravishda zarur bo'lgan yo'riqnomalar hamda ko'rsatmalarni tayyorlaydi. O'quvchilar bir vaqtning o'zida bir xil topshiriqlarni bajarishlari mumkin. Sinfdagi har bir o'quvchini ta'minlash uchun o'quv qurollari etmagani yoki ishning murakkabligi, uni bir o'quvchi tomonidan bajarilishini qiyinlashtiradigan holatlarda topshiriq butun guruh tomonidan tashkil etiladi. SHu bilan birga, praktikumning dasturida nazarda tutilgan hamma ishlarni bajarish har bir o'quvchi uchun majburiy hisoblanadi. O'qituvchi doimiy rahbarlikni amalga oshira borib va zarur yordamni ko'rsata borib praktikumning topshiriqlarini bajarish davomida o'quvchilar mustaqilligini yuqori darajasiga erishadi.

Yuqori sinflarda seminarlar odatda, ko'pincha ijtimoiy yo'nalishdagi fanlar yuzasidan dasturlarning asosiy bo'limlarini o'rgananlaridan so'ng o'tkaziladi. Ta'limning ushbu tashkiliy turidan foydalanish o'rganilgan materialni nazariy umumlashtirishni o'tkazishga imkoniyat yaratadi, o'quvchilarni mustaqil ma'lumotlar bilan chiqishlar qilishga, bahslashishga, o'z fikrini himoya etishga o'rgatadi va o'quvchilarni ijtimoiy hayotda ishtirok etishga hamda ta'limni davom ettirishga tayyorlaydi.

Seminar mashg'ulotini o'tkazishning rejasini o'qituvchi tomonidan muddatidan avval tuzilib qo'yilgan bo'ladi va uni o'quvchilar bilan muhokama etish jarayonida tuzatilib, to'ldirilib boriladi. Qabul qilingan rejaga muvofiq ravishda seminarga har bir o'quvchining va butun sinfning tayyorlanish dasturi o'rnatiladi, topshiriqlar taqsimlanadi, o'rganish zarur hisoblanadigan adabiyotlar (hamma uchun majburiy) tavsiya etiladi. Seminarda o'quvchilarning ma'ruzalari ko'pincha muammoviy ko'rinishda qo'yiladi. O'qituvchi ularning tayyorlanishlariga rahbarlik qiladi hamda zarur maslahatlar beradi.

O'quvchilarning o'z tanlashlari na hohishlariga ko'ra ilmiy-nazariy bilimlarini, amaliy tajribalarini kengaytirish hamda chuqurlashtirish uchun o'rganadigan o'quv fanlari fakul'tativlar deb nomlanadi. Umumiy ta'lim-o'rta maktablarning namunaviy o'quv rejalarida VII sinfdan boshlab fakul'tativ mashg'ulotlar kiritilgan. Bu mashg'ulotlar o'quvchilarning kobilyatlarini, kasbga yo'nalganligini va aqliy manfaatlarini rivojlantirishni, majburiy dasturlarini o'rganish davomida egallagan bilimlarni kengaytirishga mo'ljallangan differentsiyalashgan ta'limning samarador guruh shakllaridan birini o'zida namoyon etadi.

Maktab oldiga VII-X sinflarning har bir o'quvchisiga fakul'tativlardan birini tanlash imkoniyatini berishni ta'minlash vazifasi qo'yiladi, bu keyinchalik uning uchun majburiy bo'lib koladi. Fakul'tativ mashg'ulotlar majburiy kurslar bilan fakul'tativlar orasidagi vorisiylikni, davomiylilikni saqlashga mo'ljallangan, o'quvchilarning mustaqilligini hamda faolligini oshirishga, ularning aqliy manfaatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan maxsus dastur asosida o'tkaziladi. Fakul'tativlarning sonini belgilab chiqishda maktab faqat o'quvchilarning shaxsiy hohishlaridagina emas, balki maktabning imkoniyatlaridan ham kelib chiqadi. Mahalliy shart-sharoitlarga muvofiq ravishda o'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlashning vazifalari va real shart-sharoitlari hisobga olinadi.

Fakul'tativ mashg'ulotlarda ma'ruzalar amaliy mashg'ulotlar bilan birikib ketadi. Bunda o'quvchilar adabiyotlar bilan ishlash malakasini, mustaqil aqliy faoliyat ko'nikmasini egallaydilar, murakkab bo'lmagan tajribalar va tadqiqotlar o'tkazish metodikasini o'zlashtiradilar, tajriba qurilmalari va texnikani ishlatish malakasini xosil qiladilar.



Fakul'tativ mashg'ulotlarda muammoviy ta'lim ham keng qo'llaniladi, o'quvchilarning individual ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishiga erishiladi.

Fakul'tativ mashg'ulotlar majburly fanlar yuzasidan bo'lgan fanlar bilan mustaxkam bog'liqlikda amalga oshirinishi kerak. Bunday mashg'ulotlar ta'limning ushbu har ikkala tashkiliy shakllari samaradorligining oshuviga yordam beradi.

O'tmishning taraqqiyparvar pedagoglari o'quv sayohatlariga juda katta e'tibor berganlar. To'g'ri tashkil etilgan sayohatlarda bolalarga «hayot kitobi»ni o'qitishning usullaridan biri ko'riladi.

Sayohat darslari dasturdagi, ma'lum bir belgilangan bo'limlarni o'rganish bilan bog'liq ravishda o'tkaziladi: tabiatga sayohatlar, ishlab chiqarish korxonalariga sayohatlar, tarixiy joylar va yodgorliklarga, geografiya sayohatlari, adabiyot sayohatlari va boshqalar.

Bir qator hollarda bir vaqtning o'zida bir necha o'quv fanlari yuzasidan sayohat o'tkazish amaliyoti qo'llaniladi. Bunday sayohatlar majmuaviy sayohatlar deb nomlanadi. Ular fanlararo aloqalarni amalga oshirishga, uning yaxlitligi yuzasidan kuzatish ob'ektini har tomonlama o'rganishga, vaqtni tejab foydalanishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Majmuaviy sayohatlar o'quvchilarni kasbga yo'naltirish va politexnik ta'lim maqsadlarida ishlab chiqarishda hamda tabiat bag'rida o'tkaziladi. Bir necha o'quv fanlari yuzasidan bir vaqtda o'tkaziladigan ishlab chiqarish sayohatlari juda katta ahamiyatga ega. O'quvchilar zavodda, elektrostantsiyada, jamoa xo'jaliklarida korxonalar yoki xo'jalikning tarixi, fantexnikada erishgan yutuqlari, ishlab chiqarishni- tashkil etishning ilmiy printsiplari bilan tanishadilar.

O'quv jarasidagi sayohatlar o'tkaziladigan vaqqa qarab quyidagi turlarga ajratiladi: darsda foydalanish uchun zarur bo'lgan materiallarni yig'ish yoki kuzatishlar o'tkazish maqsadida uyushtiriladigan kirish sayohatlari, dasturdagi bo'limlarni darsda o'rganish bilan bir vaqtning o'zida (yonma-yon ravishda) alyrim masalalarni konkretlashtirish va ularni ko'rib chiqish, asoslash maqsadida o'tkaziladigan davriy sayohatlar, dasturning aloxida bo'limi yoki ayrim mavzulari yuzasidan o'quv ishlarini yakunlash maqsadida o'tkaziladigan natijaviy sayohatlar.

O'qituvchi tomonidan o'quvchilar bilan xamkorlikda ishlab chiqilgan sayohatni o'tkazish rsjasida ishlarning bosqichlari belgilanadi, sayohat mobaynida to'planishi zarur bo'lgan materiallarning va kuzatishlarning ro'yxati, zarur bo'ladigan jihozlar va qurilmalar (kuzatish va ularni qayd etish vositalari, o'lchash qurilmalari va asbob-uskunalar), sayoxatning bosqichlari bo'yicha vaqtning taqsimoti, sayohatga o'quvchilarni olib borishning tashkiliy turi (xar yoqlama, guruhiy yoki alohida holdagi ishlar) ham qayd etiladi.

Sayohatning muddati ob'ektning xarakteriga, o'tkazish maqsadiga, o'quvchilarning yoshiga bog'liq bo'ladi va taxminan 40-45 daqiqadan 2-2,5 soatgacha (borib-kelishga sarflanadigan vaqtlarni hisobga olmaganda) bo'lgan vaqt chegarasida bo'ladi. Sayohatni o'tkazish davomida hamma o'quvchilarning faol ishlashlari ta'minlanadi, kuzatuv o'tkazish imkoniyatlari (ob'ektlarning yaxshi ko'rinishi, intizom va tartibga rioya etilishi, o'z xatti-harakatlarini to'g'ri saqlash hamda texnika xavfsizligi qoidalarini bilish va rioya etilishi) ta'minlanadi.

O'quvchilarning qoloqligini tugatish uchun qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkaziladi. Ta'limning bu tashkiliy turidan texnika yoki san'at, ilmiy bilimning qaysidir bir tarmog'ini o'rganish yo'lida ayrim o'quvchilarning ehtiyojlarni qanoatlantirish uchun ham foydalaniladi. (Ushbu vazifalarni fakul'tativlar yordamida hal etish mumkin bo'lmagan hollarda.) Qo'shimcha mashg'ulotlar darsdan tashqari vaqtlarda o'qituvchi tomonidan maktabda o'tkaziladi. Ular guruh yoki yakka xolida o'quvchilarning topshiriqlarini mustaqil bajarish yoki maslaxat darslari sifatida o'tkazilishi mumkin.

O'qituvchining maslaxat darslari davriy, va umumlashtiruvchi (masalan, imtixonlarga va sinovlarga tayyorlanish davomida) bo'ladi. Mslaxat darslari balog'at yoshlilar maktablarida (kechki va sirtqi) katta axamiyat kasb etadi.

Qoloq (o'zlashtirmovchn) o'quvchilar bilan ko'shimcha mashg'ulotlar o'tkazish zarur xollarda tashkil etiladi. O'qituvchi darslarda ayrim o'quvchilarning bilimlaridagi etishmovchiliklarning sabablarini aniklaydi (o'quv mashg'ulotlarini qoldirish, uy vazifalarini bajarishga shart-sharotning etarli emasligi va xokazo) hamda qo'shimcha mashg'ulotlarda ularni tugatish choralarini ko'radi. Qo'shimcha mashg'ulotlar o'quvchilarning individual o'ziga xosligini to'la hisobga olish imkoniyatini beradi, fanni o'rganishga qiziqishlarini va o'z kuchlariga ishonishlarini otiradi.

O`qituvchi dasturdagi ayrim bo`limlar yoki fanlarni o`rgatishga o`quvchilarning ehtiyojlarini ko`p jihatdan qanoatlantirish uchun ular bilan individual mashg`ulotlar o`tkazadi. SHuningdek, ularga yuqori murakkablikdagi topshiriqlar va ko`shimcha adabiyotlarni o`rganish yuzasidan tavsifalomalari beradi. Bundan tashqari o`zlashtirmovchi o`quvchilar uchun sinfdan tashkari ishlarni tashkil etadi. Ularni fan to`garaklariga, yosh-texniklar markazlarida ishlashga, olimpiada, tanlov, ko`rgazma-tanlov, fan kechalari kabi o`quv xarakteridagi ommaviy tadbirlarga jalb etadi.

Uydagi o`quv ishlari o`quvchilarning darsdagi faoliyatlarini to`ldiradi hamda mustaqil bajarilishi bilan xarakterlanadi.

Ba`zi bir pedagoglar o`quvchilarni darsda o`qitishning didaktik talablaridan kelib chikib o`quvchilarga uy vazifalarini berishning zarurligini inkor etadilar. Bunday nuqtai nazar xatodir, chunki birinchidan, o`rganylayotgan dasturdagi material sinfdagi ishlar bilangina chegaralanishi mumkin emas, ikkinchidan uydagi o`quv ishlari mustaqil aqliy mehnat malakasini, topshirilgan ish uchun mas`uliyat, javobgarlik xissini shakllantirish uchun juda katta ahamiyatga ega bo`ladn.

## **11.MA`RUZA:**

### **KASB TA`LIMIDA O`QITISH VOSITALARI VA ULARNING QO`LLANISHI**

#### **Reja:**

#### **11.1. O`qitish vositalari didaktikaning kategoriyasi sifatida**

#### **11.2. Hozirgi zamon o`quv vositalarining tavsifnomasi**

#### **11.3. O`quv ishlab chiqarish vositalari**

#### **11.4. O`qitish vositalarining rivojlanish istiqbollari**

#### **11.5. O`qitish vositalari tizimini shakllanish texnologiyasi va ularni kompleks ishlatilishi**

**11.1. O`qitish vositalari didaktikaning kategoriyasi sifatida.** O`qitish vositalari bu moddiy olam, tevarak-atrof va tabiiy ob`ektlar, shuningdek, inson tomonidan o`quv – tarbiyaviy jarayonda axborot olish, pedagog va o`qituvchilar faoliyatida o`z oldiga qo`ygan va o`qitish, tarbiyalash va rivojlanish uchun qo`llaniladigan qurol sifatida yaratilgan sun`iy ob`ektlar hisoblanadi.

O`qitish vositalari, shu bilan birga, ularning mazmun, uslub va tashkiliy shakllari loyihalashtirilgan o`quv – tarbiyaviy jarayonning tarkibiy bo`limlaridan biridir. Mazkur holat har bir o`quv – tarbiya muassasasining eng muhim tarkibiy xususiyatidir. Pedagogik fani va amaliyotida qo`llaniladigan turli – xil moddiy o`qitish vositalari hozirgi paytda joriy qilingan tizimlarning harakatlanishi, qayta qurilishi va bir-biri bilan bog`liqligini nazarda tutgan holda boshqa tarkibiy qismlarga bevosita ta`sir ko`rsatadi. Xususan, yangi axborot texnologiya vositalarining etarli darajada keng qo`llanilishi ma`lum jarayonni loyihalashtiradi, tadqiqot olib borishda an`anaviy dars bilan chegaralanib qolmasdan, ta`lim oluvchilarning turli mustaqil faoliyatini (yakka tartibda yoki guruh bo`lib) nazarda tutgan uslublarni o`qitish mazmuni va maqsadi u yoki bu o`zgartirishlarni inobatga olib kiritish samarali natijalar beradi. Aynan yangi vositalar va texnikaviy yutuqlarning paydo bo`lishi o`quv dasturlariga ta`lim oluvchilar ongiga oldin etib borishi qiyin bo`lgan mavzularni kiritish imkoniyatini yaratadi.

Bugungi kunda ta`lim oluvchilar o`z ijodiy potentsialini namoyon qilish, tabiatdan berilgan iste`dod va qobiliyatlarni rivojlantirish, yangi texnika va texnologiyalarini egallash borasida real imkoniyat mavjud. Pedagogik yondashish o`quv jarayonida turli xil didaktik maqsadlar, birinchi navbatda, atrof muhitni tasvirlash, ta`lim oluvchilarning turli xil o`quv o`rganish faoliyatini tashkil qilish, o`qituvchining nazorat qilish va to`g`rilash, o`quv tarbiya va yo`naltiruvchi funksiyalarini amalga oshirishga asoslangan. Injenerlik yondashish o`qitish vositalarini yaratuvchi texnologik (konstruktiv – texnologik) xususiyatlarni hisobga olishga imkoniyat beradi, o`qitish vositalarini ishlab chiqarish usullariga bog`langan holda sinflarga bo`lish, ta`lim oluvchilarga ta`sir qilish kanallar va ergonomik tavsiflarni hisobga olish imkoniyatini beradi. Didaktik nuqtai nazarga S.G.Shapovalenko taklif qilayotgan atrof muhitni tavsiflashga bag`ishlangan o`quv vositalarini tasniflanishni biz eng asosli deb tan olamiz.

1. Tabiiy ob`ektlar – izlanish va o`rganish uchun aniq fanlarni o`z ichiga oladi: moddalar namuna va kolleksiya, reaktiv xom - ashyo, asbob, detal, o`simlik, mikropreparat gerbariy va hayvonlar hamda ularning qotirib qo`yilgan xolati va hokozolar.

2. Moddiy ob`ektlar (haqiqiy)ni tasvirlash va aks ettirishga xizmat qiluvchi guruhni tashkil etadi: model, maket, jadval va ko`rgazmali qurollari (rasmlar, fotoaksi chizmalar, portretlar); ekran – tovush vositalari (diafil'mlar, diopozitiv seriallari, slaydalar) kinofil'mlar, transportlari, video va tovush yozuvlari, platinkalar, radio eshitirish va teleko`rsatuvlar.

O`z navbatida har bir podgruppa aniq asoslarga ko`ra klassifikatsiya qilinishi mumkin. Masalan: modellar a) originalni almashtirish usuli bo`yicha – moddiy va ideal (o`ylash, belgilash; ramziy) b) ob`ektivning ichki tashkillashtirish (strukturali, funktsional va aralash)

v) funktsional yo`nalishda (namoyish qilish, tarqatma)

g) predmetni aks ettirish usullari bilan (xarakterli, harakatsiz tekkislik, xajmli, aralash)

d) shartli vositalar bilan predmet va xodisalarni taqdim etuvchi o`qish vositalari - so`zlar, belgilar, grafiklar) o`z ichiga matnli jadval, sxema, grafik, diagramma, reja, xarita o`quv manbalari - darslik va o`quv qo`llanmalari, masalalar to`plami, mustaqil ishlar uchun qo`llanma, didaktik material va boshqalar)larni oladi.

Alohida guruhga o`qitish texnik vositalari kiradi. Bunday o`qitish vositalari o`quv ma`lumotlarini etkazib beruvchi, uni ifodalash uchun xizmat qiluvchi, mahsus texnik moslamalardan iborat bo`ladi. Bundan moslamalarga transport, diafil'm, kinofil'm, videofil'm, tovush yozish komp'yuterlari dasturlari va boshqalar.

Didaktik xususiyatlar – belgilar, o`qitish vositalarining boshqalardan farq qiluvchi tomonlari, didaktik funktsiyalarni namoyon qilayotgan xususiyatlari faqat o`qitish vositalarigagina xos bo`lgan potentsial imkoniyatlarni aks ettiradi.

Didaktik imkoniyatlar o`quv – tarbiyaviy jarayonda qo`llaniladigan vosita sanaladi va didaktik xususiyat bilan didaktik funktsiya o`rtasidagi bog`lovchi bo`g`in bo`lib xizmat qiladi.

«Didaktik xususiyat» va «Didaktik imkoniyat» tushunchalarining yaqinligi sababli pedagogik adabiyotda ular ajratilmaydi.

O`qitish vositalarining didaktik funktsiyalari turlicha bo`lishiga qaramasdan ularning hammasi umumiy xususiyatga ega; xususan:

– o`quv axborotni qabul qilishda tushunib etishi va idrok ta'minlovchi ko`rgazmalik, tushuncha va tasavvurni shakllantirish;

– o`qitish vositalari axborot (bilim)ning bevosita manbasidir, boshqacha qilib aytganda, aniq axborot (bilim)ning egasidir;

– Kompensatsiyalash, o`qitish jarayonini engillashtiruvchi, maqsadga eng ham kuch, vaqt va sog`liq sarflab erishishga yordam beruvchi, namoyishlar va mustaqil ishlarni tashkil qiluvchi funktsiya;

– Adaptivlik, o`qitish jarayonini bo`lib o`qitishda moyillikni ta'minlashga yo`naltirilgan, namoyish va mustaqil ishlarni tashkillashtirish, ta`lim oluvchilarning yoshlariga xos bo`lgan xususiyatlarini mazmun bilan mutanosibligi, bilim egallash ketma-ketligini ta'minlash;

– Integrativlik, ob`ekt yoki hodisani bir bo`lak yoki ayrim qismlar sifatida ko`rib chiqishga imkon beradi. Bu funktsiya o`qitish vositalaridan kompleks foydalanishda amalga oshiriladi, bundan tashqari axborot texnologiyalari vositalarni qo`llashga xizmat qiladi.

Umumiy funktsiyaga bundan tashqari aniq turlarning faoliyati xarakati, operatsiya va qo`yilgan uslubiy maqsadlarga erishishni ta'minlashga yo`naltirilgan instrumental funktsiyalar kiradi. O`quv vositalarining hamma funktsiyalari bir-biri bilan bog`liq va o`quv tarbiyaviy jarayonga o`zining har tomonlama ta`sirini o`tkazadi.

**11.2. Hozirgi zamon o`quv vositalarinig tavsifnomasi.** YUqorida biz o`qitish vositalarining umumdidaktik nuqtai nazardan klassifikatsiya qilinishini ta`kidlab o`tdik va atigi bitta, biroq eng muhim belgilaridan biri sanalgan atrof - muhit predmetlarini aks ettirish usuli bo`lgan umumdidaktik funktsiyalari bilan tanishib chiqdik.

*Natural (tabiiy) ob`ektlar.* Tabiiy ob`ektlarga sirasiga jonli va jonsiz tabiat ob`ektlari kiradi, ta`lim oluvchilar ular bilan mashg`ulotlarda tarqatma yoki nomoyish qilinadigan materiallar shaklda tanishadilar. Ko`rgazmachilik – tabiiy ob`ektlarni tanlab olish yoki tabiiy ob`ektlarni o`z ichiga tarkibiy qism qilib kiritgan turli qo`llanmalarni loyihalashga qo`yiladigan asosiy talablardan biri.

SHu maqsadda o`rganilayotgan tushunchalarning mazmunini ochib berish uchun kerak bo`lgan ayrim tipik belgilarni aniq ifodalashga yordam beradigan ob`ektlar ajratib olinadi. Natural

ob`ektlarning qo`lyozmaligini kuchaytirish uchun turli kodlash usullari qo`llaniladi: rangli, raqamli, harfli. Tabiiy ob`ektlarni o`qitish jarayonida ular bilan ishlash uslublaridan asosiylari kuzatish va tajriba o`tkazish hisoblanadi. Ko`rgazmali qo`llanmalar sifatida ishlatiladigan tabiiy ob`ektlar avvalo uning jihoz va moslamalariga maxsus ishlov berish zarur: ularni kesish, ayrim belgilarga maxsus rang berish qopqoqlarning qobig`ida ko`rish tuynuklarini ochish, ichki bo`shliqlarni yoritish, lampa signal beruvchi o`rnatish va xakazo.

**O`quv modellari, mulyajlar, maketlar.** Modellar tabiiy ob`ektlarning sun`iy ko`rinishi bo`lib, ularning muhim sifatleri, aloqalari va munosabatlarini qayta takrorlaydigan o`quv ko`rgazmali qo`llanmalar hisoblanadi. Orginal ob`ekt (mikro va makro ob`ektlar) xususiyatlarini ko`rsatishda shartlilik (ramziylik)ka amal qilinadi, razmerni kattalashtirish yoki kengaytirish orqali ob`ekt qurilmasi sxema tarzida aks ettiriladi. Modellarning eng keng tarqalgan tipik turlari bu moddiy (predmet) modellardir. Modellar o`z hajmiga ega yoki tekis modjellarga bo`linadi. Ularning oralig`ida rel`ef jadvallar joylashgan.

Mulyaj va maketlar atrof-muhit hodisalari predmetlarning tashqi belgi va xususiyatlarini o`rganishda qo`llaniladi. Modellar o`rganilayotgan ob`ektlarning ichki qurilmasi va harakatlanish tamoyili, mashina va mexanizmlarning kinematikasini o`rganilayotgan vaziyatlarda boshqa aloqalar va munosabatlar mazmunining ham o`rganilishiga imkoniyat beradi.

Ta`lim oluvchilarga taqdim etiladigan model va mulyaj (maketlar)lar ham xuddi tabiiy ob`ektlar singari demokratsion va tarqatma qo`llanmalarga bo`linadi. Turli xil modellarni loyihalashtirishda bu turdagi o`qitish vositalarining funktsiya va didaktik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda umumiy pedagogik-ergonomik talablarni ilgari surish mumkin, ya`ni, axborotlashgan, o`quv jadvalini faoliyatning aniq usullariga adekvantlik (o`rganish, qabul qilish plakat, sxema, diagramma, grafik va boshqalar) aniq bir tushuncha, ko`nikma va bilimlarni shakllantirishda qo`llaniladigan tekis moddiy o`qitish vositasidir. O`quv jadvali aniq va ko`rgazmali holda o`rganilayotgan ob`ekt haqida ilmiy axborot beradi. Jadvallar turli xil bo`ladi. Kompozitsion – rasm va fotosuratlar;

Grafikli: (chizma, diagramma, sxema va boshqalar);

Belgili – ramziy formula, harf va so`zlar bilan ifodalanuvchi. So`nggi paytda elektrlashgan jadvallar keng qo`llanilmoqda, ya`ni, stendlar, xavfsizlik oid texnikalar.

O`qitish vositalari orasida oxirgi paytda eng ko`p qo`llanilayotgan vositalar – bu plakatlardir. Plakatlar - quyidagi talablarga javob berishi shart.

- plakatning mazmuni o`rganilayotgan mavzuga oid bo`lishi;
- plakatda ifoda etilgan chizma etarli darajada katta va uzoqdan ham ko`ra olish imkonini berishi kerak;
- plakatdagi ob`ektalr tabiiy holatlarida ko`rsatishi shart;
- plakatda tasvirlangan chizmalarning qismlari masshtab mutanosibli asosida berilishi kerak;
- eng e`tiborga loyiq qismlar alohida (boshqa) rang bilan ajratib ko`rsatilishi lozim.

**Ekran va ekran – tovushlik o`qitish vositalari**

Hozirgi zamonda juda keng tarqalgan o`qitish vositalaridandir. Bu o`qitish vositalariga qo`yilgan talablar eng avvalo ularning mavzuga oid, ikkinchidan, sifatli bo`lishidir.

Diopozitiv (slyd) – bu harakatlanmaydigan o`qitish ekran vositasi. Diopozitiv aks etgan chizma va rasmlar odatda plakatdagidan yaxshi qabul qilinadi.

Bu qiyinchilik darsda diofil`mlarning ayrim fragmmmentlarini (bo`laklarini) ko`rsatish orqali engillashtiriladi.

Transporantlar – bu ham harakatlanmaydigan ekran qo`llanmasi.

Transporantlarning grafproektor yordamida ko`rsatilishi va xonani qorong`ilatish shart emasligi bu o`qitish vositasining muhim jihatidir. Transporantlar sinf doskasi ham o`rnini bosadigan vositadir. O`qituvchi ta`lim oluvchilarga yuzlangan holda, o`tilayotgan mavzu yoki chizmalarni ekranga proektsiya qilish orqali tushuntirishi mumkin. Bu orada o`qituvchi chizmalar mazmuniga kerakli o`zgartirish yoki to`ldirishlar kiritish mumkin. Bundan tashqari transporantlarda informatsiyani taqdim etishda bir kadrning o`rniga ikkinchisiga qo`yish juda qulaydir. Transporantlar odatda 6-8 kadrndan iborat seriyalardan iborat bo`lib, u o`qituvchi tomonidan ham yasalishi mumkin.

O`quv binosi yaqindagina eng samarali o`qitish vositasi deb e`tirof etilgandi. Uning ko`rgazmalikligi quyidagi juda boy didaktik imkoniyatlaridan kelib chiqadi; katta hajmli

informatsiyaning ixchamlantirilishi, fan va texnika tarixiga sayohat qilish, jarayonni tezlanish yoki sekinlashtirish, nihoyat, uni to'xtatish, lirivintikasiya yoki modellashirish, zavoddagi moslama va apparatlarining ichki tuzilishini kuzatish. Yangi texnologiyasini boshqarish bilan tanishtirish, fan arboblari faoliyati haqida ma'lumot berish ilmiy – tekshirish laboratoriyasiga «kirish», turli vazifalarni qo'yish, ularni ijobiy hal etish, hamda qiyoslash o'quv fil'mlari yordamida amalga oshar edi.

Video yozuvini qancha lozim bo'lsa, shuncha marta takrorlanish mumkin, vaqt ko'rsatkichi asosida kerakli informatsiyani yozish mumkin. Videokamera yordamida yozib olish juda katta imkoniyatni ochib beradi. Kelajakda o'qituvchilarni tayyorlash va ular malakasini oshirish maqsadiga xizmat qiluvchi video yozuvi tizimlari chiqiladi.

O'quv materialini mustaqil o'rganishda o'quv yozuvlarini katta ahamiyatga ega.

O'quv asboblari, moslamalari, laboratoriya asoslari tizimning o'ta ahamiyatli bo'lgan qismini tashkil qiladi. eng, avvalo, u yoki bu asbob nima uchun xizmat qilishini aniqlaylik.

Trenajerlar – texnika vositalarining alohida guruhiga kiradi. Trenajerlar mehnat ishlab chiqarish sharoitlarini imitatsiya (o'xshatish) qiladi.

Trenajyorlar uch guruhga bo'linadi:

– Avtomobil' va ximiyaviy ishlab chiqarish texnologiyasini trenajerlari (modellashirish yordamida o'rganiladi).

– Aniq bir intellektual faoliyat bilan bog'liq bo'lgan trenajerlar. Masalan: trenajer imitatorlar, stanoklarni naladka qilish imkonini beruvchi trenajerlar.

– Biror bir xarakterlanish ko'nikmasini hosil qilish uchun trenajerlarning alohida turi qo'llaniladi. Masalan: metalni aralash, detallarning figurali qilib yasalishi uchun xizmat qiluvchi trenajerlar.

**11.3. O'quv ishlab chiqarish vositalari.** O'quv (o'quv ishlab chiqarish) ustanovka raqami professional (kasb-hunar) o'quv yurtlari tizimiga kiradi. O'quv ustaxonalarida olib boriladigan ishlab chiqarish mazkur ustaxonalarida qulay vaziyatlarining yaratilishi talab qiladi.

Ta'lim oluvchilarning ish joyini tashkillashtirish quyidagilarni taqozo etadi:

– - ish joyining texnik sozligi;  
– - etarli darajada yoritilganligi;  
– - zaruriyat vaqtida avariya signalining ishlashi yoki usta bilan bog'lanish moslamasining mo'tadil ishlashi;  
– - ishlab chiqarish moslamasini tozalash, sozlash va yig'ishtirish uchun qulay sharoitning mavjudligi.

**11.4. O'qitish vositalarining rivojlanish istiqbollari.** Kasb-hunar maktablari va o'quv-moddiy bazalari hozirgi zamon o'quv jarayonida bir necha yo'nalishda rivojlanishi;

– ta'lim oluvchilarning o'quv texnika vositalariga nisbatan ijobiy yondoshuvi va ulardan samarali foydalanishga nisbatan ijobiy munosabatlarini shakllantirish;

– o'quv ko'rgazma vositalarini qo'llash;

– o'qitish vositalarining o'zaro aloqadorligi va bog'liqligi.

Hozirgi paytda to'rta yo'nalishdagi yangi informatsion texnologiya o'qish jarayonida qo'llanilmoqda:

- Nashriyot texnologiyalari.
- Telekommunikatsiya.
- Katta maketlar va ommaviy axborot vositalari.
- Komp'yuter robototexnikasi.

Hozirgi kunda ilg'or texnologiyalardan foydalanish borasida qator qarorlar qabul qilingan.

Tadqiqot yoki uning bir bosqichni bir necha marta takrorlash lozim bo'lganda o'lchamlarini qayd qilib yozib borish.

– Modellashirishning turli xil yo'llari, xususan, tajriba natijalarini qo'llash.

– Olingan ma'lumotlarini qayta ishlashda avtomatlashtirishning yuzaga kelishi.

– O'rganilayotgan materialining turli shakllardagi tushuncha va tasavvurlarini vizuallashtirish (ko'rgazmali qilish).

– Texnikaviy moslama va mexanizmalarga taqlid qiluvchi robotlarni yaratish.

Turli xil yo`nalishlarga mo`ljallangan ishlab chiqarish dasturlari foydalanuvchilar oldida bilim olish sohalarida keng imkoniyatlarni yaratadi. Ta`lim oluvchi nafaqat tayyor informatsiya asosida ishlaydi, balki o`zi ham maketlar yaratish imkoniyatiga ega bo`ladi, matematik masalalarni echish, turli vaziyatlarni modellashtirish, tabiiy fanlar-iqtisodiyot, ekologik va gumanitar fanlar bo`yicha tadqiqotlar olib borishi imkoniyatlari yuzaga keladi.

Masofadan turib o`qitishning kelajagi porloqdir. Masofadan o`qitish komp'yuter texnologiyalar asosida amalga oshiriladi. O`qitish jarayonini kompleks ravishda tashkil etishga katta ahamiyat beriladi. O`qitish vositalaridan kompleks foydalanishning samaradorligi ularni qo`llashda ratsional jihozlanishga nisbatan aniq talab va tavsiyalar qo`yilishi lozim. Talab va tavsiyalar esa quyidagilardan iboratdir:

- ko`rgazmali qurol, tarqatma material va darsda qo`llanilayotgan o`qitish vositalari keragidan ortiq darajada qo`llamaslik;
- darsda qo`llaniladigan vositalar (plakat, sxema, model', maket, mulyaj, detal va boshqalar) har doim oldindan ko`rib chiqib tanlab olingan va foydalanish tartibda tayyor bo`lishi kerak;
- texnik vosita va boshqa ko`rgazmali qurollarda oldindan ishlatib ko`rish lozim;
- individual qo`llash uchun tanlangan didaktik ko`rgazmali qurollar va boshqa qo`llanmalar barcha ta`lim oluvchilar uchun etarli bo`lishi kerak;
- ko`rgazmali qurollarning etarli darajada ko`rilishi va eshutilishini ta'minlash;
- har bir didaktik materialning qo`llanilish maqsadi va o`rnini aniq rejalashtirib olish.

Masofadan o`qitish o`quv jarayonini oliy darajada tashkil etish va o`quv maetrialini translyatsiya qilish imkoniyatini beradi. Masofadan o`qitishni tashkil qilish turlari quyidagichadir:

- saqlanib qo`yilgan o`quv materialini («Konservalangan») komp'yuter o`qitish vositasi yordamida uzatish;
- turli masofada joylashgan sinf va guruhlariga yagona materialni uzatish;
- fan arboblari, pedagog navatorlar, uslubchilarning lektsiya va mashg`ulotlari tasvirini uzatish;
- telekonferentsiya va munozaralar jarayon tushirilgan tasvirini uzatish;
- o`quv uslubiyot materiallarining almashuvini ta'minlash.

Telekommunikatsiya tizimlarining qo`llanishi yangi pedagogik va kasbiy bilimlarni eng qisqa muddatda uzatishni imkoniyatini beradi. Informatsion texnologiyalarning rivojlanishi o`qitishning yana bir yo`nalishini – media o`qitishni vujudga keltiradi. Bunda ta`lim oluvchilar turli xil ommaviy vositalari (gazeta, jurnallarni, TV, kino, radio, video va boshqa) mazmunini egallab olishga tayyorlash yo`nalishida olib boriladi. Umuman olganda yangi tashkil qilingan va modernizatsiyalashgan o`qitish vositalarida quyidagi o`ziga xos an`analar mavjud:

- qo`llanmalarining sonini qisqartirish (tanlanganlik, keraklilik va etarlilik);
- ularni funktsional imkoniyatlarini kengaytirish (ko`plab funktsional tamoyillari);
- o`qitish vositalarini komplektlash va ular tizimini ishlab chiqish sharoitini yaratish;
- ta`lim oluvchilarning mustaqil o`qishi, chunonchi, turli o`qitish darajalarda ilmiy tekshirish va tajriba ishlari majmualarini yaratish;
- maxsus yo`naltirilgan modul majmualarni yaratish.

**11.5. O`qitish vositalari tizimini shakllanish texnologiyasi va ularni kompleks ishlatilishi.** Qech qaysi o`qitish vositalari alohida qo`yilgan o`qitish maqsadlarini ta'minlay olmaydi, shu bois ta`lim jarayonida o`qitish vositalarini qo`llash maqsad emas, balki ta`lim oluvchilarning o`zlashtirish darajasini oshirish imkoniyati yaratishga xizmat qiluvchi pedagogik faoliyat usulidir. O`qitish vositalaridan foydalanish quyidagi holatni yuzaga keltiradi:

O`quv dasturi, predmeti va o`quv materiallari tarmoqlarini qamrab olish

O`quv jarayonida o`qitish vositalarni belgilangan didaktik funktsiyalar va imkoniyatlarga qarab moslashtirish

O`quv jarayonining asosiy bo`g`inlarini qamrab olish	Ta`lim vositalar tizimini o`quv majmuasida qo`llash	O`qitish jarayoniga barcha funksiyalarning oliy tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, ta`lim beruvchi omillarini joriy qilish va ta`minlash
Ta`lim oluvchining o`quv faoliyati va o`qituvchining pedagogik faoliyatini ta`minlash	Quyidagilar talab qilinadi: iqtisodiy vaziyat, ozodalik, atrof-muhitni muhofaza qilish, mehnat xavfsizlikka rioya etish	

- ko`rgazmali va texnik vositalaridan uzluksiz foydalanishni ta`minlash va ta`lim oluvchilarda ular bilan ishlash ko`nikma va malakalarini shakllantirish;

- ta`lim oluvchilarning darsda ishlashlarini shunday tashkil qilish kerakki, ular nafaqat kuzatish asosida kerakli informatsiyani olsinlar, balki texnik vositalar va ko`rgazmali qurollar bilan unumli va samarali ishlashsinlar.

## **12. MA`RUZA:** **KASB TA`LIMINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

### **Reja:**

**12.1. Ta`lim jarayonlarini tahlil etishda qo`llaniladigan pedagogik kategoriyalar**

**12.2. O`qitish texnologiyalari majmuaviy integrativ tizim sifatida**

**12.3. O`qitish texnologiyasini loyihalash**

**12.4. Umumlashgan pedagogik texnologiyalar**

**12.5. Talaba yoshlarda ma`naviy-axloqiy odatlarni tarbiyalash jarayoni va uning vazifalari**

**12.6. Tarbiyaviy ishlar mexanizmi**

**12.7. Kasb ta`limi muassasalarida axloqiy tarbiyani tashkil etish muammosi**

**12.1. Ta`lim jarayonlarini tahlil etishda qo`llaniladigan pedagogik kategoriyalar.** Tarkib topgan ta`limning eng muhim unsurlari qadimdan shakllanib kelgan va u hozirda ham o`zining ahamiyatini yo`qotmagan. Ta`lim maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari pedagogikada ta`lim jarayonlarini tahlil etishda qo`llaniladigan an`anaviy kategoriyalar hisoblanadi. Aynan o`sha kategoriyalar ma`lum bir predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo`yicha o`quv tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi. O`ayd etilgan pedagogik kategoriyalar maqsadga muvofiq ravishda yo`naltirilgan pedagogik va o`quv faoliyatining qonuniyat hamda mezonlarini tizimlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi.


Uzoq yillar mobaynida pedagogik kategoriyalar hajmi jamiyat talabi darajasida maqsadlarni ro`yobga chiqarish uchun etarli bo`lib kelgan. Tan olish kerakki, pedagoglar ommasi barcha davrlarda pedagogik faoliyatni qoniqarsiz ahvolda deb baholab kelganlar. Bu o`rinda pedagogik tushunchalarning ta`rif va tavsiflarining noaniqligi, ta`lim jarayonlarini tavsiflovchi ba`zi kategoriyalarning etishmasligi, ta`lim maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari o`rtasida o`zaro uzviylikning mavjud emasligi hamma vaqt tanqid ostiga olib kelingan va bunday mulohaza hozirga qadar saqlanib kelmoqda. Ushbu fikr bizningcha quyidagi ikkita muammoning mavjudligi bilan izohlanadi: birinchidan, kasbiy pedagogik ma`lumotga ega o`qituvchilarning kasbiy mahorat darajasining pastligi, ikkinchidan, maxsus pedagogik tayyorgarlik va savodxonlikka ega bo`lmagan pedagoglarning sonining salmoqli ekanligi.

Ta'lim natijalari o'rganuvchining pedagogik jarayonlardan qanday salohiyat bilan o'tganligiga bog'liq.

Pedagogik jarayon mohiyati-o'qituvchining ta'lim oluvchi ishtirokidagi faoliyatida o'z aksini topadi, bunda pedagog qiyinchiliklarni engib o'tish yo'lida ta'lim oluvchiga yordam beradi. Pedagogik yordamning mohiyati pedagogik jarayonni yo'naltirganligi, tavsifi, shaxsni shakllantirish va tarbiyalashda hal etiladigan vazifalarni o'zida aks ettirganligi bilan ifodalanadi. Pedagogik yordam e'lon qilingan, ko'rsatilgan, eslatilgan, tushuncha berilgan, yo'naltirilgan, haqqoniylashtirilgan, maslahat berilgan, kengashilgan, bartaraf etilgan, hamdardlik qilingan, ilhomlantirilgan, qiziqish va hurmatni izhor qilgan, talabchanlikni qo'llab-quvvatlagan hollarda yordam beradi.

**12.2. O'qitish texnologiyalari majmuaviy integrativ tizim sifatida.** Zamonaviy o'qitish texnologiyalari-majmuaviy integrativ tizimlar bo'lib, ular o'zida ta'lim maqsadlari bilan belgilangan kasbiy ko'nikma, malakalar va shaxs xislatlarini o'rganuvchilar tomonidan egallanishi hamda bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan operatsiya va harakatlarning tartiblashtirilgan to'plamini aks ettiradi. Bu o'rinda ta'lim maqsadlarining belgilanishi (kimga va nima uchun?), mazmuni tanlash va ishlab chiqishga tatbiq etish (nima?), ta'lim jarayonlarini tashkil qilish (qanday?), ta'lim metodi va vositalarini belgilanish (nimalar yordamida?), shuningdek, o'qituvchilar malaka darajasi (kim?) hamda erishilgan natijalarni baholash metodi (qanday yo'l bilan?) ga asoslanishi lozim. Keltirilgan mezonlarning majmuaviy qo'llanilishi o'quv jarayoni mohiyati va uning texnologiyasini belgilab beradi.

**12.3. O'qitish texnologiyasini loyihalash.** O'qitish texnologiyasining loyihalash tuzilishini pedagogik vazifaning qo'yilishi va uni hal etish asosida ko'ramiz:



### *O'qitish texnologiyasini loyihalash*

Pedagogik vazifaning belgilanishida quyidagilar inobatga olinadi:

- ta'lim maqsadlarining tahlili va shu asosida o'quv predmeti mazmunini aniqlash;
- o'quv predmeti mazmuni tuzilmasini ishlab chiqish va uni o'quv unsurlari tizim ko'rinishida ifodalash;
- o'quv unsurlarining o'zlashtirish darajalarini belgilash;
- ta'lim oluvchilarning dastlabki bilim darajasini aniqlash, bu ko'rsatkich o'quv predmetining mazmunini ifodalovchi o'quv materialini o'zlashtirganlik darajasidan kelib chiqadi;
- o'quv-moddiy baza hamda ta'limning tashkiliy shakllariga qo'yiladigan chegaralarni belgilash.

Pedagogik vazifalarning hal etilishini ta'minlovchi o'qitish texnologiyasini loyihalashga qaratilgan o'qituvchi faoliyati ta'limning metod, shakl va vositalarini shakllantirish bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, pedagog faoliyati uchta asosiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi: boshqarish turi, axborot almashinuv jarayonining turi, axborot o'zlash vositalari tiplari va bilish faoliyatini boshqarish. O'qitish jarayoniga faoliyat nuqtai nazaridan yondashish kontseptsiyasiga asoslanib, uni tashkillashtirishning quyidagi mantiqiy ketma-ketligini qurish mumkin. Dastlab o'quv material mazmunining tavsifi, uni o'rganishdan ko'zlangan maqsad (o'zlashtirish darajalari), shuningdek, pedagogik vazifaning qo'yilish shartlari tahlil etiladi. So'ngra, o'qitishning mos ravishdagi metodlari hamda ta'lim oluvchilar bilish faoliyatini boshqarish sxemasi belgilab olinadi. SHu asosda o'qitish vositalari ro'yxati tuziladi. Ushbu usuli bilan hosil qilingan metod va ta'lim vositalari tizimi tashkiliy shakllar bilan uyg'unlashtiriladi, ya'ni, texnologiya ishlab chiqiladi.

**12.4. Umumlashgan pedagogik texnologiyalar.** Umumlashgan pedagogik texnologiyalar ma'lum psixopedagogik asoslardan iborat «sintetik nazariya» sifatida qaraladi (2-jadval).

Tadbiqiy pedagogik texnologiyalar oldindan rejalashtirilgan natijaga erishishga yo'naltirilgan kasbiy tayyorgarlik jarayonini loyihalash muammosini metodik jihatdan hal etishga qaratiladi.

Bugungi kunda shaxsiy faoliyatli yondoshuv, tanqidiy-ijodiy fikrlash, muammolarni hal eta olish, qaror qabul qilish va jamoada hamkorlik qilishga oid pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishga ehtiyoj yuzaga kelmoqda (2-jadval).



SHunday qilib, ilgaridan loyihalashtirilgan ta`lim-tarbiya jarayonining pedagogik texnologiyasi o`zida metodlar tizimi, ta`limning metodik usullari, o`qituvchi va talabalarning birgalikda faoliyat ko`rsatish imkoniyatlari, vositalari, talabalarning ijobiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirish maqsadi hamda yakuniy natijalarga erishish instrumentariysini mujassamlashtiradi.

## 2-jadval

Pedagogik texnologiya nomlanishi	Maqsadi	Mohiyati	Mexanizmi
Muammoli o`qitish	Ta`lim oluvchilarning bilish faolligi va ijodiy mustaqilligini oshirish	Ta`lim oluvchilarga ketma-ket va maqsadli ravishda ularning bilimlarni o`zlashtirish faolligini oshirishga xizmat qiluvchi masalalarni berish borish	Tadqiqotchilik metodlari; bilish faoliyatiga yo`naltirilgan masalalarni echish
Mujassamlashtirilgan o`qitish	Insonning his qilish xususiyatlariga maksimal darajada yaqinlashtirilgan ta`lim jarayon tuzilmasini yaratish	Mashg`ulotlarni bloklarga birlashtirish hisobiga fanlarni chuqur o`zlashtirishga erishish	Ta`lim oluvchilar ish qobiliyati dinamikasini hisobga oluvchi ta`lim metodlari
Modulli o`qitish	Ta`lim mazmunini shaxs individual ehtiyojlari va uning bazaviy tayyorgarligiga muvofiqlashtirish	Ta`lim oluvchilarning individual o`quv dasturi asosida mustaqil ishlashi	Muammoli yondashuv, ta`limni amalga oshirishning individual maromi
Rivojlantiruvchi o`qitish	SHaxs va uning qobiliyatlarini rivojlantirish.	O`quv jarayonini insonning potentsial imkoniyatlari va ularni amalga oshirishga yo`naltirish	Ta`lim oluvchilarni faoliyatning turli sohalariga jalb qilish
Differentsiallashtirilgan o`qitish	Layoqat, qiziqish va qobiliyatlarni aniqlash uchun qulay sharoitlar yaratish	Turli o`zlashtirish darajalari bo`yicha majburiy me`yor (standart) dan kam bo`lmagan hajmdagi dastur materialini o`zlashtirish	Individual ta`lim metodlari
Faol (majmuaviy) o`qitish	Ta`lim oluvchilar faolligini tashkillashtirish	Bo`lajak kasbiy faoliyatining predmetli va ijtimoiy mazmunini modellashtirish	Faol o`qitish metodlari Ta`lim oluvchilarni ijodiy faoliyatiga jalb etilishining o`yin metodlari
O`yinli o`qitish	Bilim, ko`nikma va malakalarni o`zlashtirishning shaxsiy faoliyat tavsifida bo`lishini ta`minlash	O`quv axborotlarini qayta ishlash va o`zlashtirishga yo`naltirilgan mustaqil bilish faoliyati	

**12.5. Talaba yoshlarda ma`naviy-axloqiy odatlarni tarbiyalash jarayoni va uning vazifalari.** Kamolotga erishgan, har tomonlama rivojlangan avlodni tarbiyalash jarayoni uning doimiy, muntazam, izchil va tizimli ravishda tarbiyalashni taqozo etadi. Bu yo`lda kasbiy ta`lim muassasalarida ta`lim jarayonini takomillashtirish, fundamental, kasbiy fanlar singari g`oyaviy mazmuni talabalarga, yangi jamiyatning har bir mutaxassisiga zarur bo`lgan ijtimoiy dunyoqarashni shakllantiruvchi tasavvurlar zahirasi hosil qilishi lozim bo`lgan ijtimoiy-gumanitar fanlarni

o`qitishga yangicha yondashuv asosida axloq malakalarini hosil qilish mumkin. Talaba yoshlarda yagona pedagogik jarayonda ma'naviy-axloqiy odatlarni tarbiyalashda quyidagi vazifalar hal etilishi lozim:

- o`zbek milliy mentaliteti va jahon tsivilizatsiyasi yutuqlariga tayanadigan ma'naviy qadriyatlar tizimini mustahkamlash;

- SHarq mutafakkirlari asarlarida qayd etilgan komil inson g`oyasi, ta`limotiga amal qilish;

- O`zbekiston Prezidenti I.A.Karimov asarlarida ta`lim-tarbiya xususan, barkamol shaxs, etuk mutaxassis xususiyatidagi fikr-mulohazalarni o`rganish va ularga amal qilish.

**12.6. Tarbiyaviy ishlar mexanizmi.** Bunday vazifalarni hal etish pedagogik jamoaning jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, talabalarni Vatanga sadoqat, yuksak axloqli, mehnatga halol munosabatda bo`lish ruhida tarbiyalash ishiga sezilarli hissa qo`shayotgan yoshlar bilan ishlovchi barcha davlat va jamoatchilik tuzilmalari (O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi, Madaniyat ishlari vazirligi, Adliya vazirligi, Mudofaa vazirligi, Davlat sport qo`mitasi, «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi, «Mahalla», «Kamolot», «Sog`lom avlod uchun», «Nuroniy», «Ulug`bek», «Umid», «Ustoz» jamg`armalari, Inson huquqlari bo`yicha markaz va hokazo) bajarayotgan ishlar, dasturlardan foydalanilgan holda tarbiyaviy ishlar mexanizmini ishlab chiqish va yoshlar tafakkuriga ta`sir etish ko`zlangan maqsadga erishishda muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Kasbiy ta`lim muassasalarida olib borilayotgan ishlarning mohiyati, uning milliy istiqbol mafkurasiga asoslangan, ma'naviy-axloqiy, huquqiy, vatanparvarlik, fuqaroviy, mehnat, madaniy-maishiy, ekologik va shu singari yo`nalishlar bilan erishiladigan g`oyaviy amal va ideallarga mos holda olib borilishi maqsadga molik masala. Bu muammolarni amalga oshirish barcha pedagoglarining oldida turgan yuksak vazifadir.

Mustaqillik sharoitida talaba-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda qator vazifalarni hal etish talab etiladi. Jumladan:

-har bir ta`lim oluvchining ongida davlat mustaqilligi xalqning oliy g`oyaviy-axloqiy qadriyati ekani, o`z vatani bilan faxrlanish, uning xavfsizligini ta`minlash va O`zbekistonning ulug` tarixiy o`tmishi, bozor munosabatlariga asoslangan yangi demokratik jamiyat qurishda tanlab olgan o`ziga xos yo`lini mustahkamlash, islom dini ruhi bilan sug`orilgan oliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, xalqning insonparvarlik an`analari hamda umuminsoniy o`ivilizatsiya yutuqlari ahamiyatini to`g`ri tushuntirish va uni e`tiqodga aylantirish;

-ta`lim oluvchilarda umuminsoniy insonparvarlik axloqi, madaniyati me`yorlari, zamonaviy qadriyatlar ehtiyoji, o`zini yuqori tutish va viqor saqlash, oilaviy tantanalarda o`zini ko`rsatishga urinish, xizmat vazifasidan shaxsiy maqsadlar uchun foydalanish ko`rinishlariga murossasiz bo`lish ruhini tarbiyalab borish ularning yuqori axloq malakalari bilan qurollantirishning garovi bo`lib hisoblanadi.

Axloqiy tarbiya tarbiyaviy ishlar majmuida etakchi o`rin tutadi. Axloq yoki odob deganda - kishilarning mazkur jamiyat uchun xarakterli va muayyan ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan tarixan bog`liq bo`lgan xulq-atvorlarni belgilab beradigan qonun-qoidalar yig`indisi tushuniladi. Jamiyat tomonidan belgilanadigan talablar shaxs xulqini baholash uchun mezon bo`lib xizmat qiladi. Ana shu talablarga muvofiq shaxs xulqining mazmuni mamlakatda sharqona axloq-odobga asoslangan milliy tarbiyani amalga oshirishdan iborat bo`lishi lozim. Bunday jamiyatni qurish jarayoni yangi ijtimoiy munosabatlarni hosil qilish bilan bog`liq. SHu ma`noda bugungi kun ta`lim tizimida amalga oshiriladigan axloqiy tarbiyaning asosiy mezonlari milliy axloq me`yorlarini tashkil etadi.

Kasb ta`limi muassasalarida talaba-yoshlar orasida axloqiy tarbiyani amalga oshirish avvalo, ularda axloqiy tushuncha va ishonch hissini yaratishdan boshlanishi maqsadga muvofiq. CHunki yoshlarda axloqiy tushuncha va e`tiqodni tarkib toptirmay turib, axloqiy odatlar, shuningdek, xatti-harakat bilan bog`liq odat va malakalarni hosil qilib bo`lmaydi. Bunda asosan talaba-yoshlarga axloq-odob me`yor va qoidalari mazmuniga oid bilim berishga katta ahamiyat berish lozim. Bunda asosan yaxshi bilan yomon o`rtasidagi farq tushuntiriladi. So`ngra yaxshi xulqlarni hosil qilishga qaratilgan faoliyat uyushtiriladi. Ana shu yo`sinda yoshlarda axloqiy tushunchalar vujudga keladi va xulqiy odatlar hosil qilinadi.

**12.7. Kasb ta'limi muassasalarida axloqiy tarbiyani tashkil etish muammosi.** Kasb ta'limi muassasalarida axloqiy tarbiya muammosini amalga oshirish uchun qator muammolarni hal etishga e'tiborni qaratmog'i lozim. Ular:

- o'qitish jarayonini ilg'or pedagogik texnologiya va axborot texnologiyasi asosida uyushtirish;
- talaba va ustoz o'rtasidagi axloqiy hamda aqliy munosabatni qaror toptirishga erishish;
- ta'lim -tarbiya ishlarining qat'iy reja asosida olib borilishi;
- o'quv muassasasida ijobiy emotsional muhitni yaratish;
- ta'lim oluvchilarning o'quv muassasasi hayoti ichki tartibi qoidalariga rioya qilishlariga erishishni ta'minlash.

YAgona ta'lim -tarbiya jarayonida axloqiy tarbiyani tashkil etishda suhbat, munozara, ma'ruza kabi metodlardan foydalanish, turli mashqlar faoliya orqali ijobiy sifatlarni hosil qilish mumkin.

## **13.MA`RUZA: BILIMLARNING KO`NIKMA VA MALAKAGA AYLANISH JARAYONI**

**Reja:**

**13.1. Ko`nikm va malaka tushunchalari**

**13.2. Talabalar umummehnat ko`nikma va malakalarining tarkibiy qismlari va ularni rivojlantirish jarayoni**

**13.3. Malakalarning ko`chishi va moslashuvchanligi xususiyatlari**

**13.4. Talabalarda umummehnat va kasbiy ko`nikma hamda malakalarni rivojlantirish jarayonida ta'lim vositalaridan foydalanish texnologiyasi**

**13.1. Ko`nikm va malaka tushunchalari.** Ko`nikma deganda odamning bilim olishi, elementar tajriba va malakaga tayanib biron ishni muvaffaqiyatli bajarish imkoniyati tushuniladi. Orttilgan bilimlar odam xatti-harakatining nazariy asosi hisoblanadi. Bilimlarga asoslanib xatti-harakatlarning ketma-ketligi, alohida bosqichlari fikran hayoldan o'tkaziladi. elementar tajriba talablarida aynan biror faoliyat haqida aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Biron kasb yoki faoliyat haqida tasavvurga ega bo'lishda elementar tajriba bilan birga boshqalarning tajribasini tasavvur qilish ahamiyat kasb etadi. Bu erda pedagogning shaxsiy namunasi, novator ishchi, xizmatchilarning ilg'or tajribasi, etuk olim ijodkorlarning ish jarayoni misol bo'la oladi.

Boshqalarning tajribasini o'zida singdirishning asosiy sharti odamning o'zida elementar tajribaning bo'lishidir. Bunday tajriba o'quv mehnati, akliy mehnat, ijodkorlik, ratsionalizatorlik yoki oddiy mehnat operatsiyalarini bajarish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday elementar tajriba bo'lmasa xech qanday ta'lim natija bermaydi. Uzatilayotgan ta'limni kabul qilish uchun talaba boshqalar tajribasini o'zining shaxsiy tajribasi bilan ko'shishi kerak.

Mehnat ko`nikmalarini shakllanish jarayonida talabalar ko`rish yoki eshitish orkali faqat harakatlarning qanday bajarilishi xaqida tasavvurga ega bo'ladilar. Bu faqat namuna, bajarilishi kerak bo'lgan ish xaqidagi kirish instruktati xisoblanadi. Ko`nikmaning shakllanishi uchun talaba bu xarakatlarni o'zi bajarib ko`rishi shart. Talaba yoki o'quvchi bu harakatlarni «totib» ko`rishi jarayonida boshqalarning tajribasi o'zining shaxsiy tajribasiga aylana boradi. harakatlar tartibga tusha boshlaydi. Talaba harakat strukturasi haqida amaliy tasavvurni egallandi. Oldiniga harakatlar ayrim, har bir keyingi xarakat oldidan o'ylash, chamalash, solishtirish orkali sokin yuz beradi. Ta'limning turli boskichlarida talabalar mehnat ko`nikmalarining darajasi xar xil bo'ladi. elementar ko`nikmalar asta-sekin murakkab ko`nikmalarga aylanadi, murakkab ko`nikmalar ko'p marta kaytarilishi yoki mashq qilishi natijasida malakalar paydo bo'ladi.

Malaka- bilimlarga asoslanib mashk yordamida aylangan faoliyatning avtomatlashgan komponenti hisoblanadi. Malaka tez va aniq bajarish bilan bog'liq bo'lgan ko`nikmalarning avtomatlashgan elementlari sanaladi.

Albatta, talabalarni mutaxassislikka tayyorlashda kuzda tutilgan va o'quv rejasida mo'ljallangan hamma ko`nikma va malakalarni etarli darajada shakllantirishning ba'zi ob'ektiv sabablarga ko'ra (o'quv jihozlarning etarli emasligi, talabalarning tabiiy uziga xosligi va hokazolar) iloji bo'lmas.

SHuning uchun ham talabalarda umumlashgan politexnik ko`nikma va malakalarning shakllangan bo`lishiga erishish lozim.

**13.2. Talabalar umummehnat ko`nikma va malakalarining tarkibiy qismlari va ularni rivojlantirish jarayoni.** Inson o`z hayotining ma`lum davrida boshqariladigan va aniq maqsadga yo`naltirilgan ta`lim va tarbiya jarayonida ishtirok etadi. SHu paytdan boshlab u maxsus faoliyat turi - o`qitishning sub`ektiga aylanadi, o`qitishning maqsadi esa bilim egallashdan iborat bo`ladi.

O`qitish jarayoni ikki bosqichdan iborat: 1. Har qanday foydali faoliyat uchun zarur bo`lgan, dunyo haqida qayd etilgan va ilmiy tan olingan axborotlar olish. Malakalar hosil qilish - ya`ni aniq sharoitlarda amalga oshadigan usullar va avtomatlashgan operatsiyalarni egallash.

Qo`yilgan maqsadga mos keluvchi bilim va malakalarning zarur faoliyat bilan bog`lanishi ko`nikma asoslarini tashkil etadi. O`qitish faoliyati shunday alohida xususiyatlar bilan xarakterlanadiki, bunda insonning faoliyati aqliy maqsadga bo`ysundiriladi, ya`ni ma`lum bilim, ko`nikma va malaka egallanadi.

Talabani kasbiy ko`nikmalarni tez va oson o`zlashtirishi uning nafaqat umumiy qobiliyatlari, balki shu asosda shakllangan maxsus kasbiy qobiliyatlarning ham yuqori darajada ekanligini bildiradi.

Ko`nikma va malakalarni faoliyat tavsifiga ko`ra tasniflash mumkin (4- shakl). Misol uchun, **bir guruhni intellektual ko`nikma** (eshitish qobiliyati, kitob bilan ishlash, insho yozish, reja tuzish, o`z ishini rejalashtirish, uni qulay tashkil etish) va malakalar (yozuv savodxonligi, ifodali o`qish) tashkil qiladi.

**Ikkinchi guruhga mehnat ko`nikmalari** (chizmalar bo`yicha buyum yasay olish) va alohida avtomatlashgan mehnat operatsiyalari (arralash, qirqish, randalash, kesish malakalari) kiradi. Bu guruhga harakat va konstruktiv texnik ko`nikma va malakalar kiradi, bunda ikkinchisi hamma vaqt asbob va mashinalar bilan ishlashga bog`liq bo`ladi.

**Uchinchi guruhni jismoniy tarbiya va sport** ko`nikmalari (jismoniy tarbiya mashqlarini bajara olish) va malakalari (sakrash, suzish, arqonga chiqish) tashkil qiladi. Odatda gigienik ko`nikma va malakalarni ham **alohida guruh** sifatida qaraladi. Bundan tashqari malakalar murakkablik va avtomatlashganlik darajalariga ko`ra ham farqlanadi.

Operatsiya (malaka) larning harakatga bog`liqligidan tashqari, A.N.Leont`ev harakatlar shakllanishining operatsiya(malaka)lar shakllanishidan teskari aloqasini uqtirib: "operatsiyalar rivojlanishining etarlicha yuqori darajasi nisbatan murakkabroq operatsiyalarni bajarish imkoniyatini beradi, bu murakkab harakatlar o`z navbatida yanada yangi harakatlarni keltirib chiqaruvchi yangi operatsiyalarga zamin tayyorlashi mumkin va h.k." degan fikrni bildiradi. CHamasi bu bog`liqlikni inobatga olish pedagogik faoliyat sohasida ko`nikma va malakalar shakllanishini bajarishda muhim ahamiyatga ega bo`ladi.

## Kunikma va malakalar tasnifi

### Kunikma va malakalar turlari:

**-Amaliy, -Kasbiy, -Umumfaolayot, -Umummehnat, -Politehxnik**

### Kunikma va malakalarning qisqacha tavsifi:

- Faoliyatni bevosita materiallarni o`zgartirish asosida tashkil qilish (Aqliy, sensor, harakat)
- Mehnat harakatlarini bafarish sifatini ifodalaydi (Maxsus, ishlab chiqarish, kasbiy)
- Ishni rajalash tirish va tashkil etish, o`z-o`zini nazorat qilish (Konstruktorlik, texnik, tashkiliy, nazorat)
- texnologik qurukmakarni o`qish, chizish, sozlash
- Bilimlarni amaliv ao`llash

#### 4-shakl

Malakaning xarakterli jihati shundaki, mashqlar yordamida o`zlashtirilgan va avtomatlashgan harakat uslublari nisbatan ancha mustahkamligi bilan farqlanadi. Bu jihat insonlarning ko`plab malakalariga tegishlidir (yurishi, salomlashishi uchun qo`l uzatish), bunda bir operatsiyaning o`zi turli operatsiyalarga javoban amalga oshiriladi.

**Turg`unlik** bilan bir qatorda malakalar **moslashuvchanlik** bilan ham xarakterlanadi, ya`ni harakat usulining sharoit o`zgarishiga mos ravishda o`zgarib borishdir (albatta ma`lum chegarada). SHu sababli malakani qo`llashda bu sharoitlar qanchalik turli-tuman bo`lsa u shunchalik moslashuvchan bo`lib boradi, yoki aksincha bir xillik malakalar bir xilligiga olib keladi.

Malakalar (avtomatlashgan operatsiyalar) inson faoliyatining barcha turlarida zarur bo`ladi. Malakalarni egallamasdan turib: mehnat qurollaridan muvaffaqiyatli foydalanish mumkin emas, hisoblashlarni amalga oshirib bo`lmaydi, ilmiy-badiiy adabiyotlarni o`qib bo`lmaydi, san`at, sport, ilmiy yoki har qanday boshqa kasbiy faoliyat bilan shug`ullanib bo`lmaydi. Anglangan operatsiyalar (malakalar) ayniqsa harakat to`xtovsiz o`zgarib turuvchi sharoitda amalga oshganda, harakat usulini shoshmasdan o`ylab olish mumkin bo`lmaganda, o`zgaruvchan sharoitda tezkor va aniq harakat qilish talab etilganda muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun bunday holat pedagoglarda doimiy hisoblanadi. Demak, xuddi mana shu o`rinda moslashuvchan va boshqaruvchan anglangan operatsiyalar talab etiladi.

**Umummehnat ko`nikmalari** tabiati to`g`risida muammoni hal qilishda biz ko`nikmalar deganda operatsiya va harakatlarning nisbatan murakkab tizimini egallash, inson uchun yangi bo`lgan sharoitlarda qo`llash, faoliyati o`zlashtirilgan bilim va malakalar asosida maqsadga muvofiq rostlashni qabul qiluvchi psixologlar fikrlaridan kelib chiqib ish ko`rdik.

Bu fikrlarga E.A.Mileryan tomonidan bildirilgan: "umummehnat ko`nikmalari politexnik bilim va malakalarga asoslangan ishchining o`zgaruvchan sharoitlarda o`zi uchun yangi bo`lgan mehnat faoliyatida umumlashgan, turli mehnat sharoitlari uchun xos bo`lgan ishni bajarishga turli usul va uslublar yordamida erishish qobiliyatiga aytiladi" - degan so`zlari juda yaqin keladi.

Umummehnat va kasbiy malakalarni shakllantirish quyidagi asosiy bosqichlarda amalga oshiriladi (5-shakl):

*- dastlabki bosqichda malakaning shakllanishi talabalarga o`zlashtirishlari lozim bo`lgan harakatni bajarish tartibi tushuntiriladi. Harakatni bajarish usulini bilish uni to`laqonli bajarishni ta`minlay olmasa-da, u malaka shakllanishi uchun zarur bo`ladi. Odatda, harakatlar bilan tanishish uni o`rganishga qadar, ya`ni, malaka shakllangunga qadar amalga oshadi. Lekin, harakat vazifasi bilan yuzaki tanishish va uni tavsiflash malaka shakllanishi uchun etarli emas. Harakatlarning bajarilishini o`qituvchi rahbarligida chuqur va mustahkam o`zlashtirish lozim.*

*Harakatlarga o`rgatishning dastlabki bosqichlarida pedagogning vazifasi harakat tartibini tushuntirish, ularning amaliy ahamiyatini ko`rsatish, talabalar bilimlarini to`ldirish, chuqurlashtirish va tizimlashtirish bilan, boshqacha qilib aytganda, unga mashqlar tavsifi va maqsadi, qanday o`zlashtirish kerakligi to`g`risida aniq bilimlar berish bilan belgilanadi;*


- ikkinchi bosqich - malakaning shakllanishi asosini tashkil etuvchi qoidalarni shakllantirish va bilimlarni o`zlashtirish, qayta tiklash bosqichi hisoblanadi;

- uchinchi bosqich - navbatdagi mashqlarni bajarish jarayonida turg`unlashib qolishi mumkin bo`lgan harakatlar, boshlang`ich xatolarni bartaraf qiluvchi namunalarni namoyish qilishdir. O`qituvchi u yoki bu harakatlarni qanday amalga oshirish lozimligi, ish jarayonida talaba uchraydigan qiyinchiliklarni ko`rsatib beradi;

- to`rtinchi bosqich - harakatni amaliy o`zlashtirish, malakani shakllantirish bilan bog`liq. Malaka shakllanishi harakatni bajarish usulini takomillashtirishga qaratilgan mashqlar jarayonida amalga oshadi. Bunda talaba ongli holda qoidalardan foydalana boshlaydi. Bu o`rinda ayniqsa harakatlarni tahlil qilish, xatolarni o`rganish va ularning oldini olish muhim ahamiyatga ega bo`ladi;

- beshinchi bosqich - mustaqil va tizimli bajariladigan mashqlardan iborat bo`ladi. Bu mashqlarda murakkablikni oshirib borish bilan birgalikda ularning xilma-xilligiga e`tibor beriladi, shunga muvofiq faoliyat qiziqarli va ko`p hollarda ijodiy tavsifga ega bo`ladi.

Malakalar shakllanishida mashqlarni vaqt bo`yicha taqsimlash muhim ahamiyatga ega. Uzoq vaqt davomida uzluksiz bajariladigan mashqlar natijasi toliqish tufayli kutilmagan samarani bera olmasligi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, mashqlarni boshqa turdagi ishlar va dam olish bilan almashtirib olib borish maqsadga muvofiq.



5- shakl

Mashqlar samaradorligiga ular orasidagi tanaffuslar ham se-zilarli ta`sir qiladi. Juda cho`zilib ketadigan tanaffuslar mashqlar natijasini yomonlashtiradi va ularga sarflanadigan vaqtni ko`paytiradi. Psixologik tadqiqotlarning ko`rsatishicha mashqlarni quyidagicha taqsimlash eng qulay hisoblanadi: ta`lim boshida tez-tez takrorlash va asta-sekin ular oralig`ini oshirib borish.

Malakalarning shakllanib borish darajasini harakatlarni bajarish tezligi va aniqligiga ko`ra bilish mumkin. Bundan tashqari harakat natijalari turg`unligi ham muhim omil hisoblanadi. Yuqori darajada shakllangan malakalar harakatlarni bajarishdagi alohida muvaffaqiyatlar bilan emas, balki davomli ravishda yuqori natijalarga erishib borishi bilan belgilanadi. Agar harakatlarni bajarishning yaxshi natijalari uni yangi, yanada murakkabroq harakatlar tizimiga kiritilganida ham saqlansa, bu to`laqonli shakllangan malakadan dalolat beradi va uning shakllanganligining yana bir muhim bosqichi hisoblanadi.

**13.3. Malakalarning ko`chishi va moslashuvchanligi xususiyatlari.** Mehnat ta`limi va tarbiyasi muammosi bilan keng jamoatchilik, jumladan, oilalar, maktabgacha tarbiya muassasalari, umumta`lim maktablari, o`rta maxsus va oliy o`quv yurtlari jamoasi shug`ullanib kelmoqda. Bugungi kunda o`qituvchilarning pedagogik va psixologik mahoratini oshirishga alohida e`tibor berib kelinmoqda. Bunda nafaqat o`qituvchilarni, balki shu bilan birga oliy ma`lumotli ishlab chiqarish ta`limi ustalarini, mehnat va kasb ta`limi o`qituvchilarini tayyorlashda ma`lum muvaffaqiyatlarga erishilmoqda.

Umummehnat ko`nikma va malakalarning shakllanishi ma`lum mehnat faoliyati tarkibiga kiruvchi harakatlarni egallashning murakkab majmuiy jarayoni hisoblanadi. Ularning shakllanishi jarayonida shaxsning har tomonlama rivojlanishi, umumiy va kasbiy qobiliyatlari, mehnat faoliyatida

talab etiladigan iroda xislatlari, ma`naviy va jismoniy sifatlari kamol topadi. Mehnat ko`nikma va malakalarining egallanishi o`z-o`zini nazorat qilish va boshqarishga asoslangan hamda intellektual, sezgi harakat va iroda xislatlarini o`z tarkibiga oluvchi faol idrok etadigan jarayon hisoblanadi. Ko`nikma va malakalarni intellektual va ijodiy jarayonlarga qarama-qarshi qo`yib bo`lmaydi, ularni o`zaro bog`liqlikda qarash lozim.

Mashg`ulotlarni talaba tashabbuskorligi va fikrlash faolligini rivojlantiruvchi qilib tayyorlash qiyinroq, biroq bunda unga sharoitlarni mustaqil fikrlash asosida echimini topishni talab qiluvchi masalalar taklif etiladi. Murakkabroq masalalarni echishga bosqichma-bosqich o`tiladi, biroq talabalar mustaqilligini dastlabki mashg`ulotlardan oq faollashtirib borishi lozim. Mehnat ta`limi amaliyotiga muammoli uslublarni tadbii qilish ham yuqori samara beradi.

Umummehnat ko`nikma va malakalarning muvaffaqiyatli shakllanishi sharoitlarini qarab chiqishda nafaqat ularning mustahkam egallanishi zaruriyatini balki malakalar moslashuvchanligi, ya`ni yangi sharoitlarga malakani ko`chira olishi va o`zgaruvchan sharoitlarga moslashishini ta`minlashni ham hisobga olish zarur bo`ladi. Ma`lumki, yangi malakalarning shakllanishiga talaba to`plagan tajribasi katta ta`sir ko`rsatadi. Tajriba qanchalik katta bo`lsa yangi ko`nikma va malakalarni egallash osonlashadi, yangi ish sharoitlariga moslashishi tezlashadi. To`plangan tajribaning amalda qo`llanilish holatlaridan biri - malakalarning ko`chishi, ya`ni ilgari hosil qilingan malakalarning keyingilarini o`zlashtirishiga ijobiy ta`sir ko`rsatishidir. Malakalarning ko`chishi avvalo ish usullarining umumiyiligiga ko`ra, ilgari hosil qilingan malakalarning yangi sharoitga ko`chishida amalga oshadi. Misol uchun, tokarlik stanogida hosil qilingan malakalar boshqa metallga ishlov beruvchi stanoklarda ishlashga o`rganishni osonlashtiradi.

Zamonaviy taraqqiy etayotgan ishlab chiqarishning ilmiy-texnik asosi ishchilarning turli sohalardagi mehnatini yanada yaqinlashtirib boradi. SHunga muvofiq talabalarning o`quv yurtidagi politexnik ta`limi asosida o`zlashtirgan ko`nikma va malakalarini turli aniq kasblarga ko`chirishga qulay imkoniyat yaratadi.

Malakalarning ko`chishida ularni o`zlashtirishning anglanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ma`lum bir malakani o`zlashtirishda talaba nafaqat mos ravishdagi xarakatlarni, balki uni muvaffaqiyatga olib keluvchi usul va yo`llarni ham o`zlashtiradi. Keyingi faoliyatida u ilgari tajribadan foydalanishga, yo`l qo`yilgan xatolarni takrorlamaslikka intiladi va buning natijasida yangi malakalarni o`zlashtirishni osonlashtiradi.

Malakalar o`zgarib borish xususiyatiga ega: mashqlar takrorlab borilganda ular takomillashib boradi, avtomatizmga erishiladi. Mashq uzoq vaqt bajarilmaganida - uning noavtomatlashuvi yuz beradi.

Malakalar moslashuvchanligini ta`minlovchi ikkinchi muhim shart - bu malakaning o`zini turli sharoitlarda o`zlashtirish, turli masalalarni hal qilish uchun qo`llaniladigan mashqlarni bajarishdan iborat bo`ladi. Bu mashqlar stereotip mashqlar ta`sirini kamaytirish uchun bajariladi. Harakatlarni ongli faol boshqarish, malakalarning umumiy nazorati ostida o`zgarishi malakaning shakllanishidagi dastlabki bosqichlarga qaytishiga olib keladi.

#### **13.4. Talabalarda umummehnat va kasbiy ko`nikma hamda malakalarni rivojlantirish jarayonida ta`lim vositalaridan foydalanish texnologiyasi**

Ta`lim-tarbiya jarayonining yangilanishi va mazmunan isloh qilinishi, faqat tizimni yangilashnigina emas, uni amalga oshirishda etakchilik vazifasini, o`qituvchining ham yangicha tayyorlanishi va shakllantirilishini talab etadi, o`quv-me`yoriy hujjatlar (kontseptsiya, nizomlar, ta`lim standartlari hamda taraqqiyot dasturlari va boshqalar), o`quv-uslubiy majmua (o`quv dasturlari, darsliklar, o`quv qo`llanmalari va didaktik materiallar to`plami va boshqalar) yangi avlodini yaratish va amaliyotga joriy etish anchagina murakkab, mashaqqatli jarayon hisoblanadi. Bu holning ahamiyati, mohiyatini chuqur tahlil etar ekan, Prezidentimiz I.A.Karimov Vazirlar Mahkamasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalga oshirish komissiyasi a`zolari bilan bo`lgan yig`ilishda (1998 yil yanvar) «Biz uchun eng muhim, og`ir masala bu ta`lim muassasalarining moddiy texnik, ta`minotidir», - deb ta`kidlaydi.

Biz quyida umummehnat va kasbiy ko`nikma hamda malakalarni rivojlantirish jarayonida maqbul bo`lgan ta`lim vositalariga to`xtalamiz:

**I. Bosma ta'lim vositalari.** Bosma ta'lim vositalari tipografiya usulida yoki o'qituvchi, usta va talabalar kuchi bilan tayyorlanadi. Ikkinchi holda ko'paytirish qo'lda yoki «Era», «Vega», «Canon» va boshqa tipdagi ko'paytirish qurilmalarida bajariladi.

Ta'limning bosma vositalarini ishlab chiqish boshqa ta'lim vositalarini hisobga olgan holda, strukturasi va uning qisqacha mazmunini yoritilgan reja-konspekt yozish asosida amalga oshirilishi lozim.

Har qanday vositani qo'llashda matn va grafik ma'lumotlarning qulay nisbatini saqlash lozim. Matnni tasvir bilan almashtirish imkoniyati bo'lgan hollarda, ikkinchisidan ko'proq foydalaniladi.

Grafiklar va matn o'z vazifalari doirasida qo'llanishi, ortiqcha g'alizlikka ega bo'lmasligi, shuningdek mavjud standartlarga mos kelishi lozim.

CHizma, tasvirlash asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladigan hollarda uni sxemalashtirish, fragmentlarga ajratish, ikkinchi rangni qo'llash yoki alohida qisqacha tushuntirish yozuvlari berib boriladi.

**Ishchi daftarlar** yoki bosma asosli daftarlar bir tarafdin mazmunan javoblari erkin belgilanadigan testlarga, ikkinchi tarafdin vazifasiga ko'ra chiziqli ta'lim dasturiga yaqinroq. Misol tariqasida o'quv kartasi lavhasini keltiramiz.

O'quv kartasi N\_\_

Mavzu: Tashqi tsilindrik yuzalarni egovlash.

Topshiriq. TSilindrik patronda, qo'lda uzatish vositasida egovlash.

1-topshiriq tahlili.

Maqsad: Buyum tayyorlash - TSilindr:

- tashqi diametri.....

- uzunligi.....

- aniqlik klassi.....

- ishlov berish tozaligi.....

- material.....

Buyum: Zagotovka – tavsifnomasining tahlili:

Faoliyat 1. Zagotovka va buyum o'lchamlarini taqqoslash va olinadigan qatlam kattaligini aniqlash:

- diametrdan olinadigan kattalik.....

- uzunlikdan olinadigan kattalik.....

2 . Zagotovkada brak yo'qligini tekshirish:

yoriqlar, o'yiqlar, chuqurlar.....

shakl deformatsiyasi.....

Faoliyat vositalari.

A - 281 tokarlik stanogi. Kesish rejimi va o'tishlar sonini (formula bo'yicha) aniqlash:

kesish tezligi.....

shpindel aylanish tezligi.....

limb bo'linishlarida kesish chuqurligi (mm)

o'tishlar soni.....

Kesuvchi asbob. Uning xarakteristikasi turi...

geometriyasi.....

materiali.....

O'lchov asbobi. Uning xarakteristikasi nomi...

Faoliyat tarkibi (rejasi)

Vazifani bajarishga tayyorgarlik: kesuvchi stanokniishga tayyorlash, zagotovkani mahkamlash.

Texnologik jarayonni bajarish:

- diametr dastlabki o'lchamini olish;

- berilgan o'lchamni olish.....

Buyum (mahsulot) sifatini tahlil qilish.



Quyida oxirgi 3 punkt mazmunini o'rganuvchilar buyumni tayyorlash davomida bajarishi lozim bo'lgan nazorat turlari ko'rsatilgan holda ochib beriladi.

**Algoritmlar** - ma'lum harakatlarni bajarishning shakllantirilgan tartibi.

Algoritm shaklidagi ma'lumot talabalarda aqliy va jismoniy mehnat malakalarining shakllanishida ularning mustaqil ishlariga rahbarlik va o'zlashtirish uchun vaqt sarfining kamayishini ta'minlaydi. Algoritmlar, umumiy sinfga oid masalalarni echishga mo'ljallangan hamda ma'lum vazifani echishda aniq natija beruvchi xususiy bo'lishi mumkin.

SHunday qilib algoritmning xarakterli jihati uning pedagogik yo'naltirilganligidadir.

Algoritmlarda:

- talabalar konstruktiv - ijodiy faoliyati asosiy bosqichlari aks ettiriladi;
- har bir ko'rsatma imkon darajasida sodda bo'lishi lozim;
- masalaning xarakteri va murakkablik darajasiga bog'liq holda ko'rsatmalar miqdori turlicha bo'lishi mumkin.

Algoritmlar chiziqli va tarmoqlangan sxema bo'yicha tuziladi hamda bir qismdan ikkinchisiga o'tish ko'rsatilgan bloklar ko'rinishida ifodalanadi:

- **yo'riqnomalar** - ko'rsatmalar bo'lib, ularning yordamida talabalar qurilma tuzilishi yoki qandaydir ob'ekt ishini mustaqil o'rganishlari mumkin:

- **yo'riqnomalar** - laboratoriya ishlarini bajarish, ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlari, trenajyorlarda mashq bajarish va sanoat jihozlari bilan ish bajarishda qo'llaniladi.

Har bir yo'riqnomada quyidagilar yoritilishi lozim:

- amaliy ish raqami va nomi;
- uning maqsadi;
- jihozlar va materiallar;
- ushbu mavzu bo'yicha asosiy nazariy ma'lumotlar;
- bajarish tartibi (algoritmi);
- hisobot shakli;
- nazorat savollari;
- matn rasmlar, sxemalar, grafiklar va hokazolar bilan to'ldirilishi mumkin, hisobotni rasmiylashtirishda turli jadvallardan foydalaniladi. Nazorat savollari bilan birga ochiq va yopiq testlarni ham qo'llash mumkin. Ularni har bir yo'riqnomaning boshlanishida joylashtirish mumkin. Bu o'qituvchi(usta)ga har bir talaba bilimini uni ishga tushirishdan ilgari tezkor aniqlash imkoniyatini beradi.

**Testlar.** Nazorat dasturlari (testlar) topshiriqlarning alohida turi bo'lib, unda nazariy va amaliy ta'lim jarayonida bilimlarning o'zlashtirilishini, malaka va ko'nikmalarni shakllantirilishini guruhlar bo'yicha tezkor nazorat qilish, ichki va tashqi qaytar aloqani o'rnatish imkoniyati tug'iladi, shu asosda o'qituvchi (usta) va talabalar ta'lim jarayonini boshqarish funksiyasini amalga oshiradilar. V.P.Bespal'ko o'zining oxirgi ishlaridan birida u yoki bu materialni o'zlashtirishda bilim, malaka va ko'nikmalarga muvofiq testlar klassifikatsiyasini taklif qilgan. O'zlashtiriladigan material tahlili asosida u to'rtta darajani ajratish imkonini bergan.

**Birinchi darajali testlar** - talabalar ko'nikmalarini tekshirib, ularning faqatgina berilgan ma'lumotlarni qayta namoyish etishida tayyor savol va javoblardan to'g'ri foydalanilganligi aniqlanadi. Birinchi darajali testlarga V.P.Bespal'ko tanib olish («to'g'ri-noto'g'ri» turidagi javobni talab qiluvchi mashqlar), farqlash (taklif etilayotgan javoblar qatoridan to'g'risini tanlash) va klassifikatsiya testlarini kiritadi.

Testdagi javoblar sonining ortib borishi to'g'ri javobni tasodifan topish imkoniyatini kamaytirib boradi. Bundan tashqari tasvirlangan ob'ekt alohida qismlari /tashkil etuvchilari/ pozitsiyasini topish kerak bo'ladigan mashqlar ham yuqorida ko'rsatilgan tipdagi testlarga kiradi. Bunday mashqlarni tuzish va tekshirish nisbatan oson.

Ikkinchi darajali testlar - talabalarda ma'lumotlarni ko'rsatmalarsiz aniqlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun mo'ljallangan. SHunga muvofiq V.P.Bespal'ko quyidagi tipdagi ikkinchi darajali testlarni ko'rsatadi: almashtirish; konstruktiv; tipovoy.

To'rtinchi darajali testlar talabaning ijodiy ko'nikmalarini, uning berilgani fan tarmog'i uchun yangi bo'lgan ma'lumotni topa bilishdagi tadqiqotchilik imkoniyatlarini aniqlaydi. Bunday testlar

sifatida echish algoritmi noma'lum bo'lgan muammo - topshiriqlardan foydalaniladi. Bu turdagi testlar uchun tayyor etalon mavjud bo'lmaydi, talabalarning topgan echimi sifatini faqatgina tegishli ekspertlar guruhigina baholashi mumkin.

**Ekranli ta'lim vositalari.** ekranli ta'lim vositalari talabalarda sistemali, mustahkam bilim, malaka va ko'nikmalarni nazariy va amaliy mashg'ulotlarda shakllantirishiga xizmat qiladi.

Ekran vositasida beriladigan ma'lumotlar ilmiy asoslangan fan yangiliklariga, ishlab chiqarish texnika texnologiyasiga mos bo'lishi, o'z asosida istiqbolli texnologiya va mehnatni tashkil qilish elementlariga ega bo'lmog'i lozim.

Namoyish qilish uchun materiallarni tanlashda e'tiborni ko'proq yirik va o'rta planli tasvirlarga qaratish muhim. Proektsiya ekranida bir vaqtda namoyish etiluvchi ob'ektlar 5-7 tadan, bir vaqtda transformatsiyalanuvchi va ekranda harakatlanuvchi ob'ektlar soni 5 tadan oshmasligi talab etiladi.

Matndagi alohida so'zlar va so'zlar birikmalarini ajratib ko'rsatish maqsadida kursiv, qator tashlab yozish, yo'g'on harflar, yozma harflardan foydalanish tavsiya etiladi.

**Diapozitivlar.** Diapozitivlarda o'quv ma'lumotlari alohida kadrlarga fotoslub yordamida chiqariladi. Diapozitivlarni mustaqil tayyorlashda qayta tiklanadigan kinofotoplyonkalardan foydalanish mumkin. Agar diapozitiv mazmuni faqatgina chizmalardan iborat bo'ladigan bo'lsa, uni negativ plyonkalarda tayyorlash mumkin. Bitta mavzu ostida biriktirilgan diapozitivlar yig'masi seriyani tashkil etadi. Diapozitiv kadri asosiy format o'lchamlari 24 \* 36 mm, qo'shimchasi (zarur ramkalar mavjud bo'lganda) - 18-24 mm kattalikda qabul qilinadi. Diapozitivlar asosan illyustratsiya vazifasini bajaradi, shu sababli tushuntiruv yozuvining kadrdagi soni minimal bo'lishi yoki tushuntiruv yozuvlarisiz diapozitivlar tanlangani ma'qul. Ba'zi hollardagina topshiriqlar, testlar, izohi ma'lumotlarga ega diapozitivlardan foydalanish mumkin. YOzuvlardagi harf va raqamlar balandligi 0,8 - 2,0 va 0,5 - 1,2 oraliqda bo'lishi tavsiya etiladi.

**Kinofil'm.** O'quv kinofil'mi o'zlashtirish uchun murakkab va qiyin materialni uzatish lozim bo'lgan printsiplial ahamiyatga ega hollarda qo'llaniladi. Bunda ekrandagi ob'ektlar va hodisalar dinamikasi (harakat, transformatsiya) o'rganilayotgan jarayon va mashqlarning ochib berilishi va o'zlashtirilishiga jiddiy ta'sir ko'rsatib, ish mazmunini ko'rgazmali, faktlarni tartibliroq qiladi hamda asosiy jihatlarni ajratib ko'rsatadi. Kinofil'mlar bevosita kuzatib bo'lmaydigan hollarda, shuningdek bir qancha kasbiy malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun zarur vosita hisoblanadi. Ishlab chiqarishdagi yoki tabiiy shovqinni qo'llash faqatgina ekranlashtirilgan materialni to'laroq ochib berganda va uni o'zlashtirish uchun xizmat qilgandagina o'zini oqlaydi. Musiqali fil'mlardan esa materialni o'zlashtirishni yaxshilash va tushunish uchun hamda talabalarni estetik tarbiyalashga xizmat qilgan holda foydalaniladi.

**Ta'limning tovushli vositalari.** Ta'limning tovushli vositalari mazmunini so'zlar, musiqa yoki boshqa signallar vositasida uzatilishi mumkin bo'lgan o'quv ma'lumotlari tashkil qiladi.

Ta'limning tovush vositalaridagi ma'lumotlar hajmi va chuqurligi o'quv dasturlari mazmuniga mos bo'lishi lozim.

**Magnit yozuvlari.** Magnit yozuvlari plyonkada yozilgan ma'lum ketma-ketlikdagi fonogrammalar yoki mashg'ulot maqsadiga bog'liq holda maxsus tayyorlangan bir yoki bir nechta radioeshittirishlardan iborat bo'lishi mumkin.

Magnit yozuvlari yangi atamalarni o'rganish va kasbiy eshitish qobiliyatini shakllantirishda qo'llanilishi mumkin.

**Trenajyorlar.** Ishchilar mehnat faoliyati va trenajyorlarning didaktik imkoniyatlarining tahlili ularga nisbatan quyidagi talablarni shakllantirish imkoniyatini beradi:

- trenajyorlarda predmetning, mehnat vositalari va ularning modeli, taqqoslash sxemasi va ma'lumot qurilmalari bloklari bo'lishi;

- ularni ishlab chiqish o'rganuvchida standart holatlarning cheklangan qatori uchun kasbiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish lozim bo'lganda yoki o'quv jarayonlarini bajarish hayot uchun xavfli bo'lgan hollarda, o'rganuvchini qimmatbaho jihozlar bilan ta'minlash imkoniyati bo'lmaganida, ishlab chiqarish sharoitida kam uchraydigan mehnat operatsiyalari(avariya holatlari)ni o'zlashtirish lozim bo'lgan hollarda maqsadga muvofiq;

- ular oddiy mashqlardan murakkablariga bosqichma-bosqich o'tishni ta'minlashi;

- mahoratni takomillashtirish va malakani oshirishda qo'llaniladigan trenajyorlar turli murakkablik darajasidagi ko'nikmalarni shakllantirishni ta'minlashi;
- ularda mehnat jarayonlarining muhim jihatlariga e'tiborni kuchaytiruvchi soddalashtirishlar qo'llanilishi;
- ularda mehnat vosita va buyumlarini modellashtirish fizik, shuningdek matematik yo'llar bilan amalga oshirilishi;
- trenajyorda shakllantiriladigan malaka va ko'nikmalar yuqori darajada ishonchli bo'lib, harakatchanlik, ushbu faoliyatni amaliy sharoitlarda bajarishga o'tkaza olish xususiyatlariga ega bo'lishi.

Barcha ta'lim vositalari quyidagi talabalarga javob berishi lozim:


- o'quv dasturining zamonaviy fan-texnika va ishlab chiqarishning rivojlanish darajasiga mos kelishi;
- mutaxassislarni tayyorlash xususiyatlarining aks ettirishi;
- tushunchalar, atamalar va shartli belgilar birligini ta'minlash;
- didaktikaning asosiy printsiplariga mos kelishi hamda nazariy va amaliy ta'lim xususiyatlarini hisobga olishi;
- zamonaviy uslublar va ta'limning zamonaviy shakllarini qo'llashni rag'batlantirishi, talabalar faolligini ta'minlashi va bilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi;
- aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish va talabalar faoliyatida yo'naltiruvchi asoslarni ishlab chiqarishda asos qilib olinishi;
- ularning minimal miqdori eng kam sarf-xarajatlar bilan maksimal pedagogik samarani ta'minlashi.

Umummehnat ko'nikma va malakalarining muvaffaqiyatli shakllanishi sharoitlarini qarab chiqishda nafaqat ularning mustahkam egallanishi zaruriyatini, balki malakalar moslashuvchanligi, ya'ni yangi sharoitlarga malakani ko'chira olishi va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishini ta'minlash ham muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatib berildi. SHu bilan birgalikda umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirish jarayonida ta'lim vositalaridan foydalanish texnologiyasi, ularga qo'yiladigan talablar ham ishlab chiqilgan.

Psixologiya, pedagogika, didaktika, sotsiologiya va ishlab chiqarish pedagogikasi sohalarida olib borilgan ilmiy-amaliy izlanishlarga tayanib, malakalarning shakllanish jarayoni 1-shaklda keltirilgan bosqichlardan iborat degan to'xtamga keldik.

Demak, «Ko'nikma - harakatlarni samarali bajarish imkoniyatidir; ko'nikma ma'lum darajada fikrlab bajariladigan harakatlar; ko'nikmalar - qandaydir harakatni yangi sharoitlarda bajarish usulidir; ko'nikma - murakkab tizimli psixik va amaliy harakatlarni egallashdir».

Malakalar quyidagicha ta'riflanadi: «Malaka - yuqori o'zlashtirilganlik darajasiga ega bo'lgan harakatlar majmuasidir; malaka - mashqlar natijasida mustahkamlangan harakat usulidir».



1 – shakl. Bilimlarning ko'nikma va malakalarga aylanish texnologiyasi

## 14. MA`RUZA

### KASBIY TA`LIM O`QITUVCHILARINI TAYYORLASHNING YANGI PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARINI ISHLAB CHIQUISH VA ULARNI O`QUV-TARBIYAVIY JARAYONGA TADBIQ ETISH MUAMMOLARI

**Reja:**

**14.1. Pedagogik texnologiyalar mohiyati**

**14.2. Pedagogik texnologiyaning maqsadi**

**14.3. Pedagogik texnologiyaning bosqichlari**

**14.1. Pedagogik texnologiyalar mohiyati**

Pedagogik texnologiyalarni ta`lim jarayoniga tadbiiq etish mohiyati xususida so`z yuritish uchun «ta`lim texnologiyasi» tushunchasining tub ma`nosini anglash talab etiladi.

«Texnologiya» yunoncha so`z bo`lib, «techne»-mahorat, san`at hamda «logos»-tushuncha, ta`limot so`zlarining birikmasidan iborat. «Ta`lim texnologiyasi» tushunchasi esa lug`aviy jihatdan (inglizcha «an educational technology») ta`lim (o`qitish) jarayonini yuksak mahorat, san`at darajasida tashkil etish borasida ma`lumotlar beruvchi fan (yoki ta`limot) ma`nosini anglatadi.

Qayd etib o`tish joizki, pedagogik texnologiya nazariyasi o`tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab asoslanib kelinayotgan bo`lsada, aynan «pedagogik texnologiya» tushunchasiga nisbatan turlicha yondoshuvlar mavjud. Xususan, pedagog olim V.P.Bespal`ko pedagogik texnologiyani «amaliyotga tadbiiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi» deya ta`riflaydi hamda asosiy diqqatni o`quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratadi. N.F.Talizina esa pedagogik texnologiyani «fan va amaliyot oraliq`ida muayyan tamoyillarni olg`a suruvchi metodlar ishlab chiqaruvchi, ularni izchil qo`llash kabi masalalarni hal etishga yo`naltirilgan mustaqil fan» bo`lishi lozimligini qayd etadi.

«Ta`lim texnologiyasi» xususida yaratilgan adabiyotlarda mazkur tushunchaga berilgan ta`riflarga asoslangan holda biz ushbu tushunchani quyidagicha sharhlashga jur`at etdik: pedagogik texnologiya - bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo`naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir.

Ta`lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasi dastlab /arbiy Evropa hamda AQSHda yuzaga kelgan edi. Bizga ma`lumki, /arbiy Evropa mamlakatlari va AQSHda «Pedagogika» fani mavjud emas, shu bois «pedagogik faoliyat», «pedagogik tizim», shuningdek, ularga bog`liq ravishda yuzaga keluvchi «pedagogik texnologiya» tushunchasi ham iste`molda yo`q. Ushbu mamlakatlarda shaxsga ta`lim berish jarayoni «ta`lim jarayoni» sifatida nomlanadi, shaxsga bilimlar berish, uning ma`lumotini oshirish, ta`lim samaradorligini ta`minlashga xizmat qiluvchi fanlar majmui «Metodika» deb yuritiladi. Metodika fanlarini o`qitishda asosiy e`tibor ta`lim sifatini yaxshilash, uning samaradorligini ta`minlashga qaratiladi.

O`zbekiston Respublikasi (shu jumladan, MDH mamlakatlari) ta`lim tizimi amaliyotida o`qitilib kelinayotgan «Pedagogika» fanining predmeti shaxsni shakllantirish, uning kamolotini ta`minlashga yo`naltirilgan ta`limiy hamda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish jarayonining mazmunidan iboratdir. YA`ni, shaxsning etuk kamoloti ikki muhim faoliyat-ta`limiy va tarbiyaviy faoliyat jarayonining samarasi natijasi sifatida namoyon bo`ladi.

Mustaqillik sharoitda O`zbekiston Respublikasi ta`lim muassasalari faoliyati jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni olib kirish borasidagi faoliyat bir qator etakchi tashkilotlar tomonidan olib borilmoqda. Xususan, Xalqaro SOROS fondi (Ochiq institut), AXELS, IREX, JICA kabi tashkilotlar tomonidan olib borilgan faoliyat o`zining samaradorligi bilan alohida ahamiyat kasb etmoqda. So`nggi besh yillar davomida yuqorida nomlari keltirilgan tashkilotlar ko`magi va rag`bati asosida Respublikaning bir qator etakchi oliy o`quv yurtlari qoshida innovatsion (pedagogik texnologiya) markazlar(i) tashkil etildi.

*Pedagogik texnologiya nazariyasi va uni ta`lim jarayonida qo`llash muammolariga bag`ishlangan zamonaviy tadqiqotlar mazkur nazariyaning ta`lim rivojini ta`minlashdagi*

*ahamiyatini chuqur anglab etish, uning imkoniyatlarini aniqlash va keng ko`lamli axborot maydonini egallashga yordam beradi.*

*Pedagogik texnologiya nazariyasini shakllantirish va undan foydalanish mexanizmini bilish ta`lim jarayonini rivojlantirish va boshqarishning eng samarali shakl va metodlarini aniqlash imkonini beradiki, buning faqat nazariy, balki amaliy ahamiyati ham beqiyosdir.*

Ta`lim majmuining kontseptual tahlili quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

- har qanday texnologiya negizida mehnat faoliyati ko`rinishidagi o`zaro jamoaviy ta`sir yotadi. Texnologiya mehnat jarayonining o`ziga singdiriladi. Texnologiyaning amalga oshirilish shaklidan qat`iy nazar, asosiy maqsad umumiy jarayonning operatsiyalar tavsifi, predmeti, vositalari va yakuniy natija bilan belgilanadi. Binobarin, pedagogik texnologiyaning pedagogik jarayonni amalga oshirish shakli sifatidagi mohiyati pedagogik faoliyat sohasida namoyon bo`ladi;

- insonning ongi jamoaviy o`zaro ta`sir in`ikosining ideal shakli hamda dialektik qarama-qarshiligini ifoda etib, o`zgartirilgan mehnat sifatida namoyon bo`ladi. SHunga ko`ra ongni qayta shakllantirish qonuniyatlarini ijtimoiy texnologiyadan, ushbu qonuniyatlarini joriy etishning asosiy shakllarini esa pedagogik texnologiyaga asoslangan pedagogik amaliyotdan izlash taqozo etiladi;

- pedagogik texnologiya ijtimoiy texnologiyadan ajralib chiqib, o`z taraqqiyotida shartli jamoaviy repetitsiyaviy (mashqlantiruvchi) refleks bosqichini bosib o`tgan holda, asosiy texnologik o`zaro ta`sirlarini maqsadga muvofiq tarzda takrorlovchi harakat va operatsiyalar tizimiga ajratiladi. Bundan kuzatilgan maqsad ijtimoiy ongni mustahkamlash va to`plangan ijtimoiy tajribani yangi avlodlarga etkazishdan iborat bo`lgan, uning predmeti esa ideallashtirilgan tavsifga ega;

- pedagogik texnologiya mohiyatining umumiy jihatlari, shakl va mazmuni, qarama-qarshiliklar tizimi, miqdoriy va sifat o`zgarishlari dialektikasi, qurilish, amal qilish va rivojlanishining umumiy qonun va qonuniyatlari texnologiyaning umumfalsafiy kontsetsiyasi doirasida muvaffaqiyatli ravishda ko`rib chiqilishi mumkin. Uning harakat mantiqi moddiy ishlab chiqarish sohasidagi yuqorida ko`rib chiqilgan qonuniyatlar (ob`ektiv texnologiya), uning dialektik nuqtai nazardan qarama-qarshi tomoni bo`lgan – ma`naviy ishlab chiqarish, shuningdek, ta`lim sohasi qonuniyatlarini ko`chirish jarayonini aks ettirishdan iborat;

- pedagogik texnologiya nazariy negizga ega, zero, asl texnologiya o`zining mustahkam ilmiy-nazariy poydevoriga asoslanadi. Pedagogik texnologiya nazariyasining mazmuni va tarkibiy tuzilmasini shakllantirish jarayoni har qanday fanning shakllanishida muhim o`rin tutuvchi asosiy qonuniyatlarga bo`ysunadi. Ijtimoiy ishlab chiqarish sohasi rivojlangan sayin e`tibor umumnazariy elementlarning sintez etilishiga qaratiladi;

- pedagogik texnologiya nazariyasining yaratilish va rivojlanish mantiqi asosiy bosqichlarda umumiy texnologik nazariyaning shakllanishini aks ettiruvchi holat sifatida namoyon bo`ladi. Mazkur holat asosi fikrlash jarayonining eng muhim shakli sifatida xulosa chiqarish imkonini beruvchi deduktiv yondashuv hisoblanadi;

- pedagogik texnologiya nazariyasining yaratilishi uchun «g`isht qo`yishning» asosiy davri pedagogik texnologiyaning boshlang`ich «hujayrasi»ni ifoda etuvchi pedagogik jarayonda texnologik jihatning mohiyatini ochishga yordam beruvchi, o`ziga xos tushuncha va kategoriyalar tizimini aks ettiruvchi texnologik o`zgarish, texnologik vosita hamda texno-pedagogik o`zaro ta`sir bilan bog`liqdir.

Nazariyaning kontseptual asosini ishlab chiqishga alohida e`tibor berildi. Ushbu asos pedagogik texnologiya matritsasi deb ataladi. **Pedagogik texnologiya matritsasi (texno-pedagogik matritsa) – bu minimal darajada zarur belgilar (nazariy konstrukt)ga tayanuvchi rang-barang, sifatli pedagogik texnologiyalarning mavjud modeli.** Uning negizida quyidagi elementlar: asoslangan elementar texno-pedagogik o`zaro ta`sir, texno-pedagogik o`zgarishlar (qayta qurishlar)ni aks ettiruvchi predmet talabalarning bilimlari, malakalari, ko`nikmalari; texnologik-pedagogik vosita tabiatini qayd etuvchi elementlar, tabiiy, ijtimoiy, texnikaviy; predmetning texno-pedagogik harakat bosqichlari va ularning o`zgarishlarini (qayta qurilishini) belgilovchi texno-pedagogik natijaga birlashtiradigan, shuningdek, pedagogik texnologiya nazariyasining kontseptual asosini ifoda etadigan elementar texno-pedagogik o`zaro ta`sir xususida ishlab chiqilgan tasavvur yotadi.

O`quv jarayonini loyihalashga texnologik jihatdan yondoshish quyidagi asosiy bosqichlardan iborat bo`ladi:

1. Ta`lim jarayonining umumiy asosiy maqsadini belgilab olish;
2. Ta`lim jarayonini real muayyan bosqichlarga bo`lish, har bir bosqich uchun xususiy maqsadlarni belgilash, ya`ni, asosiy maqsadni amalga oshirishda juz`iy maqsadlarni ham hal etib borish;
3. Ta`lim oluvchilarning bilim darajasini oldindan tashhis qilish.

**Pedagogik texnologiyani ta`lim jarayoniga tadbiiq etishning umumlashgan ketma-ketligini quyidagicha tashkil etish maqsadga muvofiq** sanaladi (tajriba ishlarini amalga oshirishda mazkur ketma-ketlikdan uslubiy asos sifatida foydalanganmiz):

- talabalarining istiqboldagi faoliyati mazmunini tahlil qilish, ta`lim jarayonida hal qilinishi lozim bo`lgan maqsad va vazifalarni belgilash;

- umummehnat va kasbiy ko`nikma hamda malakalarni rivojlantirishda ta`lim vositalarini qo`llashga oid ta`lim uslubi mazmunini ishlab chiqish;

- oliy o`quv yurtlari o`quv dasturlarida talabalar tomonidan ta`lim vositalaridan foydalanish texnologiyasini o`zlashtirishlari uchun vaqt mezonini belgilash;


- talabalarda ko`nikma va malakalarni rivojlantirishga oid mashqlar tizimini ishlab chiqish;

- talabalarda hosil bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalarning sifatini nazorat qilish bilan bog`liq ob`ektiv nazorat o`tkazish va testlar tizimini ishlab chiqish;

- ishlab chiqilgan "pedagogik texnologiya"ni amalda sinash va uni o`quv jarayoniga tadbiiq etish.

Bunday pedagogik texnologiyani rejalashtirilgan samarasi uning qanday tizimlashtirilganligi va tuzilishiga bog`liq (2-shakl).

Talabalarda umummehnat va kasbiy ko`nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogic tizimi.



2-shakl

Pedagogik texnologiya o`zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:

1. Pedagogik texnologiya pedagogik jarayonni takomillashtirish, optimallashtirishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni qondirish omili sanaladi.
2. Pedagogik texnologiya didaktik hamda tarbiyaviy xarakterdagi, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonini samarali, mahoratli tarzda tashkil etish borasidagi nazariy hamda amaliy bilimlar majmui, metodologik fan sifatida namoyon bo'ladi.
3. Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi yaxlit jarayondir.
4. Pedagogik texnologiya – yo'naltiruvchi vazifani bajaradi, ya'ni, u shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash, shakllantirishga xizmat qiladi.
5. Pedagogik texnologiya-shaxsiylik xususiyatiga ega bo'lib, yangi texnologiyani ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llashga nisbatan yagona, qat'iy, me'yoriy (standart) talablar qo'yilmaydi. Har bir pedagog u faoliyat olib yuritayotgan ta'lim-tarbiya muhitining xususiyatlari, mavjud ichki va tashqi shart-sharoitlarini inobatga olgan holda muayyan texnologik yondoshuvni amalga oshirish imkoniyatiga ega.
6. Pedagogik texnologiya o'zida ta'lim, tarbiya va shaxs taraqqiyoti (kamoloti) birligini ifoda etadi.

#### **14.2. Pedagogik texnologiyaning maqsadi**

Pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadi komil shaxsni shakllantirish uchun poydevor bo'lgan pedagogik jarayonni takomillashtirish, insonparvarlashtirish, ta'lim oluvchining mustaqilligini ta'minlash, o'qitish jarayonida texnik vositalar imkoniyatlaridan samarali foydalanishga erishishdan iborat.

Pedagogik texnologiya doirasida quyidagi vazifalar hal etiladi:

- Ta'lim jarayonining umumiy, yaxlit loyihasini ishlab chiqish.
- Ta'lim jarayonida hal etilishi lozim bo'lgan aniq maqsad va vazifalarni belgilash.
- Ta'lim jarayoni mohiyatini bashoratlash (tahmin qilish) va uning mazmunini ishlab chiqish.
- Ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlashga yordam beruvchi eng samarali, maqbul shakl, metod, usul hamda texnik vositalarni tanlash.
- Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchining erkin, mustaqil faoliyat ko'rsatishi uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratish, ularda ma'lum ko'nikma hamda malakalarning shakllanishi uchun vaqt o'rnini belgilash, ularning bilimlari darajasini avvaldan tashhislash.
- Ta'lim oluvchilar faoliyatini yo'naltirish, nazorat qilish hamda baholashni tashkil etish.
- Ishlab chiqilgan pedagogik texnologiya loyihasini jamoada sinash, maqsadning natijalanganlik darajasini tahlil etish.

Mazkur vazifalarning ijobiy hal etilishi quyidagi shartlarga amal qilinishiga bog'liq: mavjud shart-sharoitlarni inobatga olgan holda faoliyatni tashkil etish; ta'lim oluvchilarning yosh, fiziologik, psixologik hamda shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish; ta'lim jarayonini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish; ta'lim oluvchilar faoliyatini ob'ektiv nazorat qilish va baholash; xususiy fanlarni o'qitish jarayonida imkon qadar albatta, samarali ravishda texnik vositalar imkoniyatidan keng foydalanish; pedagogik tizimda maqsad aniq va ravshan qo'yilmog'i lozim.

**I. Tajriba tavsifi va kengligining o'lchovi.** Har qanday fanning mazmuni egallanayotgan kasb xususiyatlariga mos ob'ektlar, jarayonlar va faoliyat uslublari to'g'risidagi ma'lum axborotlar majmuidir. O'quv predmetlari ob'ektlar tarkibi, faoliyat uslublari va jarayonlari bilan farqlanadi. Ba'zi fanlar umumiy ob'ektga, hodisaga yoki faoliyat metodiga ega bo'lishi mumkin bo'lgan holdagina, ular o'rtasidagi fanlararo aloqa to'g'risida so'z yuritish mumkin.

Ob'ektiv mavjud bo'lgan hodisa, uslub yoki ob'ektlar to'g'risidagi ma'lum sohaga tegishli axborotlar qarab chiqilayotgan fan sohasini ifodalaydi. Bugungi kunda insonlar misli ko'rilmagan sur'atlarda o'sib borayotgan axborotlar hajmini o'zlashtirib ulgurishga qodir emas, biroq u yoki bu sohaga oid fikrlash hamda faoliyat uslublarini egallash mumkin. Buning uchun to'laqonli hamda ongli faoliyat olib borishni ta'minlay oluvchi bilimlar asosida mustaqil o'rganish uchun asos yaratuvchi ob'ektlar fan mazmunidan ajratib olinishi lozim bo'ladi.

### 14.3. Pedagogik texnologiyaning bosqichlari

Ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyat qo'llashning muhim omillaridan biri - muayyan, yaxlit ta'limiy jarayonni oldindan loyihalash, ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtiriladigan nazariy va amaliy bilimlar, ko'nikma va malakalar darajasini tashhislash hamda ta'lim maqsadining muvaffaqiyatli natijalanishini bashoratlay olishdan iboratdir. Ayni vaqtda pedagogik yo'nalishda faoliyat olib borayotgan ilmiy tadqiqot institutlari, xalq ta'limi muassasalari va oliy o'quv yurtlari oldida o'quv jarayonini loyihalashning eng maqbul, barcha turdagi o'quv muassasalarida shakli, metod va vositalaridan qat'iy nazar tashkil etiladigan ta'lim uchun birdek xizmat qiluvchi andozani yaratish maqsadga muvofiqdir. Biz ilmiy-tadqiqotlarimizni amalga oshirish uchun pedagogik texnologiyani loyihalashning quyidagi ketma-ketlikdan iborat bosqichlarini ishlab chiqdik (3 – shakl):

- **birinchi bosqichda** kasb ta'limi fakul'teti talabalarining kelajakdagi kasbiy faoliyatini tahlil qilindi. Tahlil natijasida talaba faoliyatining istiqbolini belgilovchi va kelajak faoliyatida u duch keladigan vazifalar aniqlab olindi.

- **ikkinchi bosqichda** umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirishning psixofiziologik asoslari; o'qituvchilar tayyorlashning yangi pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqildi va ta'limning har bir davri uchun uning mazmuni aniqlab berildi.

- **uchinchi bosqichda** umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarning tarkibiy qismlari, shakllantirish jarayoni; malakalar ko'chishi va moslashuvchanligi xususiyatlari, umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirish jarayonida ta'lim vositalarini qo'llash texnologiyasi ishlab chiqildi;

- **to'rtinchi bosqichda** umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirish didaktik jarayonining eng muvofiq ta'lim shakllari aniqlandi. Uning natijasi sifatida ko'nikma va malakalarni rivojlantirish pedagogik tizimida o'qituvchi va talaba munosabatlari mazmuni ishlab chiqildi;

- **beshingi bosqichda** umummehnat va kasbiy malakalarni qo'llashga oid ta'lim metodi mazmuni ishlab chiqildi, uning natijasi sifatida umummehnat ko'nikma va malakalarni rivojlantirish jarayonida trenajerlardan foydalanish texnologiyasi yaratildi;

- **oltinchi bosqichda** ta'lim maqsadi asosida ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tizimi ishlab chiqildi hamda o'quv qo'llanmalari mazmuni bilan umumlashtirildi, natijalar belgilangan ko'rsatkichlari darajasida ta'lim jarayoniga tadbiiq etildi;

- **ettinchi bosqich** - o'zlashtirish darajasini baholash mezonlari va ta'lim maqsadlariga mos keluvchi talabalarning bilim va ko'nikmalarini aniq nazorat qilish bilan bog'liq testlar tizimi ishlab chiqildi. Ta'lim maqsadlariga erishish imkonini beruvchi o'quv mashg'ulotlarining tuzilmasi va mazmuni shakllantirildi, hamda talabalarning umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar majmuasi ishlab chiqildi;

- **sakkizinchi bosqichda** - umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlanganlik darajasini baholashning ko'rsatkich va mezonlari tajriba-sinov ishlari asosida sinab ko'rildi. Bosqich natijasida loyihaga tegishli tuzatishlar kiritildi.

O'qituvchilar tayyorlashning yangi pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish bir qadar murakkab jarayon bo'lib, mazkur jarayonda mutaxassislik yo'nalishlari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish taqozo etiladi. Tadqiqot ishini olib borish jarayonida o'qituvchilar tayyorlashning yangi pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni o'quv-tarbiya jarayoniga tadbiiq etish muammolari quyidagilardan iborat ekanligi aniqlandi:

- pedagogik texnologiya nazariyasi va uning asoslari borasida ma'lumotlar bera oluvchi manbalarning etarli emasligi;
- mavjud manbalarda xususiy fanlar, shuningdek, muayyan ta'lim muassasalarining faoliyat yo'nalishlariga hamda xususiyatlariga muvofiq ularning faoliyatiga yangi pedagogik texnologiyalarni tadbiiq etish mexanizmining ishlab chiqilmaganligi;
- yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimida o'quv-tarbiya jarayoniga tadbiiq etish yo'lida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalarining yaxlit holda tahlil etilmaganligi hamda bu borada qo'lga kiritilgan tajribalarning ommalashtirilishi borasida sustkashlikning mavjudligi;



- ta'lim muassasalari, shu jumladan, oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning yangi pedagogik texnologiya asoslarini puxta o'zlashtirmaganliklari hamda o'z faoliyatlarida ulardan samarali foydalanish malakasi (tajribasi)ga ega emasliklari;
- pedagog xodimlarni tayyorlash jarayonini texnologiyalashtirish borasida keng ko'lamli amaliy harakatning tashkil etilmaganligi.

Qayd etib o'tilgan muammolarning bartaraf etilishi etuk mutaxassislarni tayyorlash, shuningdek, bo'lg'usi pedagoglarda umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni takomillashtirishga imkon yaratadi.

Mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarida umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirish muammolarining tahlili uning pedagogik muammo sifatida o'zining to'laqonli echimini topmaganligini ko'rsatdi. Bu yo'nalishning ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar talablariga muvofiqligini ta'minlash uchun o'qitish jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslublarini ishlab chiqish, ko'nikma va malakalarning rivojlanganlik darajasini aniqlash, ularni ta'lim tizimiga joriy qilishning samarali yo'nalishlarini ishlab chiqish zarurati paydo bo'ldi.

Umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirishning psixofiziologik sharoitlari, psixologik xususiyatlari, bilim, ko'nikma va malakalarning psixofiziologik mexanizmi va ijtimoiy-tarixiy o'rnining tahlili asosida ta'lim oluvchilarning bilim darajasini yanada oshirishda etarlicha foydalanilmayotgan ko'plab imkoniyatlar mavjud ekanligi aniqlandi. SHu asosda talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarning rivojlanishi va biridan ikkinchisiga aylanish jarayonlari mazmuni ochib berildi.

Islohotlar tufayli ta'lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalar keng kirib kelmoqda, biroq buning natijasida yuzaga keladigan ulkan didaktik imkoniyatlardan foydalanish uchun etarli nazariy - uslubiy asos yaratilgan emas. O'qituvchilarni tayyorlashning o'quv-tarbiyaviy jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va tadbiiq qilish muammolarini o'rganish natijasida tadqiqot muammosini hal qilishda pedagogik texnologiyalar va texnologik yo'nalish imkoniyatlari tahlil qilindi.

## **15. MA`RUZA**

### **KASBIY KO`NIKMA HAMDA MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASINING ILMIIY-PEDAGOGIK ASOSLARI**

**Reja:**

**15.1. Talabalarda umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirish pedagogik tizimida o'qituvchi va talaba munosabatlari mazmuni**

**15.2. Trenajyor - o'qitishning texnik vositalari tizimida**

**15.3. Mashqlar ko'nikma va malakalarni shakllantirishning muhim vositasi sifatida.**

**15.4. Mashqlar jarayonida rejalashtirishni o'rgatish (texnologik jarayonlarni qurish).**

**15.5. Laboratoriya-amaliy mashg'ulotlar mashqlarining alohida turi**

**15.1. Talabalarda umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirish pedagogik tizimida o'qituvchi va talaba munosabatlari mazmuni.** Ma'lumki, har qanday pedagogik texnologiya ta'limning yangi mazmunini shakllantiruvchi ta'lim tamoyillariga asoslangan bo'lib, talaba shaxsini tarbiyalashda, unda kasbiy mahoratni hosil qilishga yo'naltirilmog'i kerak. «Ta'lim jarayonining faol sub'ektlari pedagog va talabalar bo'lib, ularning hamkorlikdagi faoliyatlari muayyan mavzu (yoki fanlar asoslari) bo'yicha kam kuch va vaqt sarflangani holda nazariy va amaliy bilimlarni chuqur o'zlashtirish imkonini beruvchi jarayonning umumiy mohiyatini tavsiflaydi. Texnologik yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida maqsadga muvofiq o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikma va malakalari ham shakllanadi. Amaliy faoliyatni yo'lga qo'yishga imkon beruvchi ko'nikma va malakalarning shakllantirilishi muayyan faoliyatning uzluksiz tashkil etilishi hamda doimiy ravishda takomillashib borishi hisobiga ta'minlanadi. SHunday ekan, bu ikki shaxs o'rtasidagi o'zaro muloqot, bir-biriga ko'rsatadigan ta'siri, shuningdek samarali faoliyat yakuni sifatida ko'rinuvchi hamkorlik yuksak talablar asosida tashkil topishi lozim. Buning uchun birinchi navbatda, o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan qo'yilgan talablar,

ta'limni tashkil etish va boshqarish tamoyillari, yo'llari, talabani aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish usullari, u bilan hamkorlik qilish, uni o'qish va o'rganishga yo'naltirish, talaba shaxsi faoliyatini to'g'ri tashkil etish, ular bilan muloqotga kirishish mavjud muammo va kelishmovchiliklarni birgalikda bartaraf etish, auditoriyada ijodiy, ishchanlik muhitni vujudga keltirish, talaba faoliyatini aniq va to'g'ri baholash imkonini beruvchi metodlari bilan qurollangan bo'lishi lozim.

O'qituvchining faol, samarali faoliyat ko'rsatishiga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining metodik ishlanmasidan farqli ravishda, ta'limning pedagogik texnologiyasi ta'lim oluvchi(talaba)larga nisbatan yo'naltirilgan bo'lib, ularning shaxsiy, shuningdek o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatini hisobga olgan holda, o'quv materiallarini o'zlashtirishga qaratiladi. Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi talaba shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iboratdir.

O'qitib tadqiq etish, tadqiq etib o'qitish tamoyili. Ushbu tamoyil quyidagi ikki jihatga ega:

- birinchidan, OO'YUning har bir o'qituvchisi o'z fani sohasiga talabalarni jalb qilgan holda tadqiqotlarni olib borishi lozim.

- ikkinchidan, o'qituvchi ta'lim texnologiyasini ishlab chiqadi, uni amaliyotda sinab ko'radi, kuzatadi va tuzatishlar kiritadi, ya'ni, u ta'lim jarayonini tadqiq etadi.

O'qitish jarayonining mazkur ikki jihati muhim ahamiyatga ega bo'lib, u o'qituvchining kasbiy hamda pedagogik mahoratini oshirib borishga va talabalarni bo'lajak mutaxassislik faoliyatiga puxta tayyorlanishiga zamin hozirlaydi.

Pedagogik texnologiya turlarini tanlash shakllanayotgan bilim, ko'nikma va malakalar, tashkil etilayotgan darslar shakli va qo'llanilayotgan metodlar hamda metodik usullarning xususiyatiga bog'liq..

### **Talabalarning umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarini rivojlantirish jarayonida trenajyorlardan foydalanish texnologiyasi**

Texnik vositalar orasida ma'lum ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan sezgi-motor va aqliy harakat malakalarini shakllantiruvchi trenajyorlar alohida ahamiyatga ega. Hozirgi davrda trenajyorlardan ishchilarni kasbga tayyorlashda keng foydalanilmoqda. Trenajyorlarni qo'llash amaliyoti ularni keng pedagogik imkoniyatga ega ekanligini tasdiqlamoqda, afsuski, bu imkoniyatlardan foydalanish talab darajasida emas. Joylarda zaruriy ilmiy-pedagogik asosga ega bo'lmagan trenajyorlar yaratilmoqda, ularni qo'llash esa kutilgan samara bermaydi. Buni uslubiy tavsifdagi qator hal etilmagan masalalarning mavjudligi bilan izohlash mumkin.

Trenajyorlarni o'quv jarayoniga tatbiqi kompleks xarakterga ega bo'lib, ularni yaratish va qo'llash jarayonini chuqur tahlil qilishni, o'quv vositasi sifatida ijobiy taraflarini hamda yuzaga keladigan didaktik imkoniyatlarni aniqlashni talab qiladi.

Mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash amaliyotida trenajyorlarni tatbiq qilishda, ularni qo'llashning ilmiy pedagogik asoslarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o'quv jarayonini tashkil etishning ilmiy asoslariga tayanib, uning qonuniyatlariga amal qilgan holdagina masalani muvaffaqiyatli hal etish mumkin.

Trenajyorlar talabalarning lozim bo'lgan faoliyat turiga bog'liq ravishda bir-biridan jiddiy farq qiladi. Vazifasiga ko'ra ularni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- alohida jarayonlarni amalga oshirish malakalarini hosil qiluvchi trenajyorlar (metall qirqish va egovlash, bolg'ada zarb berish borasidagi ko'nikmalarni hosil qilishga xizmat qiluvchi, qo'lda elektropayvandlash ishlarini oshirishda ko'nikmalarni shakllantiruvchi va boshqalar);

- ish jarayonida zarur ketma-ketlik va ish maromini o'zlashtirish uchun mo'ljallangan trenajyorlar (stanoklarda, mashinalar, qurilmalar va boshqa texnik jihozlar);

- o'zgaruvchan sharoitlarni baholash va tegishli harakatlarni amalga oshirish malakalarini hosil qilishga mo'ljallangan trenajyorlar (murakkab ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish, avtomobilni boshqarish va boshqalar);

- texnik ob'ektlarning ishlash me'yorining buzilish sabablarini aniqlashga mo'ljallangan trenajyorlar (zamonaviy ishlab chiqarish jihozlarini, radiotexnik asboblarni va boshqalarni ta'mirlash).

Trenajyorlarda turli ob'ekt va jarayonlarni modellashtirishning fizik va matematik usullaridan foydalanish mumkin. Masalan, atrof-muhitni modellashtirishda ko'proq soya proektsiyalaridan, kinoproektsiya, televizion tasvir va komp'yuterlar xizmatidan foydalaniladi.

Trenajerli ta'limga ko'p jihatdan harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish mos bo'lib, u o'zlashtirish jarayoni, uning bosqichlarini tahlil etilishi va ochib berilishi hamda o'rganuvchining har bir bosqichidagi faoliyatini ko'rish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Qonuniyatning markaziy tushunchasi - o'rganuvchining xarakteri bo'lib, u shaklan umumlashish darajasi, o'zlashtirish me'yori kabi tushunchalar bilan tavsiflanadi.

**Harakat shakli** - o'rganuvchi tomonidan unga beriladigan harakatlarning tashqi (moddiydan) ichki aqliyga uzatilishidagi o'zlashtirilish darajasi tushuniladi. Harakat shakli buyum yoki buyumlashgan, tashqi so'zlashuv (baland ovozda) aqliy (harakat tassavvur yoki tushunchalar asosida amalga oshiriladi) bo'lishi mumkin.

**Harakatning umumlashganlik darajasi** - harakatni bajarish uchun buyum xossasini boshqa ahamiyatsiz belgilar ichidan ajratib olish darajasini belgilaydi.

**Harakatning kenglik darajasi** - o'zgaruvchi tomonidan barcha xarakterlarni bajarilayotganligi darajasini ifodalaydi. Harakatlarni shakllanish jarayonida bajarilayotgan jarayonlar tarkibi kichrayib, harakatlar kamayib boradi.

**Harakatlarning o'zlashtirish darajasi** - harakatlarning avtomatlashganlik va tezlik darajasini ifodalaydi (boshida u sekinroq bajariladi, har bir jarayonning o'zlashtirilishi jarayonida ish maromi tezlashib, avtomatlashib boradi).

A.M.Novikovning fikriga ko'ra, malakalar shakllanishida harakat aniqligiga quyidagi faktorlar hisobiga erishilad:

- harakatning boshlang'ich ko'rinishini shakllantirish va aniqlash;
- fazoviy va kuch differentsirovkasi aniqligini oshirish;
- eng kichik xatolik qiymatiga mos keluvchi koordinatsion strukturalarni tanlash.

Harakatlar tezligi, harakat, mashq yoki vazifalarning bajarilish vaqti; reaksiya vaqti, harakatlarni tuzatishga sarflanadigan vaqt va boshqalar bilan tavsiflanadi.

**15.2. Trenajyor - o'qitishning texnik vositalari tizimida.** Mashqlar bajarish jarayonini talabalar faoliyatining mustaqil ish turiga kiritish mumkin. SHu sababli quyida uni tashkil qilish uchun zarur bo'lgan o'qitish vositalari haqida so'z boradi. CHop qilingan ishlarning ko'pchiligida mustaqil ishni tashkil qilish va o'tkazish ta'limining umumiy shakl, uslublariga bog'liq holda ko'riladi va bizning fikrimizcha, ularda mashqlarni bajarish jarayonidagi o'qitishning texnik vositalarini qo'llash etarlicha chuqur ochib berilmagan. O'qitish vositalari to'g'risidagi masala aniq bir predmet yoki kasb tarkibi sifatida ko'rib, xususiy uslub o'rganish ob'ekti bo'lib xizmat qilganligi uchun biz mehnat darslarida talabalar mustaqil ishlashi uslubi umumiy masalalari, bizning ishimizga tatbiqan-trenajyorli ta'limni ko'rib chiqish bilan chegaralanamiz.

Mehnat darslarida mustaqil ishni tashkil qilishda o'qitishning texnikaviy vositalari quyidagi vazifalarni bajaradi:

- axborot (darslik, ma'lumotnoma, diapozitiv, diafil'm, transporant, kinofil'm, videoyozuv, algoritm, yo'riqnoma, instruksion-texnologik karta, o'rganuvchi dasturlar, o'quv plakatlari va magnit yozuvlari kabi trenajyorlar);
- tashkiliy (algoritmalar, yo'riqnomalar, instruksion-texnologik kartalar, o'rganuvchi dasturlar va trenajyorlar);
- boshqaruv (testlar, o'rganuvchi dasturlar va trenajyorlar).

Aytib o'tish kerakki, har bir o'qitish vositasiga ko'rsatilgan barcha vazifalar va keltirilgan tavsif qaysi bir vazifa qolganlaridan ustun ekanligini ifodalaydi.

SHu bilan birga trenajyorlarda bu vazifalar kompleks va talab darajasida to'liq mujassamlashtirilgan.

Ta'lim vositalari tahlili ko'rsatadiki, ularning ko'pchiligi o'qituvchiga boshqaruvchi vazifasini yuklaydi va faqat o'rganuvchi dasturlar va trenajyorlarga mehnat dasturlarida talabalar mustaqil ishini tashkil qilishda va o'tkazishda ma'lum darajada yuqorida sanab o'tilgan vazifalarni bajarishi mumkin.

**15.3. Mashqlar ko'nikma va malakalarni shakllantirishning muhim vositasi sifatida.** Ta'limda mashqlar favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, mashq deganda har qanday harakatning takroran bajarilishi tushunilmaydi, chunki takrorlash o'z-o'zidan malakaning rivojlanishi va takomillashishini ta'minlay olmaydi. Bunga xunuk imloda yozishni misol keltirish mumkin, agar

maxsus uslublar qo'llanilmasa qancha takror yozgan bilan u yaxshilanib qolmaydi. Bundan tashqari, ma'lum holatlarda bitta harakatning takroran bajarilishi uning sifati pasayishiga olib keladi. Bir maromdagi ish uzoq vaqt bajarilganida ushbu holat kuzatilishi mumkin.

Psixologiya va pedagogikada mashq deb ko'nikma va malakalarni rivojlantirish uchun ma'lum tarzda tashkil qilingan harakatlarni ko'p martalab takroran bajarish tushuniladi. Ilgari hosil qilingan muvaqqat aloqalar yangi harakatlarni bajarish uchun ish uslublarini to'g'ri bajarishning o'zi etarli bo'lmagan barcha hollarda mashq talab qilinadi. Mashqlarni takroriy bajarish natijasida talaba boshqa usul bilan erisha olmaydigan harakatlar taqsimotiga erishadi, yangi muvaqqat harakat aloqalari hosil bo'ladi va ilgari mavjud bo'lganlari qayta quriladi. Mashqlarni bajarishning so'nggi bosqichlarida bu aloqalar mustahkamlanadi va tartibga keladi.

Mashqlar-mehnat ko'nikmalari va mahoratiga erishishning zaruriy sharti hisoblanib, faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydi. Bunda bilim va malakalarning takomillashib borishi bilan birgalikda sharoitning, sifat va tezlikka bo'lgan talabning ortib borishiga mos ravishda ulardan foydalanish darajasi ortib boradi.

Talabalarda mehnat malakalarining shakllanishini faollashtirishda o'quv yo'riqnomasi muhim rol o'ynaydi. Yo'riqnoma shaklini tanlash ijodiy yondashishni talab qiladi. CHamasi, yo'riqnomalarning uchta varianti, ma'lumotlari to'liq bo'lmagan, to'liq yoki ortiqcha ma'lumotlisini tanlashda ta'lim bosqichi va xususiyatlaridan kelib chiqishimiz ma'qul. Masalan, dastlabki bosqichlarda birinchi yo'nalish bo'yicha birmuncha to'laqonli bo'lgan yo'riqnomalar talab qilinadi. Biroq keyingi ta'lim davrida nafaqat tayyor ma'lumotlarni o'zlashtirish, balki o'z imkoniyati darajasidagi ba'zi echimlarni o'zi topishi lozim bo'ladi. Aniqlanishi lozim, ammo kam ma'lumotlarga ega bo'lgan, va shuningdek ortiqcha ma'lumotli yo'riqnomadagi shartlar ichidan zarurini tanlash talab qilinganida mustaqil fikrlash zarurati paydo bo'ladi.

Ishlab chiqarish ta'limida talabalarining mustaqil kuzatishlari muhim ahamiyatga ega. Biroq talabalarining barchasi ham o'z kuzatishlarini o'quv topshirig'iga muvofiq tashkil qila olmaydilar. Kuzatish ko'nikmalarini tarbiyalash (kuzatuvchanlik va diqqatni rivojlantirish) ishlab chiqarish ta'limining muhim vazifalaridan biridir. Talabalar ishlab chiqarish ta'limidagi kuzatish jarayonida yordam va maslahatga muhtoj bo'ladilar. Yo'riqnoma yoki yozma ravishda beriladigan o'quv-ishlab chiqarish topshirig'ida avvalo kuzatishdan ko'zlangan maqsad va uning predmeti nimalardan iborat ekanligini ko'rsatib o'tish lozim, chunki bu vazifalar talaba uchun murakkab bo'lgan sharoitlarda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, aniq maqsadni ko'zlangan holda kuzatishlarni olib borish, aniq shakllantirilgan maqsadi bo'lmagan kuzatishlardan ko'ra samaraliroq hisoblanadi. Murakkab kuzatish ob'ektini alohida qismlarga bo'lib o'rganish talabaning o'ziga qiyinlik qiladi: bu vazifa yo'riqnomada berilgan bo'lishi lozim. SHu erning o'zida talaba e'tiborini qaratish lozim bo'lgan asosiy holatlar, kuzatishlar ketma-ketligi va javob topilishi lozim bo'lgan savollar berib borilishi talab etiladi.

Maxsus kasbiy ko'nikma va malakalarni qarab chiqish bilan birgalikda psixologik nuqtai nazardan u yoki bu darajada o'rganib chiqilgan ish turlari va kasblarni sanab o'tamiz:

- ko'proq qo'lda ish bajarishni talab qiluvchi kasblar(duradgorlar, suvoqchilar va h.k.);
- stanokda ishlovchilar(tokarlar, frezalovchilar, pardozlovchilar, avtomatlashgan stanoklar operatorlari);
- mashina haydovchilar(shoferlar, temir yo'l va suv transporti haydovchilari, qishloq xo'jaligi mexanizatorlari);
- asbobchilar(po'lat quyuvchilar, kimyo sanoati operatorlari);
- texnika va texnologik jarayonlarni masofadan boshqarish;
- ta'mirlash, ishga tushirish, rostlash ishlari.

Avvalo kasbiy ko'nikma va malakalarni alohida guruhlarga ajratish imkonini beruvchi umumiy xususiyatlarga to'xtalib o'tamiz:

Maxsus kasbiy ko'nikma va malakalarning asosiy xususiyati. Ularning ma'lum kasblar (metall qirqish, iplar uzilishini bartaraf etish, avtomobilni boshqarish h.k.) bilan chegaralangan, nisbatan tor ahamiyatliligi.

**15.4. Mashqlar jarayonida rejalashtirishni o'rgatish (texnologik jarayonlarni qurish).** YUqorida o'quv operatsiyasi tushunchasini o'rganishda va mashqlar tizimini tahlil qilishda yordamchi

operatsiyalar (o'lash, stanokni rostlash va h.k.)ni bajarishga taalluqli ko'nikmalarni hosil qilishda ko'proq o'quv mashg'ulotlarini bajarishga oid mashqlar o'zni belgilab berilgan edi.

Bu o'rinda ushbu mashqlarni ikki masalani hal qilish uchun qarab chiqildi: 1) umummehnat ko'nikma va malakalarning shakllanishi; 2) nazariy va amaliy ta'lim aloqasini o'rnatish.

V.V.CHebisheva fikriga ko'ra, umummehnat malakalari ikki xususiyati bilan tavsiflanadi; 1) aqliy tavsifga ega bo'ladi; 2) malakalar mustahkamlanib borib, shaxsning turg'un xislatiga aylanib qoladi.

SHuni eslatib o'tish kerakki, umummehnat ko'nikmalari va umumlashgan ko'nikmalar tushunchalari aynan bir holatni ifodalaydi.

Umummehnat ko'nikmalarida shaxsni tavsiflovchi aqliy komponentlar salmog'i oshib borgani sari ularni shakllantirish shu darajasi ham yuqorida ko'rsatilgan shartlarni ko'proq talab qilib boradi.

Tashkiliy - texnologik va operatsion - texnologik ko'nikmalarga o'rgatishni qarab chiqamiz. Rejalashtirish ko'nikmasi tashkiliy-texnologik ko'nikmalar qatoriga qiradi. Keng ma'noda olinganda texnologik jarayonlarni loyihalash ham rejalashtirish hisoblanadi. Bu tushuncha ikkala turdagi ta'lim shakllarining ham tarkibiga kiradi. SHuni ta'kidlash lozimki, texnologik yo'nalishni tuzish talabaga ishlab chiqarish ustasi tomonidan uyga vazifa sifatida beriladi, biroq u kirish instruktaji (yo'riqnomasida)da tahlil qilinadi.

SHu ma'noda (mazmun jihatidan) uning ko'rsatmalari ishlab chiqarish ta'limi uchun qo'llanma vazifasini ham bajarishi mumkin. Biroq ta'lim usullari hamda shakllari nuqtai nazaridan muammo to'la ishlab chiqilmagan. Har holda u, ozroq, hech bo'lmaganda qisman, aynan ishlab chiqarish ta'limi chegarasidan chiqmasdan va kamida ikkita ta'lim uslubi: 1) uyga vazifalar; 2) laboratoriya amaliy mashg'ulotlarini yoki ularning ikkalasini birgalikda qo'llamasdan amalga oshirilmaydi.

Uyga vazifa va kirish yo'riqnomasini muvaffaqiyatli qo'llashni korxonadagi ishlab chiqarish amaliyotidan ilgari o'tkaziladigan dasturning so'nggi "1-3 toifali murakkablikdagi detallarga ishlov berish" mavzusi misolida qarab chiqamiz.

Bu mavzuni o'rganish jarayonini tavsiflab, rejalash ta'limiga alohida e'tibor berdik. U quyidagilar bilan belgilanadi.

Talabalarning mashqlarni rejalashtirishdagi tashkiliy jihatlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- Ishlab chiqarish ta'limi maqsad va vazifalarini aniqlash.
- Harakatlarning ketma-ketligini belgilash.
- Asbob va moslamalarni tanlash.
- O'z-o'zini nazorat qilishning usuli va ketma-ketligini aniqlash.
- Vazifani bajarish bosqichlarini vaqt bo'yicha taqsimlash.

Ta'lim bosqichi va uslublariga kelganda, ular quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

- Kirish yo'riqnomasi ishlab chiqarish vazifasini bajarishda ishlab chiqarish ustasining og'zaki ko'rsatmasi.
- Mashg'ulotlarda o'quvchilarga kartochka topshiriqlarini berish.
- Keyingi darsga reja tuzish uchun uyga vazifa berish.
- Talabalarga beriladigan kartochka-topshiriqlar quyidagi bo'limlardan iborat bo'ladi.
- Tayyorgarlik.
- Bajarish jarayoni.

Biz quyida rejalashtirish jarayonini, uchta bosqichni tahlil qilamiz:

Birinchi bosqich - yangi vazifani amalga oshirishdagi umumiy, yo'nalish beruvchi rejalashtirish. Bu holda maqsad va unga erishish vositalari, yangi vazifani hal qilish yo'llarini belgilab olish lozim.

Ikkinchi bosqich - tashkiliy-rejalashtirish, bunda ishchi nafaqat ma'lum va mavjud vositalarni, balki mumkin bo'lgan yangi vositalarni qo'llashni o'z ichiga oluvchi zarur tadbirlarni aniqlaydi va ular asosida echimni topish yo'nalishini tanlaydi.

Uchinchi bosqich - vazifani amalga oshirishdagi bajariladigan jarayonlar batafsil aniqlab olinadi, ya'ni operatsiyalar tarkibi va ketma-ketligi tartibi, asbob va moslamalar, nazorat vositalari va boshqalarni aniqlaydigan ishchi loyiha tayyorlanadi.

SHubhasiz birinchi va ikkinchi bosqichlar ta'limda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki talabalarga, ishchilardan farqli ravishda ko'pchilik vazifalar yangilik hisoblanadi.

Bizning fikrimizga, birinchi hamda ikkinchi bosqich ma`lum darajada maxsus texnologlar e`tiborida bo`lmog`i lozim. SHunday qilinganda nazariy va amaliy ta`limning o`zaro bog`liqligi to`laroq bo`ladi. Biroq birinchi va ikkinchi bosqichni amalga oshirishda ishlab chiqarish ta`limi salmog`i ko`proq bo`ladi.

Hozirda ko`proq e`tibor berilayotgan uchinchi bosqichga keladigan bo`lsak, undan nazariy va ishlab chiqarish ta`limi jarayonidagi mashqlardan tashqari laboratoriya amaliy mashg`ulotlarida ham foydalanish maqsadga muvofiqdir. SHunday qilib rejalashtirishda o`qitishning amaliy tizimi quyidagi bo`g`inlardan iborat bo`lishi lozim:

- Nazariy ta`lim jarayonidagi mashqlar (asosan uchinchi va qisman birinchi, ikkinchi bosqichlar).

- Mashg`ulotlarda va uy vazifasi sifatida bajariladigan ishlab chiqarish ta`limi mashqlari (rejalashtirishning barcha uchala bosqichida).

- Nazariy va ishlab chiqarish ta`limidagi laboratoriya amaliy ishlari (uchinchi bosqich).

O`lchov mashqlarini nazariy va amaliy mashg`ulotlarda o`tkazish imkoni mavjud va zurur. Ikkinchi ishchi holatda, misol uchun stanokka o`rnatilgan detalni o`lchashga, alohida holatlarda, esa, masalan konussimon yuzalarga ishlov berishdagi mashqlarni bajarishga katta ahamiyat beriladi.

**15.5. Laboratoriya-amaliy mashg`ulotlar mashqlarining alohida turi.** Barcha mashg`ulotlarda bo`lgani kabi, ularda ham turli ta`lim uslublarini qo`llash ko`zda tutiladi. Laboratoriya mashg`ulotlarini sof laboratoriya ishi, ya`ni tajribalar o`tkazish va ma`lum ko`nikmalar shakllanishiga imkon beruvchi laboratoriya mashg`ulotlarini sinonimlar sifatida qabul qilmaslik lozim. Ushbu holatda laboratoriya mashg`uloti atamasi avvalo uni o`tkazish uchun shart-sharoitlarni tavsiflaydi. To`liq holdagi laboratoriya ishi emas, balki odatdagi o`quv ishlab chiqarish va hatto ishlab chiqarishdagidan ham ko`proq darajada ishning alohida turlarini yoki qismlarini ajratib ko`rsatish, ularni tezlashtirish yoki sekinlashtirish talabalarni guruhlariga ajratish yoki aksincha yakka-yakka holda taqsimlash, ishni guruhning ma`lum a`zolari o`rtasida taqsimlash, ishlab chiqarishda unumsiz bo`lgan jihozlardan foydalanish imkonini beruvchi sharoitlar ko`zda tutiladi.

Ta`lim tizimidagi ishlar uchun bu vazifa asosiy nazariy bilimlarni aniqlashtirishga bo`ysundirilgan vazifa bo`lishi mumkin.

Ikkita laboratoriya-amaliy mashg`ulotini bitta: mavzuda birini nazariy yo`nalishda, ikkinchisini ishlab chiqarish ta`limi bo`yicha tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Biz quyida ta`lim jarayonida o`tkazilishi mumkin bo`lganlarini sanab o`tamiz:

- Jihozlarni aniqlikka tekshirish
- Jihozlarni kuchlanish ta`sirida sinash.
- Jihozlarni salt ishlatib sinash.
- Jihozlarning tipovoy qismlari asosiy geometrik parametrlarini o`lchash usullari.
- Tipovoy-pnevmatik va gidravlik qurilmalarni ta`mirlash.
- Jihozlarning tipovoy detallaridan yaroqsizlarini saralash.

Birinchi uchta ish tadqiqotchilik yo`nalishiga ega.

Keltirilgan 6 ta ishdan tashqari ro`yxatda boshqa topshiriqlar ham mavjud. Masalan chilangarlik, yig`uvchilik texnologik kartalari tahlili va ularning ishlab chiqilishi va h.k.

Talabalarda umummehnat va kasbiy malakalarni shakllantirishda ta`lim vositalaridan foydalanish texnologiyasini ishlab chiqish uchun o`qituvchi tomonidan o`quv material mazmunining tahlil qilinishi, o`qitish uslubini tanlashi va u bilan bog`liq bo`lgan ta`lim vositalarini belgilash jarayoni asos qilib olindi.

## **16. MA`RUZA**

### **UMUMEHNAT VA KASBIY KO`NIKMA HAMDA MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI SAMARADORLIGINI ANIQLASHNING TAJRIBA-SINOV ISHLARI**

**Reja:**

- 16.1. Tajriba-sinov ishlarining tashkiliy asoslari va metodikasi.  
 16.2. Yangi texnologiyalarni loyihalash bosqichida baholash mezonlari  
 16.3. Ta'lim natijalari samaradorligini baholash mezonlari  
 16.4. Tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq qilishning asosiy yo'nalishlari va xususiyatlari.

**16.1. Tajriba-sinov ishlarining tashkiliy asoslari va metodikasi.**

*Biz o'qitish texnologiyasida asosiy e'tiborni harakat obrazini shakllantirish uslubiga qaratdik. Insonning har qanday ongli faoliyati ushbu harakatni bajarish uslubi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Inson mahorati darajasi faoliyat to'g'risidagi axborotlarni o'zlashtirish bilan belgilanadi. Bunda o'zlashtirilgan dastlabki harakat obrazi o'zlashtirilgan holda foydalanilishi, yoki faoliyat sharoitlaridan kelib chiqib o'zgartirilishi mumkin. O'zlashtirilgan axborotlardan foydalanishning reproduktiv va produktiv turlarini ajratib ko'rsatish mumkin. SHubhasiz, reproduktiv faoliyat produktiv faoliyatga zamin tayyorlaydi, ya'ni ikkinchisi birinchisining negizida yuzaga keladi, talabalar faoliyati tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, o'qitish vositalari yordamida ikkinchi darajali reproduktiv faoliyat turi shakllanadi.*

O'zlashtirish darajalarini aniqlash uchun mos holda testlar ishlab chiqildi. Testlar berilgan faoliyat turiga ko'ra belgilangan vazifa va etalonni, ya'ni harakatni to'g'ri, to'liq bajarish namunasini o'z ichiga oladi. etalonga ko'ra test echimini beruvchi asosiy mashqlar soni ( $r$ ) oson topiladi. Talabaning javoblari test operatsiyalarini to'g'ri bajarilganligi soni ( $a$ ) ga taqqoslash o'zlashtirish koeffitsienti  $K_\alpha$  ni topish imkonini beradi. SHunday qilib,  $K_\alpha = a/p$  – bu erda  $K_\alpha$  o'zlashtirish sifatini aniqlovchi mezon hisoblanadi.

*O'zlashtirish koeffitsienti me'yorlanib ( $0 < K < 1$ ), shu asosda baholash shkalasi bilan oson taqqoslanadi. Barcha o'zlashtirishni nazorat qilish jarayoni esa avtomatlashtiriladi.*

O'zlashtirish koeffitsientiga ko'ra, ta'limning tugallanganligi baholanadi. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, tokar va slesarlarni tayyorlashni  $K_\alpha$  0,7 dan kichik bo'lmasligi kerak va ta'lim jarayonini tugallangan deb hisoblash mumkin. CHunki, keyingi ta'lim jarayonida talabalar o'z bilimlarini takomillashtirib borishlari mumkin. Haydovchilar uchun bu faoliyat ma'lum hollarda ijtimoiy jihatdan xavfli bo'lishini e'tiborga olib, o'zlashtirishning quyi chegarasini 0,9 gacha ko'tardik. Pedagogik jarayonlarga o'zlashtirish sifatini aniqlovchi  $K_\alpha$  ning kiritilishi pedagogik texnologiyaning asosiy mezonlaridan biri - **ta'limni yakunlanganlik mezonini** shakllantirish imkonini beradi. Agar harakat faqat mazmun bilan tavsiflanadigan bo'lsa, uni **ko'nikma** deb ifodalash mumkin, agar harakat tezlik bilan ham tavsiflanadigan bo'lsa, u holda malaka to'g'risida so'z yuritish mumkin bo'ladi, ya'ni harakat avtomatlashadi.

Faoliyat umumiy strukturasidagi har qanday harakat turi o'ziga xos funktsiya va strukturaga ega bo'ladi. Dastlabki harakatlar bilan faoliyatning to'g'ri bajarilishi, ishga kirishish tezligi, bu faoliyat bajarilishining aniqligi va sifati, nazorat va tuzatuvchi harakatlar bilan uning anglanganligi aniqlanadi.

O'zlashtirishning "avtomatlashuv" ko'rsatkichi asosan dastlabki harakatlarning bajarilishiga bog'liq bo'ladi. Holatga yo'naltirish qanchalik yaxshi bajarilsa (dastlabki axborotning to'g'ri o'zlashtirilganligi), uslubni to'g'ri tanlash va faoliyatni to'g'ri bajarish uchun shu darajada ko'proq belgilarni o'zlashtirishga zarurat tug'iladi. Harakatni o'zlashtirish avtomatlashuv darajasiga etgach, u qisqartirilgan yo'naltiruvchi qism bo'yicha bajariladi, natijada o'sha harakatni bajarishga sarflanadigan ( $T$ ) vaqt kamayadi. Vaqtning qisqarishi asosan faoliyatning yo'naltiruvchi qismi va harakatning qolgan qismlarini kamayganligi sababli harakatlarning xatosiz bajarilishi hisobiga amalga oshadi.

Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida amalga oshirilgan tadqiqotlardan kelib chiqib, inson tomonidan tajribalarning o'zlashtirilishi didaktik jarayon strukturasi uchta o'zaro bog'liq komponentlar ko'rinishida tasavvur qilish mumkin: ya'ni motivatsion, talaba bilish faoliyati va boshqarish. Didaktik jarayonning har bir komponentini qurishda qanday pedagogik tasavvurlardan kelib chiqilganligiga asoslanib, o'quv-tarbiya jarayonining turli texnologiyalarini qurish mumkin.

Psixologiya va pedagogika fanlarida "motivatsiya" deganda individ faoliyati ma'lum ma'noga ega bo'ladigan mazmunga, shaxs qiziqishlarining turg'unligi, faoliyat tashqi maqsadlarining ichki talablarga aylanishiga aytiladi. Pedagogik amaliyotda quyidagi uchta turdagi motivatsiya ajratib ko'rsatiladi: jalb etuvchi, motivatsion-muammoli holatlar va kasbiy qiziqishlar.

Motivatsiyaning mavjudligi talabalarning rejalashtirilgan ta'lim ko'rsatkichlariga erishishini to'liq ta'minlay olmaydi. Ta'lim jarayonlarini boshqarishni tashkil qilishning to'g'ri usuli tanlangandagina didaktik jarayonning tugallanganligi ta'minlanadi. SHuning uchun ham talabalarning barcha o'quv-bilish harakatlari, ularni o'zlashtirish va tuzatish, ya'ni o'zlashtirish jarayonini boshqarish zarur bo'ladi. O'zlashtirishni boshqarishning eng sodda usuli bu o'zlashtirishni mos darajadagi testlar yordamida davriy tarzda nazorat qilishdan iborat.

O'zlashtirishni turli nazariya va farazlar tarkibida bayon qilingan va mashqlar tizimi ketma-ketligi ko'rinishida keltirilgan, ya'ni o'quv-bilish faoliyati ketma-ketligi, operatsion ketma-ketlik sifatida o'quv faoliyati umumiy formulasi funktsiyalash algoritmi (FA) ni tashkil qiladi.

Talabaga funktsiyalash algoritmini bajarish yoki o'zgartirish maqsadida ta'sir ko'rsatish uning o'quv-bilish faoliyatini bajarishidir.

Agar, ta'lim jarayonini kuzatish ma'lum qonuniyatlar asosida amalga oshirilsa, bu qoida shu darajada ma'lum bo'lgan algoritm asosida amalga oshiriladigan ta'limni maqsadga muvofiq boshqarish to'g'risida so'z yuritish mumkin. Bu algoritmi "boshqarish algoritmi" (BA) deb nomladik. SHunday qilib, boshqarish algoritmi - bu talaba faoliyatini kuzatish, tuzatish tizimi bo'lib, FA ni boshqarishdagi turg'unlikni ta'minlash va qo'yilgan ta'lim maqsadlariga erishish uchun amalga oshiriladi.

Agar BAni ko'rsatmalar tizimi sifatida yozib olish mumkin bo'lsa, uni FA bilan birgalikda talabaning o'zi bajarishga to'sqinlik qilmaydi. SHunday qilib, talaba nafaqat bajaruvchilik, balki nazorat harakatlarini ham o'rganishi mumkin.

Umuman olganda, ta'lim jarayoni strukturasi o'rganuvchiga ta'sir ko'rsatishning ikki yo'nalishi ko'zga tashlanadi: birinchisi FA mantiq bo'yicha bo'lib, axborotni tahlil qilish va o'zlashtirishni amalga oshiradi; ikkinchisi - BA mantiq bo'yicha bo'lib FA ko'rsatmalarini kuzatish va bajarilishini nazorat qilishga yo'naltirilgan.

BA ko'rsatmalarining ma'lum qismini uzatishda pedagogdan talabaga uzatiladigan bilimlar va ularning samaradorligi o'zgarishga uchraydi.

**Umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarning rivojlanganlik darajasini baholashning ko'rsatkich va mezonlari**

Pedagogik texnologiyalarni baholash mezonlari tizimi ta'limdagi miqdoriy ko'rsatkichlar bilan birgalikda sifat ko'rsatkichlarni ham baholash imkonini beradi.

Mazkur tizimning ahamiyati unda nafaqat natijalash bosqichida, balki loyihalash bosqichida ham aniq olingan pedagogik texnologiyalarni mufassal tavsiflash imkonini beruvchi mezonlarning bir necha guruhlari mavjudligi bilan belgilanadi (6 –shakl).

**16.2. Yangi texnologiyalarni loyihalash bosqichida baholash mezonlari.** Birinchi mezon - jarayonni o'zaro ichki bog'liqlikka ega bo'lgan bosqichlar, davrlar va operatsiyalarga ajratib olish.

Ikkinchi - algoritmlilik mezonining asosiy funktsiyalari texnologiya tarkibiga kiruvchi operatsiyalarning bajarilishini baholash hamda belgilangan natijaga erishish ishonchligini ta'minlashdan iborat.

Algoritmlilik mezoni o'zida quyidagi eng asosiy ko'rsatkichlarni mujassamlashtiradi:

- texnologiya tarkibiga kiruvchi operatsiyalarning bajarilishidagi aniqlik va qat'iylik;
- funktsional to'laqonlilik mezoni.

Sub'ekt harakatlarida texnologiyada belgilangan ko'rsatkichlardan og'ish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa butun loyihalangan jarayonning buzilishi va ko'zlangan natijaga erisha olmaslik ehtimoli shu darajada ortib boradi. SHuningdek, operatsiyaning buzilishi texnologik tizimining butun ketma-ketligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi va oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan oqibatlarini keltirib chiqaradi.

Funktsional to'laqonlilik mezoni o'qitish texnologiyasini, o'qitish jarayoni barcha funktsiyalarini majmuaviy holatda amalga oshirish imkoniyatlari nuqtai nazaridan baholash imkonini beradi.

Texnologik ketma-ketlilik mezoni - texnologik jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshuvini ta'minlovchi quyidagi talablarni baholash imkonini beradi:

- texnologik jarayon tarkibiga kiruvchi operatsiyalar majmuasi va ketma-ketligi ushbu jarayonning amalga oshirilishidagi ichki mantiqqa va uning rivojlanishiga asoslanishi hamda uning tahlili asosida bajarilishi lozim;



- texnologiyalarni bajarish uchun talab etiladigan barcha harakat va operatsiyalarning qat'iy qayd etilishi va ularni amalga oshirish uchun zarur sharoitlarning aniqlab berilishi;

- har bir operatsiyani amalga oshirish teskari aloqa uchun imkon yaratuvchi harakatlar vositasida bajarilmog'i lozim.

Jarayonlarning ob'ektiv amalga oshish jarayonida o'qituvchining aralashuvi uchun hamma vaqt imkon bo'ladi, u harakatlarning bajarilish tezligiga, samaradorligiga va maqsadga muvofiqligiga mos holda operatsiyalarni bajarishning maromini yoki tartibini o'zgartirishi mumkin.

Loyihalash bosqichidagi baholash mezonini o'z ichiga ta'lim jarayonini boshqarish mezonini ham qamrab oladi. Uning asosiy vazifasi o'qitishning loyihalangan texnologiyasini unda mujassamlashtirilgan amaldagi o'qitish jarayonlarini amalga oshirishni nazorat qilish va rostdash nuqtai nazaridan baholash hisoblanadi.

Ushbu mezon quyidagi eng ahamiyatli ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi:

- o'zlashtirish ko'rsatkichi birligini (o'qituvchi modulni) tanlash;
- amalda bajariladigan operatsiyalarni etalon (ideal modul) bilan qiyoslash;
- korrektsiya usuli ko'rsatkichini tanlash usuli;
- maqsadga erishganlik darajasi ko'rsatkichi.

YAngi texnologiyalarning qo'llanilish bosqichini baholash mezonlari.

O'qitish mazmuni quyidagi sifat va miqdor ko'rsatkichlari bilan tavsiyalanuvchi ta'lim mazmunini baholashning xususiy mezonini vositasida baholanishi mumkin.

Sifat ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

- o'qitishda ta'lim, tarbiya vazifalari va ularni rivojlantirish mazmunini aks ettirishning bir butunligi;

- o'qitish mazmuni qabul qilingan o'zlashtirishning pedagogik-psixologik kontseptsiyasiga tuzilmaviy mosligi;

- o'qitish mazmunida fan, texnika va ishlab chiqarish zamonaviy taraqqiyot darajasining aks ettirilishi;

- empirik va nazariy, obrazli va tushunchali, konkret va abstrakt holatlarning gnoseologik jihatdan to'g'ri nisbatda olinishi.

Ushbu ko'rsatkichlar samaradorlik ko'rsatkichini aniqlash va uning sifat jihatidan tahlilini amalga oshirish imkonini beradi. SHu bilan birgalikda miqdor ko'rsatkichlaridan ham foydalanish lozim, u tadqiq etilayotgan jarayon mohiyatini aks ettirmasada, pedagogik faoliyatni yaxshilashga yordam beradi.

Bunday ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

- o'quv materialining axborot miqdori, u dasturda belgilangan mazmun elementlarini o'qituvchi tomonidan beriladigan axborotga nisbati sifatida belgilanadi;

- o'quv materialining o'zlashtirilganlik darajasi, u vaqt birligida o'quvchi tomonidan o'zlashtirilgan o'quv materialining shu vaqt mobaynida o'qituvchi tomonidan uzatilgan axborotga nisbati sifatida aniqlanadi.

O'quv materialini o'zlashtirish birligi shartli qabul qilinadi, bunda formulalar, qoidalar va hokazolardan foydalanish mumkin.

O'qitish jarayonida qo'llaniladigan metodlar samaradorligini baholashda xususiy mezondan foydalanish mumkin. U quyidagi sifat ko'rsatkichlari bilan ifodalanishi mumkin:

- uslublar maqsadining o'quv materiali mazmuniga muvofiqligi;

- uslublarni tanlashning pertseptiv, gnostik, mantiqiy, nazorat-baholash, motivatsion va boshqa omillarga ko'ra asoslanganligi. Ushbu ko'rsatkich vositasida baholashda o'qituvchi tomonidan talabalar shaxsiy xususiyatlarning, ular nazariy va amaliy tayyorgarligining, shuningdek, shaxsiy imkoniyatlarining ehtiborga olinganlik darajasi aniqlanadi;

- qo'llaniladigan uslublarni turli-tumanligi va qo'llaniladigan o'qitish usullarining variativligi;

- qo'llaniladigan uslublarning mavjud moddiy-texnik baza va ajratilgan o'qitish vaqtiga muvofiqligi.

O'qitish jarayonida qo'llaniladigan didaktik vositalarning samaradorligi quyidagi sifat ko'rsatkichlari bo'yicha belgilanadi:

- ko'rsatmalilik hamda ta'limning erishuvchanligi;

- didaktik vazifalarga, o`qitish uslublari va mazmuniga funktsional muvofiqlik;
- qo`llanilishning majmuaviyligi;
- qo`llanilish universalligi va ta`lim vositalarini ishlatish qulayligi.

Ta`lim vositalari samaradorligini miqdor ko`rsatkichlari vositasida baholashda ular qo`llaniladigan didaktik vosita turidan kelib chiqib tanlanadi.

O`quv jarayonini samarali tashqil qilishning xususiy mezonini ochib beruvchi sifat ko`rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- ta`limni tashkil qilish shakllarining bilim, ko`nikma va malakalarni o`zlashtirishning qabul qilingan davrlariga mosligi (psixologiya va mantiqiy aspekt);

- ta`lim shakllarining o`zaro almashinuvchanligi va xilma-xilligi, ular turlarining variativligi;
- o`quvchilar jamoa va individual faoliyat shakllarini eng maqbul nisbatini ta`minlash.

Bunda miqdoriy ko`rsatkichlar sifatida quyidagilar qabul qilinadi:

- qo`yilgan masalani hal qilish uchun belgilangan va sarflangan vaqt;
- o`quv jarayonining amalga oshirilish maromi;

- o`quvchilar mustaqil faoliyatini tashkil qilishda o`qituvchining yordam berish darajasi.

**16.3. Ta`lim natijalari samaradorligini baholash mezonlari.** O`quvchilar bilimlarining sifat ko`rsatkichlarini baholash quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

- bilimlarning chuqurligi, u egallangan bilimning unga yaqin bilim sohalari bilan anglangan ahamiyatli aloqalari orqali tavsiflanadi;

- bilimlarning qo`llanuvchanligi, o`quvchining o`zlashtirgan bilimlarini aloqador sohalarda qo`llay olishga tayyorligi va bu boradagi ko`nikmalarini ifodalaydi;

- tizimlilik, o`quvchilar ongidagi bilimlar majmui sifatida tavsiyalanadi va uning tuzilmasi ilmiy bilimlar tuzilmasiga muvofiq ravishda qaraladi;

- bilimlarning anglanganligi, ular o`rtasidagi aloqalarda, bilimlarni olish yo`llari va ularni isbotlay olishda namoyon bo`ladi.

O`qish natijalari samaradorligini baholashga misol sifatida o`zlashtirish darajalariga bog`liq ravishda bilimlar chuqurligining o`zgarishini ko`rsatib beramiz.

1-daraja (bilish) - talaba ob`ekt yoki jarayonning tashqi xarakteristikasi bilan yuzaki tanish ekanligini namoyish qilib, berilgan ob`ekt yoki harakatni boshqalaridan farqlash bilan chegaralanadi.

2-daraja (mahsulsiz) - talaba qator belgilar asosida ma`lum ob`ektni farqlash bilan birgalikda unga ta`rif bera oladi va o`quv materialini tushuntirib beradi.

3-daraja (mahsulli faoliyat) - o`quvchi o`rganilayotgan hodisalar aloqadorligini bilishi hamda ob`ektni tavsiflay olish ko`nikmasiga ega bo`lish bilan birgalikda, qo`yilgan masalalarni sabab-oqibat aloqadorligini ochib bergan holda echa oladi, o`rganilayotgan nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog`lay oladi.

4-daraja (transformatsiya) - o`quvchi ijodiy masalalarni hal qilish mobaynida tegishli bilimlarni qo`llash doirasini maqsadga muvofiq tanlab, echimni topishga xizmat qiluvchi yangi usul va yo`nalishlarni topa oladi.

Har bir sifat ko`rsatkichiga ko`ra o`zlashtirilgan bilimlar samaradorligi darajalari bo`yicha yuqoridagi tartib asosida aniqlanadi.

Bundan tashqari, quyidagi ko`rsatkichlardan foydalangan holda har bir daraja bo`yicha o`zlashtirilgan bilimlarni miqdoriy baholash mumkin:

- o`zlashtirilgan bilimlar hajmi;
- o`quv materialini o`zlashtirish tezligi;
- o`zlashtirish puxtaligi;
- o`zlashtirish aniqligi va h.q.

Ishlab chiqarish ta`limi uchun integral mezon asosida berilgan ta`lim shakli natijalari samaradorligini baholashni ta`minlovchi maxsus ko`rsatkichlar mavjud.

Integral mezon ikkita xususiy mezonlar asosida tashkil topadi:

- harakat yo`naltiruvchi asosining shakllanganlik darajasi mezoni;
- ko`nikma va malakalar shakllanganlik darajasi mezoni.

Harakatni yo`naltiruvchi asosining shakllanganlik darajasi belgilovchi mezon sifatida talabalar tomonidan tuzilgan o`quv-yo`riqnoma kartasi xizmat qilishi mumkin. U bir tomondan harakatni

yo`naltiruvchi asosini o`zlashtirish jarayonini tashkil etuvchi vosita sifatida, ikkinchi tomondan faoliyat mazmunining me`yoriy asosi, uni amalga oshirishning etaloni sifatida xizmat qiladi. Qayd etilganlar asosida quyidagilar birinchi mezonning ko`rsatkichlari sanaladi:

- o`quvchilar tomonidan to`ldirilgan kartalardagi axborotning to`liqligi;
- kartalarni mustaqil to`ldirilganligi;
- kartalarni to`ldirishning to`g`riligi.

Axborotning to`liqligiga kartalarga olinishi talab etiladigan natija uchun ahamiyatli bo`lgan barcha predmet sharoitlari va tavsiflarini kiritish yo`li bilan erishiladi.

Kartalarning mustaqil to`ldirilish darajasi vazifani bajarishda ishlab chiqarish ustasining talabaga bergan yordami darajasidan kelib chiqib belgilanadi.

Kartalarning to`ldirilish to`g`riligi harakatlarni tavsiflash orqali nazorat qilib boriladi.

Adekvat tushunchalar tizimida faoliyatni xatosiz tavsiflash, uning mazmuni to`g`risida to`liq hisobot bera olish ko`nikmasi ishlab chiqarish ustasiga talabada harakatni yo`naltiruvchi asosi shakllanganligi to`g`risida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Ikkinchi mezon kasbiy ko`nikma va malakalar shakllanganlik darajasini baholash uchun xizmat qiladi. Bunda yuqorida qayd etilgan omillardan tashqari ko`rsatkichlarning invariant to`plamini quyidagi tartibda keltirish mumkin:

a) sifat ko`rsatkichlar:

- bajariladigan harakatlarning to`g`riligi;
- ish o`rnini va mehnatni to`g`ri tashkillashtirish;
- ishni mustaqil bajarish;
- xavfsizlik texnikasi hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi;
- vazifalarni bajarishda nazariy bilimlarni qo`llay olish;
- novatorlar ilg`or ish uslublarini qo`llay olishi;
- ishlab chiqariladigan mahsulot murakkabligi;
- texnologik jarayonni kulay ketma-ketlikda amalga oshirish;

b) miqdor ko`rsatkichlari:

- ishni bajarish aniqligi (normativdan og`ish qiymati);
- vazifani bajarishga ajratilgan vaqt;
- vazifani bajarishda yo`l qo`yilgan xatolar soni;
- xom-ashyo sarfi me`yoriga amal qilish;
- texnologik jarayonlarni bajarish uchun jihoz va asbob-uskunalarining qulay ro`yxatini ishlab chiqish.

Umuman olganda, keltirilgan barcha ko`rsatkichlarni hisobga olgan holda ta`lim natijalarini test nazorati yoki komponentli tahlil metodlari vositasida baholash mumkin.

Ushbu nazorat metodlarining xususiyati ham nazariy, ham ishlab chiqarish ta`limi turlariga nisbatan birdek samarali qo`llanilishi bilan belgilanadi. Farqi esa birinchi holatda baholashning integral mezoni sifatida o`quv materialining o`zlashtirilganlik mezoni, ikkinchi holatda esa - mos ravishdagi maxsus mezonlar asosida ta`minlanuvchi kasbiy ko`nikma va malakalarning shakllanganligi mezoni xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot sohasiga oid ilmiy adabiyotlarning hamda talabalarning umummehnat hamda kasbiy ko`nikma va malakalarini shakllantirishdagi psixofiziologik xususiyatlarining tahlili asosida (I bob) biz bo`lajak mehnat va kasb ta`limi o`qituvchilarida bilim va ko`nikmalar shakllanganligining 3 - jadvalda keltirilgan mezonlarini aniqladik. Bunda ko`rinib turganidek, mezonlar besh ballik baholash tizimiga asoslangan uchta darajadan iborat, shakllanganlik darajasi esa har bir daraja uchun alohida aniqlab olingan.

Bo`lajak o`qituvchilarda bilim va ko`nikmalarni shakllantirish jarayonini takomillashtirish maqsadida biz maxsus mashqlar tizimini hamda ularni bajarish uchun talabalarga individual topshiriqlar majmuasini ishlab chiqdik (3 - jadval).

Darajalar ko'rsatkichlari	Ballar	SHakllanganlik mezonlari
YUqori	4 va undan yuqori	Tayyorlanadigan buyumlar to'g'risida nazariy bilimlarga ega bo'lish. Buyumlarni loyihalash va tayyorlash ko'nikmalari. Buyumga badiiy ishlov berishni baholash
O`rta	3	1.Buyumlarni tayyorlay olish ko'nikmasi. 2.Buyumga badiiy ishlov berishni baholash
Past	2	Buyumlarni tayyorlay olish ko'nikmasiga ega bo'lish.

Tadqiqotning tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishda muallif tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim mazmuni, ta'lim vositalari yig'indisi, trenajyorlar va ishlab chiqilgan ta'lim uslubi asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida tashqi teskari aloqa yordamida didaktik imkoniyatlari kengaytirilgan trenajyorlar sistemasidan foydalandik. Bu aloqa talabalar vazifasini bajarishda yo'l qo'ygan xatoliklarni aniqlash imkonini beruvchi elektr impul'slari schyotchigi yordamida amalga oshirildi. Tashqi teskari aloqaning kiritilishi o'qituvchining talaba faoliyatini nazorat qilishiga sarflaydigan vaqtini qisqartiradi va egov bilan ishlash, metall qirqish, bolg'a bilan zarb harakatlarini mashq qilish, keskich yordamida uchburchak rez'ba ochishda tokarlik stanogi supportini boshqarish va fason yuzalarga ishlov berishda ta'limni boshqarish tizimini yaxshilash imkonini berdi. SHu bilan birgalikda biz ta'lim mazmunini ishlab chiqdik va asosladi, uning pedagogik-psixologik va uslubiy turkumdagi o'quv dasturlaridagi o'rni belgilab berildi. O'quv qo'llanmasi bilan birgalikda talabalarning trenajyorlarda ishlashini tashkil qilish uchun zarur bo'lgan algoritmlar tizimi, ushbu faoliyat to'g'risida dastlabki tasavvurlarning shakllanganligini tekshirish uchun testlar tizimi ham ishlab chiqildi.

#### 4 - jadval

#### *Maxsus mashqlar tizimini hamda ularni bajarish uchun talabalarga individual topshiriqlar*

Topshiriq nomi	Bajarilish shakli
Mehnat va kasb ta'limi o'qituvchisining tashkiliy faoliyati turlarini sanab bering	Og`zaki
O`zining o`qituvchilik faoliyatida har kungi o`z-o`zini nazorat qilish usullarini aniqlash	YOzma
Badiiy buyumlar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan mahalliy hududdagi ishlab chiqarish korxonalarini sanab bering	YOzma
Respublikamizning taniqli hunarmandlarini nomlarini aytib bering	Og`zaki
Badiiy ob`ektga ishlov berish mezonlarini tushuntirib bering	YOzma
Buyumlarni loyihalash bosqichlarini sanab bering	Og`zaki
Buyumlarga qo`lda va mexanik usulda ishlov berishning xususiyatlarini bayon qiling	YOzma
Tayyorlangan buyum sifatini baholang	YOzma
Mehnat ta'limi darslarini tashkil qilishda mahalliy hududingizda mavjud sharoitlarni tavsiflab bering	Og`zaki

Nazorat va tajriba guruhlarini shakllantirishda asosan talabalar yoshi, kirish imtihoni natijalari, metallga qo'lda va mexanik ishlov berish malakalarining mavjud emasligi hamda o'quv materialini o'zlashtirish tezligini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan test natijalaridan foydalanildi. Testlar tarkibiga kiritilgan tushunchalarning ilgari o'zlashtirilgan materiallarga bog'liqligiga e'tibor qaratildi. Vazifa shundan iborat ediki, talabalar ushbu tushunchalarni o'zlashtirib, ularni yozma ravishda bayon qilishlari lozim edi. Tushunchalarni o'zlashtirish uchun ajratilgan vaqt cheklangan bo'lib, bunda faqatgina ishning boshlanish va tugash vaqti qayd etib borildi. Keyin esa belgilarda ifodalangan, bayon

qilingan axborot hisoblanib, o'zlashtirish tezligi aniqlanadi. SHunday qilib, biz intellektual imkoniyatlari bir xil bo'lgan uchta guruhni shakllantirdik, ularning ikkitasi tajriba, uchinchi nazorat guruhi qilib belgilandi.

**16.4. Tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq qilishning asosiy yo'nalishlari va xususiyatlari. Metallarga qo'lda ishlov berish.** Tajriba va nazorat guruhidagi ta'limning farqi shundan iboratki, nazorat guruhida ishlab chiqarish ta'limining an'anaviy uslubidan foydalanildi, tajriba guruhida esa biz taklif etgan uslubdan foydalanildi. U shundan iboratki, dastlabki harakatlar to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirish maqsadida darsning yoyilgan sxemasidan foydalanildi va ushbu namuna necha yillar mobaynida amalga oshirib borildi hamda trenajerli ta'limning umumiy asoslarini, uning psixofiziologik va didaktik usublari asoslarini, shuningdek bizning faol yondashuvimiz natijasida ishlab chiqilgan intensiv ta'lim texnologiyasini qo'llash bilan chuqurlashtirib borildi. Buning uchun foydalanilayotgan trenajyorlar imkoniyatlari tashqi teskari aloqa kiritilishi hisobiga kengaytirildi, diapozitiv va testlar tizimi ishlab chiqildi hamda ular asosida ikkinchi o'zlashtirish darajasidagi dastlabki harakatlar to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanishi ob'ektiv nazorati amalga oshirildi. Diapozitiv, test va tashqi teskari aloqaning qo'llanilishi talabalarining ish bajarishi uchun ajratilgan vaqtni uzaytirish va boshqarish algoritmi sifatida yaxshilash imkonini berdi. Bundan tashqari tajriba guruhda komponentli mashq bajarish uslubidan foydalanildi va uning yordamida dastlab malakaning alohida elementlari shakllantirilib, so'ngra ular bir butun holatga keltirildi. Malakaning ushbu tashkil etuvchilari har bir guruhdagi trenajyorli ta'lim yakunida xatolar ma'lum vazifani bajarishga sarflangan vaqt, namuna egovlan qismi uzunligi va uning sifat ko'rsatkichlari sifatida qayd qilib borildi. Ushbu ma'lumotlar asosida o'zlashtirish koeffitsienti aniqlandi va baholar besh balli shkala bo'yicha qo'yib borildi. Nazorat va tajriba guruhlardagi testlar biz taklif qilgan uslublar asosida olib borildi. Quyida biz ushbu test natijalarining metallga ishlov berish, uni qirqish va bolg'alash bo'yicha yakunlangan trenajyorli ta'lim ko'rsatkichlarini keltiramiz (5-jadval).

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhda hosil qilinadigan malaka turidan qat'iy nazar barcha ko'rsatkichlardan yuqori natijalar qayd etilgan. SHuni ta'kidlash joizki, nazorat guruhida o'zlashtirish koeffitsienti 0,7 dan yuqori bo'lgan bo'lsa-da, ushbu guruhda metallarga ishlov berishga oid trenajyorli mashqlar yakuni bo'yicha beshta talaba umumiy mezon asosida 2 baho oldilar. Bundan kelib chiqqan holda o'zlashtirish koeffitsienti 0,7 dan kichik bo'ladi. Agar nazorat guruhi talabalarining test sinovlari natijalarini alohida olingan talabalar uchun ko'rib chiqadigan bo'lsak (6 - jadval) boshqa metallarga nisbatan ham xuddi shu manzarani kuzatishimiz mumkin. SHu vaqtning o'zida tajriba guruhi talabalari bironta ham salbiy baho olmadilar.

Talabalar "Metallga qo'lda ishlov berish" mavzusini o'zlashtirib bo'lganlaridan so'ng biz ilgari ishlab chiqilgan uslub bo'yicha test va ko'rsatilgan hisobni amalga oshirdik. Ushbu natijalar 6 - jadvalda keltirilgan.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar ilgari olingan natijalarni tasdiqladi, o'zlashtirish darajasi uchala guruhda ham ko'tarilgani namoyon bo'ladi. Biroq tajriba guruhlardagi nisbatan yuqori o'zlashtirish koeffitsienti (0,84) va yuqori o'rtacha ball saqlanib qoldi. Ushbu holat tajriba jarayonida qo'llanilgan uslublarning samaradorligidan dalolat beradi.

Tajriba sinov ishlarining navbatdagi bosqichlarida "Maktab o'quvchilari mehnat va kasbiy tayyorgarligining psixofiziologik asoslari", "O'qitishning zamonaviy texnika vositalari", "Maktab o'quvchilarini mehnat va kasbga tayyorlashning nazariy asoslari" va "Mehnat va kasb ta'limi uslubi" fanlariga muvofiq ravishda "Trenajyorlar va ularning tasnifi", "Trenajyorlarni qo'llashning psixofiziologik va didaktik asoslari" va "Trenajyorlarni qo'llashning uslubi" kabi mavzular bo'yicha faoliyat mazmuni ishlab chiqildi.

Har bir mavzu o'rganib chiqilgan metallga qo'lda va mexanik ishlov berish, shuningdek avtomobilni boshqarishga oid dastlabki xarakteristikalar to'g'risidagi tasavvurlarni chuqurlashtiruvchi sifatni nazorat qilish amalga oshirib borildi. Bir vaqtning o'zida nazoratdan so'ng metallga qo'lda ishlov berish yuzasidan ilgari xosil qilingan malakalarni test o'tkazish yordamida aniqlandi. Ushbu testlarning miqdoriy ko'rsatkichlari 7 va 8 - jadvallarda keltirilgan.

Ushbu jadvallarni qiyoslash shuni ko'rsatmoqdaki 7, 8 va 9 semestrlar davomida ikkala guruhda ham malakalar o'zlashtirilgan davrdagiga nisbatan so'nib borgan. Biroq, u tajriba guruhda asta-sekin

tiklanib borgan va 8 semestrda dastlabki darajasiga erishgan. SHu bilan bir vaqtda nazorat guruhida u asta-sekin pasayib bordi va amalda yo`q bo`lib ketdi, chunki talabalar uni ko`plab sinab ko`rish va xatoliklar bilan amalga oshirdilar. Metallarni egovlash bo`yicha kechiktirilgan egovlashni biz ilgari olgan natijalarimizni tasdiqlash maqsadida o`tkazdik.

## **17. MA`RUZA**

### **KASB TA`LIMI PEDAGOG KADRLARINI TAYYORLASH VA ULAR MALAKASINI OSHIRISH**

**Reja:**

**17.1. Kasbiy malakaviy tuzilmada ishchi kadrlarning o`zgarishi**

**17.2. Ishchilar ixtisosligini tahlil qilish metodikasi**

**17.3. Keng tarmoqli va yuqori malakali ishchilar haqida tushuncha**

**17.4. Keng tarmoqli va yuqori malakali ishchilar tayyorlashga qo`yiladigan talablar.**

**17.5. Ishchilar oliy ta`limi**

**17.1. Kasbiy malakaviy tuzilmada ishchi kadrlarning o`zgarishi.** Fan-texnika taraqqiyoti davrida ishchilarning mehnat qilish sharoiti o`zgaradi, chunki ishlab-chiqarish jarayonida ishchining bajaradigan faoliyati, dunyoqarashi, o`rni o`zgaradi. Ushbu o`zgarishlar ishlab-chiqarish bosqichlarining rivojlanishi yangi mayllarning o`shishiga olib keladi. Ishchi ushbu rivojlanishdan foydalangan holda yangicha ishlashni hohlaydi. Ishchilarda yuzaga kelayotgan o`zgarishlarning kuchayishida ishlab-chiqarish omillari kuchli rol` o`ynaydi. Buning asosida jismoniy mehnat, ya`ni insonning bajaruvchilik funktsiyasi yotadi.

Mehnatdagi asosiy o`zgarish, avvalambor, insonlarning jipsligidan kelib chiqadi. Ma`lumki, ishlab-chiqarish jarayonida inson asosan 4 ta asosiy funktsiyani bajaradi:

- ishchi o`z jismoniy harakati bilan aylantiruvchi va harakatlantiruvchi harakatlar hosil qilish uchun mehnat qurollarini ishlatadi;
- mehnat qurollarini boshqaradi va ularga ta`sir ko`rsatadi;
- ularni to`g`rilaydi va ta`mirlaydi;
- ularni loyihalashtiradi va ishlab-chiqarish jarayoniga tatbiq qiladi.

Mehnatni boshqarishda zamonaviy ishchiga 1- va 2-funktsiyalar doirasidagi ko`rsatkichlar ahamiyatli bo`lishi bilan bir qatorda mehnatning mazmuni va ijodiyligini oshirishda 3-4-funktsiyalar ham muhimdir.

Mashinasozlikda asosiy o`rinni kompleksli mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirilgan ishlab-chiqarish egallaydi.

Tarixga nazar solib ko`rsak, mashinasozlikda yuqori malakali ish darajasi oshib bormoqda. Masalan: 30-yillarda slesar ta`mirlovchi 9-10 ta stanokda ishlay olgan, hozirda esa 25-30 ta stanokda bemalol ishlay oladi va 100 dan ortiq metall va nometall materiallardan foydalanadi. Bundan tashqari u payvandlashni ham bilishi kerak. Tokarlik ishi yillar o`tgan sari sezilarli darajada o`zgaradi. 30-yillarda 3-razryadli tokar oddiy ishlarni master qo`l ostida qilardi. 40-yillarda esa stanokning asosiy qismlarini, ya`ni zo`riqish bo`lganda sinadigan joylarni, oddiy qirquvchi va o`lchov asboblarni sovitish va moylash, moylash suyuqligini ishlatishni ham bilishi kerak bo`lgan. Yana tokar stanok markalarini va nuqsonli mahsulotni aniqlay olishi ham kerak.

60-yillarda esa tokar keng tarqalgan va universal stanoklar tuzilishini, oddiy va qirquvchi asboblarni qo`llashni ko`rsatma berishni, material o`lchovlari va yuza tozaligini bilishi talab etilar edi.

70-yillarda tokar stanokning tuzilishi, ishga yaroqliligi hamda stanoklarni boshqarish qoidalarini tekshiruvchi o`lchov asboblardan foydalanish qoidalarini bilishi kerak bo`lgan.

80-yillarda esa 3 - razryadli tokar stanokda ishlash bilan birga elektronika ishlarini ham bajara olishi talab qilingan.

90-yillarda texnikaning rivojlanishi yangi tipdagi stanok ishchilarini shakllantirdi. Keng tarmoqli universal ishchilar vujudga keldi. Hozirda bu ishchilar 14 ta ixtisosliklarni egallagan. Bu

ixtisosliklardan tokarlik avtomatlarini sozlovchilar, yarim avtomat va avtomatlashtirilgan stanoklarni sozlovchi hamda boshqalar. Ishchi sozlovchilarning bu guruhi elektrotexnik bilimga ham egadirlar.

O`ora metallurgiya sohasida hozirda 58,3% ishchilar aqliy ish funktsiyalarini bajarish imkoniyatiga ega.

Ko`mir sanoatining texnik mukammallashtirilgan mexanizatsiyalashishida ishchilarning o`rni katta. Og`ir ishlarni mashinalar bajarayapti. O`urilish sohasida ham og`ir ishlar kamaydi, mexanizatsiya ishlari kuchaydi. Bugungi kunda qurilish sohasida 20 ta quruvchilar o`rnida 7 ta quruvchi ishlamoqda.

O`ishloq xo`jaligida yuqori malakali ishchilar shakllanmoqda. Masalan, 20-yillarda traktorlar paydo bo`lgan. O`shanda ularning soni 600 ta edi. Traktorni ta`mirlovchi mexaniklar paydo bo`ldi. 30-40-50-yillarda kombaynlar, kartoshka teruvchilar shakllandi. 50-yillarda mashinachi-traktorlar paydo bo`ldi. Hozirda jismoniy ish kamayib aqliy faoliyat o`sib bormoqda. Bu ishchilardan keng ko`lamda puxta bilimlarni o`zlashtirishda talab qilmoqda.

**17.2. Ishchilar ixtisosligini tahlil qilish metodikasi.** Keng tarmoqli va yuqori malakali ishchilar malakasini tekshirishda ishchi ixtisosligi tahlil qilinadi. Komissiya tuziladi. Komissiya a`zolari o`qituvchi va vrachlardan iborat bo`ladi.

Reja tuziladi:

Mehnat turi va miqdorini aniqlash;

Texnik-tashkiliy sharoitlar;

- Qanday mahsulot ishlab chiqiladi?
- Qanday yordamchi materiallar ishlatiladi?
- Qanday mehnat turlari (asboblari, xususiyatli belgilar)dan foydalaniladi?
- Qanday o`lchamli va rostdash asboblariidan foydalaniladi?
- Qanday tekshirish asboblari qo`llaniladi?
- Qanday ish metodlari qo`llaniladi?
- Ishlab chiqarish qanday tashkillashtiriladi?

Ishchilar bajaradigan ishlar:

- Ishchilar qanday harakatlarni qiladilar?
- ushbu harakatlarning davomiyligi va ishlab-chiqarishdagi ahamiyati.

Kvalifikatsiya:

Ishchi qanday bilim va ko`nikmalarga ega bo`lishi texnik, iqtisodiy va tashkiliy ishlarni bajarishi kerak?

Maxsus tajriba:

Qaysi sohalarda ishchilar maxsus tajribalarga ega bo`lishi kerak va ular nima bilan tavsiflanadi?

Bu bilimlarni olish uchun qanday imkoniyatlar bor?

Javobgarlik.

Maxsus texnik talablar.

Maxsus jismoniy-texnik talablar.

Tashkiliy tayyorlashga nisbatan bildirilgan taklif.

Ilmiy-texnik taraqqiyotga etib borish:

- mexanizatsiya va avtomatizatsiyalanishni oshirish, mehnat vositalarini o`zgartirish;
- materialning sifatini o`zgartirish;
- mehnat metodining o`zgarishi;
- mehnat, ishlab-chiqarishni tashkillashtirish mohiyatini o`zgartirish;

Bu tahlillar sharoitni hisobga olgan holda bajarilishi kerak. Ishchilarni o`qitish uchun tashkilot etarli darajadagi o`quv materialiga ega bo`lishi kerak. Tahlilning natijasi ishchilar tarkibiga bog`liq va ushbu tarkib korxonada rivojlanishiga tahsir qiladi. YUqori malakali ilmiy-texnik rivojlanishga olib keladi. Mehnatning sifati - uning mexanizatsiyalashgan va avtomatlashtirilganligi va yuqori malakali ishchilar bilan ta`minlanganligi bilan belgilanadi. SHu bilan bir qatorda ishchining ma`lum bir sohadagi aniq faoliyatini belgilab beradi. Ma`lum sohadagi ishchilarning muayyan ish quroli bilan ishlashi sifatli boshqarishni belgilab beradi. Ishchilar ish joyini tahlil qilishga quyidagilar kiradi:

ish joyi miqdori;

tsexdagi smena almashinuvi;

tsexning ishlab-chiqarish turi;

ish joyining jihozlanganligi;  
 mexanizatsiyalashtirilganlik darajasi;  
 texnik-xavfsizlik xolati;  
 ish joyini o`rganishning davomiyligi;  
 uskuna xolati;  
 ishlab-chiqarish jarayonidagi nazariy bilimni amaliy faoliyatda qo`llash imkoniyati;  
 ishlab-chiqarish vaqtining rejasi;  
 yangi ish usullari;  
 ishchilarning ish bilan zo`riqish darajasi;  
 mehnat sharoiti (muskullarni ishlatish, charchash);  
 ish joyining sanitar -gigiena xolati;  
 tarbiyaviy ish sharoiti;  
 ish joyini tahlil qilishda band bo`lish darajasi;  
 operatsiyalarni bajarishga ketgan vaqt, tekshirishga ketgan vaqt, ishdan-ishga o`tishga ketgan vaqt, tanishish uchun ketgan vaqt, ish bajarish tezligi va x.

Ish joyini tahlil qilish har bir ish joyida shart-sharoitlarni hisobga olgan holda olib borilishi kerak. Malakali ishchilar tayyorlash 3 guruhda tashkil etiladi: 1. YUqori. 2.O`rta. 3. Past.

-Jadval

### Ish joyining ta'minlanishi va tashkil etilishi

Mehnatning mo`ttadil xolati	-ish joyi me'yor; -miqdor va mehnat sig`imi; -texnik asoslangan me'yor miqdori; -hisoblangan me'yor miqdori va uning rivojlanishi; -ish me'yoringin bajarilishi; -mehnatga haq to`lashning joriy etilgan me'yori samaradorligini oshirish;
Ish joyini loyihalash va tashkil etish	-iqtisodiy va operativ loyihaning xolati; -moddiy texnik ta'minlanganlik xolati; -ish joyida sifatli mahsulot ishlab chiqarishni nazorat qilishni tashkil etish; - ish joyiga taaluqli bo`lmagan zo`riqish darajasi;
Asbob va uskunalalar bilan jihozlash	-mashina ish vaqtini ko`rsatuvchi jihoz; -ish vaqtida tartibni joriy qilish; -jihozning texnologik afzalliklarini joriy qilish; -ish joyining jihozlanganligi; -asboblarni qo`llash;
Ish joyi va mehnat shariot-larini rejalashtirish	-ish joyini rejalashtirish; -ishchilar ish sharoiti; -muskul energiyasini sarflash; -charchash.
Texnik jarayon	-texnik jarayonlarning rivojlanishi; -mexanizatsiyalashgan texnik jarayon darajasi; -uzviylikni ta'minlash.
Mehnatni tashkil etish va uning usullari	-joriy etilgan mehnat tartibi; -mehnatni umumiyashtirish yoki ajratish; -puxta o`ylangan harakat.
Ishchilarning ijodiy yondoshuvi	-ishchi malakasi; -musobaqada ishtirok etish; -ratsionalizatsiyada qatnashishi; -tajriba almashishda qatnashishi.

**17.3. Keng tarmoqli va yuqori malakali ishchilar haqida tushuncha.** Keng qamrovli va yuqori malakali ishchilarni boshqarishda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi nomli yangi mehnat turi



paydo bo'ldi. Ularning mehnatida bir qancha umumiyliklar bor. Turli rusumdagi mashinalarni ta'mirlash, boshqaruvni olib borish, jarayonlarni boshqarish.

Keng qamrovli ishchi o'z faoliyatida bir qancha kasblarni qamrab oladi, zarur bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi.

Bu aralash texnologik uchastkalarda ishlab chiqarish funksiyalarini amalga oshirishda qo'l keladi. U ishlab-chiqarish sohasidagi bilimlar bilan qurollangan bo'lib, ishlab-chiqarishning o'zgarib turadigan shartlariga tez ko'nikib keta oladi.

Keng tarmoqli ishchilarning 4 ta ko'rinishi mavjud. Bu ko'rinishlarni aniq misollarda ko'rib chiqamiz.

Keng qamrovli ishchi (1-ko'rinish), masalan: «quruvchi-montajchi» o'z faoliyatida suvoqchi, betonchi, duradgor, elektr payvandchi, tosh yo'nuvchi, po'lat va temirbetonli materiallarni montaj qiluvchi, montajchi kabi kasblarni o'zlashtiradi. Zarur sharoitlarda ushbu guruxga kiruvchi ishchilarni bir asosiy yo'nalishga asoslanib tayyorlash mumkin. Boshqa misol: ishchi-shtamplovchi, ilgari mavjud bo'lgan yakka tartibdagi kalibrlovchi-shtamplovchi, sovuqlayin shtamplovchi, eksoentrik presslash-shtamplovchi, grafiklovchi va h.o. kabi mutaxassisliklarni qamrab olgan. Keng qamrovli ishchi (2-turi) o'z ishi bilan birga boshqa soha ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi, uni o'z mehnat jarayonida qo'llaydi.

Bu turdagi ishchi boshqa kasblarning faqat bir qisminigina bajaradi. Unga ishlab-chiqarishning keng ko'lami, amalga oshirilayotgan ishlarning xilma-xilligi, ularning qishloq xo'jaligining u yoki bu sohalarida tarqalganligi kabilar xarakterlidir.

To'liq holdagi ishchi ishning barchasini bajaradi. Bu kabi ishchilarni biz 3-turga kiritishimiz mumkin. Ular 3 ta mutaxassislikka ega bo'lib, shu sohada olgan bilimlarini o'z kasbida qo'llaydi. Ishchilarni bu tarzda tayyorlash stanoklarning to'xtab qolmasligi, ularning to'xtovsiz ishlashi va qo'shimcha ishchi kuchidan foydalanish zaruratini qoldirmaslik uchun asqotadi.

Bir vaqtda va bir ish o'rnida 2 ta mutaxassislikda ishlovchilarni 4 turga birlashtirishimiz mumkin.

Mutaxassisliklar chegarasining kengayib borishi hisobiga xalq-xo'jaligida ularning soni kamayib bormoqda. eskirgan mutaxassisliklar yo'qolib, yangi mutaxassisliklar xalq xo'jaligining barcha sohalarida o'z o'rnini topmoqda. Keng tarmoqli malakali ishchi - bu past malakali ishchi degani emas. YUqori malakali ishchi keng sohada ish bajaradi va ma'lum nomenklaturada ishlaydi. Turli sohaja malakaning yuqoriligi har xil. Bulardan kelib chiqadiki, hozirgi zamonaviy mahsulot ishlab-chiqarishdagi mehnat predmetlarida ilgari universallik bo'lgan bo'lsa bunda ishchining keng soha mutaxassisi ekanligi tushuniladi. Hozirda universal ishlash ko'proq mashinalarga xosligi uchun bu tushuncha mazmuni o'zgaradi. Keng tarmoqli ishchi mehnati bilan yuqori malakali ishchi mehnati bir-biridan farq qiladi.

Uzoq vaqt bir xil mahsulot chiqaradigan korxonada ishchilar malakasi bir daraja past bo'ladi. turli malakali ishchilarni ishlatish qo'llanayotgan texnik jarayonga bog'liq.

Ishlab-chiqarishda ishchilar malakasini oshirish uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak: tayyorlovchi tsexlarda ko'proq metall xususiyatlarini o'rganish, mexanik tsexlarda ishlov berish metodlari teruvchi tsexlarda tayyor mahsulot ishlab-chiqarish bilimlariga amal qilish talab qilinadi.

Keng ko'lamli ishchining professionalligi nima bilan belgilanadi?

Keng ko'lamli ishchining professionalligi shu bilan belgilanadiki, u yangi joyga va yangi sharoitga tez ko'nikadi. Bunday hollarda qayta qurish va to'g'rilash ko'nikmalari hosil bo'ladi. Amaliy ko'nikmalar o'zidan-o'zi o'zgarmaydi, bular ishlab-chiqarish sharoitlari o'zgarishi, mehnat jarayonlari tuzilmalari va uning miqdori bilan o'zgaradi.

Professionallikning yuqori bosqichlarga ko'tarilishi ishchilarning ko'plab funksiyalarni bajarishi boshqa kompleks mehnat bilimlari hamda ish faoliyatining kengayishi asosida yuzaga keladi. Professional ishchi o'zi ishlab chiqargan mahsulot sifatini tahlil qila oladi. Bu jarayondagi asosiy holat, bu nazariy bilimlarni bilish emas, balki ularni amaliyotda qo'llay olishdir. Professional igchi o'zi ishlab chiqargan mahsulot sifatini tahlil etish bilan birga metallarga yuqori darajada ishlov beradi. U har qanday stanokda ishlay va ularni ta'mirlay oladi. U berilgan vazifani qimmat metallarda ham 1-2-darajali aniqlik bilan bajara oladi. Uning amaliy bilimlari va ko'nikmalari ishlab-chiqarish texnologiyasi jarayonlarini qamrab oladi. Bunday ishchilar texnika rivojlanishidagi o'zgarishlarga tayyor turadilar.

Integratsiya jarayoni texnik jarayonda yangi texnikani boshqara oladigan ishchilarni talab qiladi. YUqori malakali ishchilar-yuqori umumiy texnik bilim va tajribaga ega bo'lgan hamda yangi bilimlarni ishlab-chiqarishda o'zining amaliy faoliyatida qo'llay oladigan ishchidir.

YUqori malakali ishchi turli qiyin mehnat turi faoliyatlarini bajara oladi. Unda yakka faoliyat rivojlangan bo'ladi. Bu ishchi ko'p texnik tayyorgarlik va malakaga ega. O'z ishida faol, ijodiy ish qila oladi. Uning nazariy bilimlari etarlidir. Bu ishchi ma'suliyatni his qila oladi. YUqori malakali ishchining mehnati shu bilan belgilanadiki, u ko'p tomonlama ko'nikma va malakalarga ega. U bir ishdan boshqa ishga tez o'ta oladi.

**17.4. Keng tarmoqli va yuqori malakali ishchilar tayyorlashga qo'yiladigan talablar.** Oxirgi yillarda turli xil stanoklarda ishlay oluvchi, uni ta'mirlay oluvchi, mahsulot sifatini yuqori qilish uchun lozim asboblardan orasidan qulayini tanlay olib ishlatadigan ishchilarga talab ortib bormoqda. Ushbu ishchilar mehnat qilish jarayonlari va ko'p imkoniyatdan qulayini tanlay olishi kerak.

Bunday ishchilar, ya'ni, ta'mirlovchilar eski tushuncha bo'yicha oliy bajaruvchi emas.

Ushbu ishchilar bajaruvchanlik bilan bir qatorda yangi texnologiyaning rivojlanishi va ishlab-chiqarishni boshqarishda muhim rol o'ynaydi.

Ularga qulay vaziyatlarni topish jarayonida quyidagi talablar qo'yiladi:

- pnevmatika, dinamika, elektrotexnikani, fizikani hech bo'lmaganda o'rta maktab ta'lim oluvchisi darajasida bilishlari kerak;

- yaxshi texnologik tayyorgarlikka ega bo'lishlari kerak;

- metall va nometall materiallarning nomlanishi va xususiyatlarini bilishlari kerak;

- kesuvchi asboblarning zo'riqishiga chidamliligini bilishlari kerak;

- avtomatik liniyada ishlovchi har xil tipdagi stanoklarda ishlagani uchun ularning ishga tayyorgarligi hamda ularning rejalashtirilganligini bilishlari kerak. Ular shunday holatlarga tushadilarki, oqibatda turli xil nosozliklarni echishga to'g'ri keladi. SHuning uchun ular yuqori malakali bo'lishlari kerak;

- jamoa uchun sharoit yaratib berish, ta'mirlash ishini qisqa vaqtda tugallashlari kerak;

- ular ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarga ega bo'lishlari kerak;

- brigadaning ish rejasini tuza olishlari kerak;

- ular jamoa bilan yaxshi muomalada bo'lishlari, ya'ni tillasha olishlari kerak;

- ular qanday o'zgarishlarga tayyor turishlari va boshqa brigadaga o'tib ishlash lozim bo'lganda ishlab keta olishlari shart;

- ishchilarning bajaruvchanlik funktsiyasi kamayib, aqliy mehnati ulushlari ortishi kerak;

- ishchilar mehnatida aqliy mehnat va fizik funktsiyaning organik birikmasi, ya'ni, hisoblash, to'g'rilash, analitik va nazorat funktsiyalarini bajaruvchi, texnik jarayonni o'lchovchi va tekshiruvchi, avtomatlashtiruvchi asboblardan yordamida boshqara olishlari lozim;

- yuqori malakali va keng tarmoqli ishchilar funktsiyalarining qo'llay olishlari kerak;

- madaniyat, texnika va fanning rivojlanishida mehnat umumdorligining oshishi;

- umumiy faoliyati va ishlab-chiqarish holatlariga moslashuvchanlik;

- o'rganish jarayonida tizimli ravishda malakasini oshirish evaziga keyingi ish faoliyati malakasining oshishini ta'minlab berish.

YUqori malakali ishchilar zamonaviy ishlab-chiqarishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa ularning ratsionalizatorlik va ijodkorlik xususiyatlari asqotadi. Bunday ishchilarning paydo bo'lishi shundan darak beradiki, insonning ishlab-chiqarish va texnik jarayondagi rivojlanishi, bilimlarining kengayishi, chuqurlashishi va malakasining oshib borishini taqozo etadi.

**17.5. Ishchilar oliy ta'limi.** Hozirda professional o'qishga nisbatan talab oshib bormoqda. Ushbu talablar doirasiga nafaqat o'z ishini bajarib qolmaslik, balki kamchiliklarni tuzatish va o'z professional faoliyatini boshqarish ham kiradi. Masalan, xorij tajribasiga e'tibor bersak, Ural Davlat professional pedagogika universiteti (UDPPU) ishchilar malakasini yanada oshirish uchun quyidagilarni taklif qildilar:

YUqori malakali ishchilar shunday tayyorgarlikka ega bo`lishlari lozimki, kasbiy tayyorgarlik yakunida ular professional ishchi hamda usta bo`la oladilar. Ular yana madaniyatli ham bo`lishlari kerak. Bunaqa bilimni beradigan o`quv yurti yangi tipdagi-Ishchilar ta`lim instituti (ITI) deb yuritiladi.

ITI o`zida quyidagilarni jamlagan: ko`p funktsiyali, tizimli, ko`p darajali ta`lim hamda maxsus professional faoliyat.

O`z sohasining etuk mutaxassisi bo`lgan ishchilar ish rejasini tuza olishlari kerak.

ITIda tor soha ishchisidan tortib ish ustasi darajasigacha bo`lgan ishchilar tayyorlanadi. Bular mahsulot tayyorlashdan iashqari ishlab-chiqarish faoliyatini ham tashkil etadi va bu mahsulotlarning bozorga olib chiqilishiga ko`maklashadi.

SHunday qilib, yuqori bilimli ishchining maqsadi quyidagilardan iborat:

- korxonalarda natijali mehnat faoliyatini tashkillashtirish;
- texnik, texnologik, ijtimoiy va iqtisodiy mahsulotlar haqida axborot olish;
- zarur bo`lganda mahsulotni sifatli ishlab chiqara olish.

UDPPU da yuqori bilimli ishchilar tayyorlash maqsadida maxsus reja ishlab chiqilgan. Ushbu rejada:

- bosqichli reyting tizimi asosida o`zlashtirishni tashkil qilish;
- umumiy faoliyatga professional darajada yo`llash;
- integrativ ta`lim;
- professional ta`limning ko`p qirraliligini tushuntirish;
- ta`limning individurlligi (reyting tizimidagi tartibning ixtiyoriy tanlanishi);
- ta`lim oluvchilarni professional ixtisoslikni tanlashga o`rgatish.

ITIda 2 ta daraja bor.

I - daraja: 3 yil muddat davom etadi.

daraja: 4 yil muddat davom etadi.

I - darajani tugatganlar III-IV razryadli slesar bo`lishadi. II - darajani tugatganlar esa yuqori darajali ishchilar bo`ladi.

ITIni tugatganlarga elektromexanika sohasi bakalavri va yuqori malakali ishchi ixtisosligi diplomi beriladi. Ular murakkab ishlarni qimmatbaho materiallar yordamida ham bajara olishadi. Ular xalq - xo`jaligining turli sohalari o`z mutaxassisligi bo`yicha ishlashadi. Ular amaliy ishlarni yuqori darajali ishchilardek ishonchli bajarishadi.

ITIda talaba keyingi faoliyat jarayonini to`liq o`rganib oladi. ITIni tamomlash o`rganish faoliyati tugadi degan emas. Bu erda faqat faoliyatning rivojlanishiga turiki beriladi. ITIning har bir kursi o`xiga xos bo`ladi. ITIda talablar reyting tizimida o`qitiladi. Bitiruvchining mehnat malakasi bilan shaxsiy xususiyatlari rivoji uyg`unlashib borishi kerak. O`qishni bitirish shaxsning rivojlanishiga bog`liq:

1-daraja - shaxsiy tayyorgarlik ijtimoiy professional faoliyatni tanlash.

2-daraja - ijtimoiy professional faoliyatda shaxsiy, bazaviy tayyorgarlikka ega bo`lish.

3-daraja - shaxsning professional tayyorgarlik darajasi.

Qar bir darajadagi ta`lim tizimli ravishda maxsus darajada tashkil etiladi.

1-daraja - dunyo haqidagi bilimlar, ularning rivojlanish qonuniyatlarini o`rganiladi.

2-daraja - talaba ish faoliyatining amaliy ko`nikmalari o`rganiladi. Bu to`liq malakaviy faoliyatni ta`minlaydi.

3-daraja - ish faoliyatida tajriba orttiriladi. Buning uchun maxsus o`ikllar kiritiladi. Malakaviy faoliyatda nazariy va amaliy ko`nikmalar shakllantiriladi.

## **18. MA`RUZA**

### **UNIVERSITET MA`LUMOTIGA eGA BO`LGAN MUTAXASSIS XODIMLARNI TAYERLASHNING PEDAGOGIK KONTSEPTSIYASI**

**Reja:**

#### **18.1. Pedagog faoliyat.**

## 18.2. Pedagogik ta'lim sistemasi

### 18.1. Pedagog faoliyat.

Pedagogik mahorat, pedagoglik kasbi bilim va ko'nikmalarini faqat shaxsiy xislatlarni shakllantirish orqaligina egallash mumkin. Pedagoglik kasbida professional bilimlar bilan shaxsiy xislatlar uy-g'ulashib bir butun birikmani tashkil etadi. Xozirgi universitet ta'limi xuddi ana shu o'ziga xoslikni inobatga oladi.

Universitet ma'lumotiga ega bo'lgan pedagoglar tayyorlash kontseptsiyasi quyidagi g'oyalarga asoslanadi:

- psixologo-pedagogik va xususiy metodik tayyorgarlikning asosiy omil kilib olinishi;
- bo'lg'usi pedagogning umuminsoiiy qadriyatlarga asoslangan shaxsiy xislatlarning shakllanganligi:

- gumanizatsiya va gumanitarizatsiyaga asoslangan pedagoglik kasbini egallash yangi mazmunini joriy qilish;

- talabalar ijodiy mehnat va o'quv faoliyatlarini tashkil qilishda turli o'quv metodlari, ta'limning turli tashkiliy shakllaridan foydalanish;

- pedagogika, psixologiya va xususiy metodikalar bo'yicha umumlashgan va poltexnik bilim, iktidor va ko'nikmalarining shakllangan bo'lishi.

Hozirgacha ishlab turgan universitet ta'limi mazmuni pedagogik faoliyatli butunicha, sistemali shakllantirish imkonini bermaydi. Bir qator bilimlar beriladi, ammo biriktiruvchi o'zak sistemali bilimlar berilmaydi, Bulday kamchilikni yo'qotish maksadida moddalashtirish metodiga murojaat qilish mumkin.

Pirovard maqsad universitet ma'lumotiga ega bo'lgan pedagog mutaxassislarini tayyorlash ekan ana shu mutaxassis shaxsning modelini tuzishdan boshlash kerak.

Modellashtirish pedagogning professional faoliyati, mavhumlashgan shaxs parametrlarini ochish bilan birga ana shu xislatlarni shakllantirishi jarayonini ham ochib beradi. Modellashtirish natijasida ideal sharoitda mutaxassisda shakllanish kerak bo'lgan bilim, iqtidor va ko'nikmalar, professional ustivor tayyorgarlik kabi parametrlarni o'z ichiga qamrab olgan davlat xujjati sifatida va kvalifikatsion xarakteristika yoki professiogramma ko'rinishida rasmiylashtiriladi. Hozirgacha tuzilgan kvalifikatsion xarakteristikalar universitet ma'lumotiga ega bo'lgan mutaxassislar professional faoliyatini to'liq aks etdirmaydi. SHu bois hozirgi talablarga javob bermay qoldi. SHuning uchun ham predmet pedagoglarini tayyorlashda o'quv dasturlari, o'quv rejalarini tuzishda professiogramma va psixogrammalardan bevosita foydalanish imkoniyati yo'qolib borayapti.

Pedagog faoliyatida, ayniksa talabalarni ham, jarayon ishtirokchisi, sub'ekti deb qaralayotgan hozirgi davrda nostandart sharoitlar ko'plab sodir bo'ladi. Nostandart muammolardan muvaffaqiyatli chikib ketishi uchun o'qituvchi shaxsida ijobiy xislatlar yuakllangan bo'lishi kerak. Faqat o'qituvchi o'zining o'qitish, tarbiyalash uslubini yaratgandagina xususiy hol-lardan kechib har qanday sharoitda xam muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladi.

Boshqacha qilib aytganda mutaxassis universitetda olgan bilimlarini bevosita qo'llashi uchun ta'lim-tarbiya jarayonini shaxsni shakllantirishga to'la yo'naltirmog'i lozim. O'quv jarayonida darsdan, maktabdan tashqari ish amaliyotida bunday jarayonlar bir necha o'nlab topiladi. Lekin bu jarayonlarni tashkil-qilish uchun darsliklarda keltirilgai yuzlab ko'nikmalar o'rniga bir necha umumlashgan ko'nikmalar shakllangan bo'lishi etarlidir. Bunday umumlashgan ko'nikmalar sirasiga shaxsning va jamoaning shakllanganlik darajasini aniqlash ko'nikmasi; o'quvchilar jamoasini jamoa oldida turgan vazifalarni echishga yo'llash, faoliyatga tayyor turish hissasini rivojlantirish; oldiga qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun kerakli vositalarni tanlash va qo'llay olshi ko'nikmasi; o'quv tarbiya jarayoni natijasini, xulosasini o'lchash, baholash ko'nikmasi, olingan natijalarni qo'yilgan maqsadlar bilan solishtirish va orada farq hosil bo'lgan bo'lsa, ya'ni qo'yilgan maqsadning hammasiga erishilgan bo'linsa bunday xolni tushuntira bilish ko'nikmalari kiradi. YUkorida keltirilgan umumlashgan ko'nikmalarining har biri ayrim olingan sharoitlarda uchraidigan o'nlab boshqa ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

Mana shunday umumiylikdan universitetda mutaxassis tayyorlashning amaliyotiga o'tishda bir muncha nomutanosibliklar yuzaga chikadi. Ko'pincha bo'lg'usi pedagoglarning professional

bilimlarini shakllantirish birinchi o`ringa ko`yilib shaxsini shakllantirish ikkinchi navbatga suriladi. Mutaxassis dunyoqarashini fakat ijtimoiy fanlar shakllantiradi, maxsus fanlar mutaxassisni bilim, iktidor va ko`nikmalar bilan kurollantiradi, psixologo-pedagogik turkum esa ularni o`quv yurtlarida tarbiyaviy ishlarga tayyorlaydi degan chegaralangan tushuncha xali ko`pchilikda mavjud.

Hozirda O`zbekiston respublikasida ko`p pog`onali mutaxassis tayyorlash spstsmasiga o`tish muhosabati bilan an`anaviy ta`lim mezoilari bilan birga mutaxassislarni umuminsoniy kadriyatlariga asoslangan shaxsiy xislatlarini rivojlantirish, pedagoglik kasbiga kizikish, tinmay izlanish, o`quvchilar psixik olamiga yanada chuqurroq kirib borishi hissini uyg`otish dolzarb masalalardan, echimini kutayotgan muammolardan hisoblanadi.

Pedagogik ta`limning hozirgi qonuniyati va talablari uzluksiz ta`lim tizimiga o`tish, pedagoglik mehnatinnng tobora murakkablashishi, maktab- internatlar, fanlar bo`yicha chuqurlashtirilgan sinflar, maktablar, gimnaziyalar, kollejlar, litseylarning ommaviy tus olishi, programmalashgan, komp`yuterlashgan ilg`or uslublarning keng qo`llanishi bilan bog`lik. Bu esa o`z navbatida pedagog kadrlarni yanada yukori standartlarga javob beradigan qilib tayyorlash vazifasini ilgari suradi.

### **18.2. Pedagogik ta`lim sistemasi**

Pedagogik ta`lim sistemasiniig kelajagi universitet ta`limi prognostik modelini tuzish bilan bog`lik. Prognostik model universitet ta`limni yanada fundamentalashtirish, gumanizatsiyalash va gumanitar-lashtirish bilan aloqadordir. Fuidamental bilimlar tez eskirmaydi, sekin o`zgaradi, yuqori ilmiy umumlashtirish bilan xarakterlanadi, keng sohalarga o`tish xususiyatiga ega, qayishqoqligi, safarbarlign, ilm va ma`rifat yuksalishiga tez moslashunchanligi bilan ajralib turadi.

Bosqichli oliy ta`lim tizimida pedagogik ta`lim sistemasining quyidagi strukturasi mo`ljallaishni maksadga muvofik:

I. boskich. Bakalavr (o`kitpsh muddati 4 yil).

1. Pedagogika kursi 40 soat lsktsiya, 20 soat praktik mashg`ulot.
2. Fanlar o`qitish metodikasi 90 soat lektsiya, 60 soat laboratoriya amaliyot darsi.
3. Maxsus kurs, maxsus seminarlar:
  - a) Nutq madaniyati va notiqlik san`atn
  - b) yoshlar fiziologiyasi va maktab gigisnasi
  - v) etnopedagogika
  - g) psixologo-pedagogik diagnozlash metodikasi
  - d) artistlik san`ati asoslari
  - e) muloqot pedagogikasi va texnikasi
  - j) maktabda kasb tanlashga yo`llash
  - z) o`quvchilarni iqtisodiy tarbiyalash metodikasi
  - i) ijtimoiy fikrlar sotsiologiyasi.

II bosqich. Magistr (o`qish muddati 2 yil)

1. Oliy ta`lim pedagogikasi 20 soat lektsiya, 20 soat laboratoriya amaliy mashg`uloti.
- 2- Pedagogik psixologiya 20 soat lektsiya, 10 soat laboratoriya amaliy mashg`uloti.
3. Pedagogika tarixi 20 soat lektsiya, 10 soat laboratoriya amaliy Mashg`uloti.
4. Maxsus kurs, maxsus seminarlar:
  - a) pedagogik texnologiya
  - b) madaniy hordiq chiqarish metodikasi va pedagogikasi
  - v) sotsial tarbiya metodikasi
  - g) patopsixologiya va defiktologlya asoslari.
5. Kurs ishi.
6. Oliy o`quv yurtlari, litsey, kolledjlarda pedagogik praktika.
7. Pedagogika, psixologiya, fanlar o`kitish metodikasidan sintetik diplom ishlashlari.

Xulosa qilib aytganda, tarbiya sohasp bo`yicha mutaxassis xodimlarni tayyorlashda ta`lim-tarbiyaning yukorida zikr qilnngan kontseptсион tamoyillari mutaxassis xodimlarni tayyorlashda nazariy hamda amaliy muhim ahamiyat kasb etadi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.:O`zbekiston. 1997. 20-29 b. 31-62 b.
2. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O`zbekiston. 1997. - 327 b.
3. Karimov I.A. O`zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: O`zbekiston. 1998. - 686 b.
4. Azizxodjaeva N.N. Osnovnie tendentsii razvitiya visshego pedagogicheskogo obrazovaniya v Uzbekistane /Pod red. V.A.Slastenina. - T.: Fan. 1990. -143 s.
5. Bepal'ko V.P. Pedagogika i progressivnie texnologii obucheniya. -M.: 1995.
6. Bepal'ko V.P. Slagaemie pedagogicheskoy texnologii. - M.: Pedagogika. 1989. - 190 s.
7. Vorob'ev A.I., Limanskiy S.A. Texnicheskoe konstruirovaniye i modelirovaniye. Uchebnoe posobie dlya studentov IPF pedinstitutov i uchashixsya peduchilish. -T.: Ukituvchi. 1990. -110 s.
8. Jo`raev R.H., Tolipov O`.Q. Pedagogik faoliyat, texnologiyalar va mahorat. // Uzluksiz ta`lim j. 2003. № 2. 3-10 b.
9. Kukushin V.S. Sovremennie pedagogicheskie texnologii: Nachal'naya shkola. Posobie dlya uchitelya. - Rostov na Donu: Reniks. 2003. - 448 s.
10. Mehnat ta`limi metodikasi / D.A.Txorjevskiy tahr. -T.: O`qituvchi. 1987. - 482 b.
11. Mehnat ta`limidan umumiy o`rta ta`lim maktablari uchun dastur. Dastur. // Ta`lim taraqqiyoti j. IV maxsus son. 1999. 306-382 b.
12. Pedagogika. /A.K.Munavvarovning umumiy tahriri ostida. -T.:O`qituvchi. 1996. -200 b.
13. Sayidahmedov N.S. Pedagogika amaliyotida yangi texnologiyalarni qo`llash namunalari. T.: YAngi asr avlodi. 2001. - 40 b.
14. Sayidaxmedov N.S., Ochilov A. YAngi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. - T.: XTV RTM. 1999.
15. Slastyonin V.A. i dr. Pedagogika: uchebnoe posobie dlya studentov pedagogicheskix uchebnix zavedeniy. -M.: SHkola-Press. 2000. -512.
16. Farberman B. Ilg`or pedagogik texnologiyalar. -T.: Fan. 2000. -125 b.